

N.XALLOVA, G.GALIMOVA, R.MIRSAMIKOVA, M.BAFAYEV

PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI

2-QISM



459.9.
X-88

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

N.Xalilova, G.Alimova, R.Mirsamikova, M.Bafayev

PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI

5110900 – Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi uchun

DARSLIK

2-qism

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
2-FILIALI

Toshkent

“Innovatsiya-Ziyo”
2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

- 13265/49 -

UDK: 89.4.375
BBK: 83.3(Stz)
X 16

N.Xalilova, G.Alimova, R.Mirsamkova, M.Bafayev
Psixologiya nazariyasi va tarixi /darslik/. – Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020, 216 b.

Ushbu darslikda inson shaxsida psixologik holatlar, xususiyatlar, jarayonlar haqidagi dastlabki bilimlar majmua bayon etilgan. Darslik psixologiyaga kirish, muloqot, faoliyat, shaxs, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy motivatsion sohasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlari nomli bo'limlardan iborat. Darslikda bo'limlar bo'yicha nazariy bilimlar, test topshiriqlari, mustaqil ishlash uchun mavzular hamda nazorat savollari keltirilgan.

Darslikdan oliy o'quv yurtlarining pedagogika va psixologiya, psixologiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari, magistrantlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi foydalanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:

Safayev N.S. - psixologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Muhamedova D.G. - psixologiya fanlari doktori, professor
Jalilova S.X. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.**

ISBN 978-9943-5866-4-2

© N.Xalilova va boshq. 2021.
© "Innovatsiya-Ziyo", 2021.

XOTIRA

Xotira haqida tushuncha

Bizning ruhiy olanimiz rang-barang va ko'pgirralidir. Psixikanimizni yuksak darajada rivojlanishi ko'proq nazariy bilimlarga ega bo'lishimiz talabidir. O'z navbatida, egallagan bilim va tajribani esda saqlab qolishimiz orqali ruhiy kamolotga erishishimiz mumkin. Bilimizki har qanday qayg'u-tashvish, taassurot yoki xatti-harakat xotiramizda o'z izini qoldiradi, qachonki bizga mos keladigan holat, sharoitlarda va obyektlarda ular xotiramizda qayta tiklanadi va namoyon bo'ladi. Shuning uchun xotiramizda ma'lumotlarni eslab qolamiz, yodda saqlaymiz, navbatdagilarini tushunamiz va avvalgilarni qayta tiklaymiz. Chunki inson xotirasi oldingi bilim va ko'nikmalarini yo'qotmasdan, ma'lumotlarni saqlash xususiyatiga ega.

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Kishi o'zining shu faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea, hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutilib yuboriladi. Shu o'rinda xotira borasidagi ta'riflarga qaytsak, ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi. «Individing o'z tujribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi». Lekin mazkur ta'riflarni tahlil qilgan professor E.G'oziev tomonidan xotira tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. «Xotira atrof-muhitdagi voqealik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va nonverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutilish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha maqsudlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik faoliyattir».

Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan mazkur ta'rif xotiraning murakkab, keng qamrovi jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega.

Xotira bu o'zida mavjud tajribalarni ko'paytirish qobiliyatidir, u asab tizimining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u turli holatlar va voqea hodisalarni o'zida saqlaydi va uzoq vaqt davomida ongda va xulq-atvorida bu ma'lumotlarni takrorlash jarayonidir².

Xotira jarayoni psixik bilish jarayonlari tizimida alohida o'rin tutadi deb ta'kidlash joiz. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra xotira psixik jarayonlarning uzluksizligini ta'minlaydi va barcha bilish jarayonlari integratsiyasida "tranzit" jarayon sifatida xarakterlanadi.

¹ Маринков А. П. Общая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 248 Стр. (umumiydan foydalanildi)
² David G. Myers psychology, 2008 327

bo'ladi. Bundan tashqari, siz uchun ahamiyatli va jozibali ma'lumotlar oqimida eslatayotgan material ham yaxshi esga tushiriladi.

Tormozlanish qonuni. Har qanday muayyan ma'lumot o'zidan oldingi ma'lumotni tormozlaydi. Shuning uchun uning o'chib ketmasligi uchun yangini esda saqlashdan avval mustahkamlash choralarini ko'rishingiz kerak.

Xozirgi kunda xotiraning mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganish buyicha uchta nazariya mavjuddir. Bular psixologik, neyrofiziologik xanda bioximik nazariyalardir.

Psixologik nazariya. Bu nazariya tarixiy jixatdan eng eski nazariya bo'lib, u fanda kop va turli – tuman nazariyalarning o'iga surilganligi bilan mashxurdir. Bu nazariyalarni xotira jarayonlarining shakllanganida insonning faolligi qanday rol o'ynashligi va bunda faollikning moxiyatiga kandy yondoshuv zarurligi bilan baxolash mumkin.

Nazariyaning binnchi guruxi assosiativ nazariya deb yuritiladi. Bu nazariyaga kora, muayyan psixik xosilalar ongda bir vaqtning ozida yoki bevosita binn-ketin paydo bolisa, u xolda xosilalar ortasida assosiativ boglanishlar tarkib topadi va bu boglanishlarni biron bir kismi takroran paydo bolishi ongda uning barcha elementlari muqarrar ravishda gavdalanishiga olib keladi. Assosiativiyalar uch turli boladi: oxshashlik, yondoshlik vaqarama – qarshilik assosiativiyalari.

Neyrofiziologik nazariyalr. Bu nazariyalr xotiraning mexanizmlari xaribidagi fiziologik nazariyalr bilan bogliqdir. Bu nazariyaning asosini I.P.Pavlovning «Oliy nerv faolliyati qonuniyatlan xaqida» gi ta'limotining eng muxim qoidalar tashkil etadi. Bu ta'limotga kora xotiraning nerv – fiziologik mexanizmini bosh miyada xosil boladigan muvaqqat boglanishlar tashkil etadi. Ana shu boglanishlar qanchalik mustahkam bolisa, esda olib qolish xam shunchalik yaxshi boladi. Ana shu muvaqqat boglanishlarning qaytadan jonlanishi esga tushirishga, sonib, yoq bolib ketishi esa unutishga sabab boladi.

Bioximik nazariya. Xozirgi kunda xotiraning mexanizmlarini urganishning neyrofiziologik usuli bioximik tadjikotlar darajasiga tobora yakinishib va kushilib kemoqda. Bu usul ushu fanlarning uzaro tutashtigan joyida olib borilayotgan kuplab tadjikotlarda uz tasdiqini topdi.

Bioximik nazariyaning moxiyati quyidagidan iborat. Binnchi boskichda (kuzgovchining bevosita ta'siridan sung) miya xujayralarida asl xoliga kaytuvchi fiziologik uzgarishlarni keltirib chikaradigan kiska muddatli elektroximik reaksiya yuz beradi. Ikkinchi boskich binnchi boskich negizida yuzaga kelib, aslida u yangi oksil moddalarning xosil bulishi bilan boglik bulgan bioximik reaksiyadan iboratdir. Binnchi boskich sekundlar yo'ki minutlar maboynida davom etadi va uni kiska muddati esda olib kolishning fiziologik mexanizmini deb xisoblaydilar. Xujayralarda kaytarilmaydigan uzgarishlarga olib keladigan ikkinchi boskich uzok muddatli xotiraning mexanizmini xosoblanadi. Bu nazariya tarafdorlari tashki kuzgovchilar ta'siri ostida nerv xujayralarida ruy beradigan uziga xos ximiyaviy uzgarishlarning izlarini mustahkamlash, esda

saqlash va yana kayta esga tushurish jarayonlari mexanizmlarining asosini tashkil etadi.

Xotira –kerakli ma'lumotlarni jamlashda, saqlashda va keyinchalik hayotda shaxsiy tajriba sifatida qo'llashda, bilim va ko'nikmalarni egallashda inson uchun zarur bulish jarayonidir. Psixologiya fani oldida xotira jarayonlarini o'rganishga doir bir qator muammolar mavjud.

Esda saqlash jarayoniga qanday sharoitlar ko'mak beradi, uning qabul qilish doirasi qancha, qanday ko'lamdagi ma'lumotlarni qabul qilib uni esda saqlash mumkin, bu jarayonda qanday fiziologik mexanizmlar ishtirok etishini, tashvirotlar miyada qay darajada izlar qoldirganini o'rganish. Bundan tashqari mavjud bo'lgan va boshqa savollarga ham javob berish zarur. Misol uchun, bu ma'lumotlarni qanday qilib uzok vaqt saqlash mumkin, qisqa vaqt va uzok vaqt saqlash jarayonlari qaysi mexanizmlar orqali anlagga oshiriladi va qanday qilib yadkorin bo'lgan xotiradagi izlar, turli o'zgarishlar inson aqliy jarayonlariga ta'sir qiladi.

Psixologiya tarixida uzok vaqtlardan beri ma'lumotlarni yodlash va qayta tiklash jarayonlarini o'zaro aloqasini tushuntirishga urinish mavjud.

Xotiraning nerv-fiziologik asoslari

Esda olib qolish nerv tizimining egiluvchan, ya'ni o'zgaruvchanlik, qo'zg'atuvchilar ta'sirida o'zida go'yo bir iz qoldirish, saqlash imkoniyati tubayti yuzaga keladi. Har qanday insonning miyasi egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, uning darajasi har xil bo'ladi. Shaxs xotirasining sifati miyaning faolligi va turli faoliyatga to'g'riidan-to'g'ri bog'liq ravishda rivojlanadi. Arofni o'rab olgan borliqni faol biluvchi kishi o'z miyasi faoliyatini to'xovsiz kuchaytiradi. Shu bilan birga uning egiluvchanlik darajasini oshiradi. Miya egiluvchanligi vaqtincha pasayishi, xotira samarasining susayishi, ba'zi paytda odamlarning toliqishiga sabab bo'ladi. Dam olgandan keyin yana tiklanadi. Odarda miya egiluvchanligi yosh o'tishi bilan susayadi. Masalan, keksa kishilar gaplardan adashib ketadi, ilgari gapirganlari esdan chiqib, o'sha gapni takrorlayveradilar. Miya egiluvchanligining ko'rsatkichi bosh miya po'stlog'ida muvaqqat nerv aloqalarini tezlikda vujudga kelishi, davomli saqlanishi va ularning tez, oson jonlantirishi hisoblanadi. Muvaqqat nerv aloqalari assosiativiyalarni hosil qiluvchi fiziologik mexanizmdir. Assosiativiyalar bizning xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqea hodisalarning o'zaro bog'lanishidir. Biror buyumni esda olib qolish, boshqa buyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi. Bu o'rinda akademik I.P.Pavlovning quyidagi so'zlari juda xarakterlidir. «Muvaqqat nerv bog'lanishlari – deb yozadi I.P. Pavlov hayvonot olamida va bizning o'zimizda ham bo'ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir, turli-tuman harakat, taassurot bo'lmasa harflar, so'zlar va fikrlar o'rinsida paydo bo'ladigan bog'lanishlar-ki, bu bog'lanishlarni psixologlar assosiativiyalar deb ataydilar».

Xotira, ya'ni esda olib qolish, idrok qilinayotgan narsalardan hosil bo'lgan obrazlar o'rtasida assotsiatsiyalarning yuzaga kelishidan iboratdir. Shu bois inson xotirasidagi assotsiatsiyalar 3 turga ajraladi. Bular yondoshlik assotsiatsiyasi, o'xshashlik assotsiatsiyasi va qarama-qarshilik assotsiatsiyalardan iboratdir. Yondoshlik assotsiatsiyasining asosida vaqt va fazoviy munosabatlar yotadi. Boshqacha qilib aytganda, yondoshlik assotsiatsiyasi bir necha narsa yoki hodisalarni ayni bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilishdan hosil bo'ladi.

Masalan, bog'chada bolasi har kuni o'zining tarbiyachi opasi va tarbiyalanayotgan guruhini idrok qiladi. Keyinchalik, ya'ni katta bo'lgandan so'ng bog'chasini eslasa tarbiyachi opasi va aksincha, tarbiyachi opasini eslasa, bog'cha guruhini ko'z o'ngida gavdalanadi.

Hozirgi paytda idrok qilinayotgan narsa bilan ilgari idrok qilingan narsa o'rtasida ma'lum o'xshashlik bo'lsa, bu narsalar o'rtasida o'xshashlik assotsiatsiyasi hosil bo'ladi. *Masalan*, bola dastavval bog'chaga kelgan paytda bog'cha mudirining tashqi ko'rinishi, ovozi va munosabatlarini o'z onasiga o'xshatishi mumkin. Keyinchalik bola onasini ko'rganda, mudira opasini va aksincha mudira opasini ko'rganda onasini eslaydigan bo'lib qoladi. Bu ikkala odamning bola tasavvuridagi obrazlari o'rtasida assotsiatsiya hosil bo'ladi.

Hozirgi idrok qilinayotgan narsalar bilan ilgari idrok qilinayotgan narsalar o'rtasida qarama-qarshi belgilar va xususiyatlar bo'lsa, bunday narsalar o'rtasida qarama-qarshilik assotsiatsiyasi yuz beradi. *Masalan* yoz-qish, issiq-sovuv kabi narsalar o'rtasida qarama-qarshilik assotsiatsiyalari hosil bo'ladi.

Shunday qilib, xotiraning nerv-fiziologik asosida bosh miya po'stida hosil bo'ladigan shartli reflekslar, turli assosiativ bog'lanishlar yotadi. Lekin, odam esda olib qolish paytida assotsiatsiyalar hosil bo'lganligini mutlaqo sezmaydi. Har xil assotsiatsiyalarning hosil bo'lganini odam keyinchalik biror narsani esga tushirish paytida bo'ladi.

Xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlari xususida to'xtalar ekamiz, so'nggi yillarda texnikaning e'oyat tez rivojlanishi natijasida turli esda olib qoluvchi apparatlarga bo'lgan ehtiyoj bemihoya ko'payib ketganligini ta'kidlash joiz. Bu o'z navbatida xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlarini psixolog va fiziologlardan tashqari injeenerlar, bioximiklar, genetiklar hamda kibernetiklar tomonidan o'rganilishiga olib keldi. Natijada xotiraning nerv fiziologik mexanizmlarini tushuntiruvchi bir qancha yangi nazariyalar maydonga keldi. Ana shunday nazariyalardan eng muhim molekularning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan bioximik nazariyadir. Bu nazariyaga ko'ra biror narsani esda olib qolish va esda saqlab turish maxsus tuzilishni o'zgarishi bilan bog'liqdir. O'tkazilgan tekshirishlarga ko'ra, biror narsa esda olib qolinganda, asosan nerv hujayralarining (neyronlarning) dendrit shoxlari tarkibida o'zgarish yuzaga keladi. Ular qandaydir boshqacharoq tuzilishga kirib oladilar. Dendritlar tuzilishidagi hosil bo'lgan o'zgarish darrov o'tib ketadigan bo'lmay, ancha

muhtalamlar bo'ladi. Shu sababli esda olib qolgan narsa uzoq vaqt xotirada saqlanib turadi.

Rus jurnalisti Shereshevskii (1968) 10 ga yaqin sonlarni esda olib aytib berib oldi. Unga tinch xonada har biri 3 sekund oralab aytib berildi. Bizga o'xshagan odamlar 1 yoki 9 tagacha aytib berishi mumkin. Shuningdek, u son yoki harflarni bema'lol ketma ketlikda yoki orqaga qarab aytib bera oldi. 15 yildan so'ng so'ralganda ham u xatosiz aytib bergan. Hartoki o'sha payt qayerda e'lon qilgan, qayerda o'tirgan va anima kiygani ham esda ekan.

Yangi konnektionizm yo'nalishi tarafdorlari Richard Atkinson va Richard Shiffrin 3 etapda shakllanadi degan fikrni bildirgan:

1. Biz birinchi axborotlarni sensor xotirada eslab qolamiz
2. O'sha yerdan biz qisqa muddatli xotiraga o'tamiz, qaytarish organi xotiraga saqlaymiz
3. Nihoyat axborot keyinchalik qayta esga tushishi uchun uzoq muddatli xotiraga o'tadi.

Xotira turlari

Xotira insonning holati va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo'lish shakllari, holatlari, shart-sharoitlari, omillari ham shima-xil ko'rinishga egadirlar. Odatda xotirani muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib uning tavsifnomasi sifatida esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, unuvish singari jarayonlarni amalga oshiruvchi faoliyatining xususiyatlariga bog'liqligi olinadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim doimliklarda xotira turlari turlicha klassifikatsiya qilinadi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida quyidagi klassifikatsiya uchraydi:

Faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab: hissiyat, emosional, obrazli va so'z-mantiq xotira.

Faoliyatning maqsadlariga ko'ra: ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira.

Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra: qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira.

M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» o'quv qo'llanmasida quyidagi xotira klassifikatsiyasi qayd qilinadi:

Psixik faolligiga ko'ra: ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira.

Faoliyat maqsadiga ko'ra: harakat, emosional, obraz va so'z-mantiq xotirasi.

Muddatiga ko'ra: uzoq muddatli, qisqa muddatli va operativ xotira.

E.G'oziev tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» o'quv qo'llanmasida xotira turlari quyidagicha klassifikatsiya qilingan.

1. Rutivi faoliyatning faolligiga ko'ra:
 - a) harakat yoki motor harakat xotirasi;
 - b) obrazli xotira;
 - v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;
 - 2) so'z-mantiq xotira.

2. Ruhiv faoliyatning maqsadiga binoran:

- a) ixtiyorsiz;
- b) ixtiyoriy;
- v) mexanik.

3. Ruhiv faoliyatning davomiyligiga ko'ra:

- a) qisqa muddatli xotira;
- b) uzoq muddatli xotira;
- v) operativ (tezkor) xotira.


4. Ruhiv faoliyat qo'zg'atuvchisining sifatiga ko'ra:

- a) musiqiy;
- b) eshitish xotirasi;

5. Ruhiv faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:

- a) fenomenal;
- b) kasbiy.

Keltirilgan xotira turlarini umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.



Harakat xotirasi – inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko'rinishlarini ustunlik qilishda kuzatiladi. Masalan, harakat, hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko'rinishlari mavjud. Ana shu ruhiy faollik turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida

o'z ifodasini topib harakatlarda, hissiy kechinmalarda, tuyg'ularda, obrazlarda, imajlarda, fikr va mulohazalarda aks etadi.

Turl harakatlar va ularning bajarilishi tartibi, tezligi, sur'ati, izchilligi va kuchlarni esda qoldirish, mustahkamlash, esga tushirishdan iborat xotira turi harakat xotirasi deb ataladi.

Xotiraning boshqa turlariga qaraganda, harakat xotirasi ba'zi odamlarda o'z ravshan ustunlik qilishi uchab turadi. Psixologiya fanida klassik misolga aylandi qolgan ushbu holatni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir: bir musiqqa ishlovchi musiqchilarni xotirasida mulajo qayta tiklay olmas ekan, lekin u yozuvchilarga eshitgan operani faqat pantomimka tarzidagina qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan. Turmushda shunday odamlar uchraydiki, ular o'zlarida harakat xotirasining borligini umuman payqanmaydilar. Mazkur xotira turining g'oyat ahamiyati shundan iboratki, u yurish, yozish, ifodalari harakat mahsulotlari bilan bir qatorda har xil amaliy mehnat malakalarini tarkib topirishning asosini tashkil qiladi. Agar insonda harakat xotirasi bo'lmaganda edi, o'zini har gal «boshdan boshlab» o'rganar edi. Figurali uchish, langar bilan sakrash, gimnastika, chopish, xatti-harakatlar, badiiy gimnastika bilan shug'ullanish harakat xotirasini taqozo etadi. Jismoniy chaqqonlik, mehnat mahorat, «oltin qo'llar», ziyrak ko'zlar, egiluvchanlik va kuzatuvchanlikka ega bo'lish yuksak, barqaror harakat xotirasi mavjudligining alomati bo'lib hisoblanadi.

His-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi. Bu xotira his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qanday o'zgarib yotganligidan, atrofmizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega. Shuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy xotira tuni juda katta ahamiyat kasb etadi.

Vogelkdagi narsa va hodisalardan, o'z-o'zimizga bo'lgan munosabatlarimizdan kelib chiqadigan yodimiz hamda yodimiz kechinmalarni esda qoldirish, esda saqlash, esga tushirishdan iborat xotira tuni hissiy xotira turi deb ataladi. Boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlanib qolgan hissiyotlar harakatga undovchi va o'lmishda salbiy kechinmalarga ega bo'lgan harakatlardan saqlanib qoluvchi signal tarzida namoyon bo'ladi.

Hissiy xotira o'zining vujudga kelish xususiyati, tezligi, dinamikasi, davomiyligi bilan xotiraning boshqa turlaridan ma'lum ma'noda ajralib turadi. Har bir odamga o'z turmush tajribasidan ma'lumki, ko'pincha, qachonlardir o'qigan kitoblar, tomosha qilgan kinofilmlar faqat «taassurotlar», bog'lanishlar xotirani yechishning dastlabki tuguni sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun hissiy xotira ijtimoiy ahamiyat kasb etib, umumiylik alohida olingan odamlar hayiyatlarini bir-birlariga o'xshashligi, liq ruhiy muhitni vujudga keltirish yoki o'zlar kechinmalar to'lgini barpo etish ehtimoli to'g'risida mulohaza yuritilayotgan alomat o'stira ijtimoiy guruh, jamoaviy, barqaror va beqaror hayiyatni vujudga keltiradi.

Obrazi xotira – tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, ta'mlar, ranglar shakllari, bilan bog'liq bo'lgan xotira turidir. Obraz xotirasi deb yaqqol mazmuni, binobarin, narsa, hodisa-larning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlarini va bog'lanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tug'ilganida esga tushirishdan iborat xotira turga aytiladi.³

Psixologiya fanida obrazi xotiraning bir necha turlari ajratib ko'rsatiladi va ular quyidagilardan iborat.

Izchil obrazlar sensor xotiraning eng soddako'inishi yoki shakli izchil obrazlardan iboratdir. Izchil obrazlarning namoyon bo'lish hodisasi quyidagilardan tuziladi: agar sub'ektga bir necha daqiqada oddiy qo'zg'atuvchi yuborilsa, jumladan 10-15 sekund yorqin qizil kvadratga qarab turish taklifi etilsa, so'ng tekshiruvchi oldidan kvadrat olib quyilsa, u qizil kvadrat o'rnida xuddi shunday geometrik shakl izini ko'rishda davom etadi. Asosan bu shakl ko'pligi rangda tovlanadi. Mazkur iz o'sha zahoti, ba'zan bir necha sekunddan keyin paydo bo'lib, 15 sekundan to 45-60 sekungacha o'sha ob'ektda saqlanib turadi, shundan so'ng asta-sekin oqara boshlaydi. Natijada o'zining aniq qon turini yo'qotadi, keyinchalik mutlaqo yo'qolib ketadi. Goho butunlay yo'qolishi uchun qaytadan paydo bo'lishi mumkin. Odamlarning individual psixologik xususiyatlariga qarab, izchil obrazlarning aniqligi va davomiyligi turlicha bo'lishi ko'zga tashlanadi.

O'zining kelib chiqishi, kuchligi jihatidan izchil obrazlar salbiy va ijobiy turlarga bo'linadi. Agar kuchi ravishda odam qizil rangga qarab turib, so'ngra nigohini oq qog'o'zga ko'chirsa, u holda ob'ektda ko'k-yashil rang paydo bo'lganday ko'rinadi. Izchil obrazlarning ushbu turi salbiy, izchil obrazlar deb ataladi. Bu holatni yana bir misol orqali tushuntirilsa, quyidagi ketma-ketlik hodisasi namoyon bo'ladi. Qorong'u xonada ko'z oldida bir narsaga, masalan, qo'l yaqinlashtirilsa so'ngra qisqa muddatli (0,5 sek) elektr chirog'i yoqilsa, bu holda chiroq o'chgandan keyin odam bir necha daqiqada davomida narsalarning holda obrazini ko'rishda davom etadi. Mazkur obraz o'z rangida bir qancha aniq obrazini ko'rishda davom etadi. Mazkur obraz o'z rangida bir qancha muddat saqlanib, so'ng ko'zdan yo'qoladi.

Izchil obrazlar xotira jarayonining soddazillariga misol bo'la oladi. Chunonchi, hodisalarga qarab uzaytirish ixtiyoriy ravishda qayta tiklash mumkin emas. Binobarin, izchil obrazlar ushbu xotiraning murakkabroq turlardan ana shu jihatlari bilan farqlanadi.

Izchil obrazlarning eshitish turi orqali sezishda kuzatish mumkin, lekin bu vaziyatda izchil obrazlar kuchliroq namoyon bo'lishini va qisqa muddat davom etishi kuzatiladi.

Eydetik obrazlar psixologiyada izchil obrazlardan eydetik obrazlarni farqlash an'ana tusiga kirgan bo'lib, "eydos" yunoncha "obraz" degan ma'noni anglatadi. Xotiraning bu turi, ya'ni eydetik obrazlar o'z vaqtida nemis

psixologiya maktabining namoyondalari aka-uka Yenishlar nomidan ta'riflab berildi. Bu ta'rif odamlar shu davrlarda kuzatilgan narsa yoki suratlar ko'z o'ngidan olib qo'yilgan ham surat siymosi uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ega.

Mazkur narsa va jismlarning aniq obrazlari, tasvirlarni kuzatish mumkin. Bu hodisa jahon psixologiya fanida tajribada tekshirib ko'rilgan. Tajribada tekshiruvchiga 3-4 minut davomida rasm ko'rsatilgan va tasvir olib qo'yilgandan so'ng uning tarkibiy qismlari, tuzilishi haqida qamashchilarga savollar berilgan. Bu jarayonlarda tekshiruvchilar birotta savolga javob bera olingan bo'lsa, aniq texnik obrazga ega bo'lgan ishtirokchilar esa rasmini davom ettirgandek har bir savolga aniq javob berishga erishganlar.

Tajribalarning ko'rsatishicha, eydetik obrazlar uzoq vaqt inson ongida saqlanishi mumkin. Mabodo ularning yo'llari yopilib qolgan bo'lsa ham, lekin hech qanday qiyinchiliklarsiz ularning siymosi qayta tiklanishi mumkin.

Bu psixologiyasida eydetik obrazlarning namoyon bo'lish hodisasi A.R. Lur'ya tomonidan ko'p yillar davomida o'rganilgan va shunga ko'ra eydetik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta'riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlantirish xususiyatiga ega bo'lib, sub'ektlarning oldiga qo'yilgan savol va uning tasavvurlari ta'siri ostida o'zgartirishi mumkin.

Ala-uka Yenishlar tomonidan o'tkazilgan oddiy tajribada eydetik xotiraga ega bo'lgan tekshiruvchiga olma va undan sal uzoqroqda joylashgan ilmoq tasvirlangan rasm ko'rsatilgan. Rasm o'trasidan bo'lib, qo'yilgandan keyin tekshiruvchida olmani olib qo'yish istagi kuchayib boreyotgani so'ralgan. Ma'naviy yo'l-yo'riq berilgandan keyin tekshiruvchi mana bunday holatni tasvirlab beradi: ilmoq olmaga yaqinlashib, uni iladi va ixtiyorsiz ravishda o'tiribchil tomon tortadi. Xullas, eydetik obrazlar harakatchan bo'lib, sub'ektlarning ruhiy ko'rsatmasi ostida sifat va miqdor o'zgarishiga yuz tutadi. Ilmiy tekshirishlarning ko'rsatishicha, eydetik obrazlar bolalik va o'spirinlik davrlarida muayyan muddat xukm suradi va vaqtning o'tishi bilan asta-sekin so'na boradi.

Psixofarmakologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eydetik obrazlarni kuchaytiruvchi kaliy ionlari va shuningdek uning kuchsizlantiruvchi kalsiy ionlari moddalarini mavjud. Ilmiy izlanishlardan olingan miqdoriy materiallar eydetik obraz paydo bo'lishining psixologik ilidizlarini chuqurroq ochishga imkon qiliadi.

Tasavvur obrazlari xotiraning yanada murakkabroq turi bo'lib hisoblanadi va ularning xususiyatlari haqida tasavvurga egamiz. Inson daraxt, meva, gul ko'z oldida tasavvurga ega ekanligi shuni ko'rsatadiki, uning ilgari tajribalari sub'ektlarning ongida shu obrazlarning izlarini qoldirgan. Ilmiy tushunchalar talqin qilishda tasavvur obrazlari eydetik obrazlarga juda yaqinday tuyuladi. Lekin eydetik obrazlar haqidagi psixologik tahlil shuni ko'rsatadiki, tasavvur obrazlari unga qaraganda ancha boy bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tasavvur obrazlarning eydetik obrazlardan ajratuvchi farq tasavvur obrazlarning polimodallik xususiyatidir. Buning asosiy mohiyati tasavvur

³ Мелекун А. Е. Основы психологии. — СПб.: Изд-во, 2001. — 258-259-стр.

obrazlari ko'rish, eshitish, teri orqali sezish izlarining tarkibiy qismlarini birlashtiradi. Masalan, meva to'g'risidagi tasavvur obrazi uning tashqi ko'rinishi, mazasi, og'irligi, vaznini o'zaro birlashtirib aks etadi.

Tasavvur obrazlarining eydetik obrazlaridan asosiy farqi shundan iboratki, u narsa va hodisa haqidagi tasavvurlarni aqliy jihatdan qayta ishlashni o'z tarkibiga kiritadi va jismlarning asosiy xususiyatlari ajratilib, ma'lum kategoriyaga birlashtiriladi. Inson gul obrazini faqatgina esga tushimaydi, balki uni muayyan bir so'z yoki tushuncha bilan aytadi, nomlaydi, xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi, aniq bir kategoriya mohiyatiga kiritadi.

Demak, tasavvur obrazlari odamning xotirasi idrok qilingan narsalarning izini sust ravishda saqlab baki, bir qator tasavvur bilan boyitadi, narsa mazmuni va mohiyatini tahlil qilib, u haqida o'z bilimlari, tushunchalari kabilarini tajriba bilan bog'lovchi ijodiy sermahsul faoliyatni amalga oshiradi. Bularning barchasi irodaviy sifatlardir, aqliy zo'r qish, asabiy taranglashuv natijasida ruyobga chiqishidan dalolat beradi.

Tasavvur obrazlari xotiraning murakkab faoliyati mahsuli bo'lib, ular izchil yoki eydetik obrazlarga nisbatan murakkab psixologik hodisadir. Tasavvur obrazlari xotira izlarining murakkab turi bo'lib uning aqliy jarayon bilan yaqinligi inson bilish faoliyatini muhim tarkibiy qismidan iborat ekanligidan dalolat beradi.

So'z-mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi. Insonda fikr va mulohaza turli xil shakllar yordamida ifodalanganligi tufayli ularni ifodalash faqat o'zlashtirilayotgan materiallarning asosiy ma'nosini izohlash, talqin qilib berish yoki ularni so'zma-so'z ifodalashni aynan ayrib berishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Agar ma'lumot, axborot, xabar, material ma'no jihatidan qayta ishlansa, u holda materialni so'zma-so'z o'zlashtirish, mantiqiy o'rganish bo'lmagan, balki aksincha mexanik esda olib qolishga aylanib qoladi.⁴

So'z-mantiq xotirasining vujudga kelishida birinchi signal bilan bir qatorda ikkinchi signallar tizimi asosiy hisoblanadi. Chunki so'z-mantiq xotirasi faqat insonning xos bo'lgan xotiraning maxsus turi hisoblanib, bu xotira turi o'zining soddashakllari bilan hayvonlarga ham taalluqli bo'lgan harakat, his-tuyg'u va obrazli xotiralardan sifat, ham miqdor jihatdan keskin farq qiladi. Ana shu boisdan so'z-mantiq xotirasi bir tomondan xotiraning boshqa turlari taraqqiyotiga asoslanadi, ikkinchidan ularga nisbatan yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, boshqa turlarning rivojlanishi so'z-mantiq xotirasining takomillashuviga uzviy bog'liqdir. So'z-mantiq xotirasining o'sishi qolgan xotira turlarining barqarorlashuvini belgilaydi.

Xotira turlariga nisbatan boshqacha tarzda yondashish hollari ham uchraydi. Shu bois xotira faoliyatini amalga oshirayotgan faollik xususiyatlari

bilan uzviy bog'liq ravishda turlarga ajratiladi. Masalan, faoliyat maqsadiga ko'ra xotira ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarga bo'linadi.

Ixtiyoriy xotira deganda ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun muayyan davrlarda aqliy harakatlarga suyanagan holda amalga oshirilishidan kelib chiqqan jarayoni tushuntiradi. Bu faoliyatni odam ongi bevosita boshqaradi. Ko'pchilik psixologiya fanida ixtiyoriy xotiraga ixtiyorsiz esda olib qolish qarshi qo'yiladi. Bu jarayon ma'lum kerakli topshiriq yoki vazifa qo'yilsa, esda olib qolishga yetaklovchi faoliyat biron-bir maqsadni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan taqdirda yuzaga keladi. Biz matematik topshiriqlarni yechayotganimizda masaladagi sonlarni esda olib qolishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymaymiz. Mazkur so'z-mantiq xotirada asosiy maqsad faqat masala yechishga qaratiladi. Buning natijasida sonlarni esda saqlashga, hech qanday o'rin ham qolmaydi. Shunga qaramay, biz ularni qisqa muddat bo'lsa-da, esda saqlashga intilamiz. Bu holat faoliyat yakunlangunga qadar davom etadi.

Faola olib qolishni maqsad qilib qo'yish esda olib qolishning asosiy sharti hisoblanadi. Serb psixologi Radoslavovich o'z tadqiqotida quyidagi hodisani kash etadi. Tajribada tekshiriluvchidan biri sinovda qo'llanilayotgan tilni tushunmagandligi tufayli uning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarmagan. Buning natijasida uncha katta bo'lmagan tadqiqot materiali 46 marta o'qib berilganiga qaramay, esda olib qolilmagan. Tajribaning keyingi bosqichida vazifa talqinlovchiga tushuntirib berilgandan so'ng u material bilan olti marta o'qib, tashqib, uni takrorlab, qisimga ajratib esga qayta tushirishga ershgan.

Xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari xotira taraqqiyotining ikkita katta bosqichlarini tashkil etadi. **Ixtiyorsiz xotiraning** turmushda va faoliyatda katta o'rin egallashini har kim o'z shaxsiy tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotiraning muhim xususiyatlaridan biri ma'lum maqsadsiz aqliy, asabiy, irodaviy zo'r berishsiz hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan keng ko'lamdagi ma'lumot, xabar, axborot, ta'suroatlarning ko'pchilik qismini aks ettirishdir. Shunga qaramasdan inson faoliyatining turli jabhalarida o'z xotirasini faol qilib zarurati tug'ilib qolishi mumkin. Xuddi mana shunday sharoitlar, holatlar, vaziyatlarda esda saqlash, esga tushirish yoki eslash imkoniyatini yordamchi xotiraning mazkur turi katta ahamiyatga egaligi shubhasiz.

So'nggi paytlarda rus va xorij psixologiyasida xotira borasidagi tadqiqotlarning e'tiborini esda olib qolishning dastlabki, boshlang'ich bosqichlarida vujudga keladigan holatlar, jumladan tashqi taassurot izlarining muvohiqamliashigacha bo'lgan jarayonlar, holatlar, mexanizmlar, shuningdek, ularning muvohiqamliash muddatlarini ham o'ziga jalb qilib kelmogda.

Masalan, biror material xotirada mustahkam joy olish uchun uni sub'ekt tomonidan tegishli ravishda qayta ishlab chiqish zarur va materialni bunday ishlab chiqish uchun ma'lum darajada muddat talab etish tabiiydir. Ana shu muvohiqamliash xotirada qayta tiklanilayotgan izlarni mustahkamlash deb qabul qilingan. Mazkur jarayon inson tomonidan yaqindagiga bo'lib o'lgan hodisalarning aks sadosi sifatida kechiriladi va takomillashadi. Inson muayyan

⁴ Makrinov A. I. Oshira uchun xotira. — CIT6: Lit'ep, 2001. — 259-260-ctp

daqiqlarda, lahzalarda, ayri paytda bevosita idrok qilinayotgan narsalarni go'yo ko'rishda, eshitishda davom etayotgandek tuyuladi. Ushbu jarayon kelib chiqishi jihatidan beqaror, hatto o'zgaruvchan, lekin ular shu qadar maxsus tajriba orttirish mexanizmlarining faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ularning roli shu qadar ahamiyatli-ki, bu jarayonlarda esda olib qolish, esda saqlash, axborotlar, malumotlar, xabarlar qayta esga tushirishning alohida turi sifatida qaraladi. Ushbu jarayon odatda psixologiya fanida **qisqa muddatli xotira** deb ataladi.

Juda ko'p qaytarishlar va qayta tiklashlar natijasida materialni uzoq muddat davomida esda saqlanib qolishi xarakteri bo'lgan uzoq muddatli xotiradan farq qilgan holda, qisqa muddatli xotira bir marta hamda juda qisqa vaqt oralig'ida idrok qilish va shu ondayoq qayta tiklashdan so'ng qisqa muddatli esda olib qolish bilan xarakterlanadi.

Hozir ilmiy adabiyotlarda qisqa muddatli xotirani quyidagi atamalar bilan nomlash uchraydi: «bir lahzalik», «dastlabki», «qisqa muddatli» va boshqalar.

Operativ xotira inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi imenik holat **operativ xotira** deb ataladi.⁵ Hozirgi zamon psixologiyasida ushbu holatni namoyon qilish uchun quyidagi misol keltiriladi. Matematik analni bagarishga kirishar ekanniz, biz uni muayyan bo'laklarga ajratib hal qilishni maqsad qilib qo'yamiz. Shu boisdan oraliq natijalarni yodda saqlashga intilamiz, nihoyasiga yaqinlashgan san ayrim materiallar esdan chiqqa boshlaydi.

Mazkur holat matni talaba yoki o'quvchi tomonidan o'qishda, uni ko'chirib yozishda, ijodiy fikr yuritishda, aqliy faoliyatni amalga oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli xotiradagi farq va afzalliklar nimada ko'rinadi?

Bizning xotira sistemamiz eslab qolayotgan narsalarning katta qisminidan ba'zilarining yashsh yodga oladi. Biz bunda uzoq muddatli xotiramizga murojaat qilamiz va ma'lumotlar xotira displeyimizda paydo bo'ladi. Lekin bizning amaldagi xotiramiz ana o'sha ma'lumotni qaytadan eslab qolayotganida ma'lumot qisqa muddatli xotiramizdan o'chib ketadi.

Qisqa muddatli xotiradagi ma'lumotlar qay darajada tez o'chishini aniqlash maqsadida Lyod Peterson va Margaret Petersonlar (1959- yilda) odamlardan uchta o'zgarimas guruhlarni eslab qolishlarini so'raganlar. Odamlar yuzgacha sanab guruhlardan iborat harflarni takrorlashlari lozim bo'lgan. Uch sekundan keyin harflarni yamigina, o'n ikki sekundan keyin esa harflarni hech biri esda qolmagan. Agar qisqa muddatli xotiradagi ma'lumotlardan darhol foydalanilmasa ma'lumot tezda o'chib ketadi.

Qisqa muddatli xotirada yeti bit ma'lumot saqlanishi mumkin. Uzoq muddatli xotira Artur Konan Doyling asarida qahromon xotira hususiyatining muhim nazariyani aytib o'tadi.

«Insonning miyasi kuchkina bo'sh mo'nga o'xshaydi va siz uni istagan shaklga bilan to'ldirib tashlashingiz mumkin. Xonada qattiq devorlar bo'lib dar kech qanday narsani o'lkazmaydi», deb o'ylash noto'g'ri. Bu fikrlarga to'g'ri kelgan bo'lsak, siz avval bilgan narsalaringizni qachondir yodingizdan chiqarishingiz mumkin.

Bizning uzoq muddatli xotiramiz ilmiy cheklangandir. Bizning miyamiz ushbu muddatli xotiramiz mo'ri emas, biz hohlagan narsamizni o'chirib yoki olib chiqarishimizni qo'yadigan.

Xotira qilib ayiganda, uzoq muddatli xotira ham inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi va uzoq muddatli xotirada ma'lumotlar saqlanib qolishi inson inson ma'lumotlarni takrorlab turishi lozim.

Xotira jarayonlari

Xotira faoliyati esda qoldirishdan boshlanadi. Esda qoldirish idrok qilingan narsa va hodisalarni miya po'stida iz hosil qilishdir. Uning fiziologik asosi miya po'stida mavnaqqat nerv bog'lanishining vujudga kelishidir. Esda qoldirish o'zining faoliyati jihatidan ikkiga bo'linadi:

- a) faoliyori esda qoldirish;
- b) faoliyori esda qoldirish.

Faoliyori esda qoldirishda oldindan maqsad quyilmaydi, mavzu belgilanmaydi va iroda kuchi sarflanmaydi. O'zining go'zalligi, hissiy to'lanishligi, hajmi, harakatchanligi, tezligi, shakli va boshqa xossalari bilan bog' qilingan narsa va hodisalar faoliyori esda qoladi. *Masalan*, tasodifiy hodisalar, kamay-samay ovozi faoliyori esda qoladi.

Faoliyori esda qoldirishda esa oldindan maqsad qo'yib mavzu belgilanadi. *Masalan*, dam materiallarini esda olib qolish, imtihonga tayyorlanish va boshqalar faoliyori esda qoldirishda quyidagi turli usullardan foydalaniladi:

- a) maqsad qo'yish, masalan, institutga kirish oldidagi maqsad;
- b) qov materiallarini tushunib esda qoldirish;
- c) esda qoldirishning ratsional usullaridan foydalanish, masalan, esga qoldirish yo'li bilan esda qoldirish.

Beixiyor esda qoldirishda qiziqish katta rol o'ynaydi. Bizning oldingi tushunish bilan bog'liq narsa va hodisalar beixiyor oson esda qoladi. Biz ba'zi bir faktlarni bilsak, ular haqida tushunchaga ega bo'lsa, shu faktlarga tegishli bo'lgan hamma narsalar oson esda qoladi.

Beixiyor esda qoldirish inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, undan olingan harakat talab qilmagan holda hayotiy tajribalarni kengaytiradi va hayotni biron ixtiyoris esda qoldirish tez-bo'lsa ham ko'pincha noamq

bo'lad, bunday esda olib qolinggan narsa va hodisalar keyinchalik yangilish esga tushiriladi.

Ixtiyoriy esda qoldirish ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq tanlangan materialni esda qoldirishdir. Kishi ixtiyoriy esda qoldirish uchun esda saqlashning maxsus usullarini saqlagan holda materialni puxta esda qoldirish uchun o'zining kerakli kuchini sarf qiladi. Ammo mexanik esda saqlashni ma'noli esda saqlash bilan qo'llanish foydalidir.

Nemis psixologi German Ebbinghaus xotira jarayonlarini tadqiq qiladi. U ma'nosiz 3 harflardan iborat o'rda unli ikki chekkada undosh bo'lgan harflarni yozadi. U har yerdan tanlab, takrorlaydi. Va o'zini test qiladi. Ushbu ro'yhatni bir kun o'rganib o'zidan so'ng ebbinghaus bir nechta so'zlarni ayt deydi lekin ular butunlay esidan chiqib ketadimi?

Ebbinghaus shuni topdiki u qanchalik so'zlarni bir kundan ko'p qaytarsa ikkinchi kunda bu so'zlarni qaytarishi kamroq vaqt ketgagan ekan. Biz qanchalik yangi a'xborotlarni o'rganiganimizda ko'p vaqt sarflar ekanimiz shunchalik ko'p eslab qolaniz.

Psixologiya fanida esda olib qolishning quyidagi turlari mavjud:

Ma'lumot, xabar, taassurot, axborot va materiallarni eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish.

Egallash yoki o'zlashtirish zarur bo'lgan materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish.

Materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish.

Aralash holarda esda olib qolish, eshitish, ko'rish, harakat kabilar orqali idrok qilish va esda olib qolish yoki bir nechta ta'sir etuvchilar yordamida aks ettirish.

Mana shu yo'llar orqali eshitish, ko'rish, eshitish harakat, kombinotirlashtirilgan (aralash) turlari yordamida xotiraning qaysi turi ustunroq yoki qaysi biri bo'sh ekanligini aniqlash mumkin.

Esda olib qolishda assotsiatsiyalarning ahamiyati muhimdir. Buning uchun esda olib qolish jarayonining bog'lanishlari paydo bo'lish sur'atini aniqlash maqsadida ular xususiyatlariga binoan quyidagi:

Sabab oqibat bog'lanishi.

Bo'lak va yaxlit munosabati.

Qarama-qarshilik munosabati.

Inkor etish holati.

Adekvat yoki aniqlik turlarga ajratiladi.

Esda olib qolish inson faoliyatining xususiyatiga bevosita bog'liqdir. A.A. Smirnov, P.I. Zinchenko tajribalari shuni ko'rsatadiki, esda olib qolish u yoki bu faoliyatdagina samarali bo'lishi mumkin. A.A. Smirnovning tajribalarida tekshirishlarga qaraganda ikki xil faoliyat taklif qilinsa, birinchi holda ular ma'noli matn esda olib qolish nazarda tutiladi. Sinavuvchilar matn yodlar ekanlar, materiallar ustida hech qanday faol ish olib bormaganlar. Ikkinchi holda

ma'noli olib qolish vazifasi qo'yilmaydi-yu, lekin main ustida muayyan ish olib qolish uchun uchraydigan ma'noviy xarolarni aniqlash taklif etiladi. Ikkinchi holda esda olib qolish ancha samarali bo'lganligi aniqlangan.

Maxsus vositalar va oqilona usullarni qo'llash orqali esda olib qolish oshirishga yondashishdan iborat tashkiliy faoliyat alohida ahamiyatga ega.

A.A. Smirnov o'lasagan tajribasida shuni ko'rsatadiki, matnni maxsus tuzib berilgan rejaga asoslangan holda yodlash rejas, pala-partish esda olib qolishda ikki barobar samaraliroq ekan, psixolog olimlarning tavsiyasiga binoan yodlash jarayonida materialni takrorlash bilan un faol esga tushirishni o'zaro almashtirib turish yuqori natijalar beradi. Kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar va talabalar bu usullarni mustaqil ravishda egallay olmaydilar, odatda ularni muallimning rahbarligida egallashadi. Aks holda o'quv faoliyati lahtirokchilari materialni bevosita ixtiyorsiz esda olib qolish kuzatishlarida qolish mumkin, bu hol aqiliy o'sishga qarama-qarshidir.

Bu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'quv materiallarining ma'nosiga tushunib esda olib qolish yo'li oqilona yo'l bo'lib qolmasdan, balki u ma'noli esda olib qolish jarayonidan o'zining samardorligi bilan keskin farqlanib qaytib turadi.

Esda olib qolish jarayoni deganda sezgi, idrok, tafakkur, ichki harakatlarni notirada saqlash xususiyati tushuniladi. Kundalik hayotimizda kitob, jurnal, gazeta o'qiyotganimizda materialni esda olib qolish uchun shu materialning ma'nosiga tushunib olishga harakat qilamiz. Jamki narsa insonga yetarli darajada tushunarli bo'lmasa, u taqdirida ularni esda olib qolish jarayoni juda og'ir kechadi. O'rganilayotgan materialning mazmunini va ma'nosiga tushunib olish uchun odam uni tahlil qilishga, umumlashtirishga harakat qiladi. A.A. Smirnov ta'kidlaganidek, materialni o'zlashtirib olish xuddi shu jarayonga tengdir. Muallimlarning shaxsiy fikriga ko'ra o'zlashtirayotgan materiallarni esda olib qolish qiyinligi sababli ularni tushuna olmaslikdir. Tushunib olishning esda olib qolishdagi ahamiyati xuddi shu bilan tavsiflanadi.

Jahon psixologiya fani to'plagan ma'lumotlarga qaraganda o'zlashtirayotgan materialni mexanik tarzda egallashga nisbatan uning ma'nosini tushunib o'zlashtirish bir nechta marta mahsuldoridir.

Esda olib qolish jarayonida o'zlashtirayotgan materialning ma'noga ega bo'lish yoki bo'lmastligi muhimdir. Assotsiativ psixologiya maktabining yekili, tanqil psixolog G. Ebbinghaus jahon psixologiyasida birinchi bo'lib 1885 yilda o'zining jarayon bo'lgan xotirani, 1888 yilda intellektual ilmiy tajriba metodi ma'nosida tekshirib va keng ko'lamda turmushga tatbiq etdi. U xotira jarayonini o'ziga o'ziga tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. Xotirani «sof» ko'rinishda o'rganishga harakat qilib ma'no kasb etmaydigan bo'g'inlardan iborat ekanligini, ularning bu tadqiqot kishining mantiqiy xotirasi emas, balki mexanik xotirasi ekanligini qo'llanishiga xos to'g'ri yo'nalishdir.

G. Ebbinghausning bu tadqiqoti psixologiyada introspektiv (o'z-o'zini kuzatish yoki ichki kuzatish) metodiga qarama-qarshi qo'yilgan ilmiy tajribaviy

metod yutuq'i sifatida ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. U xotira jarayonini tekshirishda o'z oldiga 38 ta ma'no anglatmaydigan bo'g'inlardan tuzilgan materialni esda olib qolishni maqsad qilib qo'ygan. Bu materialni o'zlashtirish o'rta 55 marta takrorlashni talab qiladi. Esda olib qolish uchun 38-40 so'zdan, 11 ta so'z o'zaro bog'liq bo'lmagan so'zlardan foydalanagan. Bu materialni o'zlashtirish 6-7 marotaba takrorlashni talab etgan, umumiy hisob esa 9-1 nisbatga to'g'ri keladi.

Rus psixologlari tadqiqotlarining natijalari ma'noga ega bo'lgan materialni o'zlashtirishda esda olib qolish uchun turli xil yo'nalish, ko'rsatma berish muhim ahamiyat kasb etadi, degan fikrni tasdiqlaydi. A.N.Leontev, S.I.Rubinshteyn, P.A.Ribnikov va boshqalar bolalarning xotira faoliyatini o'rganish uchun. Shuningdek, ular o'qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o'quvchilarida tekshirish ishlari olib borish uchun.

I.P.Zinchenko, M.N.Shardakov, A.I.Lipkinlar tadqiqot ishlari aksariyat shunga bag'irlangan bo'lib, turli materialni esda olib qolishda tushinishning ahamiyati muhimligini tasdiqlashga intilgan. Bu materialni esda olib qolishga to'g'ri yo'nalish berilishining natijasida material mazmunini tushunib olgan holda esda olib qolish tezligi, aniqdigi, mustahkamligi va to'liqligi ta'minlanadi.

A.A.Smirnovning ta'kidlashicha, shu davrgacha hech kim hech bir ilmiy adabiyotlarda bolalarga va quyi sinf o'quvchilariga ahamiyatli bo'lgan materialni mexanik tarzda esda olib qolishlari ko'rsatilmagan.

Nemis psixologi Vilyam Shtern (1871-1938) fikricha, bolalarda ham katta yoshdagi odamlarda ham ma'nosiga tushunib o'zlashtirishga nisbatan mexanik egallash kam miqdordir. Bu mulohaza haqiqatdan ham to'g'ri, Meymon fikriga ko'ra, inson ulg'ayishi bilan ma'nosiz materialni esda olib qolish kamayib boradi va kam samara beradi, lekin ma'noga ega bo'lgan bilimlarni esda olib qolishi esa sezilarli darajada rivojlanib boradi. Shunga o'xshash omillar boshqa psixologlar tomonidan ham to'plangan bo'lib, bu haqda boy materiallar umumiy psixologiya xrestomatiyalarda o'z aksini topgan.

A.A.Smirnov ma'no anglatmaydigan bo'g'inlarda va ma'no kasb etuvchi so'zlardan tuzilgan material asosida tekshirish o'tkazgan. Katta va kichik yoshdagi ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolishni alohida tekshirish har ikkala yosh davrida mazmuni va mazmunsiz materiallarni esda olib qolishning munosabatini tekshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Ma'no kasb etgan materialni esda olib qolish yosh bolalarga nisbatan kattalarda ustunligi lekin, ma'nosiz materialni esda olib qolish kichik yoshdagi bolalarga qaraganda kam samara bermasligi aniqlangan. Ma'nosiz bo'g'inlar nafqat kichik yoshdagi bolalarda, balki katta yoshdagilarda ham yaxshi o'zlashtiriladi.

A.N.Leontev tadqiqot ishlari katta yoshdagilarning ma'nosiz bo'g'inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esda saqlab qolishi ta'kidlangan. Katta yoshdagilar ma'nosiz bo'g'inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson

yoqib o'tadilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma'no kasb etish, shuningdek, ma'no anglatmaydigan materialni o'zlashtirish jarayoni tez bo'lish, mahsuldorroq bo'ladi. Ma'nosiz materiallarni egallash uchun iroda kasbiy faoliyatlar muhim ahamiyatga egadir.

Katta olib qolishga hech qanday yo'nalish berilmay, materialni yaxshi olib qolishni ta'minlash jadal faoliyat bilan bog'liq. Ixtiyorsiz esda olib qolish faol ishtirok kuch harflash hisobiga amalga oshadi. A.A.Smirnov ma'no materialni esda olib qolishning bolalar uchun yengil ko'chishi ularning yosh munosabatlarga bog'liq narsa emasligini ta'kidlab o'tadi. Chunki bolalar hal holatda olinmagan materialni go'yo ma'nosiz yashirib yotgandek qabul qiladilar. Ma'no ma'nosining noma'lumligi unga nisbatan qiziqish, bilishga intilish mazmunini izlashga talabchanlikni uyg'otadi. Odatda ma'nosiz so'zlarni talabchanlik bilan qaraganda kundalik turmushda puxtarok eslab qolinadi.

Qator psixolog olimlarning mulohazalariga binoan: 1) materialni esda olib qolish davriy yosh davrlari xususiyatiga ega emas, balki uning yakkaol shaxsiy munosabatlarga bog'liqdir; 2) mexanik esda olib qolishning odat tusiga katta qat'iyat ham yosh davrlarining xususiyati emasdir; 3) so'zlarni esda olib qolish, mexanik esda olib qolishning biron-bir xususiyatidir.

Esga tushirish va uning turlari.

O'qishda idrok qilingan narsalar: his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning natijasida qaytadan tiklanishi esga tushirish deyiladi. Esga tushirishning nerv-tashviq asoslarini bosh miya po'stida ilgari hosil bo'lgan nerv bog'lanishlarning to'liqligi ta'minlaydi. Esga tushirishning tanish, eslash, bevosita eslash, oradan ma'no yoki o'qib o'tash, ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlari mavjud.

Tanish ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni takror idrok qilish natijasida u yoki bu hodisani esga tushirishdir. Tanish aniq va noaniq bo'lishi ma'no to'liqligi ta'minlashda biz bu narsani notanish emasligini his qilamiz, xolos. Masalan, bir odam ko'zimizga issiq ko'rinadi, lekin uni qayerda ko'rganimizni eslay olmaymiz. To'liq, aniq tanishda esa idrok qilinayotgan narsaning nomi katta rol o'ynaydi. Masalan, biz bir kishini ko'rib, uni tanib olmasak, uning tanishilishini yoki ismini eslaysak, darrov kim ekanligini bilamiz.

Tanish narsa va hodisalarni, uni ayni paytda idrok qilmay esga tushirishdir. Masalan, bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni, bilib olgan ishlarimizni bemalol esga tushirishimiz mumkin. Eslash ham aniq va noaniq bo'ladi. Masalan, biz shu paytdan aytib bersak ham uni qayerda va qachon o'qiganimizni eslay olmaymiz. Esga tushirish avval tanishdan boshlanadi. Masalan, imtihonga kirishda bilib ko'rib, uning savolini o'qib tanimiz. Demak, bunda tanishning nomi muhim rol o'ynay ekan. Bevosita esga tushirish materialni idrok qilish kechikmas esga tushirishdan iborat. Masalan, she'rni yod olinganida bir nechta satrni o'qigan kitobga qaramasdan takrorlaymiz, ya'ni bevosita esga tushiramiz. Bir karra ko'zdan kechirilgan materialni bevosita esga tushirilgan miqdorga qarab, xotiraning ko'lamini aniqlaymiz.

Materialning ko'p qismini bevosita esga tushira oladigan kishining xotira ko'lami keng hisoblanadi. Masalan, artistlarda so'z va iboralarni esda tutib qolish xotirasining ko'lami keng bo'ladi. Hisob-kitob ishlarini yuritadigan xodimlarda sonlarni esda tushirish xotirasining ko'lami keng bo'ladi.

Vaqt o'tkazib esga tushirish esda olib qolingani narsani oradan bir qancha vaqt o'tkazib esga tushirishdiki, bunda shu orada ongimizda boshqa jarayonlar o'tgandek bo'ladi. *Masalan*, yoshligimizdagi voqea va hodisalarni shu tariqa eslaymiz.

Idrok qilingan narsalar miyamizda o'rmashib qolishi, esimizda turishi tufayli turli usulda esimizga tushishi mumkin.

Esa saqlash deganda ilgari tug'ilgan taassurot, fikr, his-tuyg'u va ish-harakatlarning takrorlanishiga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishi tushuniladi. Bunga sabab asab tizimining egiluvchanligidir. Shuning uchun asab tizimi ilgari bo'lib o'tgan taassurotlarni takrorlashga tayyor turadi. Faqat esga tushirish uchun qulay sharoit bo'lsagina esga tushadi. Bunday sharoit bo'lmaganda zarur materialni ixtiyoriy eslash jarayoni qiyinlashadi.

Shunday qilib, esga tushirishda ana shu tarqqa qiyinlab qolib, zarur bo'lgan narsani shu onda esga tushira olmaymiz.

Unutilgan narsalarni yana xotirada qaytadan tiklanishi **reminisensiya** hodisasi (xira esga keltirish) deyiladi. Bu hodisaning sababi shuki, uzoq vaqt bir ish bilan mashg'ul bo'lganda miya charchashi yuz beradi. Charchash hadidan tashqari oshishi natijasida nerv xujayralarida tormozlanish yuz beradi. Materialni esda qoldirilgandan keyin 12 soat ichida esga tushirilsa, materialning ko'p qismi unutiladi. Materialni o'qib o'tgani olingandan keyin uzoq vaqt xotiray olmay, ammo oradan bir necha vaqt o'tgandan keyin uni to'la xotiray olishning sababi materialni o'qib, o'tgani olishda ro'y beradigan charchashdir.

Materialni eslash uchun bo'lgan kuchli xohish natijasida tormozlanish yuzaga keladi, bu esa materialni qayta esga tushirishdagi qiyinchilikni kuchaytirib yuborishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan ishga chalqib ketgan insonlarda tormozlanish tarqab ketadi. Shunda esga tushirish lozim bo'lgan narsa xotiraga kiradi. Materialni mustahkamlashga bo'lgan qiziqishning bo'lishi materialni uzoqroq esda saqlashga olib keladi. Unutish vaqtiga bog'liq bo'ladi. Bu G.Ebbinghaus tomonidan aniqlangan bo'lib, unutish materialni yod olingandan keyin darhol ayniqsa tez ro'y beradi, undan keyin esa unutish ancha sekinlashadi.

G.Ebbinghaus unutishning vaqtga bog'liqligini tajriba orqali aniqlagan. To'plangan natijalarning ko'rsatishicha, materialni yod olingandan so'ng unutish sur'ati tez keyinchalik esa u birmuncha sekinlashadi. Bu qonuniyat ma'nosiiz ayrim bo'g'inlarni unutish ushida olib borilgan ishlarida tasdiqlangan. Tajribalarning ko'rsatishiga qaraganda, o'rganilgan narsalar bir soatdan keyin unutiladi. Materialni o'zlashtirish jarayoni maboyinda xotirash natijasida unutish sekinlashib boradi. Muvagqat asab bog'lanishlari susayishi natijasida

materiallar esda bo'lgan narsa va hodisalarning o'zaro aloqalari xotirada asta-asta yo'qolib boradi. Vaqtning o'tishi bilan birmuncha unutilib ketilayotgan esda bog'lanishlarni, ya'ni assotsiatsiyalarni qaytadan tiklash jarayoni kuch-qa o'tib, esda hamaklarni talab qiladi.

G.Ebbinghausning izdoshlari va shogirdlari tomonidan o'tkazilgan juda ko'p tajribalarning ko'rsatishicha, unutish sur'ati materialning ma'noli yoki ma'nosizligiga, uning qanchalik anglatilganligiga bog'liqdir. Material qanchalik ma'noli bo'lsa, uning unutish sur'ati shuncha sekin bo'ladi. Lekin ma'noli materialga nisbatan ham unutish avval ma'nosizga nisbatan tez bo'ladi, keyinchalik esa u sekinlashadi. Biron-bir materialni o'tlashtirish yoki esda olib qolish insonning ehtiyojlari, qiziqishi, faoliyatining maqsadi bilan bog'liq bo'lsa, bu material sekin unutiladi.

Materialning tezligi esda olib qolingani materialning mustahkamligiga asoslanib, proporsional xususiyat kasb etadi. Demak, esda olib qolishning tezligi materialning o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega yoki ega bo'lmaganligiga bog'liqdir. Materialning ma'noli bo'lganligi uning faoliyat mazmuniga aylanishiga ham bog'liq. Shuningdek, ular ma'noli bo'lganligi, individual xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir.

Xotiradagi individual farqlar

Xotira jarayonlaridagi individual farqlar esda qoldirishning tezligida, ma'noli, mustahkamligida va qayta esga tushirishga tayyorligida ifodalana- di. Bu farqlar ma'lum darajada nerv faoliyati tiplarining xususiyatlari bilan, ya'ni qiziqish va tormozlanish jarayonlarining kuchi va harakatchanligi bilan bog'liqdir. Individual farqlar yana shunday hollarda namoyon bo'ladi, ba'zi insonlar odatda materiallarni, rang, tasvir, narsa, tovushlarni samarali va tezlik bilan esda olib qoladilar.

Materialga bir odamlar so'zlarni yaxshi eslab qoladilar. Uchinchi bir toifa odamlarda esa ma'lum bir materialni esda olib qolishda yaqqol ushullik seziladi. Shunga muvofiq psixologiyada xotiraning quyidagi tiplari farqlanadi: ko'rgazmali obrazli xotira, so'z mantiqiy xotira va oraliq tipdagi xotira. Masalan, ko'rgazmali obrazli xotira tipi ko'proq rassomlarda, so'z mantiqiy tipi nazariyotchi olimlarda uchraydi. Bundan tashqari xotirash va esda qoldirish jarayonlarida analizatorlarning qamashishiga qarab, xotira quyidagi tiplarga qaratiladi:

a) ko'rsatib, b) eshitish, v) harakat, g) aralash xotira.

Bu s'at kichiklar ko'rish orqali, ikkinchi xillari eshitish orqali, uchinchi xillari harakat yordamida, to'rtinchi xillari esda qoldirishning birga qo'shilgan ushida yaxshi esda qoldiradilar. Xotiraning aralash tiplari eng ko'p tarqalgan.

Xotiraning individual farqlari kishi faoliyatining xususiyatiga bog'liqdir. Xotira olib qolish va unutish tezligiga ko'ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:

- 1) tez esda qoldirib, sekin unutish;
- 2) tez esda qoldirib, tez unutish;
- 3) sekin esda qoldirib, sekin unutish;

4) sekin esda qoldirib, tez unutish.⁷

Xotira tasavvurlari

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimizda qaytadan gavdalanişiga xotira tasavvurlari deyiladi.

Esda olib qolish va qayta esga tushirish tasavvur obrazlari orqali amaliy oshiniladi. Xotira va xayol tasavvurlari bir-biridan farq qiladi. Xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko'z o'ngimizda bo'lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalanişidan iborat. Masalan, yoshlik vaqtimizdagi hodisalarni eslashimiz, ongimizda qayta tiklashimiz xotira tasavvurlari bo'ladi. Xayoliy tasavvur xotira tasavvuriga qaraganda murakkab bo'lib, ongimizdagi bilimlar tajribalarimiz asosida ilgari idrok qilmagan, shu paytgacha uchramagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iboratdir. Xayoliy tasavvur ijod qilish bilan bog'liq.

Masalan: ertaklar, romanlar umuman biror asarni o'qiyotganimizda undagi gahramonlarning ko'z o'ngimizda gavdalanişini xayoliy tasavvurdir.

Tasavvurlar paydo qilishda so'zning ahamiyati katta. So'z bilan nomlash tegishli obrazning yaratilishiga yordam beradi. Masalan, «ildiz», «o't» so'zlarini to'rt kishiga berib, qanday tasavvur qilishlarini so'rasak, ularning tasavvurlari bir-biridan farq qilishini ko'ramiz, chunki, har bir kishi tajribasiga ko'ra, kasbga ko'ra tushunadi. Masalan, matematik ildizni sonning ildizi deb, botanik o'simlik qismini, uning ildizini, tish doktori esa tish ildizini tushunadi. Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarning hosil bo'lishi, bosh miya po'stida paydo bo'lgan izlarning jonlanishidir.

Tasavvur birorta turki tasirida jonlanadi, masalan, biror odam haqida tasavvurlarning tug'ilişu uchun birorta so'z yoki hodisa turki bo'ladi. Asosan, maxsus qo'zg'ovchi so'zdir, shuning uchun so'z bilan tasvirlash orqali tasavvurlar tug'iliadi.

Xotira borasidagi nazariyalar

Inson xotirasining qonuniyatlarini o'rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, insonning har qanday kechinma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma'lum bir sharoitda qayta namoyon bo'luvchi izlar qoldiradi. Shuning uchun, xotira deganda, inson tabiat, jamiyat, koinot to'g'risida ma'lumot, xabar va taassurot to'plash imkoniyatini beradigan hamda ilgari tajriba izlarini esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutishni tushuntiradi.

Ba'zi odamlarning xotirasiga xos jihatlarni tug'ma deb atashadi. To'g'ri, oliy nerv tizimi, uning o'ziga xos ishlash xususiyatlari xotiraning o'ziga xos individual uslubini belgilashi mumkin. Lekin hayotda ko'pincha shaxsning bilish jarayonlari va sezgi organlarining ishlash qobiliyatlariga bog'liq tarzda ajralib turadigan tiplari haqida gapirishadi. Masalan, ayrim odamlar ko'rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladi, demak, ularning xotirasi *ko'rgazimli*-

tasavvur bo'lib, ko'z bilan ko'rmaguncha, narsaning mohiyatini tushunmaydi. Bunday odamlar esa o'zicha fikrlab, nomini aytib, mavhum tarzda tasavvur qilganuncha, eslab qolishi qiyin bo'ladi. Bundaylar *so'z-muntiqiy* xotira tipi ekanligi haqida.

Yana bir tipli odamlar bevosita his qilgan, "yuragidan" o'tkazgan, unda katta farq emotional obraz qoldirilgan narsalarni yaxshi eslab qoladilar, bu — *emotional* xotiradir. Lekin yana bir xotira egalari bo'lib, ularni *fenomenal* xotira ekanligi deb atashadi. Psixologiyaga oid kitoblarda ana shunday xotiraga ega bo'lgan kishilar to'g'risida ko'p yozilgan. Bu shunday kishilarki, ular bir vaqtning o'zida mezburiy juda katta hajmdagi ma'lumotlarni esda saqlay oladi va ularni eslaydi. Masalan, tarixiy shaxslar orasida *Yuliy Sezar, Napoleon, Mosart, Tsvetayev*, shonliq ustasi *Alexin* kabi insonlar xotirasi ana shunday noyob bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Taniqli, rus psixologi va neyropsixologi *A. N. Leontiev* ham ana shunday xotira sohiblaridan biri — asli kasbi jumalist bo'lgan *Shereshevskiy* degan shaxs xotirasini ataylab uzoq vaqt mobaynida o'rganagan. Uning xotirasi shunday ediki, *Damienning* "Ilohiylik komediyasi" dan olingan ushundan-uzoq parchani bir marta qaray olgandan so'ng, 15 daqiqadan so'ra so'zima to'z aytib berolgan. Shuni xarakterli ediki, komediya unga o'zaro ko'rgan italyan tilida yozilgan edi. Ko'pchilikni qanday qilib yaxshi, muvaffaqiyatli esda saqlab qolish muammosi qiziqorsa, *Shereshevskiy* uchun qanday qilib unutilib masalasi murakkab edi. Uni xotira obrazlari doimo qiyinar, ko'rgan narsalarni ko'z oldida gavdalana-verar edi. qanday qilib eslab qolasiz? Keng savolga u shunday javob bergan: men "materialni" o'zinga tanish va eslab ko'rgan Moskva ko'chalariga joylashtiraman. Bir marta bir materialning ko'z ko'rgan o'sha "ko'chani" saqlab tushgan yeriga tushib qolib, esga tushirishi ancha qiyin bo'lgan ekan. Shunga o'xshash har bir fenomenal xotira egalarning o'ziga xos eslab qolish uslublari bo'lar ekan.

Hozir bog'liq ravishda psixologiya fani oldida xotira jarayonlarini o'rganish bilan aloqador bo'lgan qator murakkab muammolar masalalarini hal qilish masalasi turibdi. Bular quyidagilardan iborat: izlarni esda olib qolishning fiziologik mexanizmlari qanday, esda olib qolishga qanday ob'ektiv ta'sirlar (sub'ektiv (ichki), tabiiy, biologik va ijtimoiy, psixologik sharoitlar ta'sir qilib, ularning chegaralari qanday kabi masalalarga qarab berilgan.

Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqotlarda markaziy o'rin xotira jarayonining asoslarga ayirilgan. Xotira jarayonining asoslari 3 ta turlarda o'rganilgan: psixologik, neyro-fiziologik, biokimik.

Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog'liq bo'lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi. Ulardan birinchisi assosiativ nazariyalari. Ma'lum bir bilimlar inson ongida birin ketin o'rin olishi tufayli ularni assosiativ bog'liqlikni yuzaga keltiradi va ushbu bog'liqlikda biror bir narsa esga tushiriladi. Ushbu assosiativiyalarni 3 turga bo'lish mumkin, ya'ni ularni shaxsning fazoviy bog'liqligi, bir-biriga mosligi va qarana-qarshiligidir. Hozirgi 3 ta assosiativiyaya kelib chiqadi: bir-biriga bog'liqlik, o'xshashlik va

⁷ Маккавров А. Г. Основы психологии. — СПб.: Лант, 2001. — 276-стр. (мазмундан foydalanilgan)

qarama-qarshilik. Assotsiatsiya nazariyasi bo'yicha xotira assosiativ bog'lanishlar asosida mavjud ma'lumotni saqlash va qayta tiklash imkoniyatiga ega.

Ikkinchi psixologik nazariya xotiraning geshalt nazariyasidir. Ushbu nazariyaning asosiy ta'limoti narsaning negizi, yaxlitligi, yig'indisidir. Ushbu nazariyaga asosan xotira yaxlit hodisa sifatida tahlil etiladi.

Bixevionizm – inson xotirasida, esda olib qolishda takrorlashning ahamiyatiga diqqatni qaratadi.

Freydizm xotirani emotiviyalar, motivlar va ehtiyojlar bilan bog'laydi.

Xotiraning mantiqiy nazariyasi **A.Bine va Byullerlar** tomonidan ilgari surilib, ular xotiradagi materialni xotiraning mantiqiy esda olib qolinishi bilan bog'laydi.

A.N.Leontev, N.I.Zinchenko, A.A.Smirnovlar tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turli tasavvurlar orasidagi bog'liqlik esda olib qolingan materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog'liqdir.

Bioximik nazariya tashqi ta'sir ostida nerv hujayralarida yuz beradigan o'zgarishlarni qayd qilish va xotira jarayonida DNK va RNK ahamiyatini aniqlashga qaratilgandir. DNK xotirani genetik tug'ma tashuvchi sifatida, RNK esa individual xotiraning ontogenetik asosi sifatida qabul qilinadi. Kibernetik nazariya bo'yicha xotira ma'lumotni qabul qilib olish, qayta esga tushirish va unutishdir.

Adabiyotlarda keltirilishicha, navbatdagi nazariya xotira jarayonlari asoslari haqidagi fiziologik nazariyadir. Vaqt oraliq'ida esda olib qolish, saqlash va esga tushirish xotiraning asoslari fiziologik nazariyasini tashkil qiladi. Hali va esga tushirish xotiraning asoslari fiziologik nazariyasini tashkil qiladi. Hali qanday tashqi ta'sir nerv tizimida izsiz o'timaydi va qandaydir «tiz» qoldiradi «Iz»ning fizik ta'siri qayta impuls harakatini yengillashtradi. Vaqinchalik nerv munosabatlarining yuzaga kelishi, ularning izini va keyinchalik faollashtirishini xotira jarayonlari asoslari nazariyasi sifatida ko'rib chiqiladi.

80-yillarda nemis psixologi German Ebbingauz o'z «sofi» xotira qonunlarini o'rganish imkonini beruvchi, boshqacha so'z bilan aytganda, tafakkurga bog'liq bo'lmagan holda izlarning esda qolish jarayoni tadqiq etishning yangi uslubini taklif qilgan, ya'ni ma'nosiz bo'g'inlarni yod olishdan iborat bo'lgan bu uslub Ebbingauzga materialni esda olib qolishning egni chizig'iga oid qonuni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so'nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Amerikalik psixolog Eduard Tomdaykning tekshirishlari paydo bo'ldi. U birinchi bo'lib tekshirish predmeti sifatida hayvonlarda ko'nikmalarni paydo bo'lish jarayonini tanlagan edi.

XX asrning birinchi 10 yilida xotirani tekshirish yangi ilmiy talqiniga ega bo'ldi, uning moddiy asosi to'g'risidagi muammolarga mohiyati jihatidan mutlaqo boshqacha yondashish ro'yobga chiqdi.

Kuchli shu davr xotira psixologiyasida keskin buntlash nuqtasini vujudga keltiradi. Akademik **I.P.Pavlov** shartli reflekslarni o'rganishning ilmiy metodini taklif etadi, bu narsa o'z navbatida bosh miya yarim shartlarda yangi bog'lanishlar paydo bo'lishiga va mustakamlanishning asosiy fiziologik mexanizmlarini tekshirish imkoniyatlarini tug'dirdi. Ana shunday qilib, ushbu bog'lanishlar paydo bo'lishiga va saqlab qolishga yordam beradigan shart-sharoitlar, shuningdek, bog'lanishlarning saqlanishiga ta'sir qiluvchi holatlar, motivlar va mexanizmlar tasvirlab berildi. I.P.Pavlov oliy asab faoliyati ta'limoti va uning asosiy qonunlari xotiraning fiziologik mexanizmlariga oid bilimlarning asosiy manbalariga aylanib qoldi.

Bolalarda xotiraning yuksak (yuqori) shakllarini birinchi marta tadqiq etishda tadqiq qilish taniqli psixolog **L.S.Vigotskiyga** nasib etgan. U 20-yillarda bolalarda maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va u o'z shogirdlari **A.N.Leontev** (1905-1979) va **A.V.Zankov** bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllari tabiiy faoliyatning murakkab shakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan o'rganishga ko'rnatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko'ra esda olib qolinganning asosiy boshqichlari rivojlanishini isbotlab berdi.

1926 yili **P.Vilyamson** bir bo'g'inli so'zlar asosida tuzilgan materialdan foydalanib, **A.Dise va G.Djons** (1931 yili) kasrulusidagi matndan olingan materialni bir marta o'qib chiqilgandan so'ng, olingan materiallarga ko'ra, uning jarayoni Ebbingauzning ma'nosiz bo'g'inlar yordamida tuzilgan materiallar asosida o'keazilgan tajribasidan farqli ravishda, quyidagicha natija kuzatib Ebbingauz tajribalarida bir soat ichida 35 foizga keskinpasaygan bo'lsa, hali Ebbingauzning tajribalarida unitish 72 foizga, **P.Vilyamson**da esa unitish 73 foizga pasayishga sholda egni chiziq shosil qiladi.

Psixologlardan **A.A.Smirnov, P.I.Zinchenko**lar ham xotira bo'yicha ilmiy ta'limotni takmil olib bordilar, uning yangi qonunlari va mexanizmlarini takmil etishda olib qolishning faoliyat maqsadiga bog'liqligini yoritdilar, muvofiq materialni esda olib qolishning oqilona usullarini ko'rsatib berishga muvofiq bo'ladilar.

Ashida psixologiyada xotira muammosini o'rganilishi ilk bora ushbu material muayyondanlardan biri bo'lishi **G.Ebbingauz** nomi bilan bog'liq.

Ebbingauz "Xotira haqida" nomli kitobida xotiraga ma'lumotni eslab qolish esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat bo'lgan tizim sifatida qaytadan ta'rif bergan. G.Ebbingauz maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda muayyan rivojlanishni borsida qator tadqiqotlar, jumladan, bolalarda ma'nosi jihatidan o'zaro bog'lanmagan (2300 ta) uchta harfdan iborat bo'lgan so'zlar yodlanishini tadqiqot olib bergan. Bu so'zlarning yod olinish vaqtini va hajmini harakat olib, xotiraning "egri unutish" qonunini kashf qilgan. Tadqiqot da munda muvaffaqiyat bilan, eslab qolingan ma'lumotlarning yarmi 0,5 soatdan so'ng unutilar, bir soat ichida esa o'zlashirilgan axborotlarning 60 % ga yaqini unutilar. Asta-sekin unutish jarayonining tezligi qisqaradi. Bir haftadan so'ng

xotirada 20 % axborot qoladi. G.Ebbinghausning tajribalarini ko'rsatishicha, axborotni eslab qolish muddati, eslab qolish vaqtida qo'yilgan ustunovkaga bog'liq.

Psixologning ushbu tadqiqot natijalariga misol tariqasida quyidagi holatni keltirish lozim, ya'ni, tarbiyachi bolalarga she'riy to'rtliklarni tanqib, "Kimki ushbu she'rni yod olib, yangi yil bayramida yoddan ayib bersa, qorobodan yangi yil sovg'asiga ega bo'lishi mumkin" deb ustunovka berishi mumkin. Natijada bolalarda she'rni yod olishga bo'lgan ustunovkalar paydo bo'ladi va shu bog'lanish orqali xotira jarayonlari faollashtirilib, ularning yanada rivojlanishiga turtki beriladi.

G.Ebbinghaus olib borgan tadqiqotlari asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi juda faol va ko'p hajmli ekanligini, bolalar o'zlarining hoxishlariga ko'ra kattalarga nisbatan juda ko'p axborotlarni eslab qolishlari mumkinligini, esda olib qolish tezligi ham ularda yuqori bo'lishini ta'kidlagan. Ammo, bolalar eslab qolish jarayonida juda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yadilar, bu esa axborotni mazmunini tez yo'qotishga, ularning mohiyatini tez o'zlashtirishga sabab bo'ladi.

G.Ebbinghaus bolalar qabul qilayotgan ma'lumotlar, ular tomonidan faol idrok qilingandagina xotira jarayonining samaradorligi ortishini e'tirof etgan. Agar bola qabul qilayotgan ma'lumotlarni o'ylab, mulohaza qilib, ular yuzasidan savollar berib, kattalardan izoh talab qilsa bunda xotira mahsulidorigi yanada ortadi. Shu bois, G.Ebbinghaus ota-onalar, tarbiyachilar va bolalarga maktabgacha yoshidagi bolalarni o'ylantirgan har bir savolga javob berishlari dasturligini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim emotsiyalarga boy ma'lumotlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tomonidan oson eslab qolinishini aniqlagan.

Assosiativ psixologiya maktabining boshqa vakillarini fikriga ko'ra, o'zlashtirish lozim bo'lgan narsa va hodisalarning xotiradagi mavjud ma'lumotlar bilan o'xshashligi, yondoshligi, qarana-qarshiligi asosida bog'lanishlar hosil qilinishi xotira samaradorligini belgilaydi. Masalan, **A.Piske**ning yozishicha, bola o'yin qoidalarini esda saqlab qolishi uchun eng avvalo ushbu o'yin qoidalarini bilan bog'liq assosiativlarga ega bo'lishi lozim. Shundaygina u o'yin qoidalarini beixtirob bajarishi mumkin.

Xotiraning mantiqiy nazariyasi asoschilaridan **A.Bine**, **K.Byuller**larning fikricha, ma'lumotlarning mazmun dorigi, mohiyatan angliyanlik darajasi esda saqlashni yengillashtririb, unutish sur'atini susaytirishga zamon hozirlaydi.

A.G.Komm maktabgacha yoshidagi bolalar va 1-2-sinf o'quvchilari orasida qiyosiy tadqiqot olib borib, quyidagi xulosalarga keldi:

Kichik bolalarda kattalarga qaraganda ikkilamchi xotirlash ko'proq, to'liqroq uchraydi.

Katta bolalarda kichiklarga qaraganda matnning mantiqiy mazmunini eslab qolish ko'p uchraydi.

Demak, tadqiqot natijalariga tayangan holda shuni ayirish mumkin, bolaga narsa-hodisalarni mazmun - mohiyati bilan izohlab berish uni esda olib qolish jarayonini jadallashtriradi.

Nemis psixologi **V.Shtern**ning fikricha, bolalarda mexanik xotira kuchli bo'lgani bilan narsa va hodisalarning mazmunini to'la tushuntirib berish orqali ma'lumotlarni angliyan holda eslab qolishlarni ta'minlash samaraliroq natija beradi. Bu borada **E.Meymon** ham o'z ilmiy izlanishlarini olib borgan bo'lib, u ma'lumotlarni uzoq vaqt eslab qolish uchun voqealarning mazmun -, mohiyatini bolaga tushuntirib berish xotira jarayonlari faoliyatini samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tgan.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xotiraning rivojlanishi boshqa qator psixik jarayonlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

J.Piye olib borgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha yosh davrida xotiraning rivojlanishi yetakchi ahamiyatga ega bo'lib, aynan ushbu jarayon ko'rgazmali-obrazli tafakkurning shakllanishiga zamon hozirlaydi. Xotira ixtiyorsiz harakatlarga ega bo'ladi, biroq maktabgacha yosh davrining oxirgi bosqichlarga borib o'yin faoliyati va kattalarning ta'sirida ixtiyoriy esda olib qolish jarayoni shakllana boshlaydi.

Mayers Shellouning fikricha esa, ixtiyorsiz esda saqlab qolish bu tasodifiy ob'ektlardan ta'sirlanish natijasida kelib chiqadigan jarayondir. Ushbu qarash ko'pgina ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik tamoyil bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, **V.Shtern** va **G.Mayerslar** o'z ilmiy tadqiqotlari davomida ushbu tildagi xotira maktabgacha yoshidagi bolalarga ko'proq xos bo'lib, bu davrda bola ma'lum maqsadsiz, aqliy, asabiy, irodaviy zo'r berishsiz hayotiy ahaliyatga ega bo'lgan keng ko'lamdagi ma'lumotlarni esda olib qolishini talbotlab berganlar.

Biroq, **F.Shuman** olib borgan tadqiqotlari o'zgaracha tamoyil asosiga qurilgan bo'lib, unda esa asosiy e'tibor ixtiyorsiz esda olib qolish maqsadga yo'naltirilgan faoliyat mahsulining asosiy shakli ekanligiga asoslangandir. Unga ko'ra, ixtiyorsiz xotiraning faoliyatiga qay darajada bog'liqligini aniqlash uchun bolani o'yin faoliyatiga jalb qilish keraligi ta'kidlab o'tilgan⁸.

P. I. Zinchenko, **M. N. Shavdakov**, **A. I. Lipkinalarning** tadqiqot ishlarning aksariyati shunga baqishlangan bo'lib, turli materialni esda olib qolishda tushunishning ahamiyati mushimligini tasdiqlashga intilgan. Bu materialni esda olib qolishga tog'ri yo'nalish berilishining natijasida material mazmunini tushunib olgan shunda esda olib qolish tezligi, aniqdigi, mustahkamligi va to'liqligi ta'minlanadi.

A. A. Smirnovning ta'kidlashicha, shu davrgacha shech kim, shech bir ilmiy adabiyotlarda bolalarga va quyi sinf o'quvchilariga ahamiyatli bo'lgan materialni mexanik tarzda olib qolishlarni ko'rsatilmagan

⁸ J. A. Groeger, Memory and Remembering (1997) (mazmunidan foydalanilgan)

Nemis rushunos Vilyam Shtern(1871-1938) fikricha, bolalarda sham, katta yoshdagi odamlarda sham ma'nosiga tushunib o'zlashtirishga nisbatan mexanik egallashkam mashxulotdir. Bu mulohaza shaqatgan sham tog'ri bo'lib, u Meymon fikriga ko'ra, yosh ulqayishi bilan ma'nosiz materialni esda olib qolish kamayib boradi va kam samara beradi, lekin ma'noga ega bo'lgan bilimlarni esda olib qolish esa sezilarli darajada rivojlanib boradi. Shunga o'xshash omillar boshqa rushunoslar tomonidan sham to'plangan bo'lib, bu shaqda boy-materiallar umumiy psixologiya xrestomatiyalarga o'z ifodasini topgan.

A. A. Smimov ma'no anglatmaydigan bo'qinlardan va ma'no kasb etuvchi so'zlardan tuzilgan material asosida tekshirish o'tkazgan. Katta va kichik yoshdagilarda ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olibqolishni alohida tekshirish, shar ikkala yosh davrida mazmunder va mazmunsiz materialni esda olib qolishning munosabatini tekshirishmasqad qilib qo'yilgan.

A. N. Leoniev tadqiqot ishlarida katta yoshdagilarning ma'nosiz bo'qinlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esda saqlab qolishligi ta'kidlangan.

Katta yoshdagilar ma'nosiz bo'qinlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson boqlay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan xam kuchliroq ma'no kasb etadi, shuningdek, ma'no anglatmaydigan materialni o'zlashtirish jarayoni tez ko'chadi masxuldorrog bo'liadi. Ma'nosiz materiallar egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar mushim ashamiyatga egadir.

Ixtiyorsiz xotiraning bolaning o'yin faoliyatiga bog'liqligini tadqiq etish masqadida F. Shuman boshchiliga qator topshiriqlar to'plamni ishlab chiqilgan va amalga tadbic etilgan.

Bizga ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning psixik taraqqiyotida, ayniqsa, bolaning xotirasini rivojlanishi va takomillashuvda hamda ijtimoiylashuvda o'yin faoliyati bilan bir qatorda etaklaming o'rni beqiyos bo'lib, etak qahramonlari va ularidagi voqealar rivojini emotsionalligi katta ahamiyatga egadir. Tarixi avstraliyalik psixolog D. Brettning ta'kidlashicha, agar etak qahramonlari qanchalik emotsional bo'yoqlarga boy bo'lsa, bolaning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi va uning kelgusi faoliyatida o'z ijobiy aksini topadi. Shu jumladan, ushbu etak qahramonlari asosida yaratilgan syujetli o'yinlar bolaning psixik taraqqiyotiga va nuqiy fantaziya sin ortishiga xizmat qiladi.

O. Ssh va uning izdoshlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, 5-6 yoshli bolaning xotirasini rivojlanishi uning nuqiy boyligi va so'zlarni esda saqlab qolish hamda obrazi tasavvuring yorqinligi bilan uzviy bog'liq. Agar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning nuqiy fantaziyasi, qanchalik boy bo'lsa, u shuncha ko'p miqdordagi so'zlarni yaxshi eslab qolib, elementar ko'rinishga ega bo'lgan mantiqiy bir-biri bilan bog'langan so'z birkmalarni tuza oladi.

E. Bedli, A. Xirchlarining ta'kidlashicha, bolaning xotira mexanizmlarini samavali foliyat yuritishida ikki muhim narsa yetekchi ahamiyat kasb etadi. Bular: esda olib qolinishi zarur bo'lgan, idrok etilgan ma'lumot, voqea va hodisalarining so'z bilan ifodalanganligi hamda ko'rish xotirasining kuchligi. Chunki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar quloq bilan eshitgan va ko'z bilan ko'rgan predmetlarini yaxshi idrok etib esda olib qoladilar.

Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqotlarda markaziy o'rin xotira jarayonining asoslariga aytilgan. Xotira jarayonining asoslari 3 yo'nalishda o'rganilgan: psixologik, neyro-fiziologik, bioximik.

Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog'liq bo'lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi. Ulardan birinchisi assosiativ nazariyadir. Ma'lum bir bilimlar inson ongida birin keim o'rin olishi tufayli ularida assosiativ bog'liqlikni yuzaga keltiradi va ushbu bog'liqlikda biror bir narsa esga tushiriladi. Ushbu assosiativlarni 3 turga bo'lish mumkin, ya'ni ob'ektlarning fazoviy bog'liqligi, bir-biriga mosligi va qarama-qarshiligidir. Bundan 3 ta assosiativga kelib chiqadi: bir-biriga bog'liqlik, o'xshashlik va qarama-qarshilik. Assosiativ nazarivasi bo'yicha xotira assosiativ bog'lanishlar asosida mavjud ma'lumotni saqlash va qayta tiklash imkoniyatiga ega.

Ikkinchi psixologik nazariya xotiraning gestalt nazariyasidir. Ushbu nazariyaning asosiy ta'limoti narsaning negizi, yaxitligi, yig'indisidir. Ushbu nazariyaga asosan xotira yaxit hodisa sifatida tahlil etiladi.

Bixevionizm - inson xotirasida, esda olib qolishda takrorlashning ahamiyatiga diqqatni qaratadi.

Freydizm xotirani emotsiyalar, motivlar va ehtiyotlar bilan bog'laydi.

Xotiraning mantiqiy nazariyasi A. Bine va Byullerlar tomonidan ilgari ishlab, ular xotiradagi materialni xotiraning mantiqiy esda olib qolinishi bilan bog'laydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, psixolog olimlar tomonidan xotira bo'lmada qator ilmiy izlanishlar olib borilgan va borilmoqda.

Tuyunch tushunchalar: xotira, xotiraning nerv-fiziologik asoslari, xotira turlari, xotira jarayonlari, esga tushirish va uning turlari, reminissensiya, xotiradagi individual farqlar, xotira tasavvurlari, xotira nazariyalari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xotiraga ta'rif bering
2. Xotiraning qonunlarini sanab o'ting
3. Xotiraning nerv-fiziologik asoslarini tushuntirib bering
4. Xotira turlarini izoxlab bering
5. Xotiradagi individual farqlarni sanab o'ting

XAYOL TASAVVUR

Xayol va tasavvur haqida tushuncha

Odam o'z hayoti davomida ilgari idrok qilgan narsa va hodisalarni tasavvur etibgina qolmay, balki hech qachon hayotida uchramagan narsalarni ham tasavvur etib oladi. Boshqacha qilib aytganda, odam faqat ilgari idrok qilgan narsalarining eslash bilan cheklanib qolmay, balki shu paytgacha hech qayerda uchramagan yangi narsalarini ham o'z hayotida yaratib oladi.⁹

Shuningdek, avlod-avlodlarimizning hayotiga doir tarixiy kitoblarni o'qiyotganimizda yoki bo'lmasa, o'qituvchining uzoq chet el mamlakati haqidagi qiziqarli gaplarini eshtar ekamiz, yuqoridagi narsalarga nisbatan tasavvurlar hosil bo'ladi. Xayol qilish jarayonida idrok qilingan obrazlar orqali hosil qilingan tasavvurlar va bunday tasavvurlarni ongimizda xotira orqali o'rnatilishi tufayli yuzaga keladi. Demak, xayol jarayonining bo'lishi uchun xotira tasavvurlarining bo'lishi shart. Shuning uchun xayolning rivojlanishi insonning bilim boyligi, turmush tajribasi bilan bog'liq.

Xayol deb odamning ongida ilgari bor bo'lgan vaqtli aloqalarning (assosiasiyalarni) qaytadan tiklanishi va bir-biri bilan yangicha qo'shilishi orqali narsa va hodisalarning yangi obrazlarini hosil qilishga aytiladi.

Xayol – obraz tasavvur yoki g'oya shaklida yangi narsaning yaratilishi, ong faoliyati, ya'ni ilgari idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini mavjud tasavvurlar asosida miyada yaratishda ifodalanganidagi faoliyatdir.¹⁰

Xayolning inson hayotidagi o'rnini juda kattadir. Ishtirok etgan mehnat faoliyatini oladigan bo'lsak, xayolning ishtirokisiz deyarli amalga oshirib bo'lmaydi. Masalan, biror narsa yasash biror o'simlikni o'stirish uchun qo'lga kiritiladigan natijalarni oldindan bilish, ya'ni xayolda tasavvur etib ko'rish lozim bo'ladi. Shuning uchun xayol juda ko'p faoliyatning tarkibiy qismiga kiradi.

Kishining butun ruhiy hayoti shaxsning bilish faoliyati va emosional irodaviy holatlari bilan uzviy bog'liq. Xayol idrok xotira tafakkur kabi mantiqiy bilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Xayolning mahsuli shundaki, u orqali avvalgi tajribalar qayta ishlanadi. Xayol tafakkur bilan shunday bog'liq-ki, xayol ham, tafakkur ham muammoli vaziyatlardan kelib chiqadi va shaxs ehtiyojlariga asoslanadi. Tafakkurda fikrlar, tushunchalar asosida ifodalanganadi.

Xayol psixologik jihatdan keng ikki xil ma'noni anglatadi: ongli va ongsiz. Ongsiz ravishda, bu bir xil payt "fantasy" deb yoziladi.

Ongli xayol bu situatsiyada odam tomonidan o'ylab chiqarilgan bo'lib zarur bo'lgan istak yoxud maqsadga chiqadigan turib yaratiladi. Xayol o'ziga tegishli vaziyatlarni qaysiki juda misilsiz, yoxud xayotiy bo'lishi mumkin. Xayol tabiatdan jinsiy tasavvurda ham bo'lishi mumkin. Boshqa bir jihatdan muhim ahmiyati, xayol bu "real" bo'lmagan xohlat xammasi vaziyatlarda shunday

tushuniladi. Shuningdek shaxsning xatti-xarakati xayotiy vaziyatda obekt bilan subektni mulogoti tushuniladi.¹¹

Tasavvurning umumiy tavsifi – "Tasavvur" – termini, yagona tavsifi – hayotiy yoki real ymiz, bo'lmagan fikrlarga asoslangan nazmiy va nazariy tushuncha. Biz ko'pincha ramantik insonlarni "tasavvuriy temperament"ga ega deb tasvirlaymiz. Albatta bu so'zning ma'nosiga e'tibor qaratish lozim. Odatda bu so'zdan notexnikaviy sezgirlarda foydalaniladi. Tasavvur, psixologlarning qushlariga ko'ra aytan hozir his qilinmagan tuyg'ularni ifodalashi mumkin. Xuddiki u bir yulduz, biz uni ko'rmaymiz, ammo tasavvur qilolamiz. Umumiy qilib aytganda, sezish va tasavvur qilolamiz, u bir iforki, aytan hozir sezmaymiz, ammo tasavvur qilolamiz. Umumiy qilib aytganda, sezish va tasavvur aniq maqsadga qaratilgan fikrdi, ulardagi boshlang'ich farq psixologik fikrga ko'ra boshqasi bo'lmaganda sezgi organlarda qo'zg'atish ko'raradi. Idrok qilingan fikrlar deyarli doimiy ravishda yaqqol ko'zga tashlanadi va davom etmaydi tasavvurning boshlangan jarayoniga nisbatan.

Tasavvur maktabgacha yoshdagi bolalar psixik hayotida muhim rol o'ynaydi. O'qitilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar odatda ko'rgazmalilik, obrazlar asosida fikrlaydilar. Shuningdek bu yoshda diqqat muhim darajada tasavvurni idrok qilishda yuzaga keladi. Shuning uchun ko'pgina odamlarning birinchi xotiralari ko'rgazmalilik bilan bog'liq. Bolalardagi birinchi tasavvurlar yetarli emas. Bolalar uchun katalalarga qaraganda tasavvurlar juda muhim bo'lishiga qaramay, ular kattalarda yorqinroq.¹²

Lekin biz jarayonning boshqasiga o'xshashligi ular o'rtasidagi farqdek mulohaza muhim, mulohaza oydir. To'ldirilgan bo'lsak, ko'rinadigan tasavvur ko'rilgan sezgirlardan hosil bo'lgan manbaalar bilan bir xildir. Darhaqiqat, biz tasavvurlarni tasvirlayotganimizda, real fakt kelirami, uning asosi avval his qilingan harakatlarda va demak biz tasavvurda uchragan ruhiy manbaalar bizga oldin yetkazilgan sezgirlarning bir qismidir va biz allaqachon ularni tasavvur sifatida saqlaganimiz. Ko'pincha qayg'uli, ko'z yoshli, g'amgin sezgirlarni saqlab qolamiz. Shu paytgacha biz nazariy sezgirlar tajribadagi hissiyotlardandir deb hismon qilamiz. Agar biz azgina mudatga insonlarning biz qismini gul deb tasavvur qilsak va keyin ularidan bizga o'zlarini gul sifatida qanday hayol qilayotganlarini ko'zlab berishni so'raymiz. Biz ularni gul tasvinda ruhiy sur'atini topishimiz kerak, qanaqa rangdalligini, detallarini. Bu insonlar aniq gul obrazida tasavvur qiladilar. Boshqalar "gul" so'zini hayollariga keliradilar, va bu boshqa so'zlarni ham ergashiradi "Amerika go'zali", "qizi", "tikantli" va hokazolar. Bu guruh tajriba uchun auditoriyaga kiritiladi va tasavvur motori taliga tushadi. Kinestezik sezgirlar kinestezik tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Bu orqada kinostezik hislardan ajratib olishimiz kerak.

⁹ Мещеряков А. Г. Общая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 283 бет (mazmunidan foydalanilgan)
¹⁰ Мещеряков А. Г. Общая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 284 бет (mazmunidan foydalanilgan)

¹¹ Myers-D.G. -Psychology-9th-edition 2010. 241 бет (mazmunidan foydalanilgan)
¹² Мещеряков А. Г. Общая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 243 бет (mazmunidan foydalanilgan)

Reproduktiv tasavvur - reproduktiv tasavvur, hissiyotlarning tasvirini ya'ni bizga avval ko'ringan tasavvurlarning ko'rinishlarini o'z ichiga oladi. Masalan, men ko'zlarimni yunaman va o'zinni pasta ustida yozayotganimda ko'z oldimga keliraman. Bu reproduktiv tasavvurdir, ya'ni bu holatni oldin manda bo'lgan, hayolimda avval ham takrorlangan.

Produktiv tasavvur - produktiv tasavvurda hech qachon ko'imgan narsalarimizni tasavvur qilamiz. Masalan, 8 oyog'li it. Biz unaga hayvonni hech qachon ko'imganmiz. Bu noto'g'ri yo'l emas, bu illyustratsiya yoki produktiv tasavvurning natijasidir. Produktiv tasavvurda hayolda mavjud bo'lgan tasavvurga yangi elementlar qo'shildi. Produktiv tasavvur org'ani yangi keng, yangi asar yoki yangi mashina yaratish mumkin.¹³

Har kungi xayolda odamlar o'zlarini xoxlagan tasavvur xayol qilishadi, istagini ro'yobga chiqishi uchun tasavvur xokimiyati yoki mustaqil tanlov... orzu.

Jori Eman Vaylant o'z ishida na'muna qilib ximoyaviy mexanikani qilib oldi. O'zining dunyoyingizda - orzuingizda omadli va taniqli xayol qilasiz, undan ko'ra do'stlashishga xarakat qilib va omadli ishga ega bo'lish kerak.

Xayol jarayoniga kelganda oddiy, muhim kasallikdir manmanlik, mensimaslik "Vaylant ilgari surdi kimki ko'p xayol qilsa o'sha insonning yaqin do'sti bo'lmaydi"¹⁴

Real voqealardagi narsa yoki hodisalarning muayyan daqiqada idrok qilinmayotgan obrazlari tasavvur deyiladi. Tasavvur real olamdagi narsalarning qayta tiklangan obrazidir.

Tasavvurning manbai obektiv voqealardir. Har bir tasavvur asosida ilgari sezgi va idrokning qayta tiklanishi yotadi. I.M. Sechenovning fikricha, tasavvur o'zining o'zining nerv mexanizmlari jihatidan idrokdan faqat qo'zg'ovchilari bilan farq qiladi. Idrok protsessiga biz ko'rayotgan, eshitayotgan, bizga tegib turgan narsalar va shu kabi qo'zg'ovchi bo'ladi.

Tasavvur uchun esa buyum emas, balki shu buyum haqidagi so'z yoki fikr qo'zg'ovchi hisoblanadi. So'z yoki fikr obrazini, tasavvurni keltirib chiqaradi, miyada saqlangan, eski idrok protsessi bilan bog'liq bo'lgan fiziologik protsesslar qoldiqlarini jonlantiradi. Tasavvurlarning xususiyati idrokning eski protsessi xususiyatlari bilan belgilanadi.

Bosh miya po'stida saqlangan ang'lab olish tipidagi idrok protsessining jonlanishi natijasida bizda tasavvur hosil bo'ladi, shuningdek, sinchiklab ko'rish mexanizmi asosida tarkib topgan idrokning jonlanishi asosida ham tasavvur hosil bo'lishi mumkin. Buyumning qandaydir ayrim xususiyatlarini tez idrok qilish natijasida hosil bo'lgan tashqi dunyodagi buyum obrazi qandaydir tarqoq, detallarga bo'linmagan obrazdir.

Aks ettirilayotgan bunday obrazning xarakterli belgisi shundaki, u buyumni har tomonlarga va chuqur bilishga asoslanmay, qisman, yuzaki ayrim

qismlarini, ba'zan tipik sifatlarni bilishga asoslanadi. Bu obraz juda tor doiradagi hayotiy masalani hal etishda foydalanilmog'i mumkin. Ammo tasavvurning bunday turi biron ijodiy faoliyat uchun, chunonchi, tasavvurga asoslanib rasm solish uchun yaramaydi.

Rasm chizish uchun tasavvur asosida biron-bir amaliy faoliyatni bajarish kabi bosh po'stida analiz qiliuvchi, detal idrok asosida tarkib topgan obrazlar yetarli bo'lishi, detal suratda idrok etilib analiz qilingan bo'lishi talab etiladi.

Tasavvur asosan qayta tiklangan idrokdir. Biroq obrazning tasavvuri uning dastlabki idroklardan birmuncha farq qiladi. Tasavvur odadda, idrokdan kengroq bo'ladi. Faqat ayrim kishilardagina tasavvur yorqin bo'ladi, ba'zi yozuvchi, rassom, kompozitorlar go'yo o'z suratlarini, romanlari, operalari qahramonlarining obrazini ko'rayotgandek va eshitayotgandek bo'ladi. Rassom Ayvazovskiy o'z suratlarini dengiz stixiyalarini cheksiz suratda ko'rish asosida hosil bo'lgan tasavvurlar asosidagina chizgan. Rassom Levitan eiy uclari natiradan chizgan bo'lsa ham ko'pchilik asarlarini tasavvuri asosida yaratgan. Kompozitorlardan Motesart bilan Betxovenlar o'zlarini yaratayotgan musikaning juda aniq eshitganlar. Yozuvchi Goncharov o'z asarlari qahramonlarini ochiq oydin "ko'rgan" va "eshitgan"


Tasavvurda ko'pincha idrokka oid ba'zi belgilar bo'lmaydi. Biz hammaimiz itni bir necha bor ko'rganmiz va yaxshi bilamiz, ammo bolamiz, "itning rasmni solib ber" deb qolsa, ancha unib qolamiz, ya'ni itni juda aniq va to'g'ri tasvirlab bermoymiz. Biz rasm chizishni bilmaganligimiz uchun emas, balki itning quloqlari boshiga qay tarqqa birlashgani, dumi va boshining shaklini bilmaganligimiz va shu kabi sabablar natijasida shunday bo'ladi.

Tasavvur u yoki bu narsaning o'zgarish va barqaror obrazi emas. Tasavvur o'zgarish surat bo'lmay, butun bir protsessdir. Kartidoni tasavvur eting va uzoq vaqt uning obrazini miyangizda saqlang. Bir necha vaqt o'tgach, kartidoni obrazi "so'na boradi", bora bora butunlay yo'qoladi. Lekin ba'zi belgilari esda qolib, ba'zi belgilari unutila boradi. Unutilgan obrazni qayta esga solinsa, bu obraz dastlab idrok etilgan obrazdan birmuncha farq qiladi.

Ko'rishga oid tasavvurlar. Bizda mavjud tasavvurlarning katta qismi ko'rish idroki bilan bog'liq. Ko'rish tasavvurlarining xarakterli xususiyati shundaki, alohida hollarda ular butkul aniq (muayyan, konkret) bo'lib, predmetlarning ko'rinadigan barcha sifatlari: rangi, shakli, hajmini beradi. Biroq ko'p hollarda ko'rishga oid tasavvurlarda qaysidir bitta tomon ustuvorlik qiladi, boshqalari esa yoki noaniq bo'ladi, umuman mavjud bo'lmaydi. Masalan, ko'pincha ko'rishga oid tasavvurlar hajmdan mahrum va hajmli predmet emas, balki rasm, surat ko'rinishida qayta artiladi. Ustiga ustak, bu kartinalar ayrim hollarda mag'li, boshqalarida rangsiz bo'lishi mumkin.

¹³ Myers-D.G., Psychology-9th edition 2010. (mavzundan foydalanilgan)
¹⁴ Myers-D.G., Psychology-9th edition 2010. (mavzundan foydalanilgan)

Tasavvurlarning sezgilar asosiga qurilgan klassifikatsiyasini ko'rib chiqamiz.



Ko'rishga oid tasavvurlar tasviriyy san'at bilan shug'ullanishda markaziy o'rin tutadi. Natijat xayolan, balki naturadan chizish ham rivojlangan ko'rish tasavvurlarisiz qiyin kechadi. Ko'rish tasavvurlari pedagogik jarayonda ham muhim o'rin tutadi. Xatto adabiyotni o'rganish ham materialni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun asosan ko'rish tasavvurlariga tayandigan tasavvumi /'ishga solish'ni talab qiladi.¹⁵

Eshitishga oid tasavvurlar sohasida *nutqiy* va *musiqiy* tasavvurlar eng muhim sanaladi. O'z navbatida, nutqiy tasavvurlar fonetik va tembr-imonatsion tasavvurlar kabi bir necha kichik tiplarga bo'linishi mumkin. Fonetik tasavvurlar haqida biror so'zni ovoz bilan bog'lamasdan tasavvur qilinganda gapirish mumkin, bunday tasavvurlar chet tillarni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

¹⁵ Макажков А. Г. Обшая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 123 бет

Tasavvurlarning yana bir tipi — *harakatga oid tasavvurlar*. Ular yuzaga kelish xarakteriga ko'ra ko'rish va eshitishga oid tasavvurlardan farq qiladi, zero hech qachon avvalgi hislarning shunchaki qayta yaratilishi bo'lmay, hamma vaqt dolzarb sezgilar bilan bog'liq bo'ladi.

Tasavvurlar asosiy turlarining barchasi u yoki bu darajada bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularni sinf, toifa va tiplarga ajratish juda shartlidir. Ko'rish, eshitish yoki harakatga oid tasavvurlar birinchi planga chiqqanida tasavvurlarning u yoki bu tegishli tipi haqida gap boradi.

«Makonga oltasavvurlar» termini ob'ektlarning makoni shakli va joylashishi aniq tasavvur qilinganida, ammo ob'ektlarning o'zi unchalik aniq tasavvur qilmaganda qo'llanadi. Odatda, bu tasavvurlar shu darajada sxematik va rangsizki, bir qarashda "ko'rishga oid tasavvur" terminini ularga nisbatan qo'llab bo'lmaydigandek. Biroq ular obrazlar — makon obrazlari sifatida qolaveradi, zero voqelikning bir tomoni — buyumlarining makonda joylashuvini ular to'liq ko'rgazmalilik bilan beradi.

Makonga oid tasavvurlar asosan ko'rish-harakatga oid bo'ladi, bunda bir holatda ko'rish, boshqa bir holatda esa harakat komponenti birinchi plangan chiqadi.

Hamma tasavvurlar umumlashganlik darajasiga ko'ra farqlanadi. Ularni yakka va umumiy tasavvurlarga ajratish qabul qilingan. Ta'kidlash kerakki, tasavvurlarning idrok obrazlaridan asosiy farqlaridan biri shundaki, idrok obrazlari hamma vaqt yakka bo'ladi, ya'ni muayyan predmet haqidagi inqirotni aks ettiradi, tasavvurlar esa juda ko'p holatda umumlashma xarakterda bo'ladi.

Yakka tasavvurlar — bitta predmetni kuzatishga asoslangan tasavvurlar. *Umumiy* tasavvurlar esa qator o'xshash predmetlarning xossalarni umumlashma aks ettiradi.

Shuningdek, tasavvurlar irodaviy sa'y-harakatlarni namoyon qilish darajasiga ko'ra farqlanadi. Bunda ixtiyoriy va ixtiyorsiz (beixiyor) tasavvurlar farqlanadi. *Ixtiyorsiz* tasavvurlar — spontan yuzaga keladigan tasavvurlar. *Ixtiyoriy* tasavvurlar esa insonda qo'yilgan maqsad yo'lida qilingan irodaviy sa'y-harakat natijasida yuzaga keladigan tasavvurlardir.

umumlashgan obrazidir.

Yakka tasavvurlar Tasavvur voqelikning shunchaki bevosita obrazi bo'lmay, balki voqelikdagi narsa va hodisalarning hamda *umumlashgan* tasavvurlar bo'ladi.

Yakka tasavvurlar — "mana shu stol", "shu qo'g'irchoq", "shu poezd"ni tasavvur qilishdir. Ammo biz juda ko'p stol, qo'g'irchoq, poezdlarni bilamiz va shu tufayli bu buyumlarining umumiy belgilarini ajrata olamiz. Mana shunday umumlashtirish narsa va hodisalar haqidagi umumlashgan tasavvur bo'ladi.

Umumlashgan tasavvurda — ba'zi narsa va hodisalarning o'ziga xos belgilarini bilimay ketadi. Tasavvur o'zining bevosita xisсий asosini yo'qotib,

narsa va hodisa haqidagi fikr, tushunchaga aylanadi. Buning oqibatida biz amalda ko'pincha obrazni real asosda xis qilmay qo'yamiz.

Umumlashgan sari tasavvur o'zining aniqligini yo'qota boradi, tarqoq, dudmol bo'la borib, obrazlik xususiyatini yo'qotadi. Biz ot, fil, karkidon, va boshqa hayvonlarni tasavvur qila olamiz, biroq "umuman" hayvon obrazini tasavvur eta olmaymiz.

Biroq tasavvurni narsaning faqat obrazi deyish yaramaydi. Ko'pincha tasavvurda narsaning obrazi bilan u haqidagi bilim qo'shilib ketadi. Umumlashgan tasavvurning tarkib topishida buyum va uning barcha xususiyatlarini bilish muhim rol o'ynaydi (V.N. Sergeevich tadqiqotlari).

O'rganilayotgan narsaning ahamiyatli tomonlari ahamiyatli bo'lmagan tomonlarga nisbatan bargavor tasavvur etiladi. (A.N. Turpanov, E.N. Kabanova-Meller tadqiqotlari).

Inson tafakkuri tushunchalar bilangina emas, balki obrazlar bilan ham bog'liqdir. Fikrlash faoliyatida qiyinchilikka duch kelsak, darrov obrazlarga murojaat qilamiz. Qiyin mashqni bajara olmasak, yoki tushuntirib bera olmasak, ko'rsama obrazga "yordam uchun" murojaat qilamiz.

Ba'zan tasavvurni bilim sifatida belgilaydilar. O'qituvchilarning o'quvchilar haqida shunday deydiganlarining guvohi bo'lamiz: "Unda bu fan to'g'risida hech bir tasavvur yo'q", "U bilimning bu sohasida hech bir tasavvurga ega emas" va hokazo. Psixologiya fani tasavvurning bunday xususiyatini hali yaxshi o'rganmagan. Biroq tasavvurning bilim sifatida xizmat qilishini tadqiqot etishlari mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. Bu ehtimol, ko'rsatmalilik, obraz tasavvurga asoslangan elementar bilimdir.

Xayol jarayonlarining nerv-fiziologik asoslari

Xayol qilish jarayoni juda ham murakkab aks ettirish jarayoni bo'lishiga qaramay, uning asosida yotgan fiziologik mexanizmlarni akademik **I.P. Pavlovning** oliy nerv-faoliyati haqidagi tilmoti asosida ma'lum darajada tushuntirib o'tish mumkin. Xayolning nerv fiziologik asosida ham miyaning po'stida ilgari hosil qilingan vaqti aloqalarining (assosiasiyalarning) yana qayta tiklanib, bir-biri bilan yangicha qo'shilish jarayoni yotadi. Shuni ham aytish kerakki, bosh miya yarim sharflarida ilgari hosil qilingan vaqti aloqalar birin-ketkin tiklanadilar va binobarin ularning qo'shilishlari ham asta-sekin yuzaga keladi. Ana shuning natijasida bosh miyaning po'stida inson o'z shaxsiy hayotida hech qachon idrok qilmagan narsalarning obrazlari paydo bo'ladi. Bu obrazlarning ko'pi voqealikka mutlaqo to'g'ri kelmaydi va natijada tormozlanib holadilar. Boshqa birlari esa voqealikka to'g'ri kelganligi hamda inson faoliyati uchun miyadan yangi imkoniyatlar ochib bergani tufayli amaliy faoliyat natijalari bilan mustahkanlanadilar.

Xayol qilish jarayoni hamisha nuq' orqali amalga oshirilishi tufayli nutqning nerv-fiziologik asosida ikkinchi signalar tizimining faoliyati ham faol qatnashadi. Bundan tashqari xayol qilish jarayonida diqqat, xotira, tafakkur va iroda jarayonlari ham ishtirok qiladi. Ana shu nuqtai nazardan olganda

xayolning (xususan ijodiy xayolning) nerv fiziologik mexanizmlarni to'la tushuntirib berish uchun yetarli ilmiy ma'lumotlar yo'q. hozirgi kunda fan va texnikaning juda tez temp bilan rivojlanishi ijodiy xayol jarayonining oldiga katta vazifalar qo'yilmog'da. Masalan, kosmik fazoni zabt etish, insonning oyga chiqishi, murakkab aqli mashinalarning yaratilishi va shu kabilar inson tafakkuri hamda ijodiy xayolning yuksak taraqqiyoti natijasida qo'llanilmoqda.


Odamning uyg'oq paytida yuzaga keladigan xayol jarayoni ma'lum darajada tartibot va ixtiyoriy xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun odam o'zining xayol qilish jarayonini oldidagi maqsad va vazifalarga bo'yindira oladi. Odam o'zining bilimlari, tushunchalariga asoslangan holda xayoliy obrazlarning paydo bo'lishini idora qila oladi.

Bosh miya yarim sharflarining barcha tomonlari tormozlanib, odam uqlagan paytida ham xayol tush ko'rish shaklida yuzaga keladi. Odarda odam uqlay boshlagan paytida ikkinchi signalar tizimining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan nerv hujayralari hammadan oldin tormozlanadi. Uyu bilan bog'liq bo'lgan tormozlanish jarayoni miyaning hamma joyiga baravar ravishda tarqalmaydi. Natijada ayrim joylar tormozlanmasdan holadi va kutilmagan darajada ajoyib munosabatlarga kinsa boshlaydi. Ana shuning uchun tush ko'rish ikkinchi signalar tizimining nazoratsiz juda betartib, palta-partish ravishda yuzaga keladigan assosiasiyalardan iborat bo'ladi.

Xayol jarayonlari

Xayol jarayonlari insonning tajribasi va bilim doirasi, shuningdek o'tirish tajribalari bilan belgilanadi. Shuningdek xayol jarayonlari sifatida quyidagilar qiyoslab ko'rsatiladi va ular yaqqol ifodalash maqsadida quyida jadval ko'rinishida aks ettirildi.

Aglyutinasiya - "elimlasi" degan ma'noni bildirib, unda turli qismlarni bitta qilib yangi obraz yaratiladi. Masalan: yalmog'iz kampir, suv parisi, kentavr, ssfiks obrazlari va boshqalar.



Rasm. Xayol mahsulida kentavr qiyofasi.

Giperbolizatsiya - obrazlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish shuningdek, alohida qismlarni o'zgartirishdir. Masalan: Gulliver, liliput, Alpomish, Rustam pahlavon obrazlari kabilar.

Tizimlashtirish - o'xshatish orqali ayrim tasavvurlarni ular orasidagi farqlarni siliqlash; tipiklashtirish-bir xil obrazlarni qaytarishi bo'lib, har bir davr uchun tipik bo'lgan obrazlarni yaratish. Masalan: A. Qahhor hikoyalari ("O'g'it", "Bemor") A. Qodiriy ("O'lgan kunlar") romani kabilar.

Aksentlash - ayrim belgilarni ta'kidlash orqali obrazlar yaratish. Masalan: o'rtiqlik hazillari. Aksentlash badiiy adabiyotlarda juda ko'p qo'llaniladi.¹⁶

Yuqoridagi xayol jarayonlari orqali yaratiladigan obrazlar analiz va sintez jarayonida ro'y beradi. Chunki har bir narsani yoki hodisani avval analiz (tahlil) qilib ko'riladi, keyin ularni sintez (birlashtirish) qilish orqali yangi obrazlar hosil qilinadi.

Xayol jarayonida xayol tasavvurlarining xotira tasavvuridan farqi muhim ahamiyatga ega.

❖ Xayol tasavvurlari ongda paydo bo'ladi va barqaror bo'ladi.
❖ Xotira tasavvuridagi narsa doimo tanish narsadek his qilinadi.

Xayol tasavvurlari esa yangilikni his qilish tuyg'ularini beradi.


❖ Xayol tasavvurlari insonning qiziqish va idealari bilan bog'liq bo'lgan sababli yangilikni his qilish tuyg'ulari oqibatida vujudga keladi.

Xayol va tasavvur turlari

Hayol hoira singari quyidagi turlarga bo'lish mumkin: ixtiyorsiz va ixtiyoriy hayol. Ixtiyorsiz hayol tushida paydo bo'lib, bu jarayon kutimagnanda sodir bo'ladi. Hayolning ixtiyorsiz turi chala uyqu paytida yoki inson mudrayotgan paytida ham sodir bo'lishi mumkin. *Ixtiyorsiz xayol* deb - odam o'zining oldiga hech qanday maqsad qo'ymasdan, irodani ishga solmasdan, qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlarni yaratishiga aytiladi.

Ixtiyoriy hayol inson uchun katta ahamiyatga ega. *Ixtiyoriy xayol* deb oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib muayyan obraz va tasavvurlarni yaratishga aytiladi. Ixtiyoriy hayolda hayol jarayoni aynan o'sha obyekta qaratilgan bo'ladi. Bu paytda bilish jarayonlari faoliyat ko'rsatadi va kerakli tasavvurlarni o'zgartiradi.

Ixtiyoriy hayol inson uchun katta ahamiyatga ega. *Ixtiyoriy xayol* deb oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib muayyan obraz va tasavvurlarni yaratishga aytiladi. Ixtiyoriy hayolda hayol jarayoni aynan o'sha obyekta qaratilgan bo'ladi. Bu paytda bilish jarayonlari faoliyat ko'rsatadi va kerakli tasavvurlarni o'zgartiradi.



Bu holatda inson tasavvurini o'zgartiradi va yangi namunalari obraz yaratadi. Ijodiy hayol xotira bilan bog'liqdir. Hayolning bu turi paydo bo'lishida inson o'zining oldingi tajribalarini ishga soladi. Ijodiy xayol murakkab aks ettirish jarayoni bo'lib, odamning hayotida juda katta ahamiyatga ega. Odam o'zining ijodiy xayoli orqali biror yangi, shu paytgacha ko'rilmagun narsa yaratadi. Masalan: Yozuvchi asari uchun tipik obraz yaratganda uning xayoli ijodiy bo'ladi. Tadqiqotchining biror tadqiqot ustida ishlaganida ham uning xayoli ijodiy bo'ladi.¹⁷

Hayolning muhim turi bu **orzu**. hayolning bu turida inson har doim o'zi hohlagan obrazni yaratadi. hayolning bu turi yangi obrazlarni mustaqil ravishda hayotda yaratish bilan harakterlanadi. Orzuda o'zi ifodalagan obraz, insonni hayotidagi qaratilgan bo'lib, inson unga har doim intiladi. Orzu bu hayol jarayoni. Orzuning asosiy xususiyati uning kelajakka qaratilganligidir. Orzu bu hayol, hohlangan kelajakka qaratilgan. Ko'pchilik insonlar kelajak bilan bog'liq rejalarni tuzishda va bu kelajak yo'lida o'zining orzusida o'ylangan narsalariga intiladi. Bu holatda orzu aktiv, ixtiyoriy va ongli jarayon hisoblanadi. Narsalarni ko'rsatishicha omadsiz insonlar o'zining tajribalarida rejalarni amalga oshirishni rad qilishadi va orzusi atrofida aylanishadi. Bunday holatda orzu ongli, ixtiyoriy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Lekin bunday holatda

¹⁶ Макаров А. Г. Общия психология. — СПб.: Питер, 2001. — 292 бет. (maznunidan foydalanilgan)

¹⁷ Макаров А. Г. Общия психология. — СПб.: Питер, 2001. — 286 бет. (maznunidan foydalanilgan)

orzu haqida negativniy tasavvur hosil bo'lmastigi kerak. Ijodiy xayolning maxsus turi orzudir. *Orzu* ijodiy xayolning, tilakning kelajakka qaratilgan shaklidir.¹⁸

Orzusiz kishi bo'lmaydi. Orzu odamning u yoki bu faoliyatiga undaydigan stimull turkch hisoblanadi. Lekin orzuning boshqa salbiy turlari ham bor. Masalan, odamni asosiy ish faoliyatidan boshqa ishga sudraydigan orzular ham bo'ladi. Shunday odamlar ham bo'ladi, ular o'zlarining aniq faoliyatlarini orzu bilan almashirib, tilak va istaklariga shirin orzudagina yetib yuradilar. Ularning "quruq xayolparastlar" deb yuritiladi.¹⁹

Odatda biz tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xayol deb xayolni bir nechta turlarga ajratamiz. Aynan xayol turlarini quyidagi tarzda ifodalash muhim sanaladi.

Ijodiy xayol - deb tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchramagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat xayol turligini aytiladi.

Ijodiy xayol murakkab aks ettirish jarayoni bo'lib, odamning hayotida juda katta ahamiyatga ega. Odam o'zining ijodiy xayoli orqali biror yangi, shu paygacha ko'rilgan narsa yaratadi. Masalan: Yozuvchi asari uchun tipik obraz yaratganda uning xayoli ijodiy bo'ladi. Tadqiqotining biror tadqiqot ushida ishlaganda ham uning xayoli ijodiy bo'ladi.

Ijodiy xayol obrazlari so'zlarda yoki moddiy obektlarda tasvirlanishi mumkin. Ijodiy xayol mahsuli, ya'ni tasavvur va obrazlari san'atning hamma turlarida arxitektura, fan va texnika sohasidagi ixtirolarda namoyon bo'ladi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, tasavvur xayoli bilan ijodiy xayol o'rtasidagi farq faqat nisbiy xarakterga ega. Xuddi ijodiy xayol jarayonidagi kabi farq faqat nisbiy xarakterga ega. Xuddi ijodiy xayol jarayonidagi kabi tasavvur xayoli jarayonida ham aslida narsalarning obrazlari yangidan ijod qilinadi. Ana shuning uchun xayolning bu ikki turini bir-biridan batamom ajratib bo'lmaydi.

Ijodiy xayolning maxsus turi orzudir. *Orzu* ijodiy xayolning, tilakning kelajakka qaratilgan shaklidir. Orzusiz kishi bo'lmaydi. Orzu odamning u yoki bu faoliyatiga undaydigan stimull turkch hisoblanadi. Lekin orzuning boshqa salbiy turlari ham bor. Masalan, odamni asosiy ish faoliyatidan boshqa ishga sudraydigan orzular ham bo'ladi. Shunday odamlar ham bo'ladi, ular o'zlarining aniq faoliyatlarini orzu bilan almashirib, tilak va istaklariga shirin orzudagina yetib yuradilar. Ularning "quruq xayolparastlar" deb yuritiladi.

Xayol qilish jarayoni hamma bilish jarayonlaridagi kabi ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol turlariga bo'linadi.

Ixtiyorsiz xayol deb - odam o'zining oldiga hech qanday maqsad qo'ymasdan, irodani ishga solmasdan, qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlarni yaratishga aytiladi.

Ixtiyorsiz xayol shu topdagi kuchli ehtiyoj tufayli maydonga keladi. Masalan: odam juda taslima yoki juda och bo'lgan paytida uning xayolida har turli taomlar, daryo va buloq suvlari paydo bo'la boshlaydi. Odamning ayni shu ehtiyoj hissiy holati, ya'ni his-tuyg'ulari ham ixtiyorsiz xayolning maydonga kelishiga sabab bo'ladi. Chunonchi, vahima yoki qo'rqinch hissi paytida odamning xayoliga qo'rqinchli narsalarning obrazlari kela boshlaydi.²⁰

Tasavvur xayoli deb o'lmishda bo'lib o'tgan yoki hozirda bor bo'lgan lekin bizning turmush tajribamizda shu paygacha uchramagan, ya'ni biz idrok qilmagan tasavvur va obrazlar yaratishga aytiladi.

Tasavvur xayolini odatda tiklovchi xayol deb ham yuritiladi. Tiklovchi yoki tasavvur xayolini inson hayotidagi roli g'oyat darajada kattadir. Agar tiklovchi xayol bo'lmaganda odam o'qiy xam olmagan bo'lar edi. Biz ju da ko'p narsalarni ko'rmagan, ya'ni bevosita idrok qilmagan bo'lsak, ham ularni tasavvur eta olamiz. Bunda biz boshqa odamlarning aytib bo'lgan so'zlari orasida o'qigan kitoblarni asosida xayoliy tasavvur va obrazlar yaratamiz. Masalan, bolalar kitobchalardan o'qib berilgan etaklardagi qahramonlarni ularning bag'oyat botirliklarini, qo'rqoqliklarini va bir-birlariga yordam berishlarini xayoliy tasavvur orqali aks ettiradilar. Tiklovchi yoki tasavvur xayoli jarayonida odam ko'z o'ldiga keltirayotgan obrazning obekti haqiqatdan ham muayyan bir joyda bo'lganligini anglatadi. Tasavvur yoki tiklovchi xayol bog'icha yoshidagi bolalarda ham bo'ladi. Masalan: ularga o'qib berilayotgan hikoyani eshitarkanlar, hikoyadagi afsonaviy qahramonlar, ularning baland o'toyalar ustidagi qurilgan qasrlari ko'z o'nglarida gavdalana boshlaydi.

Ixtiyoriy xayol jarayonlari betartib ravishda, emas balki muayyan bir jarayonda o'ladi. Bu tartib odamning ehtiyojlari, maqsadlari, hissiyotlari fikr hamda maslaklari bilan belgilanadi.

Ixtiyoriy xayol deb oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib muayyan obraz va tasavvurlarni yaratishga aytiladi. Denak, ixtiyoriy xayol hamma ma'lum maqsad va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Shunday maqsad va vazifalar boshqalar tomonidan qo'yilishi mumkin. Masalan, o'zini o'zi ishlamoqchi bo'lgan suratning mavzusini o'zi belgilaydi. Yozuvchi yozmoqchi bo'lgan asarning mavzusini o'zi tanlaydi va o'zi badiiy obrazlarni yaratadi. Umuman san'at asarlarining hammasi ixtiyoriy xayol natijasida maydonga keladi.

Biroq shuni ham aytib o'tish kerakki, ixtiyoriy xayol ba'zan ixtiyorsiz xayolga o'tib ketishi mumkin. Shuning uchun ixtiyoriy xayol ixtiyorsiz xayolga batamom qiralgan holda ro'y bermaydi. Ixtiyoriy xayol jarayoni hamma beixyor qilinadigan xayol daqiqalarini o'z ichiga oladi. Masalan, raqamlar yoki kompozitorlar o'zlarining biror yangi asarlarini ixtiyoriy tarzda yaratayotganlarida

ba'zan ixtiyorsiz ravishda ayrim fikrlarga berilib ketishlari mumkin.

¹⁸ Макаров А. Г. Общая психология. — СПб.: Лань, 2001. — 287 бет (mazmunidan foydalanilgan)

¹⁹ Макаров А. Г. Общая психология. — СПб.: Лань, 2001. — 288 бет (mazmunidan foydalanilgan)

²⁰ Макаров А. Г. Общая психология. — СПб.: Лань, 2001. — 290 бет (mazmunidan foydalanilgan)

Realistik xayol - turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi.

Fantastik xayol - amalga oshmaydigan xayol turidir.

Tasavvur turlari: Ko'rish, eshitish, ta'm bilish, teri sezgisi va harakat (kinestetik) tasavvurlar mavjud deb hisoblaydilar.

Insonda ko'rish tasavvuri birmuncha aniq ifoda etilgan. Ko'rish tasavvurida buyum sifatleri rangi, shakli, relefi umumiy tarzda aks etadi. Ba'zan buyumning qandaydir bir tomoni aniq ko'rinib, boshqa tomonlari yo butunlay ko'rinmaydi, yoki esa juda kam aks etadi. Ko'rish tasavvurida odatda, buyumning tashqi ko'rinishi juda yaxshi ifodalanaadi. Ko'rish tasavvurlari ko'pincha aniq, rangdor bo'ladi, kam hollaridagina garchi aniq bo'lsalar-da xiraroq bo'ladi.

Ta'lim protsessida ko'rish tasavvuri katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'qish va yozishga o'rganish harflarning yozilishini aniq tasavvur etishni talab qiladi. Bu haqida o'quvchi to'la tasavvurga ega bo'lmasa to'g'ri yozolmaydi. Shu sababli bolalarni o'qish va yozishga faqat namunalar orqali o'rgatiladi, ana shu namunalarni to'liq o'zlashtirganlaridan so'ngina esa namunaga qarab emas, tasavvurlari asosida yozishga o'tadilar.

Tasavvurlarga asoslanib rasm ishlashda ko'rish tasavvurining roli kattadir. Tasvirlangan narsalardagi ko'rish tasavvurining sifati va rasm solishtirgich izchillik tasavvurlari suratning to'g'ri va sifatli chiqishini ta'minlaydi.

Hamma kishilarda odatda tasavvurlarning barcha turlari mavjud bo'ladi lekin shunday kishilar bo'ladi, ularda tasavvurining biri turi bir qadar ko'proq taraqqiy etgan bo'ladi. Rassomlarda ko'ruv tasavvuri, musiqachilarda esa eshituv tasavvuri ko'proq taraqqiy etgan bo'ladi. Inson faoliyatining murakkab turlarida tasavvurining barcha turlari ishtirok etishi mumkin.

Xayol sifatleri

Kishilarning xayoli kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi, fantaziya boyligi jihatidan farq qiladi. Xayol kengligi voqelikning kishilar faoliyati uchun bo'ladigan doirasi bilan belgilanadi. Masalan, kishi san'at, texnika, sport, bilimiga qiziqsa va ular haqida xayol qilsa, bunday kishining xayoli keng bo'ladi.

Xayolning umumdorligi biror narsaga nisbatan xayolning boyligi, xilma-xilligi bilan belgilanadi. Xayol keng bo'lsa, u mazmundor ham bo'ladi. Xayol faoliyatining biror sohasida namoyon bo'ladi. Xayolning kengligi va mazmundorligi kishining bilim va tajribasiga bog'liq.

Xayol kuchi quyidagilarga bog'liq bo'ladi.

Xayol kuchi ehtiyoj, qiziqish, istaklarning kuchiga bog'liq bo'ladi.

Masalan: faqat shu bugungi kun haqida o'ylasa, odamning xayoli kuchsiz bo'ladi.

Xayol kuchi hissiyotga bog'liq bo'ladi, hissiyot qanchalik kuchi bo'lsa, xayol shunchalik erkin bo'ladi. Xayol kuchi idrokka bog'liq bo'ladi. Biz idrok qilganimizda diqqat bilan idrok qilsak, xayol kuchayib, kengayadi, agar diqqatimiz xayolga qaratilsa, unda idrok qilsak, xayol kuchayib kengayadi, agar

diqqatimiz xayolga qaratilsa unda idrok susayadi. Masalan, ba'zan bir xayolga bo'lib, atrofdagi narsalarni ko'rmaymiz, eshitmaymiz.

Xayol kuchi kishining ahvoli, asab tizimiga bog'liq bo'ladi, ya'ni asab tizimining teikligiga, charchab qolganligiga, sog'liqiga va betobligiga bog'liq bo'ladi. Masalan: harorat juda baland bo'lishi natijasida obrazlar juda yorqinlashib ketadi. Natijada bunday paytda odam alahsiraydi. Gallyusinasiya xayolning kuchi namoyon bo'lishidir.

Xayolning realligi - voqelikni to'g'ri aks ettiruvchi xayoliy obrazlarning yaratilishi, geniy'larni xayolning kuchi real xayoldir. Masalan, kosmosga uchish xayolini oldindan tasavvur etish. Xayolning realligi odamning tajribasiga, bilimiga, tafakkuriga bog'liq bo'ladi. Obrazlar amalga oshmasa, bu real xayol bo'lmaydi, balki fantastik xayol bo'ladi. Bolalarda xayol kattalarga taqlid qilish orqali o'sadi. Bolalarda fantaziya juda kuchi, masalan, ular oddiy cho'pni "uchqur ot" deb tasavvur qilib o'ynaydilar. Ularni qahramon deb his qiladilar. Yaxshi yoshiga nisbatan boqcha yoshidagi bolalar xayoli bir muncha kengroq bo'ladi. Ularda xayol asosan kengroq bo'ladi. Bola kattalarga taqlid qilib, shoyyor, doktor bo'ladi va hokazo. Bog'cha yoshidagi bolalarda xayol ixtiyoriy bo'ladi. Masalan, katta odam bolaga kubiklardan uy yasash, rasm chizish kabi topshiriqlar beradi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli kattalar bilan muolagotda bo'lish tasirida o'sadi. Bolalar erraklarni tinglashni, voqealarni eshitishni yoqtiradilar.

Kattalarning fikrlarini eshitish natijasida bolalarda ular hali ko'rmagan namunalar to'g'risida obrazlar paydo bo'ladi. Bolalar o'yin vaqtida erkin obrazlarni yaratadilar.

Kichik yoshdagi bolalar xayolining o'sishi uchun tarbiyachining olib boradigan mashg'ulotlari, turi o'yinlarini tasavvur etishlari katta ahamiyatga ega. Asosan qiziqishlar xayolning o'sishiga yordam beradi.

Xayol faoliyati kuchi bo'lsa uning mazmuni kengroq idrok qilinadi. Xayol tasavvurlari esda olib qolish, esga tushirish bog'lanishlarini vujudga keltirish uchun tayanch bo'ladi. Tafakkur jarayonidagi yaqqollik xayol faoliyati tufayli sodir bo'ladi. Xayol faoliyati tufayli tug'iladigan hislar ko'pincha ancha kuchi va barqaror hislar bo'ladi.

Xayol va tasavvurining asosiy xususiyatlari

Xayol va tasavvur jarayoni va uning vujudga kelishi bir qancha sharoitlarga bog'liqdir. Xayol har doim ma'lum bir yo'nalishga ega. Odatda vujudga kelgan xayol odamning o'z faoliyati davomida nimaga intilayotgani, nimani istayotgani bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, tarbiyachi tarbiyalangan bolalarning kim bo'lib yetishishlarini xayolan ko'z oldiga keltirib ko'radi.

Xayolva tasavvur jarayonining xususiyatlaridan biri shundan iboratiki, xayol odamning ehtiyojlarini, qiziqishlarini va o'z oldiga qo'yan vazifalari bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Lekin shuni aytib o'tish lozimki, odamning

ehtiyotlari va qiziqishlari hamma vaqt ham istagan narsalarga erishavermaydi. Ko'proq odamning xayolida hamma vaqt qo'rqinchli narsalar gavdalana boradi. Ana shu paytdagi ehtiyojining ta'siri bilan odamning xayoli o'tirishda idrok qilingan narsalardan hosil bo'lgan tasavvurni ijodiy ravishda qayta ishlab, yangi obrazlar yaratib boshlaydi.

Xayolva tasavvur jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, xayol xamisha boy tajriba hamda bilimlarga asoslanadi. Agar bilim yetishmasa, xayoliy tasavvur hosil bo'lmaydi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga qadimgi davr insonlari haqida gapirilsa, ular xuddi hozirgi zamon kishilari singari tasavvur qiladilar. Buning asosiy sababi bilimlarning yetishmasligi, shuningdek mazkur yoshdagi bolalar tarixiy muzeylarda bo'lmaganliklari, teatrlarga tushib, tarixiy asarlarni ko'rganliklari, tarixiy kinolarni hali juda kam ko'rganliklari tufayli bunday tasavvurlarni hosil qilishning uddasidan chiqib olmaydilar.

Xayol va tasavvur jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan navbatdagi xotira tasavvurlarini analiz va sintez qisminan iboratdir. Xayol uchun material bo'ladigan tasavvurlar xayol yaratib beryotgan obrazlarga ko'pincha to'liq holda kirmasdan, balki qisman faoliyatida ro'y beradi. Bunda muayyan tasavvurlardan ajratib olingan elementlarni boshqa tasavvurlar bilan qo'shish va bir turkum qilish jarayoni ro'y beradi. Mana shunday sintez qilish faoliyatida foydalanadilar. ular yahi yozuvchilar o'z asarlaridagi haydomalarning tiplarini bir qancha ayrim tasavvurlardan vujudga keltiradilar.

Nihoyat xayol va tasavvurning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, agar idrok obrazlari ayni hozirgi paytdagi narsalar bilan bog'liq bo'lsa, xotira obrazlari o'tgan zamondagi narsalarning obrazlarini tiklash bilan bog'liq bo'lsa, xayoliy yo'l bilan yaratilgan obrazlar esa hozirgi va o'tgan zamongagina emas, balki kelajak zamonga, odam kelajakda nima ishlar qilishini xayolan tasavvur qilib ko'rish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tayanch tushunchalar: xayol, tasavvur, ongli xayol, ongsiz xayol, produktiv tasavvur, reproduktiv tasavvur, real voqealik, idrokka oid belgilar, tasavvur klassifikatsiyasi, yakka tasavvur, umumlashgan tasavvur, xayol jarayonlari, xayol turlari, xayol sifatleri, xayol va tasavvurning asosiy xususiyatlari.

Mavzu ni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xayolga ta'rif bering.
2. Tasavvur va xayolni farqlab bering.
3. Tasavvurning asosiy turlarini sanab o'ting.
4. Xayolning nerv-fiziologik asoslari. Xayolning sifatleri?
5. Xayol va tasavvurning asosiy xususiyatlarini aytib bering.

TAFAKKUR

Tafakkur haqida tushuncha

Tafakkur- bu ma'lumotlarni qayta ishlash, anglash va uzatish bilan bog'liq bo'lgan aqliy faoliyat Kognitiv psixologiya uni tadqiq qilish bilan shugullanadi.

Dunyodagi ko'plab hodisa, obyekt va insonlarni ifodalash uchun biz ularni ma'lum tushunchalar ostida birlashtirgan holda soddalashtiramiz. "Stul" tushunchasi o'zida stulning bir qancha turlari haqidagi tasavvurni mujassamlashtiradi. Masalan, bolalarning baland stuli, stol atrofidagi stullar, g'ildirakli stul va boshqalar. Agar tushunchalar mavjud bo'lmaganida biz narsalar-u fikrlarimizni tushuntirishimiz nihoyatda qiyin bo'lardi. Biz "jahli chiqdi" tushunchasining o'rniga shu holatdagi hatto harakat, mimika va ovoz tonini ko'rsatib berishimiz kerak bo'lar edi.

Ayrim narsalarni biz sifatiga ko'ra nomlaymiz. Uchta tomonli bo'lgan shakl uchburchak deb nomlanishini bilgan holda, barcha uch tomonli shakllarni uchburchak deb hisoblaymiz. Lekin odatda biz narsalarni prototiplar, yahi, tushunchani to'laroq izohlovchi misollari bo'yicha nomlaymiz. (Rosch, 1987). Sifatiga ko'ra qush deyilganda, hayvonot olamining bir vakili bo'lib, qanot va patlarga ega, tuxumdan chiqqan jonivor hisoblanadi. Ushbu belgilarga ko'ra qaldirg'och ham qush, g'oz ham qush. Lekin insonlarning prototiplari bo'yicha qaldirg'och ko'proq qush sifatida tasavvur etiladi. Agar ayrim narsa yoki hodisalar bizning prototiplarimiz doirasiga to'g'ri kelmasa, unda biz ularni klassifikatsiyalashtirishda qiyinlanamiz. Bizdagi kasallik belgilari bizdagi mavjud prototiplarga to'g'ri kelmasa, biz kasallikni darrov anglay olmaymiz. (Bishop, 1991)

Tafakkur jarayonida fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Tafakkur nutq - ti bilan chambarchas bog'langan. Insonda tafakkur va nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababi u ongli mavjudotdir. Inson o'z atrofidagi olamda bo'lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi, ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Seziq va idroklarga, xotira va tasavvurlarga nisbatan tafakkur odamlarning bilish va amaliy faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, kishi fikr qilish faoliyati jarayonida o'z idroki, tasavvuri va fikrlarining to'g'riligini, aniqligini va haqiqiyligini belgilab oladi, belgilarning voqeikka muvofiqligi yoki muvofiq emasligini belgilab oladi. Masalan, biz quyoshning har kun Sharqdan chiqib, G'arbga botayotganligini hammaniz ko'ramiz (idrok qilamiz). Biz Yerning qimirlamay turganligini, quyosh esa yer atrofidan aylanayotganligini ko'ramiz. Ko'p asrlar davomida juda ko'p kishilarning qilgan fikriy faoliyati natijasidagina, uzoq davom etgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasidagina haqiqatda quyosh yer atrofidan aylanmasdan, balki yer o'z o'qi atrofidan va quyosh atrofidan aylanayotganligi aniqlandi. Demak, quyoshning harakati to'g'risidagi bizning bevosita idrokimiz

vogelika, haqiqatga to'g'ri kelmas ekan, vogelikning to'g'ri aks etishi, ya'ni haqiqat — bunda tafakkur yordami bilan aniqlandi. Yuqoriroq bosqichlarda bunday fikrlash tafakkur jarayonidagi hosil bo'lgan hukmlar va tushunchalar ularning chinligini yoki chin emasliligini aniqlashda ifodalanaadi. Vogelik tafakkurda idrok va tasavvurlardagi qaraganda chuqurroq va to'laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok va tasavvur vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, bu narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Masalan, bizga malumki, agar yorug'lik nuri shisha prizma orqali o'tkazilsa, bu nur spektrining yetti rangga ajralib ketadi, bu ranglarni biz idrok qilamiz (ko'zimiz bilan ko'ramiz), lekin fizikadan bizga shu narsa malumki, bu nurlardan bo'lak, yana boshqa nurlar ham bor. Bu nurlar, infraqizil va ultrabinafsa nurlar deb ataladi. Bu nurlarni biz ko'rmaymiz, idrok qilmaymiz. Bunday nurlarning borligi tafakkur yordami bilan kashf qilingan. Tafakkur — vogelikning umumlashitirib aks ettirishidir. Biz ayrimayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz va tasavvur qilamiz, ammo umuman stol va stul to'g'risida, umuman mebel va umuman narsa to'g'risida esa fikrlashimiz mumkin. Umumiylash natijasida bir hukmning o'zida ayni vaqtda yakka bir narsa to'g'risidagina fikr qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga narsalarning butun bir turkumi to'g'risida ham fikr yuritish mumkin. Narsa yoki hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlari tafakkur yordami bilan ochiladi. Bunday bir misolni olib ko'raylik. Siz qalamni barmoqlaringiz bilan stoldan 20 santimetr balandda ushlab turtibiz. Barmoqlaringizni ochib yuborsangiz qalam stol ustiga tushadi, uning taqillagani (tovushi) eshitiladi. Biz bu hodisalarni birin-ketin idrok qilamiz va ularni xuddi shu tartibda tasavvur qilishimiz mumkin. Lekin biz bunda hodisalarning ma'lum vaqt ichida birin-ketin sodir bo'lishini idrok qilamiz, xolos, ammo ayni vaqtda tafakkur yordami bilan bu hodisalarning bir-biriga qonuniy bog'lanishidagi chuqurroq sabablar va bundan kelib chiqadigan natijalar ochiladi. Biz hodisalarning birin-ketin o'tayotganligiga qayd qilib qolavermaymiz, balki birinchi hodisa bo'lgani uchun ikkinchi hodisa ro'y beradi, undan keyingi hodisalarning har qaysisi (masalan, tovush) oldingi hodisa ro'y berganligi uchun (qalam stolga urilganligi uchun) sodir bo'ladi, deb aniq aytamiz va oldingi hodisaning ro'y berganligi keyin shu hodisani muqarrar keltirib chiqarganligini anglaymiz. Bu hodisalarda ularning ma'lum bir vaqt ichida birin-ketin sodir bo'lganligini idrok qilganimizdan tashqari, ular o'rtasida sabab-natija bog'lanishi, ya'ni qonuniy bog'lanish bor, deb aniq qilib aytamiz. Biz bu sababnatija tarixidagi bog'lanishning o'zini bevosita idrok qila olmaymiz, uni sezgi organlarimiz vositasi bilan his qilolmaymiz (ko'rmaymiz, ushlab ko'rmaymiz, eshita olmaymiz), balki shu bog'lanish borligini idrokimizga asoslanib turib fikr qilish yo'li bilan topamiz. Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat vogelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumiy lashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan

shug'ullanishiga imkon beradi. Bosh miya po'stining biron-bir uchastkasi emas, balki bosh miyaning butun po'sti qiliyotgan faoliyat tafakkurning nerv-fizologik negizidir. Analizatorlarning miyaga borib tushgan uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab muvaqqat bog'lanishlar tafakkur qilish uchun birinchi galda ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o'tilganidek, ikkinchi signal sistemasi bilan birinchi signal sistemasiing bir-biriga ta'sir o'tkazishida muvaqqat bog'lanishlarning vujudga kelishi tafakkurning spetsifik nerv-fizologik mexanizmlaridir. I.P. Pavlov aytgandek, «avvalo, umuminsoniy empirizmini, (insonning tajribasi, o'ttirgan bilimlari) nihoyat atrof olamni va insonning o'zini ham bilish uchun oliy qurol bo'lgan fanni ham yaratuvchi maxsus insoniy, oliy tafakkur» ayri shu bog'lanishlar asosida voqe bo'ladi. Tafakkurni yo'naltirib turadigan asosiy nerv-fizologik negiz shunday yo'l ko'rsatib turuvchi refleksdirki, bu refleks tafakkur qilish jarayonlarida katta rol o'ynaydi. Odam tevarak-atrof olamni shaxsan bilib olayotgan chog'ida yoki o'zi harakat qilayotgan chog'ida emas, balki shu bilan birga, u o'zining ro'szaki yoki yozma) nutqi bilan o'z fikrlarini boshqa odamlarga o'tkazayotganida hamda boshqa odamlarning fikr va bilimlarini o'zi o'zlashtirib olayotgan chog'ida ham fikr qilaveradi. Odamlarning bilish va amaliy ehtiyojlar, tevarak-atrof va hayot to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga imtilisi tafakkur qilish faoliyatini vujudga keltiradi va bu faoliyatni kuchaytiraveradi. Shu sababli tafakkur qilish jarayonlarining muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi shu jarayonlarning muhim xususiyatidir.

Tafakkur operatsiyalari

Tafakkur qilish jarayoni biror psixik elementlarning shunchaki bir-biri bilan almashinishi tarzida voqe bo'lmagan, balki alohida aqliy operatsiyalar — biz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan narsalar (obyektlar) ustida, biz umumiy lashtirish va abstrakt tushunchalarga ega bo'lgan obyektlar ustida aqliy harakatlarni qilish tarzida voqe bo'ladi. Tafakkur qilish — operativ jarayondir. Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiy lashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo'ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi.

Taqqoslash. Taqqoslash — shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o'rtasida o'xshashlikni yoki farqni, tenglik yoki tengsizlik borligini bir xillik yoki qaragma-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanaadi. K.D. Ushinskiy tafakkur va bilish jarayonlaridagi taqqoslashning juda muhim ahamiyati borligini uqitib, bunday degan edi: «...taqqoslash har qanday tushunchaning va har qanday tafakkurning asosidir. O'landagi narsalarning homamasi taqqoslab ko'rish yo'li bilan bilolmasak boshqa yo'l bilan bilolmaymiz, agar biz hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bilib olishimiz mumkin bo'lmagan biron yangi narsaga duch kelganimizda edi (boshqari shunday narsa bor bo'lsa), u holda biz shu narsa to'g'risida hech qanday fikr hosil qila olmagan bo'lar edik va uning to'g'risida biror so'z aytia olmagam bo'lar edik»

Narsalarning o'xshashligi yoki tafovuti dastlab bevosita sezgilarda va idroklarda aks etadi. Taqqoslash fikr qilish jarayoni bo'lib, bu jarayon idrok qilinayotgan narsalarning o'xshashligi yoki tafovutini aniqlash lozim bo'lganda, yoxud sezgilarda va idrokda bevosita aks etmagan o'xshashlik va tafovutni topish lozim bo'lgan hollarda voqe bo'ladi. Amaliy taqqoslash bir narsani ikkinchi narsaga solishtirib ko'rilayotganda, masalan, bir qalamni ikkinchi qalamga, o'lchov chizig'ini taxtaga va shu kabi narsalarga solishtirib ko'rilayotganda sodir bo'ladi. Biz masofani santimetrli lenta bilan o'lchayotganimizda, og'irlikni tortib ko'rayotganimizda va boshqa shu kabi hollarda taqqoslash jarayoni sodir bo'ladi. Taqqoslash tasavvur qilinayotgan yoki o'ylanilgan narsalarni bir-biriga fikran solishtirib ko'rish yo'li bilan ham bo'ladi. Masalan, biz o'zimiz turgan binoni boshqa ko'chadagi binolar bilan taqqoslab ko'rib, ularning o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni topishimiz mumkin. Psixologiyani o'rganayotgan vaqtimizda biz hamisha ayrim psixik hodisalarni bir-biri bilan taqqoslaymiz va ularning o'xshashlikni ham, tafovutini ham topamiz. Ayrim kishi-larni bir-biriga taqqoslab, ularning qobiliyatlarida, xarakterida, qarashlarida va hokazolarda tafovut yoki o'xshashlik borligini topamiz, ikkita matematika ifodani: $6 + 2$ bilan $10 - 2$ ni taqqoslab, bu ifodalar qiymat jihatidan bir-biriga barobar (aynan) ekanligini bilib olamiz. Voqealarni chuqurroq va aniqroq bilish uchun bir-biriga juda o'xshash narsalardagi tafovutni va bir-biridan juda ham farq qiladigan narsalardagi bir-biriga o'xshashlik tomonlarini topa olish qobiliyati, ya'ni narsalardagi tafovutni o'xshashlik tomonlarini topa olish qobiliyati, ya'ni tafakkurning mana shunday qobiliyati, ayniqsa, katta ahamiyatga egadir. «Agar siz — deb yozgan edi Ushinskiy, — tashqi tabiatning biror narsasini ravshan tushunib olishni istasangiz, uning o'ziga juda o'xshash bo'lgan narsalardan tafovutni topingiz va uning o'zidan juda uzoq bo'lgan narsalar bilan o'xshashlik tomonlarini topingiz. Ana shunda siz shu narsaning eng muhim hammasi belgilarini payqab olasiz, demak, shu narsani tushunib olasiz»

Analiz va sintez. Analiz — narsani (buyumlarni, hodisalarni, jarayonni) tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo'lish demakdir. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Biror moddiy narsani uning moddiy elementlariga ajratib bo'lish eng oddiy shakldagi analizdir. Stolni ayrim qismlarga bo'lish — uning oyloqlarini, yashiklarini va boshqa shu kabi belgilarni biridan ajratib olish mumkin. Kimyogar suvni vodorod bilan kislorodga ajratib yuboradi. Mana shu hollarning hammasida analiz narsalar va hodisalar bilan qilinadigan ishharakatlarda ifodalaniishi mumkin. Analiz obyektlarni amalda ajratib bo'lmaydigan elementlarga yoki belgilarga bo'lishda ham ifodalaniishi mumkin. Bu fikrni analiz, ya'ni fikrda qilinadigan analizdir. Chunonchi, stolni analiz qilgan vaqtimizda biz uning tusini, og'irligi va boshqa shu kabi belgilarni bilib olamiz. Suvning tiniqligini, og'irligini, bug'lanishini, haroratini, zichligini ham fikran ajratish mumkin. Psixologiyani o'rganayotganimizda biz har bir psixik hodisani bir-biri bilan taqqoslabgina qolmasdan, balki, shu bilan birga, analiz ham qilamiz. O'qish mashg'uloti vaqtida tafakkurning analiz qilish

qobiliyati katta o'rin tutadi. Chunonchi, savod o'qitish, odatda, mutqni analiz qilishdan: gapni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi. Matematika masalasini yechish analiz qilishdan — dastlab bir qancha ma'lum sonlarni, so'ngra esa nomalum sonlarni topishdan boshlanadi. Sintez — analizning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon obyektni ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini birbutun qilib qo'shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa, yoki hodisa tarkibiga kirgan elementlar, yoki qismlar tarqasida olingan buyum yoki hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir, amaliy analiz bo'lgani singari, sintez ham amaliy bo'lishi mumkin. Chunonchi, mashinaning ayrim detalari bir-biriga tegishli tarzda birlashtirilganda, ya'ni ular sintez qilinganda, yaxlit, butun mashina, masalan, odimlovchi ekskavator hosil bo'ladi. Kislorod bilan vodorodning kimyoviy birlashtirish natijasida suv hosil bo'ladi. Mana shu va shunga o'xshash hollarning hammasida sintez fikr qilish jarayonlarida va ish-harakatlarda sodir bo'ladi, bu ish-harakatlar natijasida bir butun, yaxlit moddiy narsa hosil bo'ladi. Analiz singari, sintez ham, fikran bo'lishi mumkin, ya'ni sintezda ayrim elementlarni faqat fikrda bir butun qilish mumkin. Masalan, biz chet tiling o'zimizga ma'lum bo'lgan so'zlardan mazmunli gap tuzayotganimizda yoki ana shunday ma'lum so'zlardan tarkib topgan tayyor gapni o'qib tushunayotganimizda xuddi shunday jarayon sodir bo'ladi. Analiz singari, sintez ham, o'qish jarayonida katta o'rin tutadi. Masalan, o'qishga o'rganish vaqtida tovushlar va harflardan bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan gap tuziladi. Mana shuning o'zi - sintezdir. Adabiy asarlardagi ayrim qahramonlarning yoki ularning arboblarining qilgan ishlarini, fikrlarini, hisslarini tasvirlash va analiz qilish yo'li bilan hamda sintez qilish natijasida shu arboblarning, shu qahramonlarning xarakteristikasi hosil bo'ladi. Analiz va sintez yo'li bilan muayyan bir butun narsaning har bir ayrim qismining, har bir ayrim elementning shu butun narsadagi roli va ahamiyati, shu qismlar va elementlarning bir-biriga bog'lanishi, narsaning asosiy (muhim) belgilari va ikkinchi darajali belgilari aniqlanadi. Analiz va sintez hamisha birlikda o'tadi. Bu butun narsa analiz qilinadi. Binobarin, sintez analizni taqozo qiladi. Muayyan qismlarni, elementlarni, belgilarni bir butun qilib birlashtirmoq uchun avvalo shu qismlarni, shu elementlarni va belgilarni analiz natijasida ajratib olish lozim. «Tafakkur, — deb yozgandi I.P. Pavlov, — albatta asosiy asoslardan, sintezdan boshlanadi, so'ngra sintezning ishi shu analiz bilan qo'shiladi. Analiz, bir tomondan, reseptorlarimizning, periferiya uchlarining analizatorlik qobiliyatiga, ikkinchi tomondan esa, bosh miya katta yarim sharhning postida takomil topuvchi va voqealikka muvofiq bo'lmagan narsalarni voqealikka muvofiq bo'lgan narsalardan ajratib turuvchi tormozlanish jarayoniga asoslanadi. Odam bosh miyasi katta yarim sharhning postida qilinadigan analiz va sintez ham birinchi, ham ikkinchi signal sistemalarining

signallarini o'z ichiga oladi. Birmunchi signal sistemasi bergan behisob signallarining yangi umumlashuvlari ham ikkinchi signal sistemasida yuksak analiz va sintez qilinadi. Abstraksiyalash, umumiyлаshirish va aniqlashirish Abstraksiya — shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunda tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha obyektning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu obyekt yoki obyektlardan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda obyektdan ajratilgan bir belgining o'zi tafakkurning mustaqil obyekti bo'lib qoladi. Abstraksiya, odatda, analiz jarayonida yoki analiz natijasida sodir bo'ladi. Masalan, sinfdagi doskani tasviri analiz qilish jarayonida uning faqat bir belgisi — qoraligini ajratib olish mumkin va qora doska to'g'risida fikr balki doskani qoraligi to'g'risida, so'ngra esa umuman qoralik to'g'risida fikr qilish mumkin. Biz odamlar, samolyotlar, suv, ot va hokazolarning ko'z oldimizdagi harakatini kuzatib turib, ularning bitta umumiy belgisini — oldimizdagi harakatini olishimiz va umuman harakat to'g'risida fikr qilishimiz harakatini fikran ajratib olishimiz yo'li bilan bizda uzunlik, kenglik, miqdor, mumkin. Chunonchi, abstraktlash yo'li bilan bizda uzunlik, kenglik, miqdor, tenglik, son, qiymat va boshqa shu kabilar to'g'risida abstrakt tushuncha hosil bo'ladi. Buyumlarni bir-biri bilan taqqoslash chog'ida ham abstraksiyalash jarayoni sodir bo'ladi. Biron muayyan jihatlarda hamisha bir-biri bilan taqqoslanadi, buyumlar yoki hodisalarning muayyan belgisiga (tusiga, shakliga, harakatlarning tezligiga va shu kabilar) qarab, ular bir-biri bilan taqqoslanadi. LP. Pavlov fikr qilish faoliyatida abstraksiyaning alohida ahamiyati borligini uqitib, bunday degan edi: «Umumiyлаshirishga keng imkoniyat ochib bergan so'zning alohida xususiyati bo'lish abstraksiya tufayli biz vogelchalar shakliga munosabatimizni vaqt, makon, sababiyat kabi umumiy tushunchalar shakliga solganimiz» Nutq til bo'lganidegina abstraksiya qilish mumkin. So'z bo'lmasa, hech bir tushunchani ifodalab bo'lmaydi. Umumiyлаshirish — tafakkurda aks etgan bir turkum natsalarning o'xshash, muhim belgilarini shu natsalarga o'xshash bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir. Masalan, olinlarda, noklarda, o'riklarda, apelsinlarda va boshqa shu kabilar bo'lgan o'xshash belgilar bitta tushunchada birlashadi, biz buni meva degan so'z bilan ifodalaymiz. Daraxtlar, o'tlar, gullar va boshqa shu kabilar «o'simlik» degan tushunchada umumiyлаshiriladi, o'simlik va hayvonlar «organizm» degan tushunchada umumiyлаshiriladi, harf va raqamlar «belgi» degan bir tushunchada umumiyлаshiriladi. Umumiyлаshirish tafakkurning abstraktlashiruvchi faoliyati bilan chambarchas bog'langandir. Abstraktlashirish jarayonida ayrim natsalarning o'xshash belgilari aniqlanadi va shu o'xshash belgilar umumiyлаshiriladi. Abstraktlashirish singari, umumiyлаshirish ham so'z yordami bilan hosil bo'ladi. Har qanday so'z yakka bir natsani yoki hodisani emas, balki o'xshash yakka-yakka obyektlarning ko'pchiligini ifodalaydi. Chunonchi, biz stol degan so'zni aytganimizda, bu bilan biz yakka-yakka ko'p stollarga taalluqli bo'lgan fikrni ifodalaymiz. Fikrdagi abstraktlashirish va umumiyлаshirish jarayonlari ikkinchi signal sistemasining speisifik, o'ziga xos mexanizmlariga tayanadi. «Nutq signallari (suz) tufayli, —

deydi LP. Pavlov, - ...nerv faoliyatining yangi tamoyili — abstraktlash va shu bilan birga, oldingi sistemaning behisob signallarini umumiyлаshirish vujudga keladiki, bunda ham o'z navbatida ana shu umumiyлаshirilgan yangi signallar tug'in analiz va sintez qilinaveradi...»

Aniqlashirish bir jihatdan qaraganda abstraksiyalash va umumiyлаshirish jarayoniga qarama-qarshi yoki shu jarayonning teskarisidir. Aniqlashirish, birmunchidan, umumiy abstrakt belgini yakka obyektlarga tatbiq yoki mansub qilishda ifodalaydi. Masalan, biz «oq» deganimiz-ko'z oldimizga qor, qog'oz, paxta va shu kabilar kelishi mumkin. Biz «kuch» deganimizda odamni, mushinani, yomg'irni va shu kabilar tasavvur qilishimiz mumkin. «To'rtburchakli» deganimizda bu belgi kvadrat-trapetsiyaga, parallelogramma, kitoblarga va shu kabilar tatbiq qilinmumkin. Ikkinchidan, aniqlashirish umumiy va yakka belgilari kamroq bo'lgan umumiylikni ochishda ifodalaydi. Masalan, biz olma, olxo'rni uzumi mevalar gatoriga, stol, stul, divan va shu kabilarini mebel gatoriga qo'shamiz. Umumiy fikrlarni bayon qilish va izohlash chog'ida biz, odatda, keltiradigan misollarning hammasi aniqlashirishning o'zidir.

Klassifikatsiya va sistemaga solish. Atrofdagi olarni bilish uchun bitta natsani emas, balki ko'pchilik va xilma-xil natsalarni o'rganishga to'g'ri keladi. Shu sababli o'rganish uchun qulaylik tug'dirish maqsadida, shuningdek, analiy maqsadlarda mana shu ko'pchilik natsalarni guruhlarga turkumlarga bo'lishga to'g'ri keladi. Ko'pchilik natsalarni (natsalarni va hodisalarni) guruhlarga bo'lish klassifikatsiya yoki turkumlarga bo'lish deb ataladi. Har birgurudagi muayyan natsaga xos bo'lgan biror belgisiga qarab, shu natsalar turkumlarga bo'linadi. Natsalarning umumiy belgisi borligi ularni biror jihatdan bir-biriga o'xshash qilib qo'yadi.

Masalan, kutubxonada kitoblar mugovasiya, formatga, mazmuniga va shu kabi belgilariga qarab turkumlarga bo'linishi mumkin. O'quvchilarni, odatda, yosh yoki jinsiy belgilari bo'yicha, ulgurushlariga va shu kabilar qarab turkumlarga bo'ladilar. Turkumlarga bo'lish uchun asos qilib olingan belgi turkumlarga bo'lishning asosi deb ataladi. Sistemaga solish shundan iborat bo'ladiki, bunda ayrim natsalar, faktlar, hodisalar va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tug'an o'rni qara bo'lgan yoki mantiqiy tartibda joyлаshiriladi. Shu sababli makoniy xronologik va mantiqiy belgilar asosida sistemaga solish holati ajratiladi. Mebelning xonadagi joyлаshirilishi, daraxtlarning boqqa o'ltirilishi makoniy sistema namunasi bo'la oladi. O'rinishda bo'lib o'tgan vogelarning xronologik tartibda joyлаshirilishi shu vogelarning vaqtiga qarab sistemaga solish namunasi bo'la oladi. Matematika, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materialning joyлаshirilishi mantiqiy sistemaga solishning namunasidir. Sistemaga solish, odatda, turkumlarga bo'lish asosida o'tkaziladi va mana shu turkumlarga bo'lishning yakuni desa bo'ladi.

Tafakkur shakllari

Hukm va xulosa chiqarish. Tafakkur qilish jarayonida, ayrim fikr yuritish operatsiyalarida bizda paydo bo'ladigan fikrlar hukm tariqasida shakllanadi. Hukm — biror narsa (yoki biror kimsa) haqida biror nimani tasdiqlash yoki inkor qilish demakdir. Masalan, «Bu stol — yog'och stol», «Tyuqushlar ucha olmaydi», «Hamma fanlar foydalidir». Hukmda biror nima haqida yoki biror kimsa haqida tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsa hukm mavzui bo'ladi. Hukmlarda buyumda biror belgilarning borligi yoki yo'qligi — uning boshqa buyumlar bilan bog'lanishi va munosabatlari tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Shu sababli hukmlar sifatiga qarab bir-biridan farq qilinib, tasdiqlovchi hukm va inkor qiluvchi hukm deb ayriladi. Shu hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar esa hukmlarning mazmunini tashkil qiladi. Hukm mavzui va uning mazmunini idrok qilinishi, tasavvur etilishi va fikrga keltirilishi mumkin, ya'ni tushunchalar tarzida ifodalaniishi mumkin. Binobarin, idrok, tasavvur tushunchalar ikki elementining (mahsullarining) mazmunini hukmning psixologik (subyektiv) jihatini tashkil etadi. Lekin elementlarning bu qo'shilishi ularning assotsiatsiyalar asosida kema-ket bir-biri bilan almashinish tariqasidagina tushunish yaramaydi. Bunda shunday bog'lanish ham bo'lishi mumkin. Lekin tasdiqlash yoki inkor qilishning o'zidagi mazkur elementlarning bog'lanishi hukm (fikt) spetsifikasini tashkil etadi. Hukmning tuzilishini quyidagi sxema tarzida tasvirlash mumkin. Bu yerda ikki to'g'arak — S bilan P hukm elementlaridir. C chizig'i tasdiqlashni yoki inkor qilishni ifodalaydi. Nuqta A chizig'i bo'lishi mumkin bo'lgan assotsiatsiyali bog'lanishni ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, hukmlar so'zlarda ifodalaydi. Gapda bo'lgani kabi hukmda ham hukmning ikki bo'lagi gaplarda ifodalaniadi. Gapda bo'lgani kabi hukmda ham hukmning ikki bo'lagi egesi yoki subyekti (S) hamda hukmning kesini yoki predikati (P) bo'ladi. Hukmning gapdan farqi faqat shuki, hukmdagi ega va kesim so'zlardan emas, balki idroklardan, buyum va uning to'g'risida so'z bilan ifodalanadigan tasavvur va tushunchalardan iborat bo'ladi. Shu sababli, hukmning so'z bilan ifodalanishi uchun ham tilning grammatik tuzumi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Fikt hukm to'g'ri grammatik shaklda ifodalanaganligi uchun ham uni (fikt) izoh qilgan kishi uchun va boshqa kishilar uchun aniq va ravshan bo'lib qoladi. Bizning hukmlarimiz yo bir buyumga, yoki buyumlarining butun bir turkumiga, yoxud buyumlar turkumining biror qismini taalluqli bo'lishi mumkin. Bir buyumga yoki bir hodisaga taalluqli hukmlar yakka hukm deb ataladi. Buyumlarining bir butun turkumiga taalluqli hukmlar umumiy hukmlar deb ataladi. Masalan, «Motorlarning hammasi elektr tokini o'tkazmaydi». Buyumlarining biror turkumi qisminigina taalluqli bo'lgan hukmlar juziy hukmlar deb ataladi. Masalan, «Bazi jismlar elektr tokini o'tkazmaydi». Hukmlar voqelikka munosabati jihatidan ham bir-biridan farq qiladi, hukmlar voqelikka muvofiq kelishi yoki muvofiq kelmastligi mumkin. Shu jihatdan qaraganda, ularchinam hukm, noto'g'ri (xato) hukm vataxminiy bo'lishi mumkin. Voqelikka muvofiq bo'lgan, shu voqelikni to'g'ri aks ettiradigan hukmlar chinakam hukmlar deb ataladi.

Biror buyum to'g'risidagi chinakam hukmlar shu buyum to'g'risidagi bilimdir. Bilim hukmlarda shakllanadi, lekin har qanday hukm ham bilim bo'lmaymaydi. Voqelikka muvofiq kelmaydigan, uni noto'g'ri aks ettirayotgan hukmlar yo'lg'on yoki xato hukmlar deb ataladi. Masalan, «Ikki karra uch sakki» degan hukmlar muna shunday noto'g'ri hukmlardir. Bu xato, noto'g'ri hukmlar bilimlikni ifodalaydi. Chin yoki yo'lg'on hukm bo'lib chiqishi mumkin bo'lgan, ya'ni buyumga muvofiq kelishi mumkin bo'lgan, muvofiq kelmastligi ham mumkin bo'lgan hukmlar taxminiy hukmlar deb ataladi. Masalan, «Ertaga yomg'ir yog'ishi mumkin», «Ehtimol, Marsda hayot bordir» kabi. Tovar-katof olamni bilish jarayonida tafakkur narsalar va voqelik hodisalari to'g'risida hamisha chin hukmlar chiqarishga yo'nalgan bo'ladi. Fikryuritishjarayonlarining natijalari hukmlarda gavdalanirladi. Lekin ayni vaqtda hukmlar ham tafakkurning shaklidir. Bizda tafakkur faoliyati odatda, muhokama shaklida o'tadi. Muhokama esa bir-biri bilan bog'langan hukmlar «zanjiri» dir, ammo bu «zanjir» da ayrim hukmlar shunchaki bir ketidan biri kelavermaydi, balki ayni vaqtda tafakkurning biror muayyan narsasiga (yoki masalasiga) taalluqli bo'lib, bir-biri bilan bog'lana boradi. Shu tufayli muhokamalarining sistemali, muayyan va mantiqiy bo'lishiga erishiladi. Tafakkur jarayonlari qo'yilgan maqsadga muvofiq hukmlar shunday birlaribda kema-ket kelishi (bir-biriga taalluqli bo'lishi) mumkin, hukmlarning bunday tartibda kelishining o'zida yangi hukmlar paydo bo'ladi va shakllanadi, shuningdek, mavjud hukmlarning chinligi yoki yangilishligi ravshan bo'lib qoladi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, hukmlar har qancha mantiqiy bo'lsa ham ularning vujudga kelishida va muhokamalarida assotsiativ jarayonlar ham hamisha katta o'rin tutadi.

Xulosa chiqarish. Taqqoslash, analiz va sintez qilish, abstraktlashtirish va umumiy lashtirish jarayonlarida avvalo bizning sezgi organlarimiz bevosita sezib olishi mumkin bo'lgan hodisalar va narsalarning xususiyatlari, ularning bog'lanishlari hamda munosabatlari aks ettiriladi. Shu yo'l bilan bizda bevosita idrok va tasavvurlarga asoslangan hukmlar hosil bo'ladi. Masalan, «Kecha bog'ingizga qaraganda issiqroq bo'ldi» (taqqoslash), «Daraxt ildizlar, tana, hujayralar, shoxlar va barglardan iborat bo'ladi» (analiz) degan hukmlar mana shunday hukmlardir. Lekin, ilgari ayrib o'tilganidek, voqelikni bilish jarayonida avval bizning idrok va tasavvurlarimizda bevosita aks etmagan narsa yoki hodisalarni, bu narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini ochib berishga to'g'ri keladi. Bunday narsa yoki hodisalar bevosita, asosan, xulosa chiqarish yo'li bilan aks ettiriladi (bilinadi). Xulosa chiqarish — tafakkurning tarixan tartib topgan mantiqiy shaklidir, tafakkurning shu mantiqiy shakli vositasi bilan bir yoki bir necha ma'lum hukmlar (asoslar) dan yangi hukm — xulosa chiqariladi. Masalan, «Osmondagi hamma jismlar engil» Quyosh ham, Yerda kabi elementlardan tartib topgandir, «Quyoshda gely element bor» degan ikkita hukm bor. Mana shu ikki hukmdan: «Demak, Yerda ham gely bor» degan yangi hukm chiqariladi. Yerda gely borligi dastlab natijali ana shunday xulosa chiqarish yo'li bilan kashf qilingan edi. So'ngra bu

xulosa amaliyotida ham tasdiqlandi. Xulosa chiqarishning uch turi bor. Bular — induktiv xulosa chiqarish, deduktiv xulosa chiqarish va analogiyaga asosan xulosa chiqarishdir. Induktiv xulosa chiqarish (yoki induksiya) xulosa chiqarishning shunday bir turidirki, bunda bir nechta yakka yoki ayrim hukmlardan bitta umumiy hukm chiqariladi. Masalan, shunday hukmlar bor: «Yog'och qizdirishdan kengayadi», «Temir qizdirishdan kengayadi», «Suv istishdan kengayadi», «Havo qizdirishdan kengayadi» va hokazo. Biz mana shu hukmlar (asoslar) dan yangi umumiy hukm (xulosa) chiqarib, demak, «jismlar qizdirishdan kengayadi» deb aytamiz. Bunday holda o'qituvchi o'quvchilarga aniq eshitilmayotgan undosh tovushning aniq eshitilmog'i uchun bu so'zni unli tovush bilan boshqaradigan qo'shimcha qo'shib turilishni taklif qiladi. O'quvchilar bu so'zni unli bilan boshlanadigan qo'shimcha qo'shib bir nechta marta turlab (kitobim, kitobim, kitobi) mashq qilganlardan keyin, p emas, balki b yozish kerakligini bilib oladilar. So'ngra shunday so'zlardan bir nechtasini turlab mashq qilgandan keyin, o'quvchilar o'qituvchining yordami bilan: «Yozish vaqtida so'zlardagi aniq eshitilmaydigan undosh tovushlarni aniq eshitilmog'i uchun shu so'zlarni unli tovushlar bilan boshlanadigan qo'shimcha qo'shib turlash kerak ekan» degan xulosaga (umumiy hukmga) keladilar. Mana shuning o'zi induksiyaning yoki induktiv fikr qilishning misolidir. Umumiy hukmda yakka hukmga o'tish yo'li bilan xulosa chiqarishni deduktiv xulosa chiqarish (yoki deduksiya) deb ataymiz. Masalan: «Jismlarning hammasi qizdirishdan kengayadi». Asos: «Havo jismdir». Asos: «Demak, havo ham qizdirishdan kengayadi» — xulosa. O'qitish jarayonida umumiy qoidalamni juziy, yakka-larga tatbiq qilish vaqtida o'quvchilar deduksiya yo'li bilan fikrlaydilar. Masalan, o'quvchilarga oxiridagi undosh tovush aniq eshitilmaydigan so'z uchirib qoladi (kitob, ozod va hokazo). Ular umumiy qoidani bilganliklari sababli o'sha qoidani mana shu juziy holda tatbiq qiladilar va aniq eshitilmayotgan undosh tovushning aniq eshitilmog'i uchun so'zni turlab, uni to'g'ri yozadilar. Analogiya yo'li bilan, ya'ni o'xshashligiga qarab xulosa chiqarish juziy yoki yakka hukmlarga asoslanib juziy yoki yakka hukm keltirib chiqarishdir. Bog'cha yoshidagi bolaning quyidagi muhokamasini misol qilib keltirish mumkin. Bola bunday muhokama yuritadi: «Ana, xolam kelayotir. U menga konfet beradi». Agar bolaning shu muhokamasini analiz qilib ko'rsak, uning fikr yuritishi quyidagi tarzda borganligini ko'ramiz: «O'tgan safar xolam kelgan edi». Asos: «O'shanda xolam menga konfet olib kelgan edi». Asos: «Xana xolam kelayotir». Asos: «Demak, xolam menga yana konfet beradi» — xulosa. Yana bir misol: «O'tgan yil iyun oyining boshida sel yoqgan edi». Asos: «Iyun kelayotir». Asos: «Demak, tez orada qattiq, sel yog'sa kerak» — xulosa. Xulosa chiqarishga doir keltirilgan bu misollar kengaytirilgan mantiqiy shaklda beriladi. Fikr qilish jarayonida xulosa chiqarishning ayrim qismlari, odatda, tushirib qoldiriladi. Ko'pincha, ayrim asoslar hammaga ma'lum hukm bo'lganligi, shu sababli, takrorlab o'tirishning hojati yo'qligi tufayli tushirib qoldiriladi. Masalan: «Fanlarning hammasi foydalidir. Psixologiya — fandir.

Demak, psixologiya foydalidir», degan mazmundagi kengaytirilgan shaklda xulosa chiqarish o'miga biz, odatda, shu xulosa chiqarish yo'lini qisqartirilgan shaklda ifodalab, bunday deyimiz: «Hamma fanlar foydalidir, demak, psixologiya ham foydalidir», yoki «Psixologiya — fandir, demak, u foydalidir», yoki «Psixologiya foydalidir, chunki hamma fanlar foydalidir». Biz o'zimizning yoki boshqalarning fikrlarini tekshirib ko'rish, asoslab berish, isbotlab berish lozim bo'lganidagina xulosa chiqarishning to'liq, kengaytirilgan mantiqiy shakldan foydalanamiz. Hukm yuritishning muakkab jarayonlari hamisha tutash xulosalar chiqarishdan iborat bo'lib, bu jarayonlarda xulosalarning hamma turlari bir-biri bilan chatishib ketadi.

Hukmning haqligiga ishonch hissi. Tafakkur jarayoni hamisha obyektiv dunyoda mavjud narsa-hodisalar to'g'risida chin xulosa chiqarishga, shuningdek, xato xulosa va hukmlardan qutulishga qaratilgan bo'ladi. Mana shunday chin haqiqatni qidirayotgan kishida, odatda, o'zi tayyor holda o'qib olayotgan yoki fikrlash jarayonida paydo bo'layotgan hukmlarning chinligiga, haqligiga ishonch yoki shubha hissi tug'yladi. Ishonch yoki shubhalanish darajasi turlicha bo'ladi. Biz biror hukmning chinligiga, muhokamalarimizning to'g'riligiga to'la amin bo'lganimiz, ishonimimiz yoki aksincha, shubhalanishimiz yoxud butunlay ishonmasligimiz mumkin. Shunday hukmlar, xulosalar borki, ularni o'qib olinib yoki hosil qishda kishida shubhalanish hislari, ya'ni ishonchdan ishonchsizlikka o'tish va aksincha, shubhadan ishonchga o'tish hislari paydo bo'ladi. Vogelikni bevosita idrok qilish, sezishga asoslangan hukmlar bizda katta ishonch hissi tug'diradi. Odatda, biz bunday hukmlarni ko'rinish urgan, o'z-o'zidan ravshan haqiqat deyimiz. Lekin idrok qilish vaqtida noto'g'ri idrok qilish holatlari ham bo'lganligi sababli, mana shunday idroklarga asoslangan hukmlar bizda ba'zan ishonchsizlik yoki shubhalanish hislarini tug'diradi. Ba'zan biz «o'z qulog'imizga va o'z ko'zimizga ishonmay qolaniz». Xotira tasavvurlariga asoslangan (o'rinishni esga tushirgandagi) hukmlar ba'zan kishida shubha tug'diradi va ularga kamroq ishonch bilan qaraymiz. Xulosa chiqarish yo'li bilan hosil qilinadigan hukmlar xotira tasavvurlariga asoslangan hukmlarga qaraganda ko'p daraja inobatli, ishonchli bo'ladi, lekin, shunday bo'lsa ham, biz xulosa chiqarish yo'li bilan hosil qilingan yoki shu yo'li bilan hosil qilinadigan hukmlardan hamma vaqt ham qanoat hosil qilavermaymiz. Buning sababi, hunchidan, mana shu hukmlarda vogelikning to'g'ri aks ettirilganligiga qay qayda ishonch borligiga va ikkinchidan, kishi xulosa chiqarishning mantiqiy shakllarini qanchalik egallab olganligiga bog'liq bo'ladi. Agar kishi xulosa chiqarish shakllarini to'la egallab olmagan bo'lsa, u to'g'ri va chin asoslar bo'lgan haqlarda ham xato xulosa chiqarishi yoki chin xulosani noto'g'ri xulosa deb qabul qilishi mumkin. Odanning mavjud etijoylari va manfaatlari hukmning haqligiga va muhokamaning to'g'riligiga hamda qay darajada ishonch bilan qaralishga ta'sir qiladi. Bizning etijoylarmizga va manfaatimizga mos kelgan hukmlar darov chin hukm deb aytila beradi, bizning manfaatimizga mos

kelmagan hukmlarni, xulosalarni esa, ko'pincha, biz noto'g'ri xulosalar deb qabul qilamiz. Hukm chiqarishda ishonchning qay darajada osonlik bilan vujudga kelishi har bir shaxsning individual xususiyatlariga ham bog'liqdir. Odamlar hissiyotiga berilib yoki o'z manfaatlarini ko'zlab hukm yuritishlari mumkin, shu sababli bir tomonlama, g'arazgo'ylik bilan chiqarilgan va binoberin, haqiqatni aks ettirmaydigan xato hukmlar bo'lishi mumkin. Ishonmaslik, shubhalanish aks ettirgan haqiqatni qidiravishga yo'llaydi, tajribada sinalgan hukmlar eng ko'p ishonch bilan qabul qilinadigan, inobatli hukmlardir. Shu sababli, odamning fikr qilishi va bilish faoliyati jarayonlaridagi tafakkur jarayonlarini, ayrim hukmlarni tajribada sinab ko'rish va tanqididan o'tkazish zaruriyat, ehtiyoji tug'ilgan. Haqiqatni isbot qilish, noto'g'risini rad etish ehtiyoji tug'ilgan. Shu sababli, yana kengaytirilgan mantiqiy shakldagi hukm chiqarish, hamma dalil va asoslarni birma-bir keltirib xulosa chiqarish zaruriyat ham tug'ilgan. Tafakkurning iktilanchi jarayonlari, ya'ni nazorat qiluvchi yoki tanqidiy tafakkur shu tarqqa vujudga keladi va tashkil topadi. Bu tafakkur kishining yoshi o'tgan sari, tabiyya ta'siri ostida o'sadi. Nazorat qiluvchi tafakkurning o'sganligi odamning aqli yuksak darajada o'sganligini, odamning mustaqil fikr yuritayotganligini ko'rsatadi. Hukmlarni muftassal turkumlarga ajratish, xulosa chiqarishning hamma turlariga doir qoidalar tuzib berish, shuningdek, shubha tug'diradigan hukmlarni asoslash va isbotlash shakllarini hamda qoidalarini tuzib berish bilan logika (mantiq) fani shug'ullanadi. Shu qoidalar va shakllarga muvofiq keldigan tafakkur mantiqiy tafakkur deb ataladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bizda fikrlar hukmlar tarzidagina shakllanib qolmasdan, shu bilan birga atrofmizdagi olam va hayot to'g'risidagi tushunchalar tarzida shakllanadi. Tushuncha narsalar to'g'risida — ularning xususiyatlari, holatlari, bog'lanishlari va munosabatlari to'g'risida bir-biri bilan bog'langan hukmlardan hosil bo'ladi. Biror narsa to'g'risida tushuncha hosil qilish — shu narsa to'g'risida bir qancha hukmlar yuritish demakdir. Tushunchani ochib beradigan hukmlar jami shu tushunchaning mazmunini tashkil qiladi. Biror narsa to'g'risida qancha ko'p hukm yuritilgan, tushunchaning mazmuni ham shunchalik boy bo'ladi. Narsaning shu hukmlarda ifodalangan belgilari qanchalik muhim bo'lsa, tushunchaning mazmuni ham shunchalik chuqur bo'ladi. Tushunchaning ikki turi bor: biri aniq tushuncha, ikkinchisi — abstrakt tushuncha. Bir butun narsaga taalluqli bo'lgan tushuncha, masalan, stol to'g'risidagi, odam to'g'risidagi, o'simlik va boshqa shu kabi narsalar to'g'risidagi tushuncha aniq tushunchadir. Narsa va hodisalarning o'ziga taalluqli bo'lmagan, balki narsa va hodisalar, fikran ajratib olingan ayrim xususiyat, sifat va holatlarga, shuningdek, ayrim narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarga va bog'lanishlarga taalluqli bo'lgan tushunchalar abstrakt tushunchalar deb ataladi. Masalan, «og'irlik» to'g'risidagi, «uzunlik» to'g'risidagi, «tenglilik» to'g'risidagi, «harakat» to'g'risidagi, «qiyamat» to'g'risidagi va boshqa shu kabi tushunchalar mana shunday abstrakt tushunchalardir.

Tushunchalarning idrok va tasavvurlardan farqi. Tushunchani idrok va tasavvurdan farq qilmoq kerak. Ilgari aytib o'tilganidek, sezgiya idroklar narsa va hodisalarning bizning sezuv organlarimizga ta'sir qilishi jarayonida hosil bo'ladi. Sezgi va idroklar sezuv organlari faoliyatining mahsulidir. Tasavvurlar yo ko'rganing mahsul, yoki xayolning mahsulidir. Idrok va tasavvurlar faqat yakkal narsalarning obrazlaridir. Tushunchalar esa faqat yakkal bir narsaga emas, balki ko'p narsalarga, narsalarning butun turkumiga ham taalluqli bo'lgan, umumiy/ashitirilgan bir mazmunni aks ettiradi. Masalan, «stol» (umuman stol) degan tushuncha hamma stollarga taalluqli tushunchadir. Tushuncha — o'zining psixologik tuzilishi jihatidan fikran umumiy/ashitirilgan obrazdir. Tushunchaga taalluqli obyektarning miqdori tushunchaning ko'lamini (hajmini) tashkil qiladi. Tushunchalar ko'lam jihatidan ikkiga bo'linib, yakkal tushunchalar va umumiy tushunchalar deb ataladi. Ayrim, yakkal narsalarga taalluqli tushunchalar yakkal tushunchalar deb ataladi. Masalan, Amudaryo to'g'risidagi, Navoiy to'g'risidagi, bir stol to'g'risidagi va hokazolar haqidagi tushunchalarimiz mana shunday yakkal tushunchalardir. Ammo yakkal tushunchalarning mazmuni, garchi bitta narsaga taalluqli bo'lsa ham umumiy/ashitirilgan tarzda bo'ladi. Masalan, Amudaryo to'g'risidagi tushunchada shu daryoni ko'p marta lab kuzatish va u haqida bir qancha xilma-xil hukmlar chiqarish natijasida hosil qilingan va umumiy/ashitirilgan mazmun ifodalanaadi. Yakkal tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hamisha yaqqol obraz mavjud bo'ladi, chunki bu tushunchalar bevosita yo idrokka, yoki tasavvurga asoslanadi. Butun bir turkum, bir-biriga o'xshash tushunchalar umumiy tushunchalar deb ataladi. Masalan: inorat to'g'risidagi, odam to'g'risidagi, o'simlik to'g'risidagi, organizm va hokazolar to'g'risidagi tushunchalar mana shunday tushunchalardir. Umumiy tushunchalar ham tasavvurlarga asoslanadi. Lekin mana shu tushunchalarda paydo bo'ladigan tasavvurlar ayrim hollarda va ayrim kishilarda turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, bizning fikrimizda «hayvon» degan tushuncha paydo bo'lganida, bizning ongimizda yo ot to'g'risidagi, yoki sigir to'g'risidagi, yoki it to'g'risidagi, yoxud shu hayvonlarning butun bir to'dasi to'g'risidagi tasavvur tug'ilishi mumkin. Aniq tushunchalarda tug'iladigan tasavvur har qancha xilma-xil bo'lsa ham shu tushunchalar shu tushunchada ifodalanaadigan narsalarning bir to'la, bir turkumiga taalluqli bo'ladi. Abstrakt tushuncha hamisha umumiy bo'ladi. Abstrakt tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalar idrok yoki tasavvurlarga bevosita tayanadi. Bu tushunchalarda yaqqol obraz bo'lmaydi, abstrakt tushunchalarda sezgi elementlari bo'lmaydi. Garchi abstrakt tushunchalardan myamizda biror tasavvur tug'ila ham, bu tasavvurlar shu tushunchaning o'ziga bevosita taalluqli bo'lmagan, balki bevosita va hatto juda uzoqda munosabada bo'ladi. Masalan, «cheksizlik» degan abstrakt tushuncha bir odamda uzun yo'l to'g'risida tasavvur tug'dirsa, ikkinchi bir kishida bir g'altak ip to'g'risida tasavvur tug'diradi, uchinchi bir kishida osmon to'la yulduzlar to'g'risida tasavvur tug'dirishi, to'rtinchi bir kishida cheksizlik alomati bo'lgan matematik belgi to'g'risida tasavvur tug'dirishi mumkin va hokazo. Abstrakt

tushunchalar aniqlashirilgandagina tasavvurlar muayyan xarakter kasb etadi. Masalan, «balandlik» to'g'risidagi, «oqlik» to'g'risidagi tushunchalarda yaqqol obraz yo'q, lekin «amoraning balandligi» to'g'risidagi, «qomning oqligi» to'g'risidagi tushunchalarda yaqqol obraz, tasavvur bor. Tushunchalar o'zining mazmuni jihatidan ham idrok va tasavvur obrazlaridan farq qiladi. Seziqi organlari yordami bilan bevosita aks ettirilgan belgilar narsalar to'g'risidagi idrok va tasavvurlarning mazmunini tashkil qiladi. Tushunchaning mazmunini hukmlar sintezining majmuini tashkil qiladi, bu hukmlarda o'sha idrok qilinayotgan belgilar, shuningdek, sezish organlarimiz his qilmaydigan belgilar ko'rsatiladi. Bunda narsaning belgilari uning boshqa narsalar va tushunchalar bilan muhim bog'lanishlarini va munosabatlarini ifodalaydi. To'g'ri fikr qilingan taqdirda, voqealik tushunchalarda, sezgi va tasavvurlardagiya qaraganda chuqurroq, to'liqroq va aniqroq aks etadi. Masalan, biz Quyoshni nur sochib turgan katta doira shaklida idrok qilamiz, lekin bizning quyosh to'g'risidagi tushunchamiz bir qancha hukmlarni ham o'z ichiga oladi. Bu hukmlarda, idrokka nisbatan, ko'proq bilim mavjuddir. Masalan: Quyosh Yerdan qariyb bir yarim million marta katta, loyillab turgan shardir. Quyosh bilan Yerning orasi 150 million kilometr. Quyosh Yer, shuningdek, osmondagi hamma jismlar tarkib topgan elementlardan tarkib topgan va hokazo. Tasavvurlar bilan tushunchalar o'rtasidagi farqlar to'g'risida aytilgan bu gaplardan tasavvurlar bizning ongimizda o'zicha paydo bo'la berar ekan, tushunchalar esa o'z yo'li bilan hosil bo'lar ekan, degan ma'no chiqarish yaramaydi. Tasavvurlar bilan tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Hamma tushunchalar tajriba asosida hosil bo'ladi; shu sababli hamma tushunchalar — aniq tushunchalar ham, abstrakt tushunchalar ham — idrok va tasavvurlar asosida tashkil topadi. Ikkinchi signal sistemasining muvafiqat bog'lanishlari tushunchalar hosil bo'lishining nerv-fiziologik mexanizmlaridir; lekin, ilgari necha marta ayrib o'tganimizdek, ikkinchi signal sistemasining faoliyati hamisha birinchi signal sistemasi asosida va bir-biriga o'tkazayotgan ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Tushunchalar birinchi signal sistemasining signalarini abstraktlash, umumiyqlashirish, yuksak darajada analiz va sintez qilish natijasida vujudga keladi. «Tevarak-atrofdagi narsalarga taalluqli bo'lgan sezgiqlarimiz va tasavvurlarimiz esa, - deydi I. P. Pavlov, - biz uchun voqealarning birinchi signallaridir, aniq signallardir».

Tushuncha va so'z. Tushuncha bilan so'z bir-biriga chambarchas bog'langandir: so'zsiz tushuncha bo'lishi mumkin emas. So'z tushunchaning «moddiy» ifodasi va tushunchaning tayanchidir. Tushunchalar yo bir so'z, yoki bir necha so'z bilan ifodalanadi. Ko'pincha tushunchalar alohida shartli belgilar - savollar vositasi bilan ifodalanadi. Masalan, matematikada + (plus), — (minus), = (tevgilik) va boshqa shu kabi belgilar ishlatiladi. Ko'p tushunchalar ayrim harflar — a, b, c, x, y va boshqa shu kabi harflar bilan ifodalanadi. Bunday belgilar, odatda, so'z bilan ifodalanadigan iboralarining o'rnida ishlatiladi va shartli ahamiyatiga ega bo'ladi — so'zlashgan vaqtda bu harflar o'rniga

og'zaki tilidagi so'zlar va gaplar ishlatish mumkin. So'zlar va belgilar faqat tushunchalarning ifodasiga bo'lib qolmasdan, balki, shu bilan birga, tushunchalar hosil qilish uchun ham vosita bo'ladi. Tushunchalar sezgi, idrok, tasavvurlar asosida, so'z, nutq yordami bilan tafakkur jarayonida hosil bo'ladi. Tushunchalar hosil qilishda fikrlashning asosiy jarayonlari bo'lgan umumiyqlashirish va abstraktlash faqat so'zlar yordami bilanгина ro'yobga chiqishi mumkin. So'zlar, terminlar tafakkur jarayonlaridagi tushunchalarning mazmunini ifodalaydi, ongda tushunchalarning «vakili» bo'lib xizmat qiladi, so'z birinchi signal sistemasining hamma signalarining signallaridir, shu signalarning hammasini ifodalaydi, shu signalarning hammasini umumiyqlashiradi (Pavlov).

Har bir so'z muayyan mazmunni va muayyan hajmdagi tushunchani ifodalaydi, shu sababli, so'zlar aloqa qilishga va tushunchalarni anglab olishga xizmat qiladi. Har bir tushuncha so'zlar vositasi bilan boshqa shaxslarga bildirilishi mumkin. Tushunchalarni hamma anglab olishi mumkin. Biz o'zimizdagi tushunchalarning ko'pchiligini boshqa odamlardan tayyor holda olganimiz. Odamlarning hamma keyingi avlodlari o'zlarida bo'lgan tushunchalarning katta qismini o'zlaridan oldingi bo'g'inlardan tayyor holda oladilar. Keyingi bo'g'indagi odamlar avvalgi bo'g'indagi odamlar yaratgan tushunchalarni o'qib olib, ularni chuqurlashtiradilar, aniqlaydilar, boyitadilar. Shu bilan birgalikda, keyingi avlodlar shu tarqqa o'qib olingan tushunchalarga va o'z tajribalariga asoslanib, voqealarning oldingi bo'g'indagi kishilar tushuncha yaratib bermagan narsa va hodisalar to'g'risida yangi tushunchalar yaratadilar. O'qitishning mohiyati ham tayyor tushunchalarni (bilimlarni) mana shu tarqqa berish va o'qib olishdan iboratdir.

Tushunchalarning mana shunday boshqalarga berilishi va uqib olinishi bu tushunchalarning takomillashuviga ham sababchi bo'ladi. Voqealardagi narsa va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar tarixan — insoniyat olamining taraqqiyoti davomida va har bir kishining bolalikdan boshlab to umrining oxirigacha ongida takomillashib boradi. Tushunchalarning takomillashib borishi ularni chuqurlashtirishdan va ularning mazmunini aniqlashdan, shuningdek, ularning hajmini kengaytirish va aniqlashdan iborat bo'ladi. Masalan, bundan besh yuz yil muqaddam odamlarning Yer to'g'risidagi, Quyosh to'g'risidagi va Yer bilan Quyoshning bir-biriga nisbat to'g'risidagi tushunchalari unchalik to'liq va aniq tushunchalar bo'lmagan edi. O'sha vaqtdagi odamlarning nazarida, Quyosh nur sochib turgan bir gardish bo'lib, osmon gumbazi bo'ylab, Yer tevaragida aylanar edi. Hozirgi vaqtda bizning Quyosh to'g'risidagi, Yer to'g'risidagi va ularning bir-biriga nisbat to'g'risidagi tushunchalarimiz butunlay o'zgarib ketdi. Bu tushunchalar yangi mazmun bilan boyidi, aniqroq va to'g'riroq bo'lib qoldi. Endi biz Quyoshning nur sochib turgan gardish emas, balki juda katta loyillab turgan insonion shar ekanligini, Quyosh Yer tevaragida aylammasdan, balki Yer o'z o'qi tevaragida va Quyosh tevaragida aylanayotganligini bilamiz va hokazo. Quyoshning fizik, kimyoviy va atom tarkibi to'g'risida endi odamlar ko'pgina

narsalarni bilib olishdi, Quyosh nurlarining Yerga, atmosferada va kosmosdagi ta'siri haqida ham odamlar ko'p narsalarni bilib olishdi. Har bir kishining yoshiga qarab, tarbiya va ta'lim ta'siri bilan hamda kishining faoliyat jarayonida uning ongidagi tushunchalar rivojlanib boradi. Chunki, biz bolalik chog'imizdayoq turli o'simliklar to'g'risida va umuman o'simliklar to'g'risida ba'zi bir tushunchalarga ega bo'lamiz. Maktabda botanika va boshqa tabiiy fanlarni o'qish tufayli, o'simliklar to'g'risidagi tushunchalarimiz boyiydi va aniqlanadi. Hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar fikrlash faoliyatida bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Tushunchalar hukmlarda ochib beriladi. Muhokama yuritish jarayonida o'zimizda bo'lgan hukmlar asosida xulosa chiqarish yo'li bilan yangi hukmlarda narsalarning yangi (ya'ni, shu vaqtgacha nomal'um bo'lgan) belgilari ochib beriladi va shu bilan birlikda, bu narsalar to'g'risidagi tushunchalar tag'in ham ko'proq boyiydi, chuqurlashadi va aniqlanadi.

Tayanch iboralar. Tafakkur – psixik aks ettirishning ancha umumiy va bevosita usuli bo'lib, bu narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish va munosabatlarni bilib olishda ifodalanadi.

Aql – kishining umumiy bilish qobiliyati bo'lib, uning bilim va tajribalarini egallashga va uni amalda qo'llashga tayyorligi, shu bilan bir qatorda kishi muammoli vaziyatlarda aql-farosat bilan o'zini tuta olishi. Abstraksiya (mavhumiylik) – narsalarning o'ziga xos belgi va xususiyatlarini, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni predmetlarning muhim bo'lmagan belgi va xususiyatlaridan ajratib olishga qaratilgan fikrlash operatsiyasi.

Analiz (tahlil) – murakkab obyektini turli tarkibiy qismlarga ajratish yoki xarakteristika berishdan iborat fikrlash operatsiyasi.

Sintez – tafakkurning yagina analitik-sintetik jarayonida yakkaadan umumiyga qarab fikr yuritish operatsiyasi.

Umumiy-lashtirish – bog'elkdagi narsa va hodisalarni umumiy va muhim beqeljariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

Taqqoslash – narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

Tushuncha – bog'elkdagi narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat usul.

Hukm – tafakkur formalardan bo'lib, bu narsa va hodisalar o'rtasida o'zaro biron-bir bog'lanishlarning bor yoki yo'qligi, narsa va hodisalarning aynan mavjudligini tasdiqlash yoki inkor qilishda ifodalanadi.

Xulosa chiqarish – tafakkur formalardan bo'lib, bunda birqancha hukmlar asosida ma'lum xulosa chiqariladi. Xulosa chiqarish induktivlik, deduktiv va analogik usullarga ajratiladi.

Deduktiya – umumiy hukmlardan yakka hukmlarga qarata borish orqali mantiqiy xulosa chiqarishdan iborat tafakkur jarayoni.

Induksiya – tafakkur jarayonida yakka hukmlardan umumiy hukmlarga qaratib borish orqali mantiqiy xulosa chiqarish. Analogiya – (yunon. analogiya – o'xshashlik) psixik hodisalar va hulqavor xususiyatlarining o'xshashligi.²¹

Tafakkur turlari

Psixologiya fanida tafakkur turlari topshiriq xususiyatiga, fikr yoyidligiga, fikrning originallik darajasiga qarab, quyidagicha shartli klassifikatsiya qilinadi.

Professor E. G. G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida tafakkur turlari quyidagicha klassifikatsiya qilinadi: Tafakkur turlari Shakliga ko'ra fikr-gazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, Topshiriq xarakteriga ko'ra Nazariy, amaliy, ixtiyosiz, ixtiyoriy Fikr yoyidligiga ko'ra Konkret abstrakt, realistik, avustistik intuitiv, diskursiv Fikrning originallik darajasiga ko'ra Reprodukativ, ijodiy, vizual, fazoviy

A. V. Petrovskiy muharririgida chop etilgan, "Umumiy psixologiya" darsligida tafakkurni quyidagi turlari ajratib ko'rsatildi: ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, mavhum nazariy tafakkur turlari va boshqalar.

Ko'rgazmali-harakat tafakkur turi. Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazaridan vechlanar, keyinchilik unda nazariy faoliyat ajratib chiqqan. amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bir-biri bog'langandir.

Ko'rgazmali-harakat tafakkur turiga psixologik adabiyotlarda quyidagicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, V. Karimova tomonidan ko'rgazmali-harakat tafakkuri odamning real predmetlar bilan ish qilayotgan payvda fikrlash jarayonini nazarda tutadi. "Psixologik lug'atda" ko'rgazmali harakati tafakkur amaliy tafakkurning bevosita idrok qilayotgan narsa va hodisalar haqida harakatlari yordami bilan amalga oshiriladigan fikrlash turi, deb tavsiflanadi.

Sof psixologik faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o'zi birlamchidir. Yana faoliyatning taraqqiyoti davomida unga nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajratib chiqqan. Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyoti emas, balki shu bilan birga har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayoni ham dastavval sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyatdir.

Agarda insoniyatning tarixiy taraqqiyoti muammosidan chetlanib, ushbu muamalani olib qarasak, u holda amaliy faoliyat birlamchi ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Buning uchun insonning ontogenetik taraqqiyotini dastlabki fazalriga murojaat qilamiz. Bola tug'ilishdan tortib, to uning bog'cha yoshigacha davom etadigan amaliy faoliyatida ko'rgazmali-harakat tafakkuri o'shining asosiy jihatlari deb atash mumkin. Mazkur yoshdagi inson zoti ana shu amaliy faoliyat yo'li bilan aqliy harakatlarni amalga oshiradi, amaliy bilimlarni o'zlashtiradi, natijada ko'rgazmali kutubxonasi harakat tafakkuri o'sa boradi. Ushbu yoshdagi bolalarning o'zlarini o'ynayotgan o'yinchoqlarni qo'llari bilan bevosita ushlab ko'rish orqali ular bilan tanishadilar, shuning bilan birga ularni idrok qilishga intiladilar. Idrok qilingan predmetlar va o'yinchoqlarni o'zaro solishtiradilar,

qismlarga ajratadilar, analiz va sintez qiladilar, bo'laklarga ajratilganlarni yaxlit holga keltirib birlashtiradilar. Kattalar tushuntirishiga ishonch hosil qilmasdan, ayni chog'da ulami ob'ektni sindirib yoki buzib bo'lsa ham, ularning ichki tuzilishi bilan tanishish ishtiyogi, mayli kuchli bo'ladi. Shu boisdan analitik xarakterdagi muammolarni hal qilishda ko'pincha buzib, tuzatish yo'li bilan harakat qiladilar. Ko'rgazmali-harakat tafakkuri bog'cha yoshiga yetgandan so'ng bolalarda o'z qiyomatini yo'qotib boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazii tafakkur turi ham psixologik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. "Psixologik lug'at"da ta'riflanishicha u konkret tafakkurning bevosita idrok qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat bo'lgan turi. Professor E. G'oziev fikricha, bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi ko'rgazmali-obrazii tafakkur deb ataladi. V. Karimova tomonidan ko'rgazmali-obrazii tafakkur esa ko'rgan kechirgan narsalar va hodisalarning aniq obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirib bilvosita aks ettirishimizdir, deb talqin qilinadi. Tafakkurning mazkur ko'rinishi 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-obrazii tafakkur bosqichiga o'tgandan so'ng ham saqlanib qoladi, lekin u o'zining yetakchi rolini yo'qotib boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazii tafakkur sodda shaklda ko'pincha bog'cha yoshidagi bolalarda, ya'ni 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning analitik harakatlari bilan alohisi avvalgidек to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va uncha tushunchaga ega bo'lmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda tushunchalarning yo'qligi shveysariyalik psixolog J. Piagetning quyidagi tajribasida juda yaqqol namoyon bo'ladi. 7 yoshga yaqin bolalarga xamirdan qilingan mutlaqo bir xil, hajmi jihatidan teng 2 ta soqqa ko'rsatiladi. Bolalar uni teng deb hisoblaydi. Bolalarning ko'z oldida bitta soqqa ezib non shakliga keltiriladi. Endi bolalar non shaklidagi soqqa xamir ko'p deb hisoblaydilar. Bolalarning ko'rgazmali-obrazii tafakkurlari hali ularning idroklarga bevosita to'la bo'ysinadigan bo'ladi. Ularning ko'rgazmali-obrazii shaklda o'tadigan tafakkurlari bolalarni soqqa qaraganda non shaklidagi xamir ko'proq degan xulosaga olib keladi.

Shuning uchun ular narsa va hodisalarning, jism va predmetlarning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi alomatiga, xususiyatiga, tashqi belgisiga e'tibor qildilar. Lekin ularning ichki bog'lanishlari o'zaro munosabatlari ni bildirib keladigan muhim asosiy sifatlariga ahmiyat bermaydilar. O'zbeklarni fazoda joylashgan o'ni tashqi, nomutim belgisi ularning ko'rgazmali-obrazii tafakkurini vujudga keltiradi. Masalan, ularning nazarda odamlarni bo'yning baland va pastligi ularning yoshini belgilaydi.

Tafakkur faolligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi. Intuitsiya deb mantiqiy tafakkur yordamida ko'p

vaqlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to'satdan, kutilmaganda hal qilib qolishi jarayoniga aytiladi.

Ko'pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, matematika, fizika, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardagi misol va muammolarni yechish jarayoni. Bundan tashqari ixtiyoriy tafakkurga mantiqiy yoki nazorat (kontrol) tafakkuri ham kiradi. Moddiy bo'riqni adekvat aks ettirish, fikr yuritish, tanqidiy va sinchkov bo'lishni taqozo etadi. Binobarin, narsa va hodisalarni atroficha bilish uchun ob'ektiv baho berish zarurati tug'iladi, bu esa o'z navbatida fikr yuritish ko'lini keng, analitik-sintetik faoliyat doirasi mustahkam bo'lishni talab qiladi.

Tafakkur jarayoni ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin. Lekin bu holda ular ixtiyoriy tafakkurga suyanagan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy va hokazo faoliyatlarida ixtiyorsiz ravishda qator savollar paydo bo'lishi va ularga beixtiyor javoblar axtarish hollari uchraydi. Bunday paytlarda inson fikr yuritayotgani yoki yo'qmi buni bilish qiyin, vaholanki, u o'zicha go'yo savollarga javob topadiganday, shirin his-tuyg'ularni boshdan kechirayotganday bo'ladi, shuning uchun ko'pincha "tilimning uchida turibdi" deyiladi. Odamlar qandaydir matn yoki muammo, masala ustida bosh qotirib, o'tirganlarida fikr yuritish mutlaqo beixtiyor ro'y berib qoladi va ular asosiy topilarni bajarishdan uzoqlashiradi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti tarixidan shu narsalar ma'lumki, yirik ilmiy kashfiyotlar ko'pincha xuddi shunday beixtiyor fikr qilib turgan mahalda to'satdan ochilgan. Jumladan, yunon olimi Arximed solishtirma og'irlik konunini zo'r berib, aqliy mehnat qilish paytida kashf etgan. Ullug' rus olimi D.I. Mendeleevning hikoya qilishicha, u elementlar davri tizimi jadvalini tuzish vaqtida uch kecha-yu, uch kunduz betinim mehnat qilgan, ammo bu vazifani nihoyasiga yetkaza olmagan. Undan so'ng charchagan olim ish stoli ustida uyquga ketgan va tushida bu elementlar tartibli joylashtirilgan jadvalni ko'rgan. Shunda D.I. Mendeleev uyqudan, uyg'onib, bir parcha qog'ozga tushida ayon bo'lgan jadvalni ko'chirib qo'ygan.

Ko'pincha psixolog va fiziologlarning taklidlari, muammo va buning oson ravishda echimini hech kutilmaganda yuqoridagi kabi beixtiyor hal qilinishi shu kashfiyotlar olam yuzini ko'rganicha bo'lgan davr ichida oylab, yillab qilingan mehnatning yakuni, ya'ni tugallanmay qolgan tafakkur jarayonlarining nihoyasiga yetishidir deb baholamoqda.

Yirik fiziolog hamda psixolog V.M. Bexterevning izohlashicha, bunday kutilmagan jarayonlarning ro'y berishiga asosiy sabab bu o'rganilayotgan muamla to'g'risida uxlashdan oldin zo'r berib bosh qotirish, o'ylash (fikr yuritish) va butun zehni shuning bilan birga diqqat-e'tiborining tortilishi, kashf qilinishi zarur masalaga to'la-to'kis yo'naltirishdan iborat maqsadga muvofiq lashtirilgan murakkab barqaror psixik holati hukm surishidir.

Fikr yuritilishi lozim bo'lgan narsa-hodisalarni idrok yoki tasavvur qilish mumkin bo'lsa, bunday tafakkur konkret tafakkur deb ataladi. U o'z navbatida yaqqol-predmetli va yaqqol-obrazli tafakkur turlariga ajratiladi. Agar fikr yuritish ob'ekti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-predmetli tafakkur deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va hodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-obrazli tifaqqat deb ataladi.

Abstrakt tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so'zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayyan fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chimza geometriya, o'liy matematika masalalarini yechish mahallida fikr yuritish, mulohaza bildirish, abstrakt tafakkurga xos misollardir.

Abstrakt tafakkur konkret tafakkurdan g'oyat keng ma'no anglanishi bilan qator narsa va hodisalar to'g'risida, absuakt tafakkur yordamida mulohaza borliq to'g'risida cheksizlik, sifat, miqdor, tenglik to'g'risida, go'zallik yuzasidan mavhum abstrakt mulohaza yuritish mumkinligi bilan farq qiladi.

Hodisalarni izohlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur nazariy tafakkur deb ataladi. Tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni yoritib borish va shu bog'lanishlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo'li bilan izohlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin. Izohlash paytida izohlanayotgan narsa va hodisalar, xossa va xususiyatlar, jisn va predmetlar, umuman butun voqelik ma'lum turkumdagi tushunchalar gatoriga kiritiladi va ularning farq qiladigan belgi va alomatlarini fikran ajratib ko'rsatiladi. Bundan tashqari muayyan ob'ektlarning mohiyati, mazmuni mavjud bo'lishlik sabablari, kelib chiqishi, taraqqiyoti, o'zgarishi, shuningdek ularning ahamiyati va funksiyasi hamda vazifalari izohlab beriladi.

Nazariy tafakkurni ayvni bir paytida abstrakt tafakkur deb nomlash an'ana tusiga kirib qolgan. Bunday nom bilan atashga asosiy sabab nazariy tafakkurning umumiy hukmlarda ifodalanishidir. Masalan, diqqat barcha psixik jarayon va holatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish garovidir.

Nazariy tafakkur tufayli voqelikdagi umumiy va muhim bog'lanishlarni, xossalarni, qonuniyatlarini anglab olamiz. Shuning uchun quyosh va oy tutilishini, yulduzlar tizimini harakatini, ob-havo ma'lumotlarini, yer qimirlash o'choqlarini, voqea sodir bo'lishini ancha ilgari aytib berishimiz mumkin. Shu sababdan nazariy tafakkurni oldindan ko'rish imkoniyatini yaratadigan umumlashgan tafakkur deb ataydilar.

Shunday qilib, abstrakt tafakkur orqali narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan xususiyatlar, o'zaro munosabatlari aniqlanadi, u yoki bu sohaga oid qonuniyatlar ochiladi, sabab-oqibat bog'lanishlari aks ettiriladi.

Vogelkni o'zlashtirish vositasi bilan real narsa va hodisalarni yaratilishiga yo'naltirilgan fikr yuritiladi. U qo'yilgan analiy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va hukmlar hosil qilish, muayyan yangi narsalar yaratish bilan bog'liq murakkab tafakkur jarayonidir. Amaliy tafakkur jarayonining davomi ish-harakatlarini, aqliy xarakatlarni tasavvur qilishda, fikrlashda namoyon bo'ladi. Masalan, talabalar

hohiyatdagi konspekt yozish, referat tayyorlash, kurs va diplom ishi ushida ishlash kabilar amaliy tafakkurga yaqqol misoldir.

Muayyan fikrni chim yoki yo'lg'onligini ob'ektiv dalillar bilan isbotlash o'unga, inson shaxsining ijodiy yoki salbiy sifatleri bilanina cheklanib qolishdan iborat tafakkur turi avtoritar tafakkur turi deb ataladi. U ko'pincha odamlarning muayyan soha bo'yicha bilim saviyasining, darajasining cheklanganligidan va mustaqil fikr yuritish qobiliyatining yetarli darajada o'lmaganligidan dalolat beradi. Shuningdek, psixologiyada bir-birlari bilan uzviy ravishda bog'langan mulohaza yuritishdan iborat tafakkur jarayonini diskursiv tafakkur deb ataladi.

Ijodiy tafakkur - murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadriijiy ravishda izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi, dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani echish va savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala bu hujjatlashi yoki hal qilinishi zarur bo'lgan vazifa ko'pincha ifodalanihi shart bo'lgan maqsadni ham aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan nomalun voqelikni topishga gumon va hayajon, shubha qislaridan xalos etishga qaratilgan mayjidir.

Ijodiy tafakkurning navbatdagi tarkibiy qismlari quyidagicha aks ettiriladi: qo'yiladigan savollarga javob berish, masalani yechishga yordam beradigan yo'li, usullar, vositalar, qoidalar vako'nikmalarni qidirish, ularni tanlash hamda muvko'ri faoliyatda ularni tadbiiq qilish va boshqalar.

Ijodiy fikrlashni ta'minlovchi omillar:

- Fikr yuritish faoliyatida eng avval hal qilinishi zarur bo'lgan masala inson onomidan aniqlab olinishi kerak.

- Muammo yoki masalani hal qilish zarur bo'lgan barcha bilimlarni tadbiiq qilish uchun intilish.

- Masalaga, muammoga taalluqli gipoteza o'lg'a suriladi, bosqichlar taxmin qilinadi, yechim to'g'risida farazlar ishlab chiqiladi, turli variantlar hamda voqeliyatlar haqidagi mulohaza yuritiladi, o'zaro xayolan solishtirib, eng muvko'ri alomatlar ajratiladi va hokazo.

Psixolog V.A.Kruteskiy ijodiy tafakkurni taraqqiy ettirish maqsadida muammlar tipologiyasini ishlab chiqib, turli yoshdagi o'quvchilar o'quv faoliyatida sinab ko'rgan. Tipologiyaga kiritilgan masalalarni V.A.Kruteskiy quyidagicha nom bilan ataydi:

1. Savol aniq qilib qo'yilmagan masalalar.
2. Berilganlari yetishmaydigan masalalar.
3. Oritqicha ma'lumotlari bo'lgan masalalar.
4. Bir nechta yo'li bilan yechiladigan masalalar.
5. Mazmuni o'zgarib turadigan masalalar.
6. Isbotlashga doir masalalar.
7. Fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga doir masalalar.

Ijodiy tafakkur turi o'zining samaradorligi va dolzarblig, universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o'ylab chiqish jarayoni bo'lib, insonning bilish faoliyatida yetakchi rol o'ynaydi.

Psixologiya fanida tafakkurni realistik va antisitik turlarga ajratiladi. Realistik tafakkur qurshab olgan atrof-muhimni o'rganishga, aks etirishga qaratilgan fikr yuritish bo'lib, u mantiqiy qonun va qoidalar yordami bilan voqelikni in'ikos qiladi. Antisitik tafakkur insonning hohish va istaklarini amalga oshirish bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Amalgacha oshirishni lozim bo'lgan tafakkur harakatlari o'sha shaxsning o'z tilaklarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan fikr yuritilishdan iborat individuallik yoki individualistik tafakkurdir.

Masala yechimini qabul qilishga va informasion tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan fikr yuritish vizual tafakkur deyiladi. Vizual tafakkur maqsadga muvofiq xarakterlar yoki angliyanilmagan operatsiyalar, chunonchi obrazlar manipulyatsiyasi va transformatsiyasi yordami bilan amalga oshiriladi va "aqliy angliyanish"dan namoyon bo'ladi.

Yirik sobiq sovet psixologlaridan biri Z.I. Kalmikova o'z tadqiqotlarida tafakkurni produktiv va reproduktiv turlarga ajratib o'rganagan edi. qisqa vaqt birligi ichida yangi original fikrlar yaratish yoki muhim ilmiy, amaliy masalalarni hal qilish bilan belgilanadigan tafakkur produktiv tafakkur deb ataladi. Reprodukativ tafakkur esa passiv, tayyor mulohazalarni o'zlashtirib olishga va "tayyor holda" undan foydalanishga qaratilgan insonning bilish faoliyatini ko'rsatib beradi.

Fazoviy tafakkur muammosi atiq rus psixologi B.G. Ananov va uning shogirdlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, keyingi yillarda bu muammo yuzasidan tanqiliy psixolog I.S. Yakimanskaya tomonidan kasb-hunar kolleji o'quvchilarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Fazoviy tafakkur deganda narsa va hodisalarning fazoda rasional joylashishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkab bog'lanishlarini adekvat ravishda aks ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi, tasavvurlar, xotira va xayol tasavvurlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Tafakkur sifatlari

Tafakkur boshqa bilish jarayonlari kabi o'zining individual xususiyatlariga ega bo'lib, fikr yuritish faoliyatining shakllari, vositalari va operatsiyalarining munosabatlarini kishilarda turlicha namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi. Odatda tafakkurning individual xususiyat-lari, sifatlarga bilish faoliyatining mazmundorligi, mustaqillik, epcchilik, samaradorlik, fikrning kengligi, tezligi, chuqurligi va boshqa sifatlari kiritiladi.

Tafakkur mazmundorligi deganda insonning tevarak-atrofidagi moddiy voqelik to'g'risida ongda qay mqdorda, kolanada mulohazalar, muhokamalar, fikrlar, muammolar, tushunchalar joy oiganligi nazarda tutiladi. Insonda sanab o'tilgan xarakterdagi g'oyalar to'lib toshsa, shunchalik tafakkur mazmundor

bo'ladi. Kishilar bir-birlaridan birinchi navbatda tafakkurning mazmundorligi bilan tafovutlanadi.

Tafakkurning chuqurligi deganimizda moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatlari ularning o'zaro bog'lanishlari, munosabatlari? tafakkur imzida toliq nks etganligini tushunishim? kerak. Tafakkur kutubxonasi arsenalida joylashgan narsalarning qay yo'sinda sistemalashtirilganiga qarab to'g'ri va rasional yo'l nazarda tutiladi, u yoki bu shaxsning tafakkur chuqurligi to'g'risida qat'iy bir qarorga kelish mumkin.

Tafakkurning kengligi o'zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan munozam aloqada bo'ladi. Insonlardagi narsa va hodisalarning eng muhim belgi, xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'rinish yuzasidan hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to'g'risida mulohazalar, muammolar va tushunchalarni qamrab olgan tafakkur keng tafakkur deyiladi. Fikr doirasi keng bilim saviyasi yuqori serg'oya ijodiy izlanishdagi kishilarni aql zakovati, bilim yoki tafakkur keng kishilar deb atash mumkin. Demak, insonning aql-zakovati, bilimdonligi mulohazadorligi uning tafakkurining kengligidan dalolat beradi.

Inson tafakkuri o'zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. Tafakkurni mustaqilligi deganda kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilish, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz, gipoteza qilish, natijani ko'z oldiga keltira olish, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak.

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqiligi va tanqidiligidan namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishni, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga yetkazishda yechimini qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va atomatlarni kiritishdan iborat boqqichlaning namoyon bo'lishini nazarda tutamiz. Aqlning pishiqiligi vaqitalarni tez yechishda, yechish paytida yangi usul va vositalarni o'z o'mida olib qo'llashda, trafaretga aylangan eski yo'l hamda usullardan foriq bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalalanadi.

O'zining o'zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo'lgan mulohazalarga, mulohazalarga, muammoli vaziyatga baho bera bilishda aqlning tanqidiligi muhim rol o'ynaydi. Tafakkurning tanqidiligi ob'ektiv va sub'ektiv ravishda ifodalashni mumkin. Mazkur sifat insonni baholash, o'z-o'zini baholash kabi tafakkurning individual xususiyatlari bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Aql tanqidilik oqilon, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to'g'ri tushinishiga, ba'zan etaloniga asoslanib amalga oshsa, unday tanqidilik ob'ektiv

tanqidiylik deb ataladi. Mabodo tafakkurning tanqidiyligi sub'ektiv xatolarga, umuman sub'ektivizmga ogib ketisa, bunday holda sub'ektiv tanqidiylik deyiladi, Sub'ektiv tanqidiylik saibiy oqibatlariga olib keladi, shuningdek insonlar o'rtasida anglashilmovchilik g'ovini vujudga keltiradi, ikki shaxs o'rtasida kutilmaganda ziddiyat paydo bo'ladi. Insonda tafakkurning tanqidiyligi oqilona rasional tarzda vujudga kelsa, unda shaxs muhim sifat bilan boyiydi deb atash mumkin.

Maqsad, muammo va vazifalar o'ziga shaxslar tomonidan qo'yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o'ziga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilishi jarayonida bir oz ishtirok etgan tafakkur nomustaqil deb ataladi. Nomustaqil tafakkur kishilar tayyor mahsulotlar qiliga aylantiradi, o'sishdan orqada qolish xavfi tug'iladi. Natijada aqil-zakovatli inson bo'lish o'rniga, kaltabin, aqldan erinchoq, behafsala odam bo'lib voyaga yetadi. Demak, tafakkurning nomustaqillik illati rivojlanishiga to'siq bo'lib, yakka shaxs uchun esa tragediya rolini bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Fikrning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'langan. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'um soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsifnomalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday kishining tafakkuri sernahsul tafakkur deb ataladi. Demak, vaqt oralig'ida bajarilgan ish ko'lamini va sifatiga oqilona baho berish tafakkur mahsuldorligini o'lchash mezonini sifatida xizmat qiladi.

Tafakkur ixchamligi deganda muammoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasi mazkur jarayonda masala yechish shartini qanoatlantirmay qolsa, nomutanosiblik hosil bo'lsa hech ikkilanmay elastik ravishda o'zgartirishlar kiritishdan iborat fikr yuritish faoliyatini tasavvur qilmoqimiz shart. Fikrning operativ jihatdan tezkorlik bilan o'zgartirishdan va to'g'ri yo'nalishga yo'llab yuborishdan iborat tafakkur sifati uning ixchamligi deyiladi. Masalan, talaba imtihonda avval g'oyani noto'g'ri yoritayotib, o'z-o'zicha birdaniga xatosini anglab to'g'ri javob bera boshlashi kabilar. Demak, tafakkurning mazkur sifati fikrlarni, axborotlarni tinglovchilarga xato va kamchiliklarsiz yetkazib berish garovidir.

Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator omillarga, jumladan fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishlarning tezligi, turli hisslarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari tafakkurning tezligi boshqa shartlarga - insonning bilim saviasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekanligi isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarning tezligi va jarayonlarning malum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholaniadi.

Fikrlarning tezligi talabalar va o'quvchilarga zarur psixologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Imtihon paytida, seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtinchalik unutib o'zini yo'qotib

qo'yadi. O'rinsiz salbiy emosiyalar uning tafakkurni tonnozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, ya'ni fikrni bay on qilishda inertlik paydo bo'lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar aksincha, imhonda hayajonlanib fikrlari ravshanlashadi. qattiq hayajonlanish, qattiq tushqi tasir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg'olib, fikrsiyasi jadalashib ketadi va fikr birdaniga ravshanlashishi mumkin. Shuning uchun o'qilish jarayonida talaba va o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri baholashda ularning individual tipologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Jahon psixologlarning ko'rsatishiga qaraganda, yuqorida tahlil qilib chiqqan tafakkur sifatlari ularning asosiy xususiyati bilan uzviy bog'liqdir. Tafakkurning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati bu moddiy voqelikdagi muhim jihatlarni aytib mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishdir. Inson oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini o'lishga intiladi, oddiy turmush haqidagi umumiy qonuniyatni yaratishga harakat qiladi. Shubhasiz, inson tafakkuri hali izlanmagan, to'la foydalanilmagan zahira va imkoniyatlarga ega. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu zahirani to'la ochish fan-texnika rivojini intensivlashtirish iborat. Chunki har qanday kashfiyot, yangilik, rivojlanish inson aqlzakovatining mahsulidir. Shu boisdan ham fan va texnikaning rivojlanishi insonshunoslik fanining rivojiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar

Tafakkur muammosi xorij psixologiyasida keng doirada tadqiq qilinib, atroflicha bilimlar va ma'lumotlar zahirani to'plangan. Aynan keltirilgan ma'lumotlarda tafakkur tushunchasi turli nuqtai nazarlardan tahlil qilinadi.

Tafakkur nazariyalari:

- Kayanella nazariyasi- tafakkur jarayoni va tafakkur mashinasi haqida o'choik -Bu nazariyaga kura tafakkur jarayoni va psixolik talqin bilan o'zora tenglashadi.
- Natural nutq va tafakkur nazariyasi .Bunga ko'ra inson bosh miyadagi tilni boshqaruvchi va tashqi muhit aloqasi tafakkur jarayonida aks etadi.
- Amiqlanmagan tafakkur nazariyasi -bunda aniqlanmagan fikrlar haqida ap ketadi.
- Linvistika nazariyasi bu fikr materiali sifatida tafakkurning asosini shaktlik va lingvistik jarayonlar belgilaydi.²²
- Ekzistensializmning asoschisi bo'lmish nemis faylasufi Martin Xaydeger (1889-1978) tushunish uchun o'z diqqatini qarata olaskina biz fikrlashga o'tiramaniz-deb yozadi. Uning fikricha, narsa va voqealarning mohiyatini tushunish, anglab yetish, inson fikrlash jarayonida muhim o'rin egallaydi.

²² Myers-D.G., -Psychology-9th-edition 2 2010. 395 bet. (mazmunidan foydalanilgan)

Tushunishni talab qiladigan narsa insonni fikrlashga undaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tomonimizdan yaratilmaydi.

Xaydegim fikricha, tafakkur mavjudligining asosiy xislati bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi talimotga asosan tasavvur fikrida ifoda etiladi. Shuning uchun ham tafakkur haqidagi talimotni logika, mantiq deb ataydi.

K. R. Megreldzening ta'kidlashicha, insondagi biror bir ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib, to'g'ri tushuntirishi mumkin emas. Bu narsa birinchi navborda tafakkurga taalluqlidir. Tafakkurning ijtimoiy hayotning boshqa ko'rinishlarisiz o'rganish mumkin emas.

Psixologiya taraqqiyotida Jan Piaye tafakkurni inson tug'ilishidan boshlab to qarungacha qadar bulgan har bir bosqichni o'rganib chiqqan. U o'z nazariyasiga ko'ra tafakkurni borligini tashqi muvini anglash bilan asoslanadi.

Jan Piaye shunday ta'rif beradi: Borligini anglash bosqichlari mavjud har bir bosqich o'zining fikrlash doirasidagi harakat obyektlari sxemasi mavjud buladi. Har bir bosqich o'z tilayotgan bosqich oldingi bosqich sxemasi zarurat etijov sezilmaydi ya'ni buning natijasi shuni ko'rsatadiki eng mukamal fikrso'ngi bosqichda paydo bo'ladi va har bir bosqichni takomillashib bo'lganda bir birini farqlab boradi.²³

Har bir alohida shaxs ijtimoiy tushunchalar, tasavvurlar yordamida fikrlaydi. K. R. Megreldze inson fikrining ijtimoiy ekanligini qayta-qayta talcidlaydi. Fikrlar va g'oyalalar erkin individual ijodning mahsuli emas, balki individualing o'zi kabi jamiyat va ijtimoiy munosabatlarning mahsulidir. Shuning uchun inson tafakkuri tafakkur bosqichlari, inson tafakkurning shakllari va usullari haqidagi jumbogning yechimini mantiqiy izlanishlardan an'anaviy psixologiyadan emas, balki avvalo bu g'oyalarning ijtimoiy kelib chiqishidan izlash kerak. U yoki bu individual jamiyada yitilgan ijtimoiy g'oyalarning tasodifiy ifodalovchisi bo'lib qoladi.

Akademik A. I. Berg shunday deb yozadi "inson faqat tashqi dunyo bilan to'xtovsiz mulqot qilishi sharoitidagina uzoq vaqt fikrlashi mumkin. Tashqi dunyodan to'liq informatsion ajralish bu aqldan o'zishning boshlanishidir. Informatsion undovchi tafakkurning tashqi dunyo bilan aloqasi insonga oziq-ovqatdek, issiqlikdek zarur". Psixologiya fani taraqqiyotida nemis psixologiya maktabi muhim o'rinlardan birini egallaydi va asrimizning boshlarida Germaniyada Vyurzburg psixologiya maktabi deb nomlangan yangi yo'nalishga ega bo'lgan psixologik oqim paydo bo'ladi. Mazkur yo'nalishning yirik vakillari sifatida O. Kyulpe (1862-1915), K. Byuller (1879-1922), A. Messer (1837-1937), Ax Narsis (1871-1946) va boshqalarni sanab o'tish lozim. Ular tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar tafakkur muammosining rivojiga ma'lum darajada hissa qo'sha oldi.

Vyurzburg psixologiya maktabi vakillari tafakkurni hissiy bosqichda turgan psixik jarayonlarga, ya'ni sezgi va tasavvurlarga ajratib o'rganishda rasional

bosqichdagi murakkab jihatlardan mexanik ravishda vujudga keladi, deb tushuntirish mumkin emasligini eksperimental yo'l bilan isbotlashga harakat qilidilar. Olib borilgan tadqiqotlarni o'zlarining usullarida o'tkazib, natijalarni ob'ektiv bo'lishga kamroq e'tibor berganlar.

Amerika psixologiyasida vujudga kelgan bixeviorizm yoki xulq psixologiyasi oqimi o'lgan asming oxirlaridan boshlab hukm surib kelmog'ida. Bixeviorizm oqimining asoschilari amerikalik psixologlar Dj. Uotson (1878-1958) va E. Tomdayk (1871-1949) lardir. Keyinchalik bu qarorga Kl.evin (1890-1957) A. Vays (1974-1931) va boshqalar kelib qo'shiladilar. Ma'lum davrgacha mazkur oqim psixologiya olamida dominantlik rolini o'ynaydi. hozirgi davrda bu oqim bir nechta mustaqil psixologik maktablarga ajralib kelgan. Lekin ularning mohiyatida bixeviorizm natijasi urib turadi. hammasi uchun umumiy formula S-R, ya'ni stimulreaksiya xizmat qilib kelmog'ida.

Dj. Uotson tafakkurning ichki nutq va noverbal tovushsiz imo-ishora, mimika, yelka qisishi, qosh suzish, kommunikasiya, mulqotni birga qo'shib, keng mahoda tushunadi va uni uchta shaklga ajratib o'rganadi. Nutq shakllaridan biri nutq malakalarini sekin-asta avj oldirish deb ataladi. Bu she'mi yoki sitatani aniq esga tushirishda o'z ifodasini topadi. Tafakkurning ikkinchi shakli sub'ekt uchun yangi bo'lmagan topshirqini so'z yordami bilan yechish, yannu-yorisi unutilgan she'mi eslashga harakat va nihoyat, yangi topshirqini yiqqol ifodalai harakat va so'z yordami bilan yechish Dj. Uotson uchun malaka u individual egallagan va o'rganilgan xatiraharakatdir. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan qarasa, tafakkur malakaga yaqinlashitirilib qo'yiladi. chunki she'mi esga tushirish ham tafakkur deb talqin qilinadi. Dj. Uotson tinni o'zlashitirishning ijtimoiy jihatlarini umuman hisobga olmagan, nutqning tuzilishi va rivojlanishiga sira e'tibor qilmagan. Nutq bilan tafakkur birligi to'g'risida (umoyini anglab yetmagan, tafakkur va ongning xulq ko'rinishi sifatida olib qaratilgan.

"Tayanch tushunchalar": tafakkur, tafakkur operatsiyalari, analiz, sintez, taqqoslash, klassifikatsiya va sistemaga solish, tafakkur turlari, tafakkur shakllari, tafakkur sifatlari, tafakkur nazariyalari.

Mavzu ni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tafakkurga ta'rif bering
2. Tafakkur operatsiyalarini izoxlang
3. Tafakkur shakllarini sanab o'ting
4. Tafakkur turlari va sifatlari aytib bering
5. Tafakkur nazariyalarni tushuntirng.

²³ Myers-D.-G., -Psychology-9th-edition 2 2010. 400 bet. (mazmunidan foydalanilgan)

INTELLEKT

Intellekt va kreativlik haqida tushuncha

Psixologiyada intellekt va kreativlikni aloqasini tushuntiruvchi 3 ta nazariya mavjud. D.Veksler, G.Ayzenk, L.Termen, R.Stenberg va boshqalar intellekt va kreativlikni oliy darajadagi insoniy qobiliyatlarining birligi deb bilishadi. Intellekt kreativlikning yuqori bosqichidir. Bu degani nafakat ular birtak, balki ijodkorlik intellektning hosilasidir. Yuqori darajadagi intellekt-yuqori darajadagi qobiliyatning asosiy hisoblanadi. Quyi intellekt- quyi darajadagi intellektni yuzaga keltiradi. Gans Ayzenk kreativlikni qobiliyatning o'ziga xos ko'rinishi deb hisoblagan. Kreativlik intellektning yuqori bo'lishi bilan belgilangan.

Intellekt bu inson va hayvonlarni yangi muhitga moslashishi hisoblanadi. V.Shterni, J.Piye, D.Veksler va boshqa avtorlar ham intellektni insonlarni yangi hayotiy sharoitlarga moslashishuvchi umumiy qobiliyat sifatida qarashgan. Ular o'z tadqiqotlarida amerikalik minglab maktab o'quvchilarini loqiyud metodi orqali tadqiq etishgan. Tadqiqot jarayonida, dastlab ularni IQ (intellekt ko'effitsenti) aniqlab olindi. O'quvchilarni IQ ko'effitsentiga qarab guruhlariga ajratildi va 30, 40, 50, 60 yil oralig'ida kuzatishgan. Yillar davomida intellekt ko'effitsenti yuqori bo'lgan sinalluvchilar hayotida, faoliyatida yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatishgan. IQ ko'effitsenti pastroq bo'lgan sinalluvchilar ulardan farqli o'laroq 30 marta kam yutuqlarga erishishgan.

Lekin intellekt va kreativlikning bir birtga bog'liq emasligini boshqa tadqiqotlarda tadqiq etilgan. Kreativlik- bu insonni hayotga moslashishi emas, balki uni o'zgartirishdir. Kreativlikning asosiy omili bu insonning dezadaptsiyasi, ya'ni uni atrof olam va jiiimoiy muhitga moslasha olinmasligida deb qaralan nazariyalari ham mavjud. Ba'zi olimlar shaxsning kreativlik xususiyatini tashqi olam va insonlardan yolg'izlanish deya ta'rif berishgan. Aynan real olamga nisbatan dezadaptsiyasi mavjud bo'lgan, moslasha olinmagan inson o'zidagi yolg'izlikni yengib o'tish uchun ijod qilish va yangilik yaratishni boshlar ekan. A.Aderning fikricha, insondagi kreativlik o'zida mavjud bo'lgan noto'liqlik kompleksini to'ldirish vositasi deb bilgan. Empirik tadqiqotlarda ko'rsatishicha, ijodkor qobiliyati bolalar shaxsiy va emosional sohada jiddiy muammolarga duch kelishadi. Tadqiqotlarda bunday bolalarning maktabda erishayotgan natijalari ularning imkoniyatlaridan past chiqqanini kuzatishimiz mumkin.

Kreativlik va intellektni qarama-qarshi qo'lgan olimlardan yana biri D. Gilvord bo'lib, u o'z nazariyasini ikki xil tafakkur asosida quradi. Ya'ni konvergent va divergent tafakkur. Konvergent tafakkur masalani yechishda mavjud barcha vositalarni tahlil qilib, ulardan yagona maqbulini tanlashdir. Konvergent tafakkur intellekt asosida quriyadi. Divergent tafakkur- masalani yechishning turli variantlarini yaratishdan iborat tafakkur turidir. Divergent tafakkur- kreativlik asosida quriyadi.

Demak intellekt va kreativlik umumiy ko'rinishdagi ikki xil qobiliyatlar bo'lib, ularni ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog'lash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlash chiqarish va ularning cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Intellekt esa o'sha ma'lumotni real amaliyotda qo'llashga va atrof muhitga moslashishga javob beradi.

Uchinchi nuqtai nazar egalari intellekt va kreativlik o'zaro uzviy bog'langan ikki xil faktordir qarashadi. Shaxsni onentirlashitgan bu psixologiya vakillari A.Maslau va boshqalar ijodiy qobiliyatni tan olishmagan. Ijodiy faollik shaxsda qobiliyatga qaraganda, ba'zi shaxsiy xususiyatlarni (qiziqish, tavakkalchilik) shakllantiradi. Lekin bu faollikning namoyon bo'lishi uchun shaxsda yuqori darajadagi intellektual qobiliyat mavjud bo'lishi kerak. Ularining fikricha, quyi intellektga ega bo'lgan kishi hech qanday kreativlikka ega bo'lmaydi. O'rta intellekt sohiblari o'rta kreativlik, IQ ko'effitsenti 120 dan ortiq bo'lgan kishilar alo darajadagi kreativlikka ega bo'lishishadi.

Evolutsiya nuqtai nazaridan intellekt va kreativlikning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib ko'raylik.

Intellektni go'yo qolipga solingan, buyuk kashfiyotlarni yaratmaydigan moslashuvchi qobiliyat sifatida ko'ramiz. Intellektga faqat qaytarish xosidir. Psixologlarning fikricha bu g'oya noto'ridir. Sababi evolyusion rivojlanish nazariyasida insoniyatning antropogenez rivojlanishining asosiy omilini intellektning rivojlanishidadir deb ayrib o'tilgan. Olovni o'zlashtirish va qurollar yasash bunga misol bo'la oladi.

Intellektni kreativlikdan yiroq qilish, shaxsdagi yaratuvchanlik, originallik kabi sifatlarini kreativlikka moslab qo'yimogda. Kim birinchi bo'lib buyuk kashfiyotni, o'q-yoylarni yaratgan, kim olovni o'zlashtirish mumkinligini o'ylab topgan? Intellektmi? yoki Kreativlikmi? Agar kreativlik bo'lsa, unda intellekt qoeraga ketdi. Demak, bunday mulohazalar intellektni insoniyatning texnik va ilmiy muvaffaqiyatlarini yaratishdagi o'rinni pasayitmoqda.


Ma'lumki, ba'zi insonlar aniq fanlar yuzasidan ba'zi insonlar gumanitar fanlar yuzasidan qobiliyatga ega bo'lishadi. Yana yuqori darajadagi talantga ega bo'lgan rassomning oddiy matematik misollar oldida esankirab qolishini va g'oyib matematikni ozroq badiiy qobiliyatga ega bo'lishini kuzatganimiz. Bunday insonlarni aqilli deb ayitishimiz mumkinmi.

Spiemening fikricha, insonlarda umumiy intellekt mavjud. Uning fikricha insonlarni bir-biridan ajratib turuvchi o'ziga xos qobiliyatlar bor. Spiemening faktori analiz, statistik proseduralni ishlab chiqdi. U bog'liq elementlarning muvofiqat bog'lanishlarini tushuntirib bergan. Spiemening fikricha malakaning umumiy yig'indisi, bizning aqliy hulq-atvorimizga bog'liqdir deb tushuntirgan. Shu kungacha Spiemening umumiy intellekt nazariyasi, ya'ni intellektni bir turdama baholash nazariyasi ko'plab noroziliklarga sabab bo'lgan. Spiemendan farqli o'laroq Testroun aqliy qobiliyatlarining 56 xil testlar, 7 ta klaster orqali baholashni joriy etdi. Testroun insonlarni yagona shkala orqali baholamadi. U agar shaxs 7ta klasterdagi barcha masalani muvaffaqiyatli yechsa, u qolgan

barcha sohalarida ham xuddi shunday mavaffaqiyatga erishadi deb bilgan. Ular aqliy qobiliyatni jismoniy qobiliyat bilan taqqoslashgan. Uning fikricha, shunga ko'tarish bo'yicha jahon chempioni yaxshigina figuristik sport turi bilash ham shug'ullanishi mumkin. Chunki undagi jismoniy tayyorgarlik shunga imkon beradi.

Satosi Kanadzava (2004 y.) umumiy intellektni intellektning bir turi sifatida ko'radi. Umumiy intellekt bizga kundalik hayotda mavjud muammoalarni hal qilishda yordam beradi. [406]

1980 yillarga kelib Spiremening yagona intellekt nazariyasini va Testouning akademik qobiliyatlar nazariyalarni taqqoslash jarayoni kuzatilgan. Ularning fikricha, shaxs biror kognitiv sohada muvaffaqiyatga erishayotgan bo'lsa, demak u boshqqa sohalarida ham xuddi shunday zafarlarga erishadi. [406]



Hayotga moslashishning asosiy omili shaxsdagi umumiy intellekt emas, balki vaqt o'tib, qobiliyatlar bir-biriga ta'sir eta boshlaydi. X.Gardner intellektni bir necha qobiliyatlar yig'indisi deb qaragan. U o'z tadqiqotlarini past qobiliyati odamlarda

o'tkazgan. Mifining shikastlanishi bor qobiliyatni so'ndirishi mumkin lekin qolgan qobiliyatlarni qoldirishi mumkin deb hisoblagan.

Gardner o'z tadqiqotini bosh miyasi ba'zi qismlari fiziologik jihatdan shikastlangan sinuovchilarda o'tkazgan. Ular ko'pincha intellekt testlardan quyri ballarni egallashgan. Bu sindrom vakillarining ba'zilarida nutq rivojlanmagan. Lekin qo'shib ayinishni xuddi elektron hisoblagichday tezda hisoblay olish qobiliyatiga ega bo'lishgan. Ba'zilar, biror tarixiy kun bilan bog'liq sanalarni yoddan bilishgan. Bunday sindrom egalari hatto ki badiiy ijodda ham muvaffaqiyatlarga erisha olishgan. Yuqoridagi faktlardan foydalanib, Gardner shaxsda intellekt emas, balki bir necha xil ong mavjud degan fikrga kelgan. Umuman olganda shaxsda 8 xil ko'rinishdagi qobiliyat borligini aytib o'tadi. Agar shaxs biror sohada muvaffaqiyatga erisha, demak u qolgan sohalarida ham yaxshi natijalarga erishadi deb aytib bo'lgan. [407]

R. Shtenbergr, R. Vagner Gardnerning g'oyasiga qo'shilishgan. Lekin shaxsda aqni 3 xil faktori mavjudligini taxli qilishgan.

Masalarni yechishda akademik malakaning mavjudligi. Bunday malakalarni aqliy testlardagi yagona to'g'ri javobni belgilash bilan baholalanadi.

Ana'ly intellekt kundalik hayotda atrof muhitga moslashish uchun muammolarning ko'plab yechimidan qulayini tanlashga yordam beradi.

Ijodiy aql. Bun tip vakillari notanish vaziyatlarda o'zining reaksiyasini ko'rsatishi bilan ajralib turadi. [409]

Kreativlikning ajratilishiga aqlning an'anaviy testlari va muammolari yechishning muvaffaqiyati o'rnatilgan bog'lanish yo'qligi haqidagi ma'lumot turtki bo'lgan. Bu sifat mohiyatan aql orqali berilgan ma'lumotlarni, qo'yilgan vazifalarni hal qilishda tezkor usul va har xil yo'sindan foydalanish qobiliyatiga bog'liqligini ifodalaydi.

1962 yilda J.W. Getzels va P.W. Jackson [10] aqliy ijodiylikning ko'rsatkichlari orasida bog'liqlik yo'q, degan ma'lumotni ma'lumotda e'lon qilishgan. Ular ijodiylikni o'lchash uchun o'zlarining (Sr) ko'effitsientini kiritishgan, xolos. Aqliy iste'dod esa bolaning guvohnomasidagi yoshga nisbat qo'liga kiritgan muvaffaqiyatlarining miqdori bilan o'lchanib, IQ ko'effitsienti bilan belgilanadi. IQ va Cr ko'effitsientlarini ajratish qobiliyat bilan mantiqiy aqliy ijodiylikka qarana-qarshi qo'yishga omil bo'lgan. Xuddi shu bois ham XX asrning 60-yillariga kelib, ijodiylikning 60 dan ortiq ta'rifi ishlab chiqildi. Ijodiylik ta'riflarini tahlil qilish orqali ularni 6 turga ajratish mumkin: *gestaltlik* (ta'rifi (ijodiy jarayonni mavjud gestaltlarni buzib, yaxshiroq'ini tuzish sifatida ta'riflanadi), *innovation* (*yangi*) ta'rifi (so'nggi natijaning yangiligi bo'yicha ijodiylikni baholashga yo'naltirilgan), *estetik yoki ekspressiv* (ijod qiluvchining o'zini-o'zi ifodalashga ahamiyat beruvchi), *psixosomatilik* (ijodiylikni "U", "Men" va "Ideal - Men" o'rtasidagi o'zaro munosabat deb ta'riflovchi); *muammoli* (ijodiylikni masalalar yechish jarayoni deb aniqlaydigan. Bunga J.P. Guilfordning "Ijodiylik - divergent qobiliyat jarayonidir", degan ta'rifi ham muvassamlashtirish mumkin), oltinchi tipga yuqorida ta'riflangan tiplarning birlashtirishiga ham kirmaydigan har xil ta'riflarni kiritish mumkin (masalan, "umuminsoniy" bilimlar zaxirasini to'ldirish) [10].

Hozirgi davrda to'plangan ijodiylik atamasiga taalluqli ta'riflar mazmuni, mohiyati va tuzilmasini baholash qiyin. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "ijodiylikning minimaligini tushunishning o'zi ijodiy harakati talab qiladi. Ko'ngli yillardagi tadqiqotlar mualliflaridan biri ijodiylikni qandaydir ahmiyatli va yangi narsaga erishish deb, ya'ni "boshqacha aytganda, bu insonlarning dunyoni o'zgartirish uchun qilgan harakatlari" sifatida ta'riflaydilar. Ijodiylikning XX asr 60-yillardagi ko'zga ko'ringan tadqiqotchilaridan biri M.W. Wallachning [10] ta'kidlashicha, intellektual testlar ijodiy yutuqlar bilan yuqori ko'rsatkichlarda o'zaro bog'lanmagan. U 11-12 yoshli o'quvchilar o'rtasidagi intellekt va ijodiylik turlicha rivojlanganligi sababli ularni 4 xil guruhga ajratib ko'rsatadi:

intellekt va ijodiylikning yuqori darajasiga erishgan o'quvchilar o'zlarini to'g'ri baholaydilar, ular o'zini-o'zi nazorat qilish yuqori, ular barcha yangi muammolarga qiziqishadi va baholashda mustaqillikka egadirlar;

intellektual darajasi yuqori va ijodiylik darajasi past o'quvchilar maktabda muvaffaqiyatga intiladilar, lekin bironvan o'z sirlarini yashiradilar, o'zlarini janniytib baholaydilar;

intellektual darajasi past va ijodiylik ko'rsatkichi yuqori o'quvchilar xavotirligi, e'tiborsiz, quyi ijtimoiy moslashuv bilan boshqalardan ajralib turadilar.

intellektual darajasi va ijodiylik ko'rsatkichi quyi o'quvchilar vaziyatga oson moslashadilar, ijtimoiy intellektual darajasi yuqori, lekin sust sub'ektlar o'zlarini to'g'ri baholaydilar.

Shunday qilib, ijodiylik jarayoni bilan intellekt darajasi o'rtasidagi munosabat o'quvchilarning shaxsiy xislatlariga va ularning moslashuv usullariga ta'sir qiladi.

Stenberg va Gardnerlarning fikricha bir necha qobiliyat shaxsni omadi bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Ijodiylik mezonlaridan biri - bu *nostandartlikdir*. E.P.Torrance ta'kidlaganidek, noyob va original javoblar mohiyatan har doim ham mos tushavermaydi. Ko'pincha tushunchalarning mazmunini asoslanmagan ravishda aralashtirish holati ro'y beradi. Ijodiy qobiliyat esa nostandartlik bilan bir xil deb qaraladi, nostandartlik originallik bilan, originallik esa sinalluvchilar guruhidagi noyob javoblar bilan ayniy deb talqin etiladi. Nostandartlik originallik (o'ziga xoslikka nisbatan kengroq tushunchadir [10]).

Ikkinchi mezon - *anglanganlikdir*. Bu asnoda so'z bog'anda sinalluvchi tomonidan muammo yechimining anglanganligi nazarda tutiladi.

Intellektual testlar shaxsdan konvergent tafakkurni talab qiladi. Kreativ testlar esa divergent tafakkurni talab etadi.

Kreativlik - bu birvaqtning o'zida yangi va qadri g'oyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir.

Stenberg va uning kasbdoshlari kreativlikning 5 komponentini ishlab chiqishgan.

1. Shaxsdagi bilimning ko'pgirraligi. Qo'lga qirigan bilimlarimiz g'oyalarni yaratishning ko'p bo'lishining asosi hisoblandi. Dunyoviy bilimlarimiz qanchalik ko'p bo'lsa, psixikamizdagi bloklar ham shunchalik ko'p bo'ladi. Hayotda muammolarni hal qilishda bilimlarimiz qanchalik ko'p bo'lsa, uni hal qilish shunchalik oson bo'ladi.

2. Tasavvuriy tafakkur narsa va hodisalarni yangidan ko'rishga, ularni qayta yaratishga va bog'lashga imkon beradi. Muammoning asosiy elementini tasavvur qilib uni o'zlashtiramiz va uni yangi bosqichga olib o'tamiz.

3. Tavakkalchilik - yangi ta'surotlarni qidirish. Buni ikki ma'noda ko'rish mumkin. Ya'ni birinchisi **tavakkal** va muammoni yangib o'tishdagi **qat'iylilikda** deb ko'rish mumkin bunday xususiyatga ega bo'lgan shaxslar o'rtasiga qaytishdan ko'ra, yangi tajribaga ega bo'lishni avval deb bilishadi.

4. Ichki motivatsiya majburiylikdan ko'ra shaxsda murakkab masalani yechishda qiziqish va qoniqish hissiini yuzaga keltiradi. Ijodkor shaxs masalaning muddatini, uning keltiruvchi daromadini va talabgorlari haqida o'ylamaydi. Butun e'tibori masalani yechishdagi qoniqish hissi va stimuli qaratadi. Isaak Nyutondan "Siz bunday murakkab masalalarni qanday qilib hal

qilgansiz" deb so'raganda, u shunday javob bergan "Men bu muammo haqida tunu kun o'ylab yurganman" deb javob bergan.

5. Ijodiy muhit shaxsdagi ijodiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Hamkasblar bilan ijobiy munosabat va ularni ko'magi shaxsdagi g'oyalarni kamol topishiga turki bo'ladi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu'zi tadqiqotlarda ijtimoiy muhitning shaxsga salbiy ta'siri holati ham kuzatilgan. Masalan, amerikalik talabalarga insho yozish topshirig'i berilgan. Ular yozgan inshoni uning kursdoshlari tomonidan tekshirishi oldindan ogohlantirilgan. Boshqa guruhga esa faqatgina insho yozishni aytilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ogohlantirilgan guruhning insholari yomon yozilgan, ma'lum bo'lgan. Bu holatda biz ijtimoiy muhitning ijodkorlikka salbiy ta'sirini yuqg'ol ko'rishimiz mumkin.

Nensi Kantor, Dion Kilstrom faniga akademik intellektidan tashqari ijtimoiy intellekt tushunchasini kiritishdi. Ijtimoiy intellekt - bu ma'lum ijtimoiy vaziyatlarni tushunib yetish va uni yengib o'tish deganidir. S.Epsta'yn, P.Mayerlar ham bu fikrga qo'shilgan. Nima uchun akademik qobiliyati shaxslar jamiyatida o'z o'rini topishga, oilaviy baxtiga erishishga, biror bir yutuqqa erishishda muvaffaqiyatsizliklarga duch keladi? S.Epsta'yn, P.Mayerlarning fikricha, ijtimoiy intellektning muhim bo'lagi - bu emosional intellekt. Ya'ni, o'z emosiyasini qabul qilish, ifodalash, tushunish va boshqarish qobiliyatidir. Ongli, emosional yetuk shaxslar o'z o'zini yaxshi anglagan xarakterlar hisoblanishadi. Bunday odamlar yengib bo'lmaydigan depressiya, hissiyotlarini boshqara oladigan insonlar hisoblanishadi.

Emosional intellektni E.Torndayk, Gollman va boshqa olimlar ham tadqiq qilgan. Dj. Mayer, P.Solovey, D.Krauzo qobiliyat sirasiga kiruvchi emosional intellektning 4 komponentini tadqiq etuvchi testlarni ishlab chiqishdi. Bular quyidagilar:


- Emotsiyani qabul qilish (inson yuzidan uni aniqlash)
- Emotsiyani tushunish (ularni o'zgarishini aytib berish)
- Emotsiyani boshqarish (qaysi vaziyatda qaysi bir emosiyadan foydalanishni bila olish)

• Emotsiyani moslashuvchan va ijodkor tafakkurda qo'llay olish[412]

Agar shaxs yuqori intellekt koefitsientiga ega bo'lsa, ammo bosh miyasining biror joyidan jarohat o'lsauning emosional intellekti pasayib ketar ekan. Nevrolog Antonio Damasio o'z tajribasida miya saratoni mavjud Elliot insoni bemorni mosol qilib keltirgan. U o'z bemoridagi o'smani jarrohlik yo'li bilan olib tashlagan. U bemor sog'aygandan keyin u bilan bo'lgan soatlab suhbatda uning yuzida emosiyaning hech qanday ko'rinishini payqashmagan. Illiylarga turli xil vahshiona va turli tabiiy oftlar orqali insonlarda yuz bergan talofatlar aks etgan rasmlarni ko'rsatishgan. Elliot o'zida hech qanday his yo'qligini bilgan va uni ifodalay olmagan. U endilikda hech nima his eta olmuyotganini yaxshi bilgan. Natijada Elliot o'z ishi va oilasini yo'qotdi. Uning

qayta turmishi ham o'xshamagan. Elliot jamiyada o'z o'zini yo'qotib muvaffaqiyatsizlikka erishdi.

Lekin ba'zi olimlarning fikricha, emosional intellekt – intellektidan yiroq tushuncha. Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, emosional intellekt bizdagi bor hohish va qiziqishni aktivlashtiradi. Muammoning ma'nosini kamroq o'ylashga majbur qiladi. Bu jarayon kreativlik uchun muhim hisoblanadi.



Eynshteyn bilan bir kanadalikning miyasi

tadqiq etilganda ularning og'irligi o'rtasida deyarli hech qanday farq yo'qligini aniqlashgan. Lekin Eynshteynning miyasining kuyi qismi kanadalikning miyasidan 15 foizga yuqoriroqligi namoyon bo'lgan. Aynan miyaning quyi qismi matematik va fazoviy ma'lumotlarga javob beradi. Aksincha Eynshteynning miyasining faollikka javob beruvchi qismlari pastroq joylashganini aniqlashgan. Shuning uchun ham Eynshteyn va boshqa fiziklarning gapirish va o'rganishida sekinlikni ko'rishimiz mumkin bo'lgan.



Intellektini o'lchash tarixida dastlabki qadamlarni ingliz olimi Frensis Galton tomonidan amalga oshirilgan. Galtonning fikricha xarakter irsiyat yo'li bilan avlodlardan-avlodga o'tar ekan. U bunga bog'liq ravishda aqliy qobiliyatlarini irsiyat yo'li bilan tushuntirmoqchi bo'lgan. Galtonning tadqiqotlari unchalik yaxshi natijalarni ko'rsatmadi va erak kishilarning natijali ayollarinikiga qaraganda yuqori chiqqanini ko'rishimiz mumkin. Galtonning tadqiqotlari o'z samarasini bermagan bo'lsa ham biz uni aqliy qobiliyatlarini aniqlagan dastlabki tadqiqotchi sifatida tan olamiz. Intellektini testlar yordamida aniqlash yana bir qadamlarni fransuz olimi Alfred Bine tomonidan amalga oshirilgan.

Unga fransuz maktablari yaxshi o'zlashtirayotgan yoki aksincha juda yaxshi o'zlashtirib maxsus ta'lim programmasiga ehtiyoj sezgan bolalarni tadqiq etish topshirilgan. Buning sababi ularning qobiliyatlaridagi farqlar bo'lishi mumkin deb qaralgan. 1904 yil A. Bine o'z xodimi Tedor Simon bilan birga maktabda o'zlashtirishda ma'lum muammolarga duch keluvchi o'quvchilarni aniqlovchi ob'ektiv testlarni yaratishgan. Bine va Simon aqliy yosh va xronologik yosh degan hodisani o'rganishni boshlashgan. Uning aqliy yoshi xronologik yoshiga mos kelishi kerak edi. Agar kimda bu mutanosib kemas, uni maxsus ta'lim metodi orqali moslashtirish mumkin deb hisoblagan. Bine va Simon Galtondan farqli o'laroq aqliy qobiliyatni muhitga bog'liq deb bilgan.[416]

Binedan so'ng Stanford universitetining professori Lyuis Terman Bine va Simonning intellekt testlari Stanford universitetining talabalariga mos kelmayotganini aniqlab, unga ma'lum o'zgartirish kiritdi. Endilikda unga

Stanford-Bine testi deb nomladi. Keyinchalik nemis olimi Vilyam Shtern aqliy qobiliyat ko'effitsientini hisoblagan o'sha mashhur IQ atamasini fanga kiritdi.

Aqliy yosh

IQ ----- x100

Xronologik yosh

Demak, dastlab angliyalik olim F. Galton individual - aqliy qobiliyatlarini tadqiq etgan. Lekin unda buni qanday qilib o'lchash kerakligini aniqlay olmagan bo'lsa ham. A. Bine esa uning g'oyasini rivojlantirib, fransuz ta'lim tizimida o'quvchilarning kelajakda o'zlashtirishga olishini aytib bera olgan. Xuddi Galton dek L. Terman aqliy qobiliyatlar irsiyatining mevasi deb bilgan. Ctenford-Bine testi bu ko'rinmayotgan qobiliyatni uyg'otishga yordam beradi deb aytib o'tgan.

Intellektning rivojlanishi irsiyatsiyatni yoki ijtimoiy muhitning roli kuchlimi? F. Galtonning fikricha, intellektning rivojlanishiga irsiyatning rolini yuqori qo'ygan. Lekin ijtimoiy muhitning rolini yuqori qo'yisak, unda yaxshi ta'lim-tarbiya olmagan nosog'lom muhitda o'sgan bola qobiliyatsiz bola deb hisoblashga to'g'ri keladi.

Hqiqatda ham bir tuxumdan tug'ilgan egizaklarda intellekt ko'effitsienti deyarli bir xil natijani ko'rsatgan. Agar bir tuxumdan tug'ilgan egizaklarni boshqa boshqa oilalarda tarbiya qilib ularning intellekt ko'effitsienti tekshirilganda, baribir natijani bir xilgini ko'rishimiz mumkin.




Yana bir tadqiqot asrab olingan bolalarda o'tkazilgan. Bir muhrida katta bo'lgan bolalarning intellekt ko'effitsienti yoshligida bir xil natijani ko'rsatgan. Lekin ular ulg'aygan sari bu o'xshashlik kamayib borishini kuzatishgan. Aynan aqliy qobiliyatlar yillar o'tib o'z o'xshashligini yo'qotishini tadqiqotlar isbotlab bergan. Bundan tashqari mehribonlik uy-lardan asrab olingan bolalar o'gay otalari-ga qaraganda o'zlarining biologik ota-onalariga qaraganda o'zlarining biologik ota-onalariga o'xshashligi kuzatilgan. Irsiyat va ijtimoiy muhitning bir-biriga o'zaro bog'liqligi. Matematik qobiliyatga ega bo'lgan bolani maxsus matematikaga yo'naltirilgan gimnaziyada o'qitib, yillar o'tib uning intellekt tekshirilganda, yuqori natijalarni ko'rsatgan. Buning sababi ham irsiyat ham ijtimoiy omilda ko'rinuvchi (qobiliyat-ta'lim). Demak, genlarimiz bizning muhitimizni, muhit esa o'z navbatida bizning o'zimizni shakllantirar ekan.

Dj. Mak-Viker Tegerandagi kan ta'minlangan mehribonlik uyi talabalarini natijalarni tadqiq etdi. Ko'pchilik 2 yoshli bolalar mustaqil o'qitish olinishligini, 4 yoshli bolalar esa yura olmasligini kuzatgan. Tarbiyovchilar bolalarning yig'ilashiga, qaysarliklarga umuman e'tibor qaratmas edilar. Natijada bunday bolalar "passiv", tashqi muhit ta'siriga nisbatan hech qanday ehtiyoj yo'q qolq bolalar bo'lib ulg'ayishgani aniqlangan. Deprivatsiya sharoti tug'lama qobiliyatlarini so'ndirmoqda edi.

Xant "inson qobiliyatini shakllantirishga o'rgatish" nomi dasturini yaratdi. Dastur davomida Xant tarbiyalovchilarni bolalar bilan tovuishi o'yinlar orqali ishlashga o'rgatdi. Tadqiqotda 11 ta bola saralab olingan edi. Ular 1 yosh 11 oylik davriga kelib 50 tagacha so'zni talaffuz qila boshlagani aniqlandi. Natijada o'sha saralab olingan bolalar juda rivojlangan bolalar bo'lib ulg'ayishdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, aqliy qobiliyatlarining shakllanishida ham istsiyatning ham atrof muhitning roli muhim. Insonning dastlabki rivojlanish bosqichida istsiy omillar yetakchiroq bo'lib ko'rinadi. Lekin yillar davomida ayniqsa aqliy qobiliyatlarining rivojlanishiga atrof muhit o'z ta'sirini ko'rsatib boradi. Uning keyingi rivojlanishi yoki so'nib borilishi atrof-muhitga bog'liq bo'lib qoladi.

Aqliy qobiliyatning jinsiy farqlari mavjud bo'lib, ayollarning xotirasi eraklarinikiga qaraganda kuchi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Eraklarda esa matematika va fazofiy qobiliyatlar yaxshi rivojlanganligi aniqlangan.



Xulosa o'rinda shuni aytish mumkin, biz intellekt so'zni talaffuz qilishimiz bilan uni testlar orqali o'lchashni ko'z oldimizga keltiramiz. Lekin mana shu testlar qanchalik haqiqatga yaqin. Biz ularga qay darajada ishonishimiz mumkin. Bu ko'rinishdagi testlarning savollari barcha qatlam vakillarning turmush shartini hisobga olmaganligini kuzatishimiz mumkin. Har toki, Alfred Bine ham o'zi kashf etkan intellekt testlarini tahlili ushda ishlash kerakligini aytib o'tgan. Sababi, bu testlarning natijasi haqiqatdan uzoq bo'lishini aniqlagan. Bundan tashqari bunday testlar intellektning faqat bir tomonini tadqiq etishga qaratilgan. Emotsional va amaliy intellekt yuqori rivojlangan shaxslarning natijalari bu testlarda yaxshi natija ko'rsatmayotganligi kuzatishgan. Baribir, hozirgi kunda IQ koeffitsienti o'z ahamiyatini zararcha ham yo'qotmagan.

Tayanch tushunchalar: intellekt, intellekt turlari, intellekt nazariyalari, kreativlik, intellektual sifatlar, intellekt o'lchash, intellekt koeffitsienti, sotsial intellekt, emotsional intellekt.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Intellektga ta'rif bering
2. Intellekt nazariyalari tushuntirib bering
3. Intellekt va kreativlikning o'zaro bog'liqligini asoslab bering
4. Sternberg bo'yicha kreativlikning 5 ta komponentini izohlab bering
5. Emotsional intellekt nima?

NUtQ

Nutq to'g'risida umumiy tushunchalar

Insonni hayvonot dunyosidan farqlaydigan, uning fiziologik, psixik va ijtimoiy rivojlanishini aks ettuvchi qonuniyatlar nutq deb atalmish o'ziga xos psixik jarayonligi mavjudligi hisoblanadi. Nutq – bu insonlarning til vositasida mulogoti jarayoni tilni bilish va undan foydalana olish zarur. Psixologiyada "til" va "nutq" tushunchalarini bo'lish qabul qilingan. Til - bu shartli ramzlar tizimi, ularning yordamida insonlar uchun muayyan ahamiyat va ma'noga ega bo'lgan tovushlar birkamasi beriladi. Til jamiyat bilan ishlab chiqiladi va insonlar ijtimoiy ongida ularning ijtimoiy turmushini aks etish shaklini bildiradi. Til, insonlar mulogoti jarayonida shakllanib, shu bilan birga ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli hisoblanadi. Bunda til fenomenlaridan biri bo'lib shu hisoblanadiki, har bir inson atrofidaqlar so'zlashayotgan tayyor tilga ega bo'ladi va o'z rivojlanishi jarayonida uni o'zlashtiradi. Biroq til egasi bo'lib, inson egallagan tili rivojlanishi va modernizatsiyasi nisbiy manbasiga aylanadi. Til – bu yetarli murakkab hosila. Har qanday til avvalom bor tilning leksik tarkibi deb atalgan muayyan belgisi so'zlar tizimiga ega. Bundan tashqari, til turli shakldagi so'z va so'z birliklari tizimiga ega, bu til grammatikasini tashkil qiladi hamda faqat aniq tilga mansub bo'lgan muayyan tovush yoki fonetik tarkibi ega. Tilning asosiy vazifasi shundan iboratki, tovushlar tizimi hisoblanib, u har bir so'zning muayyan ma'nosini ta'minlaydi. Har qanday so'zning ma'nosi – bu har doim umumlashtirishdir. Agar "mashina" so'zini aytisak, unda bu so'z butun predmetlar tizimini birlashtiradi, masalan, barcha turdagi va har qanday modeldagi avtomashinalar yoki qandaydir muayyan operatsiyalarni bajaruvchi mexanik qurilmalar. Shu bilan bir vaqtda so'z aniq predmetni bildirishi mumkin, bunda qaysi predmet haqida gap yuritilayotganini aniq anglaymiz, bu insonlar o'rtasida mulogoti imkoniyatini ta'minlaydi. Masalan, agar so'zlasangiz: "Bu qanday mashina?", unda subbadoshingiz aniq avtomobil haqida bo'layotganingizni biladi. Bunda subbadoshingiz sizni shu mashina markasi va uni qiziqitrayotganini tushunadi. Tildan farqli ravishda nutq deb *xabar berish, ko'rsatish, savol, buyruq berish* shaklida amalga oshiriladigan so'zli mulogoti jarayonini atash qabul qilingan. Psixologik nuqtai nazardan til vositasidagi mulogoti - tilning o'ziga qaraganda murakkabroq hodisa. Nutq orqali qandaydir asbobotni berish uchun natijada muayyan ma'noga ega bo'lgan mos so'zlarni tanlash, balki ularni aniqlash zarur. Aytganimizdek, har qanday so'z umumlashtirishdir, shuning uchun nutqda u muayyan darajagacha yoki ma'noga qisqartirilishi kerak. Bunga so'zni muayyan kontekstga kiritish zarurligini eslatib qoladi. Masalan, mashina misolida bizni qiziqitrayotgan predmetning faqatiy-vaqti tavsifiga ko'rsatib va "Bu qanday mashina?" savoli yordamida ko'rsatib, "mashina" tushunchasini aniqlashdir. Agar so'z raganimizda: "Bu kunning mashinasi?", unda shu bilan bizni predmetning o'zi emas, balki kimga tegishli ekanligi qiziqitrayotgan subbadoshga tushunarli bo'ladi. So'z

ma'nolari orqali uzatilayotgan mazmundan tashqari nutqda gapirayotganimizga nisbatan emosional munosabatimiz ham ifodalangani. Bu hodisa emosional-ifodali nutq tomoni deb ataladi va aytilayotgan iborani talaffuz qilish uchun foydalanadigan so'zlar yangrashi toni bilan shartlangan. Va, nihoyat, nutq psixologik tomonga ham ega bo'lishi mumkin, sababi nutqda ko'pincha maqsad (yoki nutq motivi) bilan aytilgan yoki bu iboraga ma'noli matn tagida mavjud. Mashina haqida so'raganimizda, subbadoshga avtomobil markasi va u bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa qiziqitirayotgani ma'lum bo'ldi. Biroq har qanday iborani ma'noga ega matn muayyan axborot yuklamasi sifatida ishlatiladi. Muayyan holatlarda ma'noli matn latent (yashirin) ma'no xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, subbadoshimizning mashinalarga qiziqishini bilib, avtomobil haqidagi savolni talaffuz qildik, va shu bilan birga so'zlashuv mavzusini o'zgartirishga urindik yoki uni qiziqitirgan muammolar bizni ham qiziqitirishini ko'rsatish orqali subbadoshni o'zimizga yaqinlashtirdik. Shunday qilib, nutqiy mulqot – bu murakkab va ko'p tarafdinam jarayon. Va, A.N. Leoniev yozganidek, har qanday nutq harakati "nutq shakli va turi va aniq sabablar va mulqot maqsadiga ko'ra turli qurilishi va turi nutqiy vositalarni qo'llashni talab qiladigan o'ziga xos psixologik vazifaning hal etilishini bildiradi". Tabiiyki, xuddi shu narsa nutqqa ham tegishi. Universal mulqot vositasi sifatida nutqning hozirgi holatidan oldin insonning uzoq filogenetik rivojlanishi jarayoni sodir bo'lgan. Ta'kidlash lozimki, nutq – bu o'ziga xos inson faoliyati. Nutq va u bilan birga til ham ilk bor inson jamiyatida yuzaga kelgan. Ehtimol, nutqning yuzaga kelishi insonning mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi bilan bog'liqdir, chunki jamoa mehnati jarayonida mehnat jarayoni ixtirochilarning birgalikdagi harakatlarini muvofiqlashtirishga zaruriyat yuzaga kelgan. Hozirgi zamon fanida shunday o'ylashga asos borki, mulqotning birinchi vositasi bo'lib majmual kinetik nutq hisoblangan. Taxmin qilinadiki, nutqning bu shakli ibtidoiy jamoa fikrlashi bilan bog'liq va ikkinchi muz davri odamlarida mavjud bo'lgan, ya'ni taxminan yarimmillion yil ilgari. Majmual kinetik nutq deganda tana harakatlari orqali axborotni uzatish oddiy tizimi tushuniladi. Bu mulqotning shakli hayvonlar mulqoti tilga juda yaqin. O'xshash til yordamida ibtidoiy ja oa odami o'z opponentiga nisbatan havfni yoki ilqlikni namoyon qilishi, o'z arazini ifodalashi hamda yana bir qator oddiy holatlarni bildirishi mumkin bo'lgan. Albatta, mulqot birgalikdagi mehnat jarayonida ham ishlatilgan, biroq mulqot harakatlari va mehnat bilan bog'liq bo'lgan harakatlarda avvalom bor, aniq farqlanishga ega bo'lmagan. Nutq rivojlanishidagi keyingi bosqich nutqiy harakatlarning mehnat harakatlardan asta-sekin uzoglashishi va ularning mulqot vositalari sifatida maxsuslashtirilishi, ya'ni ularni imo-ishoralariga aylantirishi bilan bog'liq bo'lgan. Harakatlanuvchi va mehnatga o'xshash bo'lishlar murakkablashgan inson mehnat faoliyati bilan yuzaga kelgan. Natijada maxsuslashtirilgan qo'l tili va qo'l (kinetik) nutqi paydo bo'lgan. Shunday qilib, inson qo'li mehnat va mulqotning asosiy vositasiga aylandi. Uning ustunligi, inson mulqot uchun

imo-ishoralarini emas, balki tovushni ishlatmaganligiga qadar yuz ming yil davomida saqlanib keldi. Biroq shubhasiz, butun vaqt mobaynida inson qo'li maksimal rivojlandi va universal asbobga aylandi. Asl tovush nutqiga o'tish, ehtimol, 100 yil ilgari, to'rtinchi muz davrida boshlangandir. Aniqrog'i bu ishlab chiqarish rivojlanishi va mehnatni ilk bor bo'lish bilan bog'liq bo'lgan.

Nutqga kerakli ehtiyof yuzaga keloldi, uning yordamida predmet va hodisalar yanada aniqroq belgilanishi mumkin bo'lgan – qismlarga bo'lingan tushunchalar tizimida. Bu talabga qo'l nutqi mos kelmasdi, shuning uchun qo'l imo-ishoralarini bilan bog'liq bo'lgan ovoz tovushlari roli orta boshladi. Taxmin qilish mumkinki, ovoz tovushlarining rivojlanishi tovushlar yordamida mulqotga bo'lgan ehtiyofga ancha ilgari boshlangan edi. Bu shuning uchun sodir bo'lganki, mulqot jarayonida qo'l imo-ishoralarini muayyan bo'linmas ovoz undovlari bilan kuzatilgan. Asta-sekin nutq tovushlari rivojlandi va yanada qismlarga bo'linma bordi. Vaqti bilan nutq tovushlari kinetik nutq bajargan vazifalarni, va bundan tashqari, inson nutqi keyini rivojlanishini ta'minlay oldi. Natijada til va nutq yangi rivojlanish pog'onasiga ko'tarildi – tovushli bo'lingan nutq darajasiga yetdi, bu insoniyat rivojlanishida asl revolyusiyaga aylandi va mehnatni tovushli nutq va fikrlash bevosita harakattan ajrata olovlaganligida muaymas bo'ldi. Tovushli nutq hozirgidek darhol yetuk bo'lmadi. Ko'proq yuzaga kelganidan keyin tovushli nutq o'z mazmuniga ko'ra kinetik nutqqa yaqin bo'lib qoldi. Ilk bor so'zlar, qo'l imo-ishoralarini kabi umumiy, noaniq ma'nolarga ega bo'ldi. O'xshash hodisa ibtidoiy polisemanitizm yoki so'zlarning ko'p ma'noiligi nomini oldi.

Aniq ishonch bilan aytish mumkinki, birinchi so'zlar butun gaplar o'rtasida bo'lgan. Ehtimol, tovushli nutqning yuzaga kelishi va rivojlanishi birinchi bosqichida na fe'llar, na otlar, na boshqa so'z turklari bo'lmagan. Shuning uchun birinchi nutqiy shakllar ancha soddadir. Ularda na yashirin ma'no, na kontekst bo'lgan. Nutq faqat qandaydir axborotni berish uchun ishlatilgan va gapiruvchining emosional xolati uzatish bilan bog'liq bo'lmagan. So'ng mehnat ta'sirida so'zlar ma'nosi rivojlanishi sodir bo'lgan. So'zlar nafaqat yanada aniq ma'noli ahamiyat ega bo'lgan, balki grammatik jihatdan farqlana boshlagan. Buning hammasi tilni murakkab morfologiya va murakkab sintaksis bilan shakllanishiga olib keldi. Nutq rivojlanishi keyingi bosqich *yozma*ning yaratilishi hisoblandi. Yozma nutq, ohzaki nutq kabi o'z rivojlanishida bir qator bosqichlarni boshdan kechirdi. Boshida yozma belgilar yuzaga keldi va kinetik nutq ostida rivojlandi, keyinroq esa tovushli nutq yuzaga kelishi bilan yozma belgilar tovushlar ma'nosini aks eta boshladi, bu hozirgi harfi-fonetik turdagi yozma yuzaga kelishiga olib keldi. Shunday qilib, inson nutqi, inson fikrlashi kabi jifimiy-farxiy rivojlanish mahsuli hisoblanadi, uning kechishida nutq bir qator vazifalarni bajara boshladi va psixik va jifimiy inson hayotida eng kerakli o'rinlardan birini egalladi.²⁴

Nutq – odam tomonidan ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki o'zaro aloqa o'rnatish yoki o'z xarakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til ijtimoiy xodisa, aloqa vositasi bo'lsa, nutq aloqa qilish jarayonining o'zginasidir.

Nutq - odamlar til orqali bir-biri bilan muomala va aloqa qilishning aloxida usulidir. Odam o'z nutqi orqali o'zining bilimlari, fikrlari, xislati va istaklarini boshqa kishilarga aytish, xislati va istaklarini boshqa kishilarga ayrib bera oladi va boshqa kishilarning fikrlarini o'zlashtirib oladi, boshqa kishilarning xislati va istaklarini bilib oladi.

Odamlar o'zlarining faoliyatlari va kundalik xayotlarida bir birlari bilan shu tarzda aloqa qilib turadilar.

Nutq vositasi bilan aloqa bog'lash jarayonida xar bir kishi bilimlarning ko'p qismini boshqa kishilardan oladi.

Nutq vositasi bilan aloqa bog'lashodarning doimiy ehtiyoji bo'lib, bu aloqa fikr olishga xizmat qiladi.

Odam boshqa kishilar bilan nutq orqali muomala qilmay yashay olmaydi. Odam yakka o'zi qolganda, ko'pincha xayolidagi suxbatdoshlar bilan «o'z ichida» gaplashadi. Odamo ziga notanish bo'lgan bir yoki bir necha kishi o'rtasiga tushib qolsa, unda nimalardir aytish yoki shu kishilardan nimalardir eshitish ehtiyoji albatta paydo bo'ladi. Bu ehtiyoj qondirilmay qolsa, odamda ma'ius qiliadigan «o'ng'ayisizlik» xissi tug'iladi. Odanning «ayta'digan xech bir gapi» bo'lmagan taqdirda xam shunday ehtiyoj paydo bo'ladi. Bunday xollarda u «nima qilishini» bilmay qoladi. Bunday xollarda unda «nimani gapirsam ekan?», «nimadan gap boshlasam ekan?», «qanday gap boshlasam ekan?» deb gap mavzuni qidirish boshlanadi.

Nutq tarixiy taraqqiyot jarayonida, ong bilan baravar, insonlarda til vositasi bilan aloqa bog'lash, bir birlariga biron narsa aytish ehtiyoji tug'ilishi natijasida paydo bo'lgan. Kishi nutqi mexnat jarayonida o'sib borgan.

Xar bir kishining nutqi bolalik chog'idan boshlab o'sib boradi, buning sababi xam boshqa kishilar bilan aloqada bo'lish ehtiyojidir.

Nutq to'g'risida, shu bilan birga, til to'g'risida gapirganimizda quyidagilarga e'tibor berishimiz kerak.

“Nutq va “til” degan terminlar ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Ammo bu terminlarning ma'nosini bir birliga aralashtirib yuborish yaramaydi. Garchi nutq bilan til bir birliga chambarchas bog'langan bo'lsa xam, lekin ularning ikkovi bitta narsa emas.

Biz biror kishiga: “Siz qaysi tilda (tillarda) gaplashasiz?” deb savol berganimizda, biz shu kishining nutqi, gapi bilan uning o'z nutqida qanday tildan foydalanishini aniq farq qilamiz.

Til esa ijtimoiy xodisadir. Til ayrim kishida mustaqil ravishda mavjuddir. Tilning ijodkori esa xalqning o'zidir, tarixan tarkib topgan millatning o'zidir. Rus tili, o'zbek tili, xorij tili, nems tili va xakazo deganimizda, biz mana shu ma'noda gapiramiz. Xar bir avlod o'zidan oldin o'lgan avlodlar ishlab

chiqqan tilda duch keladi va shu tilni egallab oladi, ya'ni o'zining nutq orqali qiladigan muammosidan shu tildan foydalanadi.

Nutq bilan til bir birlidan farq qiladi, lekin ayri vaqtda ularni bir birlidan ajratib bo'lmaydi: nutq xam, til xam bir birliga bog'langan, ular birlikda mavjuddir. Bu birlik shundan iboratki, xar bir til tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq vositasi bilan aloqa bog'lash jarayonida vujudga kelgan va o'sib borgan. Xar bir tilning yashab turishi kishilarning shu tilda gaplashuvlariga bog'liq. Agar odamlar biror tilda gaplashmay qo'ysalar, bu til xam yo'q bo'lib ketadi: u “o'lik til” bo'lib qoladi. Biz “o'lik” tillar borligini shu til aks ettirilgan yozma yodgorliklardan bilamiz. Masalan, qadimgi grek (yunon), lotin tillari mana shunday “o'lik” tillardir. Til bilan nutqning birligi yana shundan ham namoyon bo'ladi, har bir kishi o'z nutqida biror tildan foydalanadi, bazilari esa bir necha tildan foydalanadilar. Gapirish va boshqa odamlarning nutqini tushunish uchun til bilish, shu til sistemasini bilish, shu tilning tuzilishini bilib olish kerak.

Horton va Keyzar nazariy yondashuvlarni ikkiga ajratishgan:

1. Dastlabki loixam modeli: nutq “adresga ega bo'lishi kerak, xulosaga ega bo'lishi kerak, lekin ba'zi bilim va g'oyalar bundan mustasno, lekin g'oya va bilimlar o'zaro odatiy mazmunga ega” degan g'oyaga asoslanadilar. Shunday qilib dastlabki aytilgan so'z tinglovchini xususiyatni xisobga olish kerak.

2. Monitoring va almashitirishga asoslangan model: sinuvtuvchi ba'zaviy ma'lumotlari mulqotga layoqati, obro'si xisobga olinadi va muxokama qilinadi. Bu rejalar monitoring qilinadi va korreksiya lab boriladi.

Horton va Keyzar modellarni bir birliga qiyoslab, taqqoslab o'rganishgan.

Horton va (1996) Keyzar bu modellarni sinovdan o'tkazdi. Ularning ishtirokchilari tinglovchi (eksperimentator bir ittifoqchi) ularni aniqlash mumkin, shuning uchun harakatlanuvchi moslamalarni tasvirlab vazifasi berildi. Bu yerda ham yo tez (jadal holati) yoki sekin (sekin holati) ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak edi. Ishirokchilar tinglovchi ular ko'rish mumkin shu qo'shimcha ob'ektlar ko'rish mumkin, deb bilgan bir shenk-kontekst holati bor edi. Ishirokchilar boshqa ob'ektlarni ko'rmagan tinglovchini bilgan bo'lgan nodavlat birligida-kontekst holati ham bor edi. Ishirokchilari umumiy erga foydalanishni bo'lsangiz, ular emas, balki non-o'rtog'lasdi-kontekst holatida, tomonlarni-kontekst holatida ularning tavsif kontekstual ma'lumot foydalanish kerak.

Asosiy topilmalar, shakl 13.1da ko'rsatilgan holatda ishtirokchilari o'z buyonolari bilan tinglovchi bilan til, shu jumladan. Biroq, jadal holatda ishtirokchilari noo'tin edi, ularning tariflari bilan kontekstual ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, deyish ehtimol edi (non-o'rtog'lasdi-kontekst u (birligida-kontekst holati) tegishli edi, deb holati). Bu topilmalar boshlang'ich dizayn modeliga qaraganda yaxshiroq monitoring va tuzatish modeli bashoratlarni

mos, monitoring jarayoni operatsiya qilish uchun etarli vaqt bor edi, chunki taxminan umumiy zamin jadal holatda to'g'ri emas edi.²⁵

Biz dastlabki dizayn modeli o'rni monitoring va tuzatish modeli asosida faoliyat korsatsa yaxshi emasmi? Bir ochiq-oydin afzalligi, biz boshqa odamlar bilan yanada samarali mulqot deb hisoblanadi. Biroq, har doim tinglovchi ilmining hisobga olgan holda ishtirok ishlash talab rejalashtirmoqda meyorlari ortiqcha bo'lishi mumkin bo'lsa matruzachi mavjud axborot ko'pincha tinglovchi bilan birgalikda sodir bo'ladi, va juda ko'p meyorlari matruzachi umumiy zamin ilm ishlash resurslarini bag'ishlangan bo'lsa-da, tinglovchi uchun tegishli bo'ladi. Xorton va Keyser (1996) tadqiqot davomida tinglovchi begona bo'lilib. Ular do'st o'rni begona gapirayotgan bo'lsa matruzachi umumiy joyini egallashini hisobga olishi mumkin.

Nutqning funksiyalari

Odamlarning o'zaro aloqalarida ularning nutqlari turli ma'nolarda yoki funksiyalarda namoyon bo'ladi.

Nutqning asosiy vazifasi, demak, uning asosiy funksiyasi odamlarning bir birlari bilan aloqa qilish vositasi bo'lishidir.

Bu aloqa asosan odamlarning o'z fikrlarini bir biringa aytishlaridan iborat bo'ladi. Aloqa jarayonida fikrlar nutq yordamida shakllanadi, ifodalanaadi, aytiladi va tushunib olinadi. Og'zaki yoki yozma nutqda ifodalab berilgan fikrlar shu fikrlarni ayruvchi kishi uchun xam ravshanroq bo'lib qoladi. SHunday qilib, nutq aloqa jarayonida tafakkur quruli bo'lib xizmat qiladi.

SHu bilan birga mana shu aloqa jarayonida nutq ifodalash vositasi bo'lib, biror nima bildirish vositasi bo'lib, ta'sir o'tkazish vositasi bo'lib xam qiladi.

Nutq ifodalash vositasi

Nutq bizning fikrlarimiz bilan birlikda xis tuyg'ularimiz xam ifodalanaadi. Og'zaki nutqda xis siyotlarimiz (emotional kechinmalarimiz) so'z yordami bilan qilingan tasvirlarda, oxangda, qo'fiyada, xitob va savollarda, gaplashish vaqtidagi pauzalarda va ayvniqsa, inonatsiyalarda namoyon bo'ladi. CHumonchi, biz biron kishining ismini ataganimizda, shu kishiga bo'lgan turi hislarimizni va munosabatlarni o'z zimzidagi mehmi, g'azabni, g'urumi, muhabbati, hummatni, nafratni, mensimaslikni va boshqa shu kablarni atayin yoki beixtiyor namoyon qilishimiz mumkin. SHu bilan birga, gapiruvchining inonatsiyasida uning holati ham, charchaganligi, umuman hayajoni, o'ziga bo'lgan ishonchi yoki ishonchsizligi va shu kablilar ham ifodalaydi.

Lirik sherlar, ashulalar, ramanlar, ariyalar singari nutq shakllarida odamlarning asosan xilma-xil his vatuyg'ulari ifodalanaadi.

Turli hissiyotlar bizning og'zaki nutqimiz bilan birgalikda, odarda yuz harakatlarnimizda va imo-ishoralarnimizda ham yorqin namoyon bo'ladi.

Nutqda bizning irodamiiz maqsad-muddaomiz, istagimiz, niyatimiz, qaranimiz ham, shuningdek, iroda jarayonlarning ayrim sifatlari – qat'iyat va qat'yatsizlik, dadlilik, kishining o'zini tuta bilishi, kishidagi qunt va boshqa shu kablilar ham namoyon bo'ladi.

Nutq – biror nimani bildiruvchi vosita.

Odamlarning nutqida uning fikrlari va xilma-xil ichki holati – emotsional kechinmalari va iradasiqina ifodalaniib qolmasdan, shu bilan birga hamisha biror obektiv narsa ham bildiriladi.

Odamlarning nutqida namoyon bo'ladiqan xilma-xil tovush birkimlari uning ichki holatini ifodalab qolmasdan, shu bilan birga obektiv ravishda maquid bo'lgan narsalar va hodisalarning nimaligini bildiruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Har qanday biror narsaning manosini bildiradi. Masalan, stol degan so'z birkmasi ham nutv bo'lgani bo'lib qoladiki, bunda shu tovush birkmasiyordami bilan muayyan buyimlarning manosi bildiriladi. So'zlar bizning ongimizdan tashqarida mavjud bo'lgan buyimlar va hodisalarning hamda ularning xislarlari, holatlari, bog'lanishlari, munosabatlari va shu kablarning ongimizdagi inikosidir.

Bizning ongimizda vogelik inikos etganida shu so'z inikosni umumlashitiruvchi vositadir. So'z bilan hamisha umumiylkini ifodalaymiz. SHu sababli stol degan so'zni ayrganimizda, bu so'z bilan bizxuddi shu oning o'zida bizning ko'z o'ngimizda turgan bitta stolgina ifodalab qolmasdan, balki umuman "stol" tushunchasini ifodalaymiz. O'zimiz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan bitta stolning nomini ayrganimizda, biz mana shu bitta stol degan so'zdan umuman "stol" to'g'risidagi o'zimizda bo'lgan umumiy tushunchani nazarda tutamiz. SHu sababli umumlashitirilgan manoga ega bo'lgan so'z faqat yakka narsalarga mansub bo'lmasdan, shu bilan birga narsalarning butun bir turkimga ham mansubdir.

Nutq va ayrim so'zlar narsalarning faqat belgilari – "yarliklari" gina emas. Narsalarning ifodalavchi nomlar nutqning xususiy funksiyalaridan birtidir, xolos. Har bir so'zning bundan tashqari yana ichki mazmuni ham bor, har bir so'z majum tushunchani ifodalaydi.

Nutq – ta'sir ko'rsatish vositasi.

Nutq ta'sir ko'rsatish vositasi bshib xizmat qiladi. Ta'sir ko'rsatish – biz nutqimizni kimga qaratayotgan bo'lsak, shu kishiga biz istagan hislar, intilishlar va harakatlarni tug'dirish, ularning fikrini biz istagan tomonga burish, ularni o'zimiz xohlaganimizcha o'ylashga majbur etish, ularni ishonitirish demakir. Ma'lumki, nutq yordami bilan boshqalarda xursantchilik, qo'rguv, g'azab, ruhlanish hislarini tug'dirish mumkin, boshqalarda biz istagan intilishlarni, harakatlarni kuzatishimiz mumkin.

²⁵ Michael W. Eysenck, Mark T. Keane Cognitive psychology. Psychology press USA, 2005 400 bet. (mazmunidan foydalanilgan)

Yozuvchi badiiy asar yaratayotganida odamlarda muayyan fikr, his, intilish tug'dirishni, turmushga muayyan qarash hosil qilishni nazarda tutadi.

Nutq ta'sir vositasi bo'lib, u tabiiyot tajribasida katta ro'l yo'naydi. SHu narsa hammaga ma'lumki, shifokorning so'zi, yani uning bemor bilan bevosita nutqiy aloqasi kuchli suratda ta'sir qiladigan vositalaridan biridir. So'z og'riqni bosadigan, damon kiritadigan va boshqa shu kabi shifobaxsh vositadir. Tajribali tabibning aytishlariga qaraganda, so'z kasalning jismoniy vamanaviy amallarini bazan dondan ham yaxshiroq engillashtirar ekan. Masalan, shifokor maslaxatlari, kasalning xaqisizligi va tezda tuzalib ketishiga bemorda ishonch va e'tiqod hosil qilishi ham ana shunday ta'sir ko'rsatadigan kutqiy vositalar jumlasiga kiradi.

O'qituvchi va tarbiyachi so'z orqali ta'sir ko'rsatish yo'li bilan o'quvchilarda muayyan intizom va xatti-harakat vujudga keltiradi. Ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lgan nutq ta'lim-tarbiyaning asosiy qurolidir.

Amr-farmon berish, o'tinib so'rash - iltimos qilish, maslahat berish, o'g'it-nasihat qilish, dalil-isbotlar keltirish va boshqa shu kabilar so'z vositasi bilan ta'sir ko'rsatish shakllaridir. Nutq ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi, chunki so'zlab turgan kishining kutqida uning hissiy intilishlari, iroda va e'tiqodi aks etadi.

Nutqning ta'sir ko'rsatuvchi funksiyasida intonatsiya katta ro'l o'ynaydi. Intonatsiyada nozik va murakkab hislar iroda xususiyatlari - norozilik, istak, talab hislari va shu kabilar nomoyon bo'lishi mumkin. SHu sababli, o'quvchilarda tabiat turmushdagi biror hodisaga qiziqish paydo qilish, bilimni yanada mustahkamroq bilib olishga ishtiyoq uyg'otish uchun, shuningdek, ularni malum bir harakatga yo'llash uchun o'quvchilarga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lganda o'qituvchi o'z nutqida talaffuzga, ayniqsa, alohida e'tibor bermog'i lozim.

Nutq - odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribalarni egallash va avlodlarga berish, o'zaro aloqa o'rnatish, harakatlarni rivojlantirish maqsadida tilidan foydalanish jarayonidir. Til ijtimoiy hodisa, aloqa vositasi bo'lsa, nutq aloqa qilish jarayonining o'zginasidir.

Til ham o'z funksiyasiga egadir.

Tilning asosiy funksiyasi.

1. Til - hayot kechirish, ijtimoiy tarixiy tajribalarni bilish, uni o'zlashtirish vositasi.

2. Til - kommunikatsiya (aloqa) usuli.

3. Til - aqliy faoliyat, yani idrok, xotira, tafakkur, xayol quroli ekanligida nomoyon bo'ladi.

Inson farzandi tug'ilgandan keyin atrofdagi kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o'rganadi, hayol kechirish jarayonida o'zaro munosabatlarga kirishadi, til yordamida so'z belgilari tizimini o'zlashtiradi va bunda til yashash vositasi, tajribalarni o'rganish va o'zlashtirish vositasi tarzida nomoyon bo'ladi.

Tilning kommunikatsiya vositasi eng muhim vositadir. Bu vosita tufayli biz kishilarga ta'sir qilamiz, o'zimizning xatti-harakatlarimizni boshqaramiz, tajribalarni o'rganamiz. Har bir kishining shaxsiy tajribasi bor va bu til bilan bog'liqdir. Odam har qanday muommoni xal qila oladi. Bunda u o'z oldiga bajariladigan muammoning vazifalarini qo'yadi va uni xal qilish jarayonida tufli aqliy (intellektual) harakatlardan foydalanadi. Buni intellektual akt (harakat) deb ataladi.

Intellektual harakat uch qismdan iborat bo'lib, unga faoliyatni rejalashtirish, unimalga oshirish va natijasini ko'zlangan maqsad bilan solishtirish kabilar kiradi. Bunda obektni idrok qilish, esda qoldirish, tafakkur va xayol kabi bilish jarayonlari ishtirok etadi va aqliy faoliyat nomoyon bo'ladi. Bu esa tilni aqliy faoliyat vazifasini bajarishidan dalolat beradi.

Nutqning anatonik-fiziologik asoslari

Bosh miya po'stidagi alohida markazlarning faoliyati va nutqqa oid muskul apparati nutqning anatonik-fiziologik asosini tashkil qiladi.

Tovush nutqning (fonetik nutqning) muskul apparati uch qismdan - nafas olish, ovoz va artikulyatsiya apparatlaridan iborat. **Nafas olish apparati** diafragmadan, o'pkadan, o'pkani, bronxni va bo'g'izni harakatga keltiruvchi muskullardan iborat. Nafas olish apparatining vazifasi nutq apparatining ovoz qismini havo kiritib turishdan iborat.

Ovoz apparati - nafas olinadigan bo'g'izning davomi bo'lgan kekirdek bo'lib, to'rta tog' aydan iboratdir.

Shu tog' aylar o'rtasidagi bo'shliqda ikkita gorizontal elastik mus-kullar bor, bu ovoz muskullari deb ataladi. Nafas bo'g'izdan chiqib turgan havo bu muskullarni harakatga keltirib, tebratib turadi.

Tog' aylar mana shunday tebratib turishi tufayli ovoz muskullari haranglashi yoki susayishi mumkin: bu muskullar bir-biriga yopishib yoki bir-biridan ajralib turishi natijasida ularning o'tasida ovoz teshtigi deb atalgan bo'shliq hosil bo'ladi.

Agar ovoz muskullari tarang bo'lib tursa yoki bir-biriga yaqinlashib qolsa (ya'ni, ovoz teshtigi yopilib qolsa), u holda nafas yo'lidan chiqqan havo shu teshtikka kirib, ovoz muskullarining chetlarini tebratadi (vibratsiya qiladi), natijada tovush hosil bo'ladi. Agar ovoz muskullari bir-biriga etarli ravishda yaqinlashmagan bo'lsa, nafas oladigan bo'g'izdan chiqayotgan havoning ovoz muskullariga engil ishqalanib o'tishi natijasida pichragan tovush hosil bo'ladi. Erkin, tovushsiz nafas olinganda ovoz muskullari tarang bo'lmasdan qoladi, ovoz teshtigi esa to'la ravishda ochiq bo'lib qoladi.

Artikulyatsiya apparati og'iz bo'shlig'idan va burun bo'shlig'idan iboratdir. Bu bo'shliqlar bo'g'in usidagi tovushga bannisoli sayqal beruvchi truba kabi bir narsadir (rezonatordir).

Og'iz bo'shlig'i bo'g'izda paydo bo'lgan tovushlarning asosiy rezonatori bo'lib xizmat qiladi. Agar tovush to'liqlari og'iz bo'shlig'i orqali hech bir

to'siqqa uchramay o'tayotgan bo'lsa, unli tovushlar hosil bo'ladi. Unli tovushlarning (a, e, i, o, u) farqi og'iz bo'shlig'ining katta-kichik bo'lishiga va shaklining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Og'iz bo'shlig'ining shakli ko'p jihatdan til va lablarning holatiga va og'izning qay darajada ochilishiga bog'liqdir. Til - nutqning eng sefharakat organidir. Til ko'tarilishi, tushirilishi, oldinga cho'zilishi va orqasiga qaytarilishi mumkin. Lablar cho'zilishi, cho'chaytirilishi mumkin.

Undosh tovushlar tovush to'liqlarining og'iz bo'shlig'idan bemaol o'lishiga katta yoki kichik biror to'siq paydo bo'lishi natijasida hosil bo'ladi. Bu to'siqlar lablarni yumish yo'li bilan vujudga keltirilganida p, b, m tovushlari hosil bo'ladi, bu pastki lab va yuqori tishlar bilan vujudga keltirilganida f, v tovushlari hosil bo'ladi, til va ustki tishlar bilan vujudga keltirilganida t, d, n, s, z tovushlari hosil bo'ladi, til va tanglayning biror qismi bilan vujudga keltirilganida r, sh, k, tovushlari hosil bo'ladi. Burun bo'shlig'i tovushlari hosil qilishda turlicha rol o'ynaydi. Burun bo'shlig'i ochiq yoki yopiq bo'lishiga qarab, turlicha tovushlar hosil bo'ladi. Agar burun bo'shlig'i yopiq bo'lsa, burundan chiqmaydigan tovushlar (a, u, yu), agar bu bo'shlig' ochiq bo'lsa, burundan chiqadigan undosh tovushlar (i, n) hosil bo'ladi.

Tovushlar turli ravishda bir-biriga qo'shilganda bo'g'in va so'slar hosil bo'ladi, so'zlardan esa gap hosil bo'ladi. Bizning og'zaki nutqimiz shu tariqa vujudga keladi.

Nutq yozuv vositasi bilan ifodalanganda so'zlarning tovush tuzilishi yozma, grafik belgilar sistemasiga ko'chiriladi. Nutqning yozma ifodasi qon va barmoq muskullari yordami bilan hosil qilinadi. Lekin bunda yozish jarayoni artikulyatsiyadan ajralgan holda emas, balki artikulyatsiya asosida voqe bo'ladi. Yozishning artikulyatsiya bilan bunday bog'langanligi savod chiqarishning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, sezilarli bo'ladi. Endigina savod chiqarayotgan o'quvchi har bir so'zni yozayotganida shu so'zni albatta gapirib yoki pichirlab aytib turadi. Yozish malakasi rivojlanib ketganida (avtomatik tus olganda) ham bo'g'inning engil harakat qilishi davom etaveradi, buni alohida asboblari yordami bilan qayd qilish mumkin.

Ikkinchi signal sistemasining mexanizmlari tafakkurning asosi bo'lgani kabi, nutqning ham nerv-fiziologik asosidir (uchinchi bobga qarasin). Hayvonlarning tashqi dunyo bilan munosabati ularning faqat bevosita taassurotlari orqali voqe bo'ladi. Odamning tarixiy rivojlanishi natijasida esa unda «ikkinchi signal sistemalari, ana shu birlamchi signalning signalini so'zlar tarqasida paydo bo'ldi, rivojlandi va nihoyat darajada takomillashtirdi. Qo'zg'ovchi vosita sifatida, so'z uch shaklda namoyon bo'lishi mumkin: 1) eshitish organini qo'rg'uvchi shaklda - eshitiladigan so'z; 2) ko'rish organini qo'zg'ovchi shaklda - yozilgan so'z; 3) kinestetik qo'zg'ovchi shakl sifatida - aytilayotgan yoki yozilayotgan so'z (I. P. Pavlov, Polnoe sobranie sochineniy, 3 tom, 2-kitob, 232-bet). SHu shakllar orasida I. P. Pavlov organlarning kinestetik qo'zg'ovchi alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi: «Nutq,

ayvalo, nutq organlaridan bosh miya pastiga o'tuvchi maxsus kinestetik qo'zg'ovchidir. Nutq ikkinchi signaldir, signalning signalidir. Eshitilib turgan, aytilayotgan va ko'rinib turgan (yozuv) so'z qo'zg'ovchi bo'libgina xizmat qilmasdan, shu bilan birga, qo'zg'ovchi alishga javob reaksiyasi bo'lib ham xizmat qiladi. Bunda javob reaksiyasi bo'lgan so'z o'z navbatida - ikkinchi signal sistemasidagi jarayonlarni vujudga keltiradigan qo'zg'ovchidir.

Qo'zg'ovchi nutq va javob so'z reaksiyasi bo'lgan nutq, bosh miya po'stining maxsus uchastkalari bilan - nutq markazlari bilan bog'langan. Nutq markazlari eshitish markazi, harakatlantirish markazi va ko'rish markazi deb uch xil markazga bo'linadi.

Eshitish markazi so'z chakkaning orqa bo'limida joylashgan. Miya-ning bu uchastkasi eshitilgan so'zlarni idrok qiladi, boshqalarning nutqini tushunish va o'zlashtirishni vujudga keltiradi, bu markaz buzilib qolganida nutq chuvalab ketadi, buni **sensorni afazliya** deb ataladi. Bunday kasalga duchor bo'lgan kishi o'zgalarning nutqini tushunmaydi: tovush va so'zlarni eshitadi-yu, lekin so'zlarning mazmunini bilmaydi, gapning ma'nosini tushunmaydi.

Nutqning **harakatlantirish** markazi chap yarim sharning uchinchi manglay qismida joylashgan. Bu markaz gapiruvchi kishining faol nutqini vujudga keltiradi. Bu markaz buzilib qolganida odam gapirmaydigan bo'lib qoladi. Nutqning bunday buzilishi **harakat afazliyasi** deb ataladi.

Nutqning ko'rish markazi bosh miyaning orqa qismiga joylashgan. YO'zalgan xatni o'qiganda va yozgan vaqtda yozuv belgilari shu markaz rufayli idrok qilinadi. Bu markaz buzilib qolgan taqdirida odam harflarni tanimaydi, o'qiy olmay qoladi (aleksiya kasalligi), yozolmay qoladi (agrafiya kasalligi).

Biroq, akademik I. P. Pavlovning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, bosh miya po'stining boshqa markazlari kabi bu nutq markazlarining qat'iy chegaralari yo'q va bir-biridan ajralgan holda harakat qilmaydi. Bu markazlar bir-biri bilan qo'shilaveradi va bir-birining vazifasini bajaraveradi, bosh miya po'stining boshqa markazlari bilan ham qo'shilaveradi. Nutq markazlari deb nom berilgan markazlar bosh miya po'stining u yoki bu xil nutq jarayonlarida ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan uchastkalardir, xolos. O'zgalarning nutqini va gapirayotgan kishining o'z nutqini idrok qilish bosh miya po'stining faoliyatiga va asosan, bosh miya po'stining ikkinchi signal sistemasini bilan bog'lanishlarni vujudga keltiruvchi qismiga bog'liqdir.

Nutq organlari shaxs jismoniy va psixik taraqqiyoti bilan birgalikda kechadigan jarayon hisoblanadi. Lab va til harakatlari shakllangan boshqa hayvonlardan farqi ravishda insonlarning odamsimon ajdodlaridagi tovush apparati organlarini takomillashtirib, kattalashtirib borishi nutqning biologik negizini tashkil qilgan. Lab va tilning kattalashtirish qator anatomik o'zgarishlarga sabab bo'ladi: pastgi lab qismini qisqarishi va kengayishi shu tariqa uning shakli ochilish-sitalk bilan o'tkir uchidan taqsimot shakliga o'tib boradi; dahan qismini rivojlanishi: oldingi miyalarining qisqarishi va boshqalar. Bu o'zgarishlar zamonida og'iz bo'shlig'ining kattalashishi. Til harakatlarni o'rinishiga va turli


jarangli tovushlar hosil qiladigan tovushlar rezonatsiyasi, tovush bog'lanishlari vibratsiyasi sodir bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, nutq tizimini 2 guruhga ajratish mumkin: periferik va markaziy. Markaziyga bosh miyadagi muayyan tuzilmalar kirsa, periferikka tovush apparati va eshitish organlari kiradi.

Tovush apparati 3 ta tizimdan iborat: nafas olish organlari, halqum og'iz bo'shlig'i va burun. Nafas organlari tovush to'liqlarini iklantiruvchi va hosil qiluvchi halqumdagi tovush bog'lanishlarini vibratsiyalovchi havo toklarini ta'minlab beradi. Nafas organlariga o'pkalar va uning harakatlantiruvchi muskullar yuqoriga qubbasimon cho'zilib o'pkalarning pastdan itaruvchi diafragmalarda alohida nafas kuchlari orqali nutq bog'lanishlarini hosil qiladi. Bronxlar va tomog' ham shu tizimga kirib aynan ular orqali havo halqumga o'tadi.

Halqum tomog'ining davomiy qismi hisoblanadi. Halqum 4 ta hqiqildoq va tovush bog'lanishlarining gorizontal yassiligi joylashgan bo'shliqdan iborat. Tovush bog'lanishlari o'zining joylashganligiga ko'ra, hqiqildoqlarning harakatlantirishi iklantirishi tovushlarni o'zgarishiga olib keladi. Birinchidan, tovush bog'lanishlari cho'zilib yoki cho'zilmashligimurmumkin. Ikkinchidan, ular bir-birini to'ldirishi ya'ni oxirida turganib ketib tovush chiqaruvchi oralig'ini hosil qiladi. Shunga bog'liq ravishda quyidagi hodisa sodir bo'ladi: agar tovush bog'lanishlari bir-biriga tortilgan va bir-biriga yaqin bo'lsa, qolaversa, tovush paylari yopiq bo'lsa, chiqarilayotgan havo bir-biriga bog'liq chegaralarda paydo bo'lib, ularni tebratuvchi harakatlarni yuzaga keltiradi bu esa tovush to'liqlarini shakllantiradi, agar bog'lanishlar tortilmagan bo'lsa va tovush paylari ochiq bo'lsa havo bemaol harakatlantirib hech qanday tovush hosil bo'lmaydi.

Halqum oldida havo tovush to'liqlarini hosil qiladi. Tovushlar to'liqlarini rezonatsion nay funksiyasini bajaruvchi og'iz bo'shlig'i va burun qismiga tushadi. Og'iz bo'shlig'i halqumda yuzaga keladigan bosh tovush to'liqlarini rezonatori hisoblanadi. Qiziqishlarni va og'iz bo'shlig'i shaklini o'zgartirish yo'li bilan jarangli tovushlar paydo bo'ladi. Og'iz bo'shlig'i havo toki hosil qiluvchi organ hisoblanib, ularni bartaraf etish orqali uni tovushlar hosil bo'ladi.




Fiziologik nuqt asoslari

Tovush nutqi organlari rivojlanishi bir vaqtda umumiy jismoniy va psixik inson rivojlanishi bilan o'tadi. Tovushlarni qismlarga bo'lib talaffuz qilish qobiliyati rivojlanishi biologik sabablardan biri bo'lib insonga o'xshash aiddolarda boshqa hayvonlarga qaraganda keyinchalik borgan sari kattalashgan lab va tilning harakatchanligining ancha kattaroq ekanligi xizmat qildi. Lab va til harakatchanligining kattalashishi bir qator anatomik o'zgarishlar bilan shartlandi: quyi jag'ning qisqarishi va kengayishi, shaki asta-sekin uchkurdan

tiqasifatga aylana bordi; iyak do'ng qismining rivojlanishi (nutqiy harakatlarda ishlaliladigan ba'zi bir mushaklar joylashgan o'mil); tishlarning kichrayishi va b. shular tufayli ekin og'iz bo'shlig'i kattalashdi, bu, o'z navbatida, til harakatchanligi o'rinishi va yanada yetuk bo'lgan tovush rezonatsiyasi imkoniyatini ta'minladi.


Ta'kidlash lozimki, nutqni ta'minlovchi tizimlar, ikki guruhga bo'linishi mumkin: periferik va markaziy. Markaziydagi bosh miyasi muayyan tuzilmasi, periferiklarga esa - ovoz apparati va eshitish organi.

Ovoz apparati (13.1-rasm) uchta asosiy tizimdan iborat: nafas olish organlari, talay, og'iz bo'shlig'i va burun. Nafas olish organlari talayning ovozi bo'g'imlarni titratishga majbur qiladigan havo tokini ta'minlaydi, ularning tebratirishi tovush to'liqlarini hosil qiladi. Nafas olish organlariga o'pka va ularni harakatkaga keltiruvchi mushaklar, shu bilan birga diafragma kiradi. Shu tizimga bronxlar va nafas olish tomog'i ham kiradi. Nafas olish itarilishlari nutqni bo'g'imlar bo'yicha talaffuz qilish qobiliyatini ta'minlaydi. Tovushlarni ajratib talaffuz qilish qobiliyati



rivojlanishi ularni idrok qilish qobiliyati bilan bog'liq. Nutqiy faoliyat nazorat ostida turadi, va unga faqatgina eshitish orqali tuzatishlar kiritilishi mumkin. Inson eshitish qobiliyatining rivojlanishi markaziy apparatning rivojlanishi evaziga sodir bo'lgan, bu bosh miyasi qobig'i murakkablashishida ifodalanadi. Agar maymun miyasi va inson miyasini solishtirsa, unda shuni aniqlaymizki, insondagi qobig' eshitish zonasi maymunning o'xshash bosh miyasi qobig'i zonasidan nisbatan kattaroq. Biroq bu farqlar natijada miqdoriy ko'rsatkichlarda - eshitish zonasi o'rtishida ifodalanadi. Insonda bu zonada o'ziga xos *nutqiy markazlar* joylashgan (13.2-rasm). Miya bilan bog'liq asab yo'llari Gesl burilishlarida tugaydi. Agar burilishlarning u yoki bu qismi vazifasi buzilsa, unda insonda kerakli eshitish hissi yo'qoladi. Masalan, ularning ichki qismini buzilishi yuqori tovushlarga nisbatan eshitish qobiliyati, tashqi qismlarining buzilishi esa quyi tovushlarning eshitish qobiliyati yo'qolishiga olib keladi. Shunday qilib, bu soha korrev organi proektsiyasini bildiradi va birinchi eshitish hisslari bog'liq bo'lgan markaz hisoblanadi. Bu hisslarning integratsiyasi birinchi va qisman ikkinchi ichakka o'yig'larida joylashgan chakka ulushi o'xshash qismlarida sodir bo'ladi. Aynan bu yerda chap yarim bosh miya qismida nutqning o'ziga xos eshitish markazi - Vernike markazi joylashgan. Bu markaz faoliyati buzilishida inson so'zlarni farqlash qobiliyatidan maxrum bo'ladi, dekin shunga qaramay ayrim eshitish hisslari buzilmay qoladi. Bunday hodisa *senzor glaziyasi* nomini oldi. Shuning uchun to'liq ishonch bilan tasdiqlash mumkinki, aynan shu asab markazi nutq tovushlari farqlanishini ta'minlaydi. Bunda ta'kidlash lozimki, o'xshash asab markazi hayvonlarda mavjud emas, bu yanada bir bor nutq - bu o'ziga xos inson vazifasi degan iboraning haqqoniyligini isbotlaydi. Vernike eshitish markazi boshqa o'ziga xos qobig' nutqiy markazi bilan bog'liq - Brok markazi, u chap yarim bosh miya qismi peshona uchkuridan

o'ngir-cho'ngiri orqa qismida joylashgan. Bu *harakatlantiruvchi nutq markazi*. Mazkur markazning normal ishlashi buzilishi shunda ifodalanadiki, inson so'zlarni talaffuz qilish qobiliyatini yo'qotadi. Tashqida unda qandaydir tovushlarni talaffuz qilish qobiliyati qoladi, tilni qimratish qobiliyati saqlanadi, chunki ovoz apparati harakatlarga javob adigan markaz oldingi makaziy o'ngir-cho'ngirlikda joylashgan, lekin u "so'zlarni talaffuz qilish usullari xotirasini" yo'qotadi, ya'ni so'zlardagi ayrim tovushlar integratsiyasi buziladi. Demak, Brok markazi shuningdek inson tarixiy rivojlanishi mahsuli hisoblanadi va nutq jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Bu asab markazi shuningdek faqat insonda mavjud, uning vazifalari buzilishi bilan bog'liq bo'lgan kasallik esa *motorli afaziya* deb ataladi.



13.2-rasm. Markaziy nutq organlari (V. V. Kramer bo'yicha) Izohlari

nutqida.

Miya anatomik tuzilmalari va nutq vazifalari eng aniq o'zaro bog'liqligi muvofiq miya qismlaridagi buzilishlarda namoyon bo'ladi. Aytilganidek, nutq eshitish (Vernike markazi) va motor (Brok markazi) zonalar bilan chambarchas bog'langan. Har qanday shu ismlardan birining buzilishi afaziya turining biriga olib keladi. Mazkur buzilishlarni tavsiflash uchun 1975 yilda Gardner kuzatgan bemorlarning ta'rifidan foydalanamiz. Shunday qilib, Brok afaziyasida bemorda nutqning uzilishi kuzatiladi. Quyida shifokor tomonidan bemordan olingan intervyu keltirilgan. Intervyuning iboralari «I» harfi bilan, a patsient iboralari esa «P» harfi bilan belgilangan.

I. Qirg'oq muhofazasida xizmat qilganmisiz?

P. Yo'q, mm, ha, ha... kema... Massachu... chussets... qirg'oq muhofazasi... yil. (ikki marta qo'lini ko'tarib, barmoqlar bilan 19 ni ko'rsatadi).

I. Qirg'oq muhofazasida 19 yil xizmat qilgansiz-a.

P. A... ox... to'g'ri... to'g'ri.

I. Nega kasalxonadasiz?

P. (Paralich bo'lib qolgan qo'liga ko'rsatadi.) Qo'l yaxshi emas.. (Og'zini ko'rsatadi.)

Gapira olmayman, tushunayapsizmi.

I. nima bo'ldi, nima uchun nutqni yo'qotdingiz?

P. Bosh, yiqildim, o, xudoyim, ur..., ur..., urish.

I. Kasalxonada nima qilganingiz haqida gapira olasizmi?

P. Ha, albatta. Men borishim, ee, mm, soat to'qqiz, nutq... ikki marta... o'qish... pi... rva, mm, sar, mm, yozish... mashg'ulotlar yaxshi bo'lmoqda.

Bundan Ko'rib turibmizki, bemor nutqi tekis emas. Xatto sodda gaplarda to'xtalishlar va adashishlar ko'p. Bundan farqli ravishda Vernike afaziyasi patsientida nutq tez. Quyida keltirilgan shunday bemorning nutqi:

"Uff, terlayapman, qat'iy asabiylashyapman, taripon, bilasizmi. Bir oy nima qilganimni esla olmayman, tebin, yaxshi qildim, boshqa tomondan, bilasizmi, aylanadan yurishim kerak". Tezlikdan tashqari Brok va Vernike afaziyalari o'rtasida boshqa asosiy farqlar mavjud. Brok afaziyasiga ega patsient nutqi asosan bosh so'zlardan iborat. Unda murakkab gaplar kam, va umuman nutqga ikki so'zli gapni eslatuvchi telegraf usuli xos. Vernike afaziyali patsientlarda, aksincha, nutq sinksisini saflaydi, lekin mazmunga ega emas. Ularda otlarni tanlash muammosi mavjud va vaqti-vaqti bilan so'zlari o'z-o'zidan ishlatila boshlagan.²⁶

Nutq va tafakkurning o'zaro uzviyligi

Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Odam nutq bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa fikr qilinmaydi. YUqorida aytib o'tilganidek, nutq fikrlash quvolidir. Tafakkur bo'lmasa nutq til bo'lishi ham mumkin emas.

Fanga xilof bo'lgan buriya idealistik ta'limot uchun xarakterli narsa shuki, u tafakkurni nutqdan, til shakllaridan ajratib qo'yadi. Masalan, psixologlarning Vyurzburg maktabi deb atalgan idealistik psixologiya namoyandalari (Byuller, Messer, Kyulpe, Ax va boshqalar) odamdagi tafakkur jarayonlari obrazlardan - idroklar va tasavvurlardan mustaqil ravishda, shuningdek, nutq tildan mustaqil ravishda sodir bo'ladi, deb isbot qilmoq uchun, buni hatto tajriba qilib ko'rsatishga ham urinib ko'rdilar.

Obrazilardan va nutqdan mustaqil mana shunday «sof» tafakkur bo'lishi mumkin, degan idealistik ta'limot butunlay asossiz ta'limotdir. Tafakkur idrok va tasavvurlardan mustaqil sur'atda o'sa olmaydi. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi.

Bizning hukmlarimiz, mantiqiy ta'riflarimiz, xulosalarimiz til materiallari va gaplar yordami bilan ifodalanadi. Til materiallari va gaplar vositasi bilan oqish va sintez qilinadi, abstraksiya qilinadi va umumiyashtiriladi.

Til materiallari bo'lmasa, biz hatto eng oddiy hukmni ham o'zimiz uchun ifodalay olmaymiz - biz shu onning o'zida idrok qilib turgan buyunlar to'g'risida ham biror nimani tasdiq qilib yoki inkor qilib aytolmaymiz. Biz bo'zlar bo'lmasa, bitta ham tushunchani fikrimizga joylashira olmaymiz.

Faqat til yordami bilanгина odamlar bir-birlariga o'z fikrlarini aytadilar. Odamlar nutq orqali bir-birlari bilan aloqa bog'laganlarda, tafakkur natijalarini va o'zlar ajdodlarning bilish sohasida erishgan muvaffaqiyatlarini til yordami

²⁶ A. I. Мачинков. Общедоступная психология 336-340 бетлар (muammolardan foydalanilgan)

bilan o'zlashtirib oladilar va ayni vaqtda o'z fikrlarini va bilimlarini avlodlariga topshiradilar.

Inson tafakkuri ham tarixiy tarqiyot jarayonida, til yordami bilan bo'ladigan nutq aloqalarida o'sdi - tafakkurning mantiqiy shakllari ishlab chiqildi.

Har bir kishining tafakkuri uning butun umri davomida til yordami bilan bo'ladigan nutq aloqalan jarayonida o'sib boradi.

Lekin biz tafakkur, nutq va til bir-biriga chambarchas bog'langan deganimizda shuni ham nazarda tutishimiz kerakki, nutq bilan tafakkur aynan bir narsa emas, nutq bilan tafakkuri, fikr bilan tilni bir-biriga aynan teng deysiz yaramaydi. Biz ba'zi burjua psixologlarning tafakkur bilan nutq aynan bir narsa, deb da'vo qiluvchi soxta ta'limotini qat'iyan rad qilishimiz lozim.

Agar nutq bilan tafakkur aynan bir narsa bo'lganda edi, boshqa bironing nutqini fagat eshitish yoki birinchi takrorlash bilan, tushunib olingan bo'lar edi. Modomiki, bironing nutqini fagat eshitish yoki birinchi takrorlash bilan tushunib bo'lmay ekan, bironing, tafakkur bilan nutqni ham aynan bir narsa deb bo'lmaydi.

Shunday ham bo'ladiki, ayni bir fikrning o'pini turli odamlar va ayni bir kishining o'pini turli hollarda, turli so'zlarda, turli iboralarida ifodalaydi. Misol uchun matematikaning quyidagi ta'rifni ko'rsatish mumkin: plus-plusga ko'shilganida va minus-minusga qo'yilganida plus hosil bo'ladi, plus minusga ko'ayirilganida esa minus hosil bo'ladi. Shu fikrning o'zi boshqa bir iborada ifodalanishi mumkin: bir xildagi alomatlariga ega bo'lgan raqamlar bir-biriga ko'paytirilganda musbat raqam hosil bo'ladi, alomatlari turlicha bo'lgan raqamlar bir-biriga ko'paytirilganda manfiy raqam hosil bo'ladi. Nutq bilan tafakkur aynan bir narsa bo'lganda edi, bunday hodisalarning bo'lishi mumkin bo'lmay edi.

Tafakkur bilan nutq o'rtasida farq borligini shu faktidan ham bilish mumkin, ayni bir fikrni grammatik tuzilishi turlicha bo'lgan turli tillarda (masalan, rus, o'zbek, xitoy va boshqa tillarda) aynan bir ma'no bildiradigan qilib ifodalash mumkin.

Agar til bilan tafakkur aynan bir narsa bo'lganda edi, u holda hamma tillarda grammatik tuzilish ham aynan bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak edi, yoki har qaysi millatda shu millat tilining grammatik tuzilishiga muvofiq ravishda, tafakkur shakllarining tuzilishi ham turlicha bo'lishi kerak edi. Har bir xalqda o'ziga xos mantiq bo'lishi lozim edi. Lekin bunday holda, turli millat odamlarining bir-birlarini tushinishlari mumkin bo'lmaydi, aynan bir fikrni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish mumkin bo'lmaydi. Til bilan tafakkurning bevosita aloqasi fagat tilning tafakkur uchun bo'lgan ahamiyatidagina ifodalanib qolmasdan, balki, shu bilan birga, tafakkurning til uchun bo'lgan ahamiyatida ham ifodalanadi.

Tafakkurning tarqiyot tarixida tilning roli qanchalik katta bo'lsa, tilning tarqiyot tarixida ham tafakkurning roli shunchalik kattadir. Grammatika

qonunlarini, shakllarini va qoidalarini tuzishda hamda ularning takomillashib borishida tafakkur, ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Har bir kishidagi tafakkurning o'zishi shu kishi nutqining o'zishi bilan babbaravar bo'lgandek, shu kishi nutqining o'zishi ham undagi tafakkurning o'zishiga bog'liq bo'lgan. Grammatika shakllari va qoidalarini o'zlashtirish jarayonining o'zi odamning o'z tafakkurini zo'r berib ishlatishni talab qiladiki, bu harnamaga ma'lumdir.

Shunday qilib, tafakkur bilan nutq turli hodisalardir, lekin ayni vaqtda bu ikki hodisa bir-biri bilan chambarchas bog'langan, bir-birini taqozo qiluvchi va bir-biridan tashqarida voqeo boimaydigan va o'sa olmaydigan hodisadir. Nutq va tafakkur bir-biri bilan dialektik birlik asosida bog'langandir.

Nutq bilan tafakkurning birligini Pavlovning ikkinchi signal sistemasi to'g'risidagi ta'limoti ham isbotlab beradi, ikkinchi signal sistemasi birinchi signal sistemasi bilan bir-biriga o'zaro ta'sir qilgan holda nutqning ham, tafakkurning ham nerv-fiziologik negizini tashkil qiladi.

Qachon gapiradi kim aniqlash omili Brennan tamonidan 1990 yil muhokama qilgan. Subbat bir kamaydan harakat bo'lgan bir umumiy yo'li nima birinchi spiker deydi subbami qilishga tinglovchi uchun kuchli taklif beradi bo'lgan bir qo'shimlik juft, orqali hisoblanadi: javob ortidan bir savol qo'shimlik juft juda keng tarqalgan misol birinchi so'zlovchi u bir qo'shimlik juft birinchi qismini ishlab chiqarish holda aytish uchun mo'ljallangan nima tamamlanarsa, keyin keyingi navbat birinchi gapiradi tinglovchi uchun ketadi. tinglovchilarning hech gapirsa, keyin birinchi spiker (a navbat-qurilish birligi sifatida texnik ma'lum) boshqa navbati bilan davom ettirish.²⁷

Nutq turlari

Nutq o'zining tashqi ifodalanish usuliga qarab og'zaki va yozma nutqqa ajratib qolmasdan shu bilan birga, qanday vazifani bajarishiga va sintaktik tuzilishining xususiyatlariga qarab ham bir-biridan farq qiladi.

Nutq o'zining bajaradigan vazifasiga qarab, ichki va tashqi nutqqa bo'linadi.

Ichki nutq shunday bir nutqdiki, uning yordami bilan fikrlar boshqa odamlarga ma'lum qilinmasdan oldin ichda ifodalanadi.

Ichki nutqning o'z xususiyatlari bor. Bu nutq, ko'pincha tovushlar ovozi chiqarib aytmaydigan nutqdur, bu nutq odam «o'z ichida gapiradigan» nutqdur. Bu zan ichki nutq «tashqarigan» chiqadi, ya'ni tovushlar ovozi chiqarib aytiladi. Biron niman fikr qilyotgan odam qandaydir qiyinchilikka uchrab qolgani, shuningdek, hissiyot qattiq qo'zg'alish natijasida hayajonlanib ketganida yoki o'zining oldida boshqa odamlar bo'lmagan vaziyatda u o'zi sezmaganda hoida, «ovoz chiqarib o'ylaydi» - ovoz chiqarib o'z-o'zi bilan gaplasha boshlaydi.

²⁷ Michael W. Eysenck, Mark T. Keane Cognitive psychology: Psychology press USA, 2005 401 bet. (Ma'lumotidan foydalanildi)

Odam yakka qolib, o'z ichida o'ylab o'tirganida ko'pincha imo-ishora va mimikadan ham foydalanadi. Kichkina bolalar ko'pincha «ovoz chiqarib o'ylaydilar», gaplashib va harakat qilib turib fikr qiladilar.

Shakl jihatidan ichki nutq ko'proq monolog tarzida sodir bo'ladi. Ichki nutqni odamning o'z-o'zi bilan va o'zicha gaplashuvi deyish mumkin. Lekin ba'zan ichki dialog shaklida, xayoldagi subbadosh bilan gaplashish yoki munozara qilish tarzida ham sodir bo'ladi.

Sintaksis tuzilishi jihatidan ko'pincha ichki nutq qisqartirilgan, bo'lak-bo'lak gaplardan iborat bo'ladi. Ichki nutqda gapning faqat ayrim bo'laklariga, asosan ega birmuncha aniq qilib ifodalanaadi («ichdan, o'z-o'ziga» aytiladi). Ichki nutq ovoz chiqarib «aytib yuborilganida» ham o'zining shu xususiyatini saqlab qoladi. Ichki nutqning to'siq bo'lmashligiga, bo'lak-bo'lak bo'lishiga sabab shuki, tafakkur obekti va shu tafakkur sodir bo'layotgan vaziyat fikr qiluvchi kishining o'ziga ravshandir va to'siq gap bilan qayd qilinishini talab etmaydi. Nutq tafakkur obekti tasdiqlanadigan yoki inkor qilinadigan narsa ustidagina to'xtaladi.

Ichki nutq, odatda, ixtiyorsiz ravishda o'zadi. Bunda tafakkur jarayonlarining o'zi ixtiyoriy ravishda, ma'lum kuch sarflash yo'li bilan ham borishi mumkin. Lekin ixtiyoriy tafakkur jarayonining borishiga yordam bergan ichki nutq ixtiyorsiz ravishda o'z-o'zicha maydonga chiqadi deyish mumkin. Ichki nutq dialog shaklida sodir bo'lgan hollardagina ixtiyoriylik mamentlari paydo bo'ladi. Bunday hollarda ichki nutq o'zining sintaksis tuzilishi jihatidan ham tashqi nutq tuzilishiga yaqinlashib qoladi. Ichki nutqning xarakterli belgisi shuki, bunda tovushlarning artikulyatsiyasi ko'zga ko'rinmaydi. I. M. Sechenov buni quyidagicha tasvirlaydi: «Men fikr qilayotganimda juda ko'p vaqt og'zimni ochmay va yopib turib, gapiraveraman, ya'ni og'iz bo'shlig'idagi til muskullari harakat qilaveradi. Biror fikrni, asosan boshqalarga uqtirmoqchi bo'lib, ifodalashga uringan hollarning hammasida esa shu fikrni albatta picirlab takrorlab turaman» (Izbrannye filosofskie i psixologicheskie proizvedeniya Gospolitizdat, 1947, 142-bet).

Ichki nutqning ko'zga ko'rinmaydigan mana shunday artikulyatsiyasi borligi hozirgi vaqtda eksperimental yo'l bilan isbotlangan.

Tashqi nutq boshqa odamlar bilan aloqa qilishimizda foydalaniladigan nutqdur.

Bu nutq biron kishiga qaratilgan, biron nimani xabar qiladigan nutqdur.

Tashqi nutqning o'zi ham og'zaki va yozma nutqqa bo'linadi.

Og'zaki nutq - boshqa kishilar bilan bevosita qilayotgan aloqamizda foydalanilayotgan nutqdur. Bu nutq odatdagi gaplashuv nutqidur. Bu nutq hamisha boshqa kishilarning eshitish organlari yordami bilan idrok qilishlari uchun mo'ljallangan «tovushli» nutqdur. SHu sababli, odatda, og'zaki nutq ovoz bilan va (ba'zan) shivirlab aytiladi. Og'zaki nutq vaqtida, odatda, gapirayotgan kishi bu nutqni mimika, imo-ishoralar bilan ishlatadi.

Og'zaki nutqning xarakterli xususiyati shuki, bu nutq subbadoshlar o'rtasida bo'ladi. Subbadoshning yoki subbadoshlarining bunday ishtirok etishi ularning gapirayotgan kishining nutqiga diqqat qilib turish, savollar berib turishi, so'z tashlab turishdan iborat bo'ladi subbadoshlar gapirayotgan kishining fikriga e'tiroz bildiradilar, yoki bu fikrga o'zlarining rozi bo'lganliklarini izhor qiladilar, yoxud shu fikrni kengaytiradilar.

Subbadoshlarining og'zaki nutqda qatnashishlari qay xarakterda va qay darajada bo'lishiga qarab, og'zaki nutq ikki shakliga bo'linadi. Bularning biri dialog nutq (dialog) va ikkinchisi monolog nutq (monolog) deb aytiladi.

Ikki yoki ko'p subbadosh o'rtasidagi gaplashish tarqasida bo'ladigan nutq dialog deb ataladi. Subbadoshlar navbatma-navbat gaplashaveradilar - biri so'z aytdi, biror narsani aytdi, boshqalar esa uni tinglaydilar, javob beradilar.

Odam bitta o'zi gapirsa-yu, boshqa kishilar bu gapga faol qatnashmay faqat ularning nutqini tinglab tursalar, nutqning bu shakli monolog deb ataladi. Masalan, lektorning dokladchining nutqi, sudda, kengashlarda va boshqa shu kabi joylarda so'zlanadigan nutq monolog nutqdur yoki monologdir.

Og'zaki nutq ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy bo'ladi. Gapirayotgan kishi so'z va grammatika shakllarini maxsus tanlamay, og'ziga kelganicha so'zlashsa, bu holda nutq ixtiyorsiz nutq bo'ladi. Gapirayotgan kishi o'z so'zlari uchun alohida mas'uliyat sezib gapirganida, shu nutqni tinglayotgan kishi gapirayotgan kishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lganida, bunday hollarda nutq ixtiyoriy xarakterga ega bo'lib qoladi. Masalan, o'quvchining o'z o'qituvchisi bilan gaplashayotgan vaqtidagi nutq mana shunday ixtiyoriy nutqdur. Bunday hollarda gapirayotgan kishi lozim bo'lgan so'zlarni tanlab, joy-joyiga qo'yib ishlatishga, grammatika qoidalariga roya qilishga intiladi va harakat qiladi.

Dialog - ikki yoki bir necha odam o'rtasida bo'ladigan gapdir, bunda subbadoshlarining gapi bir-biriga bog'lanadi, ulanib ketadi, ya'ni gaplashib turganlar bir-birlariga savol-javob qilib, bir-birlariga e'tiroz qilib gapni ulab, davom ettiradilar. SHuning uchun dialog ma'nosini bir-biriga ulangan nutqni ancha osonlashtiradi. Monolog nutq esa ancha og'ir ko'chadi. Monolog - gapirayotgan kishidan juda ko'p diqqat-e'tibor berishni talab qiladi, gapirayotgan kishining faqat o'z nutqining mazmuniga diqqat-e'tibor berib qolmay, balki, shu bilan birga, bu nutqning tashqi tuzilishiga ham, fikrlarni ifodalashda muayyan sistema, tartib bo'lishiga ham roya qilishi lozim bo'ladi.

Monolog nutq tuzilishi jihatidan yozma nutqqa yaqindir.

Og'zaki nutq (dialog ham, monolog ham) ichki nutq singari, tafakkur quvolidir. Bunda boshqalar bilan gaplashish jarayonida gapirayotgan kishining o'z fikrlari ham o'ziga ravshan bo'lib qoladi.

Yozma nutqning xususiyati shuki, bu nutq bevosita aloqa bog'lash vositasi bo'lmastan, balki, ko'pincha, boshqa vaziyatda, boshqa bir joyda turgan yoki turishi mumkin bo'lgan odamlar bilan aloqa bog'lash vositasidir. Masalan, biz o'z do'stimizga yoki qandoshimizga xatimizda yozib yuborgan xabarimizni u ehtimolki bir kundan keyin, ikki kundan keyin, bir haftadan keyin, boshqa

shaharda yoki boshqa qishloqda o'qib bilishi mumkin. Biz bundan yarim yil, bir yil, hatto bir necha o'n va yuz yil muqaddam yozib qoldirilgan kitoblarni o'qib, shu kitoblardagi bilimlarni bilib olamiz.

Yozma nutq ham monolog shaklida va dialog shaklida bo'ladi. Masalan, ilmiy asarlar hamisha deyarli monolog shaklida yoziladi. Badiiy-adabiy asarlar dialog shaklida ham, monolog shaklida ham yoziladi. Ba'zan oddiy maktablar ham dialog shaklida yoziladi, shu maktabni yozayotgan kishi uni o'qiydigan kishini tasavvur qilib, unga maktabda o'zi savollar beradi va shu savollarga o'zi javob qaytaradi.

Sintaksis jihatidan qaraganda yozma nutq eng to'siq va mukammal nutqdur. Har bir kishi oddiy maktabni yoki ilmiy maqolani yozayotganida grammatika qoidalariga, og'zaki nutqdagiga qaraganda, ko'proq rioya qilib. Yozma nutqda gap bo'laklardan biri tushib qolsa, bu yozma nutqni o'qigan kishilar uni qiyinalib tushunadilar yoki butunlay tushunolmaydilar. YOZMA nutqning sintaksis jihatidan to'siq bo'lishi shuning uchun ham zarurki, og'zaki nutq uchun xarakterli bo'lgan mimika, imo-ishoralar, intonatsiyalar va boshqa shu kabi qo'shimcha elementlarni yozma nutqda ishlatib bo'lmaydi.

Yozma nutq, asosan, ixtiyoriy nutq bo'ladi. Maktab, doklad, ma'ruzalar va boshqa shu kabilarni yozayotgan kishi so'zlarni ongli ravishda tanlaydi, gaplarni yaxshiroq qilib tuzishga intiladi. Ko'pincha og'zaki fikrlarimizni o'qiydigan kishilarga so'zlar vositasi bilan g'oyat ravshan va tushunarli qilib ifodalamoq uchun ancha-muncha kuch sarflashimiz lozim bo'ladi.

Yozma nutq fikrlarimizni ifodalab berishning eng yaxshi vositasidir. Yozma nutqda fikrning mazmuni va shaklidagi ayrim kamchiliklar ochiq ko'rinib qoladi va fikrning o'zi mazmun va shakl jihatidan eng ravshan, aniq qilib ifodalanadi. SHuning uchun ham biz aqliy ish bilan shug'ullanayotganimizda, biror masalani hal qilganimizda yoki tayyor bilimlarni o'rnatayotganimizda ish natijasini yoki olgan bilimimizni ko'pincha, xatga yozib qo'yamiz, ba'zan esa bir necha marta ko'chirib yozamiz. SHu sababli, har xil yozma ishlar - hikoya qilib yozib berish, insho yozish, konspekt olish - tafakkurning o'qishi uchun katta ahamiyatga ega.

Faol nutq biror narsa gapirayotgan va yozayotgan kishining nutqidur. SHuningdek, kishi biror shaxsga maktab yozayotgan, olim maqola, kitob yozayotgan, yozuvchi o'zining adabiy asarini yaratayotgan vaqtidagi nutq ham faol nutq bo'ladi.

Boshqa bironing faol nutqini idrok qilish va tushunish jarayoni passiv nutqdur. Gapirayotgan kishining so'zini tinglab turgan yoki yozilgan narsani o'qiyotgan kishi boshqa bir kishining faol nutqini o'zicha takrorlagandek bo'ladi. Masalan, o'qituvchi darsni tushuntirib beryotganida, o'quvchilar esa uning darsini eshitayotganlarda o'qituvchining nutqi faol nutq bo'ladi, o'quvchilarning shu nutqni idrok qilish, ya'ni tushunish jarayoni esa passiv nutq bo'ladi.

Boshqa bironing nutqini, shu nutq so'zlanayotgan tilni o'zimiz bilganimiz taqdiridegina bu nutqni idrok qilishimiz va o'zlashtirishimiz mumkin. Ammo shunda ham o'sha nutqni idrok qilishimiz hamisha bayon qilinayotgan nutqqa inson teng va muvofiq bo'lmaydi. Ba'zan boshqa bir kishining nutqini tushunmaslik, bu nutqni bir tomonlama, noto'g'ri tushunish, so'z illuziyalari va boshqa shu kabilarning hosil bo'lishiga sabab ham shudir. Passiv nutqning bu xususiyatlari idrok qilyotgan kishining aqli qay darajada etukligiga bog'liq bo'ladi. Gapirayotgan kishi o'z nutqining mazmunini va shaklini shu nutqni tinglovchilarning qay darajada idrok qilishini ko'lda tutib tuzadi. CHunonchi, o'qituvchi o'z nutqining o'quvchilar qanchalik tushuna olishini nazarda tutib, ko'zlayotgan nutqini shunga qarab tuzadi.

Har bir kishi passiv nutqni faol nutqqa qaraganda, birmuncha oldinroq egallaydi. Yosh bola oldin kattalarning gapini tushunadigan bo'ladi, so'zgra o'zi ham tilga kirib, gapira boshlaydi. Xuddi shuningdek, boshqa bir tilni o'rganish vaqtida o'rganilyotgan tilda faol nutqni egallash passiv nutqni egallashga qaraganda birmuncha keyinda qolib boradi.

Biz yuqoridagi bayon qilgan nutq faoliyatini klassifikatsiya qilishda uni turli belgilarini asos qilib olamiz va shunga binoan uni turlicha turlarini ajratish mumkin:

1. Nutqning psixofiziologik mexanizminiga qarab:

- a) xor bilan aytiladigan nutq;
- b) exolik nutq;
- d) atash nutqi;
- e) kommunikativ nutq.

2. Nutqni rejalashtirish nuqtayi nazaridan:

- a) faol nutq;
- b) reaktiv nutq;
- d) yozma nutq

3. Nutqni ixtiyoriylik darajasiga qarab:

- a) ixtiyorsiz nutq;
- b) ixtiyoriy nutq

4. Eksteroizatsiyalashgan va interiorizatsiyalashgan xarakteriga qarab:

- a) ichki va tashqi nutqqa ajratiladi.

Xor bilan aytiladigan nutq ko'pchilikning baravar aytiladigan nutqidur. Masalan: o'qituvchi sinfga kirishi bilan talabalar «Assalomu alaykum» deb uni qarshi oladigan nutq xor bilan aytiladigan nutqdur.

Exolik nutq bu akkado beruvchi nutq bo'lsa, atash nutqi narsalarning nomi bilan izohlanadi. Masalan: «Bu pedagogika instituti, «stoli», «shkaf», «kitob» va h.k. Kommunikativ nutq ikki yoki undan ko'proq kishilar bilan o'zaro munosabatga kirishuvdagi nutqdur.

Nutq turlaridan o'zining xususiyatlariga qarab o'zaro munosabatlarda muvofiq ravishda foydalaniladi, faoliyat maqsadiga ko'ra munosabatga kirishiladi.

Soʻzlayotgan, mustaqil fikrlab yozayotgan nutq faol boʻlmagan nutq boʻlsa, tez fikrlab bayon qiladigan nutq faol boʻlmasa, tez fikrlab bayon qiladigan nutq reaktiv nutqdır. Yozma nutq bevosita aloqa vositasi boʻlmagan balki uzorqdagı odamlar bilan aloqa bogʻlash vositasıdır. U soʻz belgıları asosıda fıklarını bayon qılış usulıdır. Nutqlar ıchıde eng muvakkab nutqdır. CHunki u atrofdagı kışılarnı moʻljallangan boʻlışi unı mazmunan tushunari boʻlışini, grammatik jihatdan toʻgʻri tuzlilishi kerak. Ixtiyorisiz nutq tashqi taʼsirlar natijasida paydo boʻladigan nutq boʻlsa, ixtiyoriy nutq oʻz ixtiyorimiz bilan yozayotgan, fıkrılayotgan vaqtımızdagı nutqdır. U monolog, dialog, yozma va ogʻzaki bayon qılınışi mumkin.

Eksteriorizatsiyalashgan (tashqi) nutq boshqa odamlar bilan aloqa qılışınızda foydalanılđıgan, biror kışığa qaratlılđıgan, biror nimani xabar qılılđıgan nutqdır. Interiorizatsiyalashgan (ıchki) nutq fıklar boshqalarga bayon qılınmasdan ıchıde ifodalılđıgan va ovoz chıqarıb aytilılđıgan nutqdır. U kışının oʻzi uchun yaratılđıgan. Biror narsadan xursand boʻlganınızda yoki qatıq taʼsirlanganınızda oʻziniz bilan oʻziniz «gaplashamiz». Qatıq taʼsirlanganınızda bexosdan ovoz ham chıqarıb yuboramız.

Nutqning hamma turlari ham hayotınızda muhim ahamiyatga egadir.

Bolalar, odatda ikki yoshga oʻlganida, oʻra hisobda oʻn etti-oʻn sakkiz oylik boʻlganida aktiv nutqni egallay boshlaydilar. Bolaning nutqini egallash vaqtigacha boʻlgan davrni va shu davrdagi oʻsib boorish vaqtini uning tili chiqmagan davri yoki til chiqmagan bosqich deb aytiladi. Bolaning oʻsishidagi bu davr nutqning egallashga tayyorgarlik davri boʻladi. Bola nutqi oʻsishning tayyorgarlik davrida uchta bosqich: chinqirish bosqichi (ingalash), guvrash bosqichi, til chıqa boshlash bosqichi borligini koʻrish mumkin. Maʼlumki, chaqaloq tugilgan payıdan boshlab, chinqıra boshlaydi: u yigʻlaydi. Chaqaloqning chinqirib yigʻlashi unung oʻzini bezovta qılayotgan organik va tashqi qoʻzgʻovchılarning taʼsiriga-ochlikka, ogʻrıqqa, sovuqqa va shu kabilarga boʻlgan aks etishidir. Chaqaloqlarning chinqirib yigʻlashi ylaning oʻsishida ijobiy ahamiyati ham bor: chinqirib yigʻlash tufayli chaqaloqning nafas olish va nutq apparati oʻsadi va mustahkamlanadi. Shu sababli, bolalarning chaqaloqlik vaqtıdagı chinqirib yigʻlashlari keyinchalik ular nutqning oʻsishi uchun zarur shartlarınng birıdır.

Chaqaloq ikki y och oylik boʻlganida, odatdagı chinqirib yigʻlashdan tashqari “a”, “u”, “uv-uv”, “gʻuv-gʻuv”, “ga”, “agu-guv”, “bu” va boshqa shu kabi tovush birlıkmalarını chıqara boshlaydi. Bu tovushlar guvrashning boshlanışidir. Bu hil tovushlarnı chaqaloq yaurab yotganında chıqaradi: chaqaloq goʻyo oʻz nutqi apparati bilan “oʻynashayotganıdır” huzur qılđıganek boʻlib, shunday tovushlarnı chıqarayotđıganek koʻrinadi. Bu vaqtda chaqaloq tovushlarnı taqlid qılışni hali bilmaydi. Chaqaloqning mana shunday ayrim tovushlar chıqarıshı uning nutq apparatını oʻsıradi, mustahkamlaydi, shuningdek unda bir qancha yangı tovushlar hosil boʻladi.

Chaqaloq uch-toʻrt oylik boʻlganida u til chıqara boshlaydi. Chaqaloqda, masalan, “buv-va”, “nan-nan-nan”, “gi-gi-gi”, “dad-dad-da” va boshqa shu kabi tovush birlıkmaları paydo boʻladi.

Chaqaloqning til chıqarıshıda boshqa odamlar nutqning taʼsiri sezila boshlaydi. Goʻdak tevarak-atrofdagı kışılarning nutqını eshitib, shu nutq tovush birlıkmalariga oʻzi angʻlamagan holda taqlid qila boshlaydi. Kar-soqov bolalarda ham qiehqirıq va guvrash boʻladi, lekin faqat normal bolalargina til chıqara boshlaydi. Bolalarning til chıqara boshlashı nutqning oʻsishi prosessida muvırgarlik rolını oʻynaydi: til chıqara boshlash vaqtıda tovushlar va bu tovushlar birlıkması hosil boʻladi, nutq apparati mustahkamlanadi.

Bolalar etti-sakkiz oylik boʻlganida ularning boshqalardan eshitish soʻzlari bilan shu soʻzlarda ifodalangan narsalar oʻrtasidagi dastlabki bogʻlanishlar ham hosil boʻladi. Bolalar oʻzlariga aytilgan soʻzga javoban harakat qılđıdilar.

Tayanch tushunchalar: nutq, nutqning funksiyalari, nutq ifodalash vositasi, nutq taʼsir koʻrsatish vositasi, nutq – muloqot vositasi, til va nutq, tilning funksiyalari, nutqning anotomo-fiziologik asoslari, nafas olish apparati, ovoz apparati, fiziologik nutqning asoslari, nutq turlari, nutq va tafakkurning oʻzaro bogʻliqligi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nutq nima? Nutqning qanday turlari mavjud?
2. Nutqning funksiyalari?
3. Nutqning anatomik-fiziologik asoslarini tushuntirib bering
4. Fiziologik nutq asoslarini tushuntirib bering
5. Til va nutq, nutq va tafakkurning oʻzaro bogʻliqligi xanda uzviyligini izohlang.

HISSİYOT

Hissiyot haqida tushuncha

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilargan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odaming aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

- a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;
- b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan ob'ektlarga sub'ekti sifatida qatnashishi;
- v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiluvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba'zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko'rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo'ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Kishilar idrok qilayotgan, ko'rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o'ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo'lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvonitiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g'azab, nafratimizni uyg'otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, dushman ustidan g'alaba qozonish yoki qiyinchilikni yengish zavq uyg'otadi.

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi jumladan: A.V. Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot – kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabattir. M.Vohidovning «Bolalar psixologiyasi» o'quv qo'llanmasida hissiyot deb – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan ichki kechimmalarimizning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarda kelib chiqadigan voqiml yoki yoqimsiz kechimmalardan iborat. Professor E.G'oziev muallifligidagi «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot odanda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga morelek qiluvchi ob'ektlarga nisbatan uning munosabatlari aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Daniyalik Lang his-tuyg'u nazariyasini taklif qilgan psixolog. Uning nazariyasi, hissiyot avvalam bor biror bir vaziyat yoki voqegaga nisbatan reaksiyasini bildirish, deb ta'kidlaydi. Biz judayam achinganimiz uchun yig'laymiz. Biz g'azablanganimiz, sababi za'ba ostida qolamiz. Biz

qo'rqmoqdamiz sababi qaltiraymiz.

Canon-Bard nazariyasi

Nazariya shundan iboratki, fiziologik va hissiy bir vaqtni ozida nerv impulsi orgali ishlab chiqariladi.

Schachter yagona nazariyasi

Nazariyasining fikriga kora, biz atrof muhitini kuzatish va boshqalar bilan o'zimizni solishtirish orgali his-tuyg'u turini aniqlaymiz, deb ta'kidlaydi.²⁸

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, hissiyot bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'ildigan ichki kechimmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o'z-o'zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

To'liqligicha, xossa va xususiyatlarining xilma-xilligida olingan hayotiy dalillar o'ziga yanada murakkab munosabatlarni yuzaga keltiradi. Ularga bo'lgan munosabat quvonch, qayg'u, simpatiya, ehtiyokkorlik, g'azab, faxr, qo'rquv kabi murakkab hissiyotli kechimmalarda ifodalanadi. Bu barcha kechimmalar *hissiyot* yoki *emotsiyalarni* bildiradi.

Adabiyotlarda hissiyot bilan birga emotsiya tushunchasi ham keng doirada qo'llaniladi. Aynan emotsiya tushunchasining mazmuni nimadan iborat va hissiyot tushunchasi bilan o'zaro bog'liqligi qanday degan savol tug'iladi? Shunga muvofiq emotsiya tushunchasining mazmun mohiyatini yoritadigan bo'lsak, jumladan professor E.G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida emotsiya-odatda tashqi alomatlar yuqori namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni, ichki kechimmalarni ifodalashidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta'riflanadi.

Emotsiya – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishdan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechimmalaridir.

Emotsiyalar inson ehtiyojlarini va o'ziga qaratilgan predmetlarni tavsiflaydi. Evolyutsiya natijasida emotsional his qilishlar va holatlar uning optimal chegarasida hayotiy jarayonni qo'llab-quvvatlash usuli sifatida biologiik mustakamlangan. Organizm uchun ahamiyati qandaydir omillar yagona qiluvchi xususiyati haqida ogohlantirishda mujassamdur. Shunday qilib, emotsiyalar funksional organizm holati va inson faoliyatini boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Psixologiyada emotsiyalar deganda kechimmalar shaklida ko'rinadigan va inson hayotfaoliyati uchun tashqi va ichki vaziyatlarning shaxsiy ahamiyatligi va baholanishini aks ettiruvchi ruxiy jarayonlar tushuniladi. Demak, emotsiyalarning eng asosiy tavsifi bo'lib ularning sub'ektivligi hisoblanadi. Emotsiyalar tufayli inson o'z ehtiyojlarini va predmetlarga bo'lgan munosabatini

²⁸ Girma Lemma. General psychology 2005 129-130-131 betlar (mazmunidan foydalanildi)

anglaydi. Aytish zarur bo'lgan emotsiyalarning boshqa umumiy belgisi – ularning ehtiyojlarni qo'llash va muayyan maqsadlarga erishishdagi yordami. Sababi har qanday emotsiyaning ijobiyligi yoki salbiyligi haqida inson qo'yilgan maqsadga erishishda xulosa qilishi mumkin. Shunday qilib, ijobiy emotsiya har doim istalgan natijani olish bilan, salbiys esa, aksincha, maqsadga erishishdagi muvaffaqiyatsizlik bilan bog'liq. Shunday tarzda, quyidagi xulosani qilish mumkin, emotsiyalar bevosita inson faoliyatini boshqarish bilan bog'liqdir. Ko'pgina emotsional holatlar inson hulq-atvori xususiyatlarida aks etadi, va shuning uchun ular nafaqat sub'ektiv, balki ob'ektiv uslublardan foydalanib o'rganilishi mumkin. Masalan, inson terisining muayyan vaziyatda qizarishi yoki oqarishi uning emotsional xolati haqida dalolat bershini mumkin. Emotsional holat haqida shuningdek qonda adrenalin va ko'pgina boshqalarning o'zgarishi darajasi ham dalolat bershini mumkin.²⁹

Biroq ikki tushunchadan foydalanishimizga e'tibor berish lozim: "hissiyotlar" va "emotsiyalar". Qanchalik bu tushunchalar bir-biriga turdosh? Birinchi ikkinchisidan kelib chiqmagami?

Gap shundaki, emotsiyalar – bu yanada keng tushunchadir, hissiyotlar esa emotsional kechinmalar ko'rinishlaridan birini bildiradi. Amaliy hayotda emotsiyalar deganda odatda insonning eng turli xil ta'sirlanishlarini - jo'shqin ehtiros portlashlaridan nozik kayfiyat ko'rinishlarini tushunamiz.

Kelirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Hissiyotlar o'zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odanning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, odanning organik ehtiyojlarni qondirishi bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar odanda rohatlanish, qanoatlanish tuyg'usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odanning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissigacha sabab bo'ladi.

Odanning hissiyotlari uning mazmuni handa shakllari, ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davrida odanning ehtiyojlari o'zgarib boradi. Natijada odanda borgan sari yangi, yangi hissiyotlar, ehtiyojlar, ma'naviy, intellektual va estetik hissiyotlar paydo bo'ladi.

Hissiyotlar ham boshqa bilish jarayonlari kabi odanning faoliyatlarida davomida namoyon bo'ladi. Masalan, mehnatsevarlik hissiini yuzaga keltirish uchun ma'lum muddat davomida ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish kerak. U yoki bu faoliyat davrida yuzaga kelgan hissiyot ana shu faoliyatning o'ziga ta'sir qilib, uni o'zgartiradi. Masalan, hohlamasdan o'zini majbur qilib ishlayotgan odam bilan o'zi hohlab silqitidan ishlayotgan odam ishining unumdorligi o'rtasida juda katta farq mavjud. Odanning kayfiyati yaxshi

xusand, ruhi teitik bo'lganda ishi ham barakali bo'ladi, aksincha odanning diti g'am, qandaydir tashvishli yoki g'angin bo'lganda qo'li ishgah bormaydi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning inson hayotidagi roli juda kattadir. Hissiyot boshqa bilish jarayonlariga ham ta'sir qiladi. Masalan, odanning ruhi teitik, xusand bo'lgan paytida, idroki hali juda jonli, esda olib qolishi, tuyg'ulariga boy, tafakkuri o'tkir, nuqti burro bo'ladi.

Hissiyot odamda sodir bo'layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyati bo'lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo'zg'ovchilardan aniq bo'lib ajraladi, ba'zilar bir-birlari bilan qo'shilib ketadi va paydo bo'lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uyg'otib, birov hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tanqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma'lum qo'zg'atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirani haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning impressiv tomoni deb ataladi.

Impressiv so'zi lotincha taassurot degan ma'noni anglatadi.

I.P. Pavlov tirik mavjudotlarning atrofinizdagi muhitga moslashuvda hosil qiladigan buziladigan dinamik streotiplar orqali birov hissiyot va emotsional kechinmalarining ijobiy va salbiy sifatlarini tushuntirib beradi.

Dinamik streotip deganda tashqi qaytarilish natijasida hosil qilingan shartli reflekslar, nerv bog'lanishlarining bargqor tizimi tushuniladi. Har turli qiyinchiliklar va qarshiliklarga duch kelishi natijasida dinamik streotiplarning «o'zgarishi» salbiy emotsional holatni yuzaga keltiradi. Hissiyot bu uning kechinilishining turli shakllari faqat darak vazifasini emas, balki boshqaruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Emotsiya harakatlari juda ko'p tana o'zgarishlar ifodalaydi. Odam organizmidagi o'zgarishlar kechinlayotgan hissiyotning ob'ektiv ko'rsatkichi hisoblanadi. Moslashish xarakteriga oid bo'lgan, ya'ni ovoznig o'zgarishi, mimika, imo-ishora, organizmda sodir bo'ladigan jarayonning qayta o'zgarishidan iborat ixtiyorsiz va ongli harakatlilar psixologiyada emotsional harakatlarning **ekspressiv tomoni** deb ataladi.

Hissiyotlar odatda juft-juft bo'lib uchraydi. Masalan, yoqimli-yoqimsiz, kuth-noxush, xusand-xafa, g'azab-muhabbat, nafat kabi ana shunday hissiyotlar sub'ektiv xarakterga ega bo'ladilar, lekin ularning tashqi ifodasi ham bo'ladi. Masalan, hushchaqhaq odam bilan g'angin odanning yuz ifodasini ko'z oldimizga keltirib ko'rish mumkin. Aynan mazkur jarayon psixologiyada ambivalentlik yoki ikki tarafamalik deb ataladi. **Ambivalentlik** – lotincha har tomonlama kuchga ega ma'nosini anglatib kishining bir ob'ektnig o'ziga nisbatan bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan bir-biriga qarama – qarshi emotsional irodaviy holatdir.

Hissiyotda ambivalentlik bu rohatlanish va azoblanishni birga qo'shilib va birinchi ikkinchisiga o'rtib ketmaydigan emas, balki bunda birga bo'lish

²⁹ Макажков А. Г. Обшая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 392—400 бетлар (mazmunidan foydalanildi)

kechiriladigan hissiyotning zarur xarakterli sifatlaridan birini tashkil qiladi. Masalan, rashk hissida muhabbat va nafrat.

Hissiyotning nerv-fiziologik asoslari

Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po'sti qismining faoliyati bilan bog'liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po'stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a'zolari faoliyati bilan ham bog'liqdir, boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog'liqdir. Chunonchi, odam qattiq uyalgan paytida qizarib ketadi, qattiq qo'rqgan paytida esa rangi o'chib, qaltirab ketadi, xattoki odamning ovozi ham o'zgarish paydo bo'ladi. Ana shunday hissiy holat yuz bergan paytda odamning yuragi tez ura boshlaydi, nafas olishi ham tezlashadi.

Demak, odam ma'lum hissiy holatni boshdan kechirayotgan paytda uning qon aylanish tizimi, nafas olish organlari nuq apparatlari ichki sekresiya bezlari ham qatnashadi. Masalan, materialni yaxshi bilmaydigan talaba imtihon toptirayotganda terlab ketadi, tomog'iga nimadir tiqilib, gapini gapira olmay qoladi. Odamda qattiq qo'rqish paytida «Yuragi orqaga tortib ketdi», «Sovuq ter bosib ketdi» kabi iboralarining ishlatilishi hissiyot paytida odamning ichki a'zolarining ishtirok etishidan dalolat beradi.

Juda ko'p hissiy holatlar bosh miyaning yaqin po'stloq osti qismlarining oralig'i bilan ham bog'liqdir. Masalan, ko'rish tepaligi deb ataluvchi qism ayrim hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazi hisoblanadi.

Odamda uchraydigan yuksak ma'naviy hissiyotlar ham o'zining nerv-fiziologik asosiga ega bo'lishi kerak (chunonchi intellektual, ahloqiy, estetik hissiyotlar). Bu jihatdan akademik I.P.Pavlovning dinamik streotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga ega. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: «Menimcha, ko'pincha odatdagi turmush tartibining o'zgarigan paytlarda odam bo'lib, qolgan birotta mashg'ulot yaqin kishidan judo bo'lganda, aqliy iztirob chog'ida kechiriladigan og'ir hissiyotlarning fiziologik asosi xuddi eski dinamik streotipning o'zgarishi, uning yo'qolishi va yangi dinamik streotipning qat'iylik bilan hosil bo'lishidan iborat bo'lsa kerak».

Ayrim murakkab hissiyotlarning asosida dinamik streotipning yo'tishi yaqqol ko'rinadi. Masalan, estetik hissiyotni oladigan bo'lsak, biron yoqimni ko'ydan lazzatlanish, yoki biron mashhur rassomning ishlagan ajoyib suratlarini tomosha qilib, rohatlanish estetik hissiyot hisoblanadi. Agar bu hissiyotlarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, bizga juda yoqadigan kuy boshqa millat odamiga yoqmasligi mumkin. Bunda ajablanishga hech qanday o'rin yo'q. Biz yoshlikdan boshlab mazkur kuyi bir necha yuz marotaba eshitib borishimiz natijasida ana shu kuyga nisbatan deyarli buzib bo'lmaydigan nihoyatda murakkab dinamik streotip yuzaga keladi. Ana shuning uchun ayrim kuyilar bizga yoqadi, ayrimlari esa yoqmaydi. Suratlar masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, qadimgi

klassik asarlar ularning ishlanish uslubi realligi bizni hayratda qoldirib zavq tug'diradi. Aksincha, hozirgi rassomlar tomonidan ishlangan rasmlar odamda qandaydir noxush hissiyotni tug'diradi. Demak, uzoq yillar davomida yuzaga keladigan dinamik streotiplar ayrim murakkab hisni tashkil qiladi.


Shunday qilib, hissiyot vegetativ nerv tizimi orqali boshqariladigan ichki a'zo faoliyati bilan bog'liq bo'lsa ham bari bir bosh miya po'sti orqali idora qilinadi. Chunki akademik I.V.Pavlovning fikricha, odamning butun a'zoyi budanida bo'ladigan har qanday hodisalarning hammasini bosh miya po'sti qisnidagi neyronlar idora qiladi. Ana shu jihatdan olinganda hissiyotning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'sti bilan bog'liq.

Inson va hayvonlardagi emotsiyalar

Odam his-tuyg'ulari bilan hayvon hissiyotlari o'rtasida juda katta farq bo'ladi. Odamda juda ko'p miqdorda his-tuyg'ular borki, bunday hissiyotlar hayvonlarda uchramaydi.

Darvin fikricha, faqatgina insonlar his tuyg'ulariga ega bolmay hayvonlar ham, qo'rg'ov g'azabini, va hamda sevgi holatlar uchrab turishini aytgan.³⁰

Shuning uchun ham odam ham xayvon uchun umumiy bo'lgan g'azablanish, qo'rqish, jinsiy hissiyot, qiziquvchanlik, xursandchilik, g'amginlik emotsiyalari hayvonlarda sifat jihatidan farq qiladi. Shu o'rinda S.Shexterning emotsional faktorlarning paydo bo'lishi kognitiv-fiziologik konsepsiyasini keltirib o'tish joiz.



Insoniy emotsiyalar «insoniy/ashirilgan» ijtimoiy sharoit bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Emotsiyalarning «insoniy/ashuvi» shunday namoyon bo'ladiki, ichdan kechadigan hissiyotlar mazmuni, juda boy va murakkabdir. Odamlar bilan mehnat, siyosat, madaniyati, oilaviy hayot o'rtasida paydo

³⁰ Girma L. Emma. General psychology 2005 - 126 bet (mazmunidan foydalanildi)

bo'lgan munosabatlarning ko'pligi, sof insoniy hissiyotlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ular bolalarga oqib bilan javob berishni, subbatsdoshiga ochiq ko'ngillik bilan jilmeyish, keksalar va nogironlarga hurmat bilan joy berishni o'rgatadi. Odam o'z hissiyotlarini o'zi boshqaradi. Ba'zi kishilar emotsiyalarini yashirish niyatida qarama-qarshi emotsiyalarni ifodalaydilar. Masalan, g'ay'urush yoki qattiq og'riq paytida kulimsirash, kulgilari kelgan paytda yuzlamni jiddiy, o'ychan holga keltira oladilar. Lekin o'zining imo-ishoralarini va mimikalarini boshqara olishga qaraganda nafas olish, qon aylanish va ovqat hazm qilish tizimidagi o'zgarishlarni ushlab qolish juda qiyin bo'ladi. Odam xayajonlangan paytda bir maromda nafas ola biladi, ko'z yoshlarini ushlab qola oladi, lekin rangini o'zgartirish yoki qizartirishga qodir emas. Ammo emotsiyalarni paydo qiluvchi narsalardan o'zini chalg'itish mumkin.

Hissiy holatlarning ifodalanishi

Hissiy holatlarning ifodalanishi birinchidan, ifodali harakatlari (yuz ifodasi, qo'l,oyoq harakatlari), ikkinchidan organizmdagi turli hodisalarni, ya'ni ichki a'zolar faoliyatining va holatining o'zgarishida, uchinchidan tabiatda, ya'ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvda bo'ladigan o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

His-tuyg'ularning tashqi ifodasiga yuz ifodasi, imo-ishora, vajohat va qaddu-gomaning o'zgarishi, ayiruv, tashqi chiqaruv bezalarining faoliyati (so'lak, ter ajralishi) va ayrim harakatlari xususiyatlaridagi o'zgarishlarni kiritish mumkin. Bunga nutqning faol o'zgarishlari, «ovoz mimikasi» va gaplar tarkibining sintaksis o'zgarishi, «tutimmasdan gapirish», yoki alohida «silliqlik» hamda «ifodalilik»ning yuzga kelishi nihoyat hissiyot o'zining to'la qisman ifodasini topadigan xatti-harakatlarga taalluqlidir. Kishining emotsional kechimalari vaqtida nutqining tezligi o'zgaradi. Ko'pincha nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, tezligi va ahamiyati o'zgaradi. O'ikazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, g'anginlik va ma'yuslik hisslarni ifodalovchi kishining ovozi beixiyor pasayib ketadi, so'zlashgan kishining tovushi ham bo'linib-bo'linib chiqadi.

Hisslarni kechirish shakllari

Kundalik hayotimizda duch keladigan barcha narsa muayyan munosabatni yuzga keltiradi. Bir xil ob'ektlar va hodisalar bizda simpatiyani chaqiradi, boshqalari esa – nafaftni. Bir xillari qiziqish va qiziquvchanlikni, boshqalari esa – befarqlilikni. Xatto his qilishlar orqali predmetlarning o'sha ayrim xossalarga, masalan, rang, ta'm, hidga ega bo'limoq biz uchun ahamiyatlidir. Ularni his qilib, ba'zida aniq ifodalangan, ba'zida esa arang seziladigan rohatlanishga ega bo'lamiz. Bu predmetning ayrim xususiyatlariga nisbatan bo'lgan munosabatni tavsiflovchi his qilishlarning o'ziga xos bo'yog'i his qilishlarning hissiyotli ko'rinishi deb ataladi.

Hissiyot kechimalari turli holatlarda turlicha tezlik bilan paydo bo'ladi. Ba'zan hissiyot to'satdan, darhol paydo bo'ladi. Masalan, kishi birdan xursand bo'lib ketadi, darhol g'azabga keladi, achchiqlanadi va hokozo. Lekin ba'zan shu hissiyotlar o'zi daf'atan qo'zg'almaydi, balki asta-sekin tug'ila boshlaydi. Shunday hissiy kechimalarning qay darajada tez paydo bo'lmashini belgilash qiyin yoki butunlay bilib bo'lmaydi. Emotsional kechimalarning kuchi turlicha bo'lishi mumkin. Hissiyotlarni kuchi avvalo yuqinli va yuqimsiz tuyg'ularning naqadar kuchi bo'lishidir. Hissiyotning kuchi shu hissiyotni shaxsning naqadar ehtiros bilan kechirganligi bilan belgilanadi.

Hissiyotning qo'zg'alish xususiyatlari paydo bo'lish yo'lini kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga bog'liqdir. Arof-muhitning holati shu paytdagi ehtiyojlarining kuchi shu xislat tuzilishiga sabab bo'lgan hodisalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglatadi, odamning dunyog'arashi, bu xislat qanday vaziyatda paydo bo'lishi va o'tirishi hamda shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Hisslarning ayini vaqtida naqadar tez kuchi va barqaror bo'lishiga ko'ra his-tuyg'ularning quyidagi turlari farqlanadi: hissiy ton, emotsiyalar, affekt, stress, kayfiyat va boshqalar.

Hissiy ton. Hissiyot ko'pincha fagat hissiy tus sifatidagi ruhiv jarayonlarning o'ziga xos tomoni tarig'asida namoyon bo'ladi. Yuqinli subbatsdosh, kulguli vogue, yuqimsiz hid, zerkari kitob, ko'ngildagi mshg'ulot, hushchagach sayohat, og'ir ish kabilar. Hissiy ton tushunchasiga ko'pgina adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida hissiy ton sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsa va hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus hissiy bo'yog' yuqinli yoki yuqimsiz idrok bilan bog'langan hissiyot, deb ta'riflanadi. Professor E.G'oziev tomonidan hissiy ton-u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iboratdir. Q.Turg'umov lug'atida hissiy ton – hissiyot sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsaga hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus emotsional bo'yog' yuqinli va yuqimsiz kechima bevosita sezgi yoki idrok bilan bog'langan hissiyot. Masalan, og'riq bir qator qo'zg'ovchilar yaqqol ifodalangan yuqimsiz hissiy ton bilan ajralib turadi.

Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifati hissiy holatlar **stenik** (yuqinoncha so'zdan olingan bo'lib, kuch degan ma'noni anglatadi) xususiyati deyiladi. Bunda emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, nisbiy telanishlarga kuch quvvat, qanoat bag'ishlaydi. Masalan, xursandchilikdan shaxs «parvoz qiladi», «yulduzni narvonsiz oladi», kimlarga dir xolis yordam qilishga shoshiladi. Faollik qilib, tinchimaslik uning sifatiga aylanadi. Q.Turg'umov lug'atida stenik hissa quyidagi ta'riflar uchraydi: stenik hislar – shaxsning hayot faoliyatini kuch-g'ayratining orttiradigan barcha bilish jarayonlarini ifodalashtridigan jobjiy hissiyot turi. Aksariyat hollarda xushxabar, muvaffaqiyat shaxsda stenik xususiyatli emotsiyalarni vujudga keltiradi.

Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining susligi, motori, kuchsizligi bilan tavsiflanadi. Bunday hissiy holat **astenik** (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) deb atashadi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi. Shu sababdan favqulotda shaxsdagi befoyda emotsional kechimmaga, uyalsiz, vijdon azobi, andisha esa qo'rqoqlikka aylanib qolishi xavfi kuchli.

Psixik jarayonlardan ayniqsa, emotsiya o'zining aniq tashqi ifodasiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Emotsional o'zgarishlar organizmning tashqi o'zgarishlarida shu qadar yaqqol ifodalanadiki, biz odamni tashqi ko'rinishiga qarab, unda qanday xususiyatlar yuz berayotganini, uning xursand yoki xafaligini, g'azablanganligini yoxud biror narsadan qo'rqib ketganini va shu kabi his-tuyg'ularning ko'pini aytib bera olamiz. Hissiyotlarning tashqi alomatlari ifodali harakatlarda deb ataladi.

Emotsiyalarning tashqi ifodasi turli ko'rinishlarda ro'y beradiki, unda asosiy o'rinni ko'rgazmali jihatlar asosiy o'rinni egallaydi.

*Birinchi*dan, emotsiyalar nafas olish a'zolarining ishlari o'zgarish yasaydi. Masalan, yuqoridagi his-tuyg'ular ishg'a tushganda nafas olishning tezligi va amplitudasi ortadi, yuqoridagi his-tuyg'ular ustun kelganda kamayadi, qo'zg'alagan vaqtida nafas harakatlari tezlashadi hamda chuqurlashadi, zo'r berish vaqtida sekinlashadi va yuzaklashadi, hayajon vaqtida tezlashadi, hamda kuchsizlashadi, kutilmagan holatda, hayron qolishda zudlik bilan tezlashadi, qo'rquvda sekinlashadi va hokazolar.

Turi emotsional holatlarda nafas olishning o'zgarishi

a) xursandlikda nafas olish bir minutiga 17 marta;

b) faol xafalikda 9 marta;

v) qo'rqishda 64 marta;

d) jahl chiqqanda 40 marta.

*Ikkinchi*dan, emotsiya imo – ishoralarda, mimikada, ya'ni kishining yuzida bo'ladigan harakatlarda hamda butun badanning ma'nodor harakatlari o'rinadi.

*Uchinchi*dan, gumoral harakatlardagi, ya'ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni va shuning bilan birga modda almashishida bo'ladigan yanada chuqur o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

Demak, emotsiyalarning tashqi ifodasiga mimika, imo-ishora, aft-bashara va qad-qomatning o'zgarishlari, ayrim tashqi sekresiya bezlarining faoliyati yosh so'lak, ter ajralishi hamda ayrim harakatlarning xususiyatlaridagi o'zgarishlar, ya'ni ularning tezligi, kuchi, koordinatsiyasi va hokazolar kiradi.

Emotsiyalarning eng aniq va yaqqol ko'rinishlaridan biri kulgi bilan yig'ildir.

L.N.Tolstoy o'z asarlarida odamning ruhiy holatini ifodalovchi nigohlarning 85 xilini va kulishning 97 xilini tasvirlagan. «Har xil sabab bilan

yig'lagan paytda odamning boshi va og'zi har xil qiyofada o'zgaradi» - degan edi. Lennard da-Vinchi.

Rus psixologi P.M.Yakobson tomonidan ishlangan rasmlardan ko'rinish turibdi, odamning atfidagi qiyofa asosan lablar, qosh va ko'z o'zgarishlarining bir-biriga nisbatan turlicha holatga, shuningdek, ko'zning qanchalik chaqnaib tushishiga bog'liqdir. Ko'zning qanchalik chaqnaishi ko'z yoshining miqdori, ko'z shilliq pardasidagi tomirlarning kattalashuvi bilan belgilanadi. Maskaning tagida ko'rinish turgan ko'z o'zining ifodasini yo'qotgan bo'ladi. Ko'z, lab, qovoq, qoshning har xil holati, xatto odam chehrasini ham turli qiyofaga kiritadi.

Odami hissiyotlarini bildirishning eng nozigi va eng kuchlisi san'at, xususan, muzika bilan lirik she'rlardir, ularni tom ma'noda hissiyotning tili deyish mumkin.

Odami o'zini va g'avda harakatlarni, shuningdek tovushni ataylab chiroyli qilib ko'rsatishi mumkin. U garchi «muayyan hissiyotlarni o'zi kechirmayotgan bo'lsa ham o'sha hissiyotlarni ifodalaydigan harakatlarni qila oladi.

Har bir kishi ham o'z hissiyotlarining tashqi ifodalarni ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin. Odamlarni kundalik muomalalarda badanning xilma-xil ifodali xarakatlari, imo-ishoralar xususan, ko'z bilan qilinadigan imo-ishoralar, tovushning ohangi, g'anginligi muhim ahamiyatga ega. Shunchaki bir ko'ruvish, salgina jilmayib kulish, yelka qisish kabi ifodali harakatlarni kishining maqsadini anglatadi.

Emotsiyalar - o'ta murakkab ruhiy hodisalar. Eng ahamiyatli emotsiyalarga quyidagi emotsional kechimmalar turi kiradi: affektlar, asl emotsiyalar, hissiyotlar, kayfiyatlar, emotsional stress.³¹

Kayfiyat tushunchasiga psixologik ma'balarda turli nuqtai nazardan yondashilgan taqdirda ham mazmunan ular bir xillikni anglatadi. Jumladan K.Turg'unov lug'atida shaxsning kuchsiz yoki o'rtaacha kuchiga ega bo'lgan muhabbat bargaror umumiy emotsional holati, A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida kayfiyatlar ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi, deb ta'kidlanadi. Professor E.G'oziev fikricha, kayfiyat shaxsning ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holatdir.

Kayfiyat, ya'ni odamning xursand yoki g'amgin kayfiyati hech vaqt sababsiz maydonga kelmeydi. Odami bajarayotgan biror ishning mavaffaqiyatli tugashi yoki imtihondan yaxshi o'tish-yaxshi tetik kayfiyatni yuzaga keltiradi. Olmoyotgan ishingizni oldinga yurmasligi yoki ishg'a berilgan yomon baho olamda ma'yuslik, kuchiga ishonmaslik kayfiyatini tug'diradi.

Kayfiyatning xush yoki noxush bo'lishi, bittinchi navbatda odamning albat-salomati bilan ham bog'liqdir. Masalan, ichimiz qattiq og'rib turgan vaqtda kayfiyat chog' bo'lmaydi.

Odatda odamda kayfiyatning u yoki bu turi, ya'ni xushchaqchilik xursandlik yoki g'amginlik, ma'yuslik, tushkunlik ustun bo'lishi mumkin. Ana shunga qarab odamlar xushchaqchاق, g'amgin, sertsativish deb turli guruhlarga bo'linadilar. Lekin shuni aytilish kerakki, odam o'z kayfiyatining quli bo'lib, qolmay, uni boshqara bilishi kerak. O'z kayfiyatini idora qila biladigan odamlarning har doim ruhi tetik, kayfiyati chog' va ishida unum bo'ladi. Kayfiyatni idora qila olmaydigan odamlar bilan yashash juda qiyin bo'ladi. Bunday odamlar arzimagan narsadan kayfiyatini buzib, to'msayib yuradigan yoki arazlab yotadigan odamlar bo'ladi. Bunday odamlarni odatda «sirkasi suv ko'tarmaydigan» yoki «jabli burnini uchida turadigan» odamlar deyiladi. Agar odam har doim o'ylab, aql bilan ish tutsa, kayfiyatini bo'lgan bo'lmagan narsalarga buzavermaydi.

Inson kayfiyatini paydo bo'lishiga va o'zgarishiga ta'sir qiluvchi quyidagi ikkita omillarni tahlil qilish lozim: Ulardan bittasi ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatli vaziyatdir: a) tabiiy omillarga taalluqli bo'lgan vaziyat (havoning sovuqligi yoki issiqdigi); b) shaxslararo munosabatning noqulayligi va boshqalar. Ikkinchisi bir ma'nada sifatida talqin qilish mumkin, bu-sub'ektiv, shart-sharoitlardir. Masalan, mehnat va o'qish faoliyatiga kerakli vositalarning mavjudligi. Ikkinchi sub'ektiv munosabatlar, ilq psixologik muhit, mulokatmandlik maromi, rag'batlantirish, mulogot o'rnatish uslub, shaxsiyatiga tegmaslik, teng xuquqlilik, shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va hokazo.

Affekt tushunchasiga berilgan ta'riflarga asosiy e'tiborni qaratadigan bo'lsak bu ham shaxsning kuchli emosional holatlari bilan bog'liqdir. K.Turg'neovning lug'atida aytilishicha, affekt tez va kuchli paydo bo'lib, shiddat bilan o'tadigan qisqa muddatli emosional holatdir. A.V.Petrovskiyning «Umumiy psixologiya» darsligida affekt hadidan ziyod tez kechishi bilan myada paydo bo'luvchi, shaxsni tez qamrab oluvchi, jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi jarayonlar usidan irodaviy nazorat buzilishiga yetaklovchi organizm a'zolari funksiyasini izdan chiqaruvchi emosional jarayonlarga aytiladi. M.Vohidov darsligida affekt to'satdan tez paydo bo'lib, tez orada o'tib ketadigan nihoyatda kuchli hissiy holat sifatida e'tirof etiladi.

Affekt lotincha so'z bo'lib, ruhiy hayajon ehtiros degan ma'noni anglatadi. Affektlar ko'pincha to'satdan paydo bo'ladi va ba'zan bir necha minut davom etadi. Affekt holatida kishini ongini tasavvur qilish, fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Affektlar vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda portlash singari birdaniga boshlanib ketadi. Ba'zan affektlar tomonlanish holati tarzida namoyon bo'ladi va bunday holatda organizm bo'shashtib, harakatsiz bo'lib va shalviraib qoladi. Bunday holat ko'pincha odam birdaniga qo'rqanida, to'satdan quvonganida va shu kabi holatlarda o'zini yo'qotib qo'yish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Affekt — eng qudratli emosional ta'sirlanishlar turi. Affektlar deb jadal, keskin namoyon bo'ladigan va qisqa muddatli emosional portlashlarga ataladi.

Affektlarga misol bo'lib qattiq jahli, g'azab, qo'rquv, katta quvonch, chuqur qayg'u, ruxan cho'kish xizmat qilishi mumkin. Bu emosional ta'sirlanish umuman vaziyatga nisbatan yaqona ta'sirlanishni oldindan aniqlab beruvchi affekt majmuasini hosil qilib, barcha o'xshash qo'zg'atuvchilar bilan bosh ta'sir qiluvchi qo'zg'atuvchini birlashtirgan inson ruhiniyatini to'liq egalab oladi.

Affektning bosh xususiyatlaridan biri shundan iboratki, mazkur emosional ta'sirlanish insonga qandaydir harakati bajarishga zaruriyatni ilib qo'yadi, lekin bunda insonda reallik hissi yo'qoladi. U o'zini nazorat qila olmaydi va xatto nima qilayotganini aqlamay qo'yadi. Bu shu bilan tushuntiriladiki, affekt holatida bosh miya qobig'ining harakatlantiruvchi markazlariga ta'sir qilib, harakatlantiruvchi qo'zg'atishga o'tadigan kuchli emosional qo'zg'atish yuzaga keladi. Shu qo'zg'atish ta'siri ostida inson ko'pincha tartibsiz harakatlarni bajaradi. Shunday ham bo'ladiki, affekt holatida inson qotib qoladi, uning harakatlari umuman to'xtaydi, u xuddi bir tildan qoladi.

Affekt holatini boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarining barchasidan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati to'g'risida ham o'ylamaydi, hatto tana o'zgarishlari, ifodalay harakatlari bilimmay boradi. Kuchli zo'rliq oqibatida myada kuchsiz harakatlari barham topadi. Tomozlanish miya yarim shartari po'stini to'liq egalay boshlaydi, qo'zg'atish po'stloq osti nerv tugunlaridan onliq myada ay oladi, xolos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga (dubshat, g'azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar) nisbatan o'zida kuchli holish sezadi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha ko'pincha hissiyotlar affektiv shaklda o'tishi tajribalarida sinab ko'rilgan. Jumladan: 1) teatr tomoshabinlarida, 2) ma'nada nashidasini surayotgan olomonlarda, 3) es-xushni yo'qotgan talbasimon odamlarda, 4) ilmiy kashfiyot laxzasida, 5) tasodifiy qizg'in uchinshuvlarda, jo'shqin shodliklarda mujassamlashadi.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o'zini tushunish, o'zini qo'lga olish, uddalash qurbiga ega bo'ladi. Ularning keyingi bosqichlarida irodaviy nazorat yo'qotiladi, irodasiz harakatlari amalga oshiriladi, o'ylamadan xatti-harakat qilinadi. Affektiv holatlar ma'suliyatsizlik, osloqsizlik, masitlik alomatida sodir bo'ladi, lekin shaxs har bir harakati uchun javobgardir, chunki u aql-zakovatli insondir. Affektlar o'tib bo'lgandan keyin shaxsning ruhida osoyishlik, charchash holati hukm suradi. Ba'zi hollarda holatlanish, barcha narsalarga loqayd munosabat, harakatsizlik, faollikning tusham topishi, hatto uyquga moyilik yuzaga keladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, affektiv qo'zg'atish muayyan davtgacha davom etishi, ba'zan o'qin-o'qin kuchlayishi yoki susayishi sodir bo'lib turishi mumkin.

Emosional holatlarning yana bir muxim turi mayjud — emosional stress.³² Stress tushunchasining mazmuni mohiyati borasida qator ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tomonidan stress—affektiv holatga yaqin turadigan,

³² Макринов А. Т. Общия психология. — СПб.: Питер, 2001. — 393 бет (mazmunidan foydalanildi)

lekin boshdan kechirilishining davomiyligiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ularni boshdan kechirilishining alohida shaklidir, deb ta'rif beriladi. Professor E.G'ozieyning umumiy psixologiya kitobida yozilishicha, stress-og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarining me'yordan oshib, keib xavfli vaziyatlar tug'ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'rqlashlar sifatida ko'rsatiladi.

Stress – inson organizmini haddan tashqari zo'rqlash natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir.

Stress ko'rinishiga qarab ikki turga ajratiladi:

1. **Konstruktiv** – biz turidagi (ko'pchilik orasida);
2. **Destruktiv** – men turidagi (yakka shaxs o'zi bilan) kechadigan jarayon.

Stress holatini oddiy tilda aytadigan bo'lsak, bu insonlarda kechadigan tushkunlik holatidir. Insonning aqliy jihatlarini va fiziologik tizimida stress holati bo'lmayligi mumkin emas. Bular ko'p hollarda mulohazalarda va boshqa ijtimoiy jarayonlarda yuz beradi. Stressni fiziologik va psixologik turlari mavjud. Fiziologik stress – bu o'z ta'jimoniy zo'rqlash, biror og'riq, qo'rquv, kasalliklar natijasida vujudga keladi.

Fiziologik stress organizm o'ta zo'rqlash, temperaturaning baland yoki past bo'lishi, nafas olishning qiyinlashishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ba'zida odam organizmida qattiq og'riq bo'lganda, og'riq nimadan kelib chiqqanligini tushunib yeta olmaslik oqibatida odamda qo'rquv, xavotirlanish paydo bo'ladi va stress holatiga olib keladi.

Psixologik stress-odamning ruhiy holatiga voqealarni ta'siri tufayli paydo bo'ladigan stress.

Psixologik stress informatsion stress va emosional stress turlariga ajraladi.

Informatsion stress axborotlarni haddan tashqari ko'p qabul qilish vazifalarni bajarishda bir qancha yechimlar bo'lsa-da, aniq ulardan qaysi birini tanlash yuqori darajadagi shiddat bilan qaror qabul qilishdagi iktilanishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Axborotlarni haddan tashqari ko'p qabul qilish oqibatida odam psixikasi zo'rqadi (charchaydi) va buyrak ush bezlaridan stressli garmonlar ko'p ishlab chiqara boshlaydi. Haddan tashqari zo'rqlash natijasida miyada tormozlanish yuz beradi va oqibatida tanglikka olib kelgan axborotgina miyada aks etaveradi. Miya boshqa axborotlarni tashqi ta'simi qabul qila olmay qoladi. Bu ba'zi hollarda salbiy yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Miya stressga olib kelgan axborot tormozlanib, saqlanib qolganda tanglik holatining yuqori nuqtasiga chiqqanda tanglik holatidan chiqib ketolmay o'z joniga qasd qilishgacha olib kelishi mumkin.

Emosional stress-ta'qiq qilish, falokat, hayotiy o'zgarishlar (oilaviy mojoralar, to'stadan ishdan bo'shatish yaqin kishisini yo'qotish, uzog muddatli sevgidan qutla olmaslik sababli, xavf ostida qolganda, atrofdagilar tomonidan noto'g'ri munosabat qilinganda va hokazolarda) ko'rinishi.

Olimlar o'lkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, falokat, hayotiy o'zgarishlar, kundalik tashvishlar ko'proq stresslar hisoblanadi.

Falokat – bu notinchilik, urush, yer qimirlash, suv toshqinlari, avtohalokatlar va hokazo. Bularning hammasi inson ruhiy holatiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Olimlar shuni ta'kidlashadiki, qattiq yer qimirlashi, suv toshqinlari, yong'in bo'lishi kabi falokatlarining inson ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi natijasida xavotirlanish darajasi yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Hayotiy o'zgarishlar – bu insonni hayotida yuz beradigan voqea va hodisalar. Masalan, yaqin kishining halok bo'lishi, kutilmaganda ish o'rinni yo'qotishi, ajralishlar va hokazo. Agarda inson bir qancha inqirozli vaziyatni boshdan o'tkaza, qattiq kasallanishi va hatto o'limga ham olib kelishi mumkin.

Kundalik tashvishlar – bu ish joylarida sodir bo'ladigan qiyinchiliklar, o'qish joylardagi o'quvchilarning o'quvchilarga, o'qituvchilarning o'qituvchilarga noto'g'ri munosabatlarda bo'lishlari, imtihonlarni muvaffaqiyatsiz yakunlanishi va hokazolarda namoyon bo'ladi. Kundalik tashvishlar mayda stresslarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin, mayda stresslar to'planib borib inson sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, qon bosimining oshishi, yurak faoliyatining buzilishi va boshqalarda kuzatilishi mumkin. Doimiy yuz berib turadigan kundalik tashvishlar, aqliy, jismoniy, emosional va ruhiy zo'rqlashga olib kelishi mumkin.


Stress ayrim odamlarda yengil kechadi, ayrim odamlarda jiddiyroq, qiyinroq o'tadi. Bunga asosiy sabab quyidagilar deb belgilanadi: uning hosil bo'lishi stressli vaziyatga qay darajada munosabatlarda bo'lishimizga va bu holatni baholashimizga va u bilan kurashishimizga bog'liqdir. Masalan, optimist odamlar stress holatini taqdirning bir sinovi deb qabul qilsa, pessimist odamlar uning hayotiga xavf-xatar tug'ildi, deb qabul qilgan ekanlar. Pessimistlarda xavotirlanish darajasi yuqori bo'ladi va ular vaqtida ovqatlanmasalar ham stress holatiga tushib qolaveradilar. Psixologlar Maykl Shayer va Martz Karver fikricha, optimist inson eng og'ir, qiyin vaziyatda ham yaxshi deb oldinga intiladi, o'z organizmida stress moslashib olishga yo'l qo'ymaydi.

Umuman olganda stress atamasi XX-asrning 40-yillariga kelib ommaviylashgan. Bunga sabab stress holatini to'g'ri tushunish va undan himoyalalanishni o'rganish, chunki stress turi salbiy munosabatlar natijasida vujudga kelishi mumkin.


Birinchii bo'lib stress bo'yicha 1932 yili fiziolog Uolter Kennon va 1936 yilda vrach Gans Sele chuqurroq tushuncha berishga harakat qilganlar. U Kennonning gomeostaz nazariyasi asosida 1933 yilda «Psixika va tan» asari yaratildi. Bu asarda barcha tashqi sharoit o'zgarishlariga optimal (to'la) moslasha oladigan bir yaxlit organizm haqida yozilgan. Organizmdagi turli o'zgarishlar, ya'ni ochlik, qo'rquv, jahdoriylik holatlarini ko'p yillar kuzatib o'rganish natijasida «gomeostoz» ya'ni organizmni ichki holatini davomiyligi nazariyasi yaratildi. Uning fikricha, gomeostoz va tashqi muhit ta'sirida asosiy

o'rinni markaziy va vegetativ nerv tizimi egallaydi. Markaziy nerv tizimi tashqi-muhit, bilan vegetativ nerv tizimi esa gemoostoz holatini saqlab turadi. Bundan organizmni «qochishi va kurashishi» uchun energiya ishlab chiqaruvchi simpatoadrenal tizimi muhim rol o'ynaydi. Quyida Jems Lange va Kenon-Bard nazariyasining mohiyati keltirilgan.

Jems Lange nazariyasi



Kenona-Bard nazariyasi



U Kennon yana shuni ta'kidlab o'tadiki, organizmni stressga qarshi kurashish yoki qochish vaqtida yurak unishi tezlashadi, qon aylanishi buziladi, ya'ni maqsadga intilish uchun tayyorgarlik ko'rishda organizmda qochish va kurashish kechadi. Bu reaksiyani u organizmni moslashish tizimi deb ataydi.

Kanadalik olim vrach G.Sele (1936-1976 yillar) o'zini 40 yillik ilmiy izlanishlari bilan U.Kennon nazariyalarga qo'shimchalar kiritib, stress psixologiya va tibbiyotda asosiy tushunchalarda biri ekanligini aytib o'tgan. G.Sele stress har doim ham zararli emas, ba'zan inson organizmiga yordam, ko'mak foyda berishi mumkin. Ayrim hollarda stressga tushib qoliganda odam yashash uchun kurashish o'z ehtiyojini qondirish uchun faollashib, o'zi bilmagan zahiradagi energiyasini ishga solishi mumkin degan. U tirik organizmning noqulay tashqi sharoitlariga moslashuvchanlik muammosini o'rganib chiqqan.

G.Seleni fikricha, shu sabablar muhim va nomuhim stressni keltirib chiqaradi. Bu vaziyatlar bir-biriga bog'liqdir. Bunda 3 bosqich ajratiladi.

- xavotirlik bosqichi;

- moslashish bosqichi;

- o'ta charchash bosqichi.

Xavotirlik bosqichida taloqning kuchayishi, yog' gavayining yo'qolishi, oshqozonda o'tkir yallig'lanishning so'dir bo'lishi, buyrak tepasida likotsidlarining kamayishi kuzatiladi. Shu bilan birga teri jarohatini pasayishi, ko'z yoshlanishi, so'lakning ajralishi kuzatiladi. Agarda ta'sir kuchli bo'lsa, bu bosqichda xavotirlik holati boshlanadi.

Moslashish bosqichida buyrak ushi bezlari kattalashadi, organlar va to'qimalarning ishlashi sekinlashadi. Agar stressni keltirib chiqaruvchi omil organizmga kuchli ta'sir etsa etmasa shu holat uzoq vaqt saqlanib qoladi. Agar ta'sir kuchli bo'lsa, uchinchi bosqich boshlanadi.

O'ta charchash bosqichi – organizmda kuzatilyotgan yutuqlarga ko'ra bosqich xavotirli bosqichga yaqin. Bunda odamda organizm kasallanadi.

Chet el mualliflari asosan ijtimoiy, psixik va fiziologik stress shakllarini ajratadilar. Ularning fikricha, ijtimoiy stress asosida shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy yashash sharoiti yotadi. Ijtimoiy ziddiyatlar doimiy o'ziga ishonmaslik va keskinlikni yuzaga keltiradi.

Yuksak hislar

Hissiy jarayonlarning har xil shakllari normal odamda alohida, yakka holda mavjud bo'lmaydi. Yuzlab va minglab kechirilayotgan emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlarda aniq yashaydigan umumlashirilgan hislar **yuksak hislar** deyiladi. Yuksak hislar o'z tarkibiga birinchi soddaroq ko'rinishdagi turti hislarni oladi.

Inson faoliyatining qaysi bir turi, yoki qaysi bir sohasi, hislarni qaysi buning asosiy ekanligiga qarab, yuksak hisslarning muhim turlari: praksik, ekologik, intellektual, estetik turlari ajratiladi.

Praksik hislar. Inson amaliy hayotining istalgan sohasi maqsadga muvofiq aqliy faoliyatiga, shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatta bo'lish sohasiga aylanib qoladi. Bu birinchi navbatda biror maqsadni anglabgina qolmay, uni e'tirof etadigan yoki inkor qiladigan maqsadlarga erishish yo'llarini baholaydigan ta'sir qilish usullari va ko'lanlarini ma'qullaydigan va ma'qullamaydigan, ularni to'g'ri tanlanganligiga shubhalanadigan, nihoyat muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradigan mehnat faoliyatida kuzatiladi. Mehnat inson hayotining asosi bo'lib, insonning mehnatga bo'lgan hissiy munosabati yuksak hislar orasida muhim o'rinni egallaydi.

Mehnat faoliyatida shaxs:

1. Biror maqsadni angleydi.
2. Uni e'tirof qiladi yoki inkor etadi.
3. Maqsadga erishish yollarini baholaydi.
4. Uni tadbiq etish usullari va qurol vositalarini ma'qullaydi yoki ma'qullamaydi.
5. Ularning tanlanganligiga shubhalanadi.

6. Inson muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradi va hokazo.

Ahloqiy hislar odamning boshqa kishilarga, jamoa va o'zining ijtimoiy burchlariga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. Inson bu hislarni kechirar ekan, ma'lum ahloqqa, ya'ni ijtimoiy ahloq-qoidalar va normalari majmuiga asoslanib, boshqa kishilarning xatti-harakatlariga yoki ruhiy hususiyatlariga hamda o'zining xatti-harakatlariga baho beradi.

Shaxsning yetakchi ahloqiy hislardan biri bu burch hissidir. Bu his odamni yashab va ishlab turgan tor doiradagi jamoa (oil, maktab, ishlab chiqarish, korxona) manfaatlari nuqtai nazaridan turib, harakat qilish lozimligini anglaganda ham kechiriladi. Odam o'zining ijtimoiy burchlari nimalardan iborat ekanligini bilib va tushunibgina qolmay, balki ularni bajarish zarurligini ichidan his qilib qayg'uradi. Kishilar hayoti va faoliyatida o'zaro yordamlashish, hamjihatlik, intilish va manfaatlar birligiga asoslangan o'troqlik munosabatlari yuzaga keladi.

Ma'lumki, vijdon azobi kishining qalbida chuqur ichki kurash hissini tug'diradi. O'z xatti-harakatida ahloq tamoyillariga amal qilmagan, uyati ham vijdoni bo'lmagan kishilarni «vijdonsiz» odamlar deyiladi. Kishi yomon bir ish qilib qo'ygani bu kishining o'ziga munosib emasiligini, anglashi bir tomondan vijdonini qiyinaydi, vijdon azobiga soladi, ikkinchi tomondan ahloq talablari bilan xilof ish qilish bilan boshqalardan malomatga qolishni, ularni o'miga nisbatan sababiy xislat paydo qilishni ham tushunadi. Masalan, mazkur jarayonga quyidagi misolni keltirib o'tish joiz. AQSh prezidenti R. Trumen 1945 yili 6 avgustda Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasini tashlashga buyruq bergan edi. Amerikaning birinchi darajali uchuvchisi Mayor Klod Izerli Xirosimaga atom bombasini tashlab 300 000 kishini yostig'ini quritishda ishtirok etdi. Atom bombasi zarbidan o'tgan yosh bolalarni qariyalarni, xotin-qizlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan Izerli vatanga qaytganda «Xirosima qahramoni»ni sifatida uni tantana bilan kutib olishadi.

Izerlini vijdon azobi kundan kunga battarroq qiyinay boshladi. U vijdonini tinchitmoq uchun nafaqadan, hamma mukofatlardan voz kechdi, o'ziga berilgan ordenlarni qaytarib bermoqchi bo'ldi. Pul to'plab Xirosimaga yordam yubordi. Ammo vijdon azobi hamon uni ezardi, ta'qib qilardi, kechalari uxlolmagan o'zini o'zi o'ldirishga urinib ko'ardi. Ammo natija chiqmadi, zora qammasalar, deb jinoyat qildi. Nihoyat Klod Izerli aqldan ozibdi, deb uni jinnixonaga yotqizdilar.

Estetik hislar ham yuksak ahloqiy hislardan hisoblanadi. **Estetik his** deganda biz go'zallikni idrok qilish, go'zallikdan zavqlanish va go'zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo'lgan hissiyotdir. Atrofdagi tabiat manzaralari estetik hissiyotlarimizning birinchi manbai hisoblanadi. Masalan, bahor faslidagi tog' manzaralari yaylovlarda go'y va go'z choqqlarning o'tlab yunshlari, baland qori qoyalarni uzloqlardan mag'rur tunshlari odamda estetik lazzatlanish hissini tug'diradi yoki xuddi dengizdek

ko'z ilg'amaydigan ko'm-k'o'k paxtazorlar uzloqlarda chiroyli bo'lib ko'rinish turgan dala tepaliklari odamda qandaydir ko'tarinki ruh tug'diradi.

Odamlar hayotning turli faktlarga va ularning san'atini aks ettirishiga qandaydir go'zallik yoki xunuklik fojiali yoki kulguvi, oliyanoblik va razillik, nozik yoki dag'al hodisalar sifatida munosabada bo'ladi. Bu hislar tegishli baholarda estetik didlarda namoyon bo'ladi va o'ziga xos badiiy lazzatlanish holatida kechiriladi.

Estetik hissiyotlarning manbalari juda ko'p va xilma-xildir. Masalan, tabiat manzaralaridan lazzatlanishdan tashqari tasviriy san'at asarlari, badiiy-adabiy asarlar, musiqa va xaykaltaroshlik, arxitektura va me'morchilik ishlari ham odamda estetik hisni tug'diradi. Bundan tashqari odamlarning o'zaro birlari bilan bo'lgan munosabat va muomalalari ham estetik hissiyotlarning manbalari bo'la oladi. Odamning kiyinishi, uyining tutishi, qanday jilhozlantirish, boshqalar bilan muomalasi ham estetik hislarimizning manbai bo'la oladi. Masalan, dag'al gaplashadigan kishidan odam nafratlanadi, aksincha muomalali, gapni o'rindi va madaniyatli qilib gapiradigan kishidan odam zavqlanadi. Shunday odamlarga taqlid qilgisi keldi. Umuman odamning estetik hissiyotlari ko'p manbalarga ega bo'lgan murakkab hissiyotlardandir.

Intellektual hissiyotlar ham o'z mohiyati jihatidan ahloqiy hissiyotlarga yaqin bo'lgan hissiyotlardir. **Intellektual hissiyotlar** odamning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar bo'lib, biror narsadan hayron qolish, hayrarda qolish, shubhalanish kabi holatlarda ifodalanadi. Intellektual hissiyotlarga dastavval ajablanishni kiritish mumkin. Ajablanish inson bilish faoliyatining ajralmas tomonidir. Ajablangan va qandaydir tushunib bo'lmaydigan, hayrarda qoldiradigan emotsiyalarga berilib qolgan odam o'zining bilish ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Haqiqatni izlash shubhalanish hissi bilan bir vaqtda amalga oshirish mumkin. Bu his odam faol bilish faoliyati orqali hosil qilgan g'oya hamda e'tiqodlarni hayotga tadbiiq qilish uchun bo'lgan kurashning qiyin dalaqlarida unga madad bo'ladi.

Tiyanch tushunchalar: xissiyot, emotsiya, xissiyotning nerv-fiziologik asoslari, impressiv, dinamik stereotip, ambivalentlik, insonlar va xayvonlardagi emotsiyalar, xissiyotlarning ifodalanishi, xisllarni kechirish shakllari, xissiyot, kayfiyat, affekt, stress, yuksak xislar.

Mavzuuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xissiyot va emotsiyaga ta'rif bering
2. Xissiyot va emotsiya nazariyalari
3. Xissiyotning nerv-fiziologik asoslari
4. Insonlardagi va xayvonlardagi emotsiyalar
5. Xissiyotlarning ifodalanishi va ularning kechishi

IRODA

Iroda haqida tushuncha

Ma'lumki, insonning ehtiyojlari ijtimoiy tuzum shakllari taraqqiyotiga qarab o'zgaradi. Shu bois o'z ehtiyojlarini qondirish uchun inson harakat qiladi. Shaxs o'z harakatlari yordami bilan muhtaga moslashadi va undan o'z ehtiyojlarini uchun foydalanadi. Lekin shu bilan birga odam muhtini o'z ehtiyojlariga muvofiqlashtirib o'zgartiradi, qayta quradi va o'ziga moslashtiradi.

Iroda deb inson ongli ravishda o'zini ongi va faoliyatini boshqara olishida, ma'lum bir angliyan xati xarakatlarni bajarishda ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengib o'tishga aytiladi. Irodani eng asosiy funksiyalaridan biri bu, qiyin xavotir vaziyatlarda ongli rafishda aktivlikni boshqara olishida xisoblanib, uning asosida nerv tizimi qo'zg'atuvchi va tormozlantiruvchi kuchlarni xanjiy xati jarayonlari xisoblanadi.³³

Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati shundan iboratki, o'z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlari instinktiv harakatlardir, emas, balki asosan oqlona, ongli harakatlardir. Bu ongli shundan iboratki, odam oldindan biron-bir maqsadni ko'zlab harakat qiladi, shu maqsadga yetishish uchun yordam bera oladigan vositali yo'l va usullarni oldindan qidirib topadi, to'sqinlik va qiyinchiliklarni yengish uchun ongli ravishda kuch-g'ayratini ishlata oladi.

Odam faqat o'ziga xos madaniy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda-gina emas, balki, tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishda ham ongli va oqlona ravishda ish tutadi.

Odam tevarak – atrofdagi narsalarni o'zgartirib o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqeelikka qo'shadi, voqeelikni o'zgartiradi va to'ldiradi. Umuman odam har doim harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha harakatlari ikki turkumga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi ixtiyorsiz harakatlar bo'lsa, ikkinchisi ixtiyoriy harakatlardir.

Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ko'pincha impul'siv tarzda, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. Masalan, yo'talish, aks urish, ko'z qovog'ini ochib yumilishi va shu kabilar. Bu harakatlarni odam oldindan o'ylab rejalashtirmaydi. Ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda yuz berishi mumkin. Ixtiyorsiz harakatlar ba'zan, odamning aqliy faoliyatlarini bilan ham bog'liq bo'ladi. Chunonchi, ixtiyorsiz idrok, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz esga tushirish holatlari ham bo'ladi. Bunday holatlarda odamning ixtiyorsiz harakatlari idrok qilina yotgan narsaning boshqa narsalardan keskin farq qilishi yoki odamning qiziqishlari, ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Irodaning ko'pgina zamonaviy konsepsiyalari uni harakatlarning avtomatlashadigan ongli boshqaruv jarayoni deb ko'rsatadi (Hechhausen va Kuhl, Gollwitzer, Boekaerts va Corno). Gari Kil Xofnening "Odam mashg'ulot model" bo'yicha iroda odam xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi 3ta tuzilmaning biri hisoblanadi. Ushbu model bo'yicha, iroda shaxsning qadriyatlarini, qiziqishlari va shaxsiy samaradorligi bilan bog'liq.³⁴

Ixtiyoriy harakatlar iroda bilan bog'liq bo'lgan harakatlardir. Ixtiyoriy harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir. Lekin ixtiyoriy harakat deganda, faqat jismoniy harakatlar emas, balki, aqliy harakatlar ham tushuniladi. Shunday qilib, iroda tushunchasiga nisbatan adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V. Petrovskiy darsligida iroda – bu kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyat va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir, deb ta'riflanadi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda ta'riflanishicha, iroda – shaxsning ongli harakatlarda, o'z-o'zini bilishida ifodalangan, ayniqsa maqsadga erishish yo'lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy faolligidir. M.Vohidov fikricha, iroda deganda biz oldindan belgilagan, qat'iy bir maqsad asosida amalga oshiriladigan va ayrim qiyinchiliklarni, to'sqinlikni yengish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni tushunamiz. Professor E.G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida iroda bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishdir, deb keltiriladi. Umuman olganda iroda shaxs faolligining ko'rinishi hisoblanadi. Shu bois uning yuzaga kelishi bir qator harakatlarni amalga oshirishi bilan izohlanadi.

Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo'ladi. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib bo'lsa ham maqsadini amalga oshirishga intila boradi. Masalan, odam biror imorat solayotgan paytda oxirgi natija qanday bo'lib chiqishini juda yaxshi tasavvur etadi va shuning uchun qanday qiyinchiliklar bo'lsa ham yengib ishini davom ettira beradi. Yoki talaba universitetning birinchi kursiga kirganda qanday mutaxassis bo'lib chiqishini yaxshi biladi va shuning uchun barcha qiyinchiliklarga chidab o'tishni davom ettira beradi.

Umumiy irodaviy faoliyatni yoki alohida akni amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekantligini anglashdan iboratdir.

Barchaga ma'lumki, irodaning mustaqil muammosi shaxs muammosining tashkiloti bilan paydo bo'lgan. Bu Uyg'onish davrida sodir bo'lgan. O'sha onduyog bir fikr paydo bo'lgan: inson qachonki butun jamiyardan ajralib,

³³ Macraeov A. T. Oqlona psixologiya. — CIT6: Tartep, 2001. — 373 bet (mazmunidan foydalanildi)

³⁴ Kiehlhofer, Gary (2008). Model of Human Occupation: Theory and application (4th ed.). Baltimore: Lippincott Williams & Wilkins. ISBN 0-7817-6996-5. (mazmunidan foydalanildi)

me'yorlardan chetlansagina shaxs bo'la oladi. Bunda shaxsning asosiy qadriyatlardan biri iroda erkinligi hisoblanadi.

Tarixiy faktlar jihatidan, shuni aytib o'tish joyizki, iroda erkinligi muammosi tasodifan paydo bo'lmagan. Birinchi xristian diniyadigilar inson o'z iroda erkinligiga ega bo'lishi kerak, deb hisoblashgan, chunki u o'z vijdoniga muvofiq yo'l tutishi, qaysi me'yorlarga rioya qilishi va qanday yashashi to'g'risida qaror qilishi kerak deyishgan. Uyg'oni sh davridayoq iroda erkinligi mutloq umvoniga kiritila boshlandi.

Keyinchalik, erkinlik multoqiyoti dunyoqarashning yaratilishiga — *ekzistensializmga* — “*mayjudlik falsafasi*” ga olib keldi. Ekzistensializm (M.Xaydegger, K.Yaspers, J.P.Sart, A.Kamyu va boshqalar) erkinlikni xuddi hech qanday tashqi ijtimoiy holatlarga asoslanmagan mutloq erkin iroda sifatida ko'radi. Bu tushunchaning boshlang'ich nuqtasi — jamoat a'loqalari va munosabatlardan, ijtimoiy-madaniy muhitdan tashqarida olingan mavhum odam. Berilgan yo'nalish vakillarining fikrlari bo'yicha, inson hech qanaqasiga jamiyat bilan va ahloqiy majburiyat yoki javobgarlik lar bilan ham umuman bog'liq emas. Inson erkin va u hech narsaga javob bermaydi. Har qanday tartib uning uchun o'z erkin irodasini toptash degani. J.P.Sarttga ko'ra, haqiqiy odam har qanday “ijtimoiylik” ga o'zi hohlamagan tarzda qarshi chiqib, hech qanday partya, tashkilot va dasturlarga a'loqador bo'lmaydi kerak.

Irodaviy harakatlar bosqichlari

Maqsad va unga erishishga intilish	↓
Maqsadga erishish imkoniyatlarini topish	↓
Motivlarni paydo bo'lishi va imkoniyatlarni mustahkamlash	↓
Motivlar kurashi va tanlash	↓
Biror fikrni qabul qilish	↓
Qabul qilingan qarorni amalga oshirish	↓

Birinchi tabiiy fanli iroda talqini, uni “erkinlik instinkti”, tirik organizmning faollik ko'rsatishi sifatida ko'rib chiqqan olim I.P.Pavlovga

tegishli. Uning fikricha, iroda “erkinlik instinkti” sifatida ochlik va xavfli instinktdan kam bo'lmagan miqdorda ishtirok etadi.³³

Odamning irodaviy harakati to'la-to'kis determinizmga, ya'ni sababiy bog'lanish qonuniga bo'ysonadi. Shu bilan birga irodaviy faoliyatning bevosita sabablari sharoitida irodaviy harakatlarni belgilab beradigan turli-tuman hayotiy sharoitlar bo'lishi mumkin.

Odamning irodaviy faoliyati ob'ektiv jihatdan bog'langandir. Irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog'liq ravishda irodaviy xarakatlar odam to'la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi. Irodaviy faoliyat tufayli shaxs ko'p jihatdan o'zini ma'lum sharoitda anglatadi, o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashi mumkin.

Irodaning eng muhim xususiyati unda faoliyatni amalga oshirishning puxta o'ylab chiqilgan rejaning mavjudligidir. Avvaldan rejalashtirilgan xatti-harakatlarni **irodaviy harakat** deb bo'lmaydi. Shu bilan birga iroda avvaldan mavjud bo'lmagan, lekin faoliyatni natijasiga erishishdan so'ng hosil bo'lishi mumkin bo'lgan qonishga butun e'tiborini qaratishdan iboratdir.

Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini yengish handir. Bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy, qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi.

Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Inson kuchli irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Aytib o'tish joyizki, to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan har bir harakat irodali bo'lmaydi. Masalan, kuchukdan qochayotgan odam eng qiyin to'siqlarni yengib, hatto baland daraxtga ham chiga olishi mumkin, ammo bu harakatlar irodali deb hisoblanmaydi, chunki ular, eng avvalo, insonning ichki qurilmalari tomonidan emas, balki tashqi omillar tomonidan chaqirilgan. Shunday qilib, to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan ixtiyoriy harakatlarning muhim xususiyati - qo'yilgan maqsadning ma'nosini va unga erishish zarurligini anglashdir. Inson uchun maqsad qanchalik muhim bo'lsa, u shuncha ko'p to'siqlarni yengib o'tadi. Shuning uchun, ixtiyoriy harakatlar natijada ularning qiyinchilik darajasi, balki *anglash* darajasi bo'yicha ham farqlanishi mumkin.

Odatda biz u yoki bu harakatlarni nima sababdan sodir etayotganimizni ko'proq yoki kamroq to'liq anglaymiz, o'zimiz itilayotgan maqsadlarni bilamiz. Shunday holatlar borki, inson nima qilayotganini anlay turib, bu ishini nima sababdan qilayotganini tushuntira olmaydi. Ko'pincha bunday holatlar inson qandaydir kuchli tuyg'ular qurshovida bo'lganda, emosional uyg'oni shini his qilganda paydo bo'ladi. Bunday xatti-harakatlar *ta'sirchan* deb ataladi. Bunday

³³ Макаров А. Г. Обитая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 377 бет (mazmunidan foydalanildi)

xatti-harakatlarning anglash darajasi ancha pasaygan. Inson ko'pincha o'ylamay ish qilib, so'ng pushaymon chekadi. Lekin iroda ham shundan iboratki, inson o'zini hissiy holatlarda o'ylamay qilinadigan ishlardan tiyishi lozim. Shu sababli, iroda fikriy faoliyat va tuyg'ular bilan bog'liq.

Iroda insondagi, muayyan bir bilim jarayonlarini talab qiluvchi, maqsadga erishuvchilikning mavjudligi demakdir. Fikrni yoritib berish maqsadlarini ongli ravishda tanlash va unga erishish uchun qo'llaniladigan vositalarni tanlash orqali ifodalanaadi. Fikrlash o'ylab qo'yilgan harakatlarning bajarilishida ham zarurdir. O'ylab qo'yilgan ishlarni amalga oshirayotganimizda, ko'p qiyinchiliklarga duch kelamiz. Misol uchun, harakatning bajarilish shartlari o'zgarib qolishi yoki maqsadga erishish vositalarini o'zgartirish ehtiyoji tug'ilishi mumkin. Shuning uchun qo'yilgan maqsadga erishish uchun, inson doim harakatning, shartlarning va uni bajarish vositalarining maqsadlarini bajarishi va o'z vaqtida kerakli o'zgarishlar kiritishi kerak. Fikrlashning ishtirokisiz irodali harakatlar anlash jarayonidan maxrum bo'lishar edi, ya'ni irodali bo'lishdan to'xtashardi.

Iroda va tuyg'ularning a'loqasi - biz o'zimizga muayyan bir tuyg'ularni chaqiruvchi hodisalar va predmetlarga e'tibor qaratishimizda ifodalanaadi. Nimagadir erishish hohishi, huddi biror bir yoqimsizlikdan qochish kabi bizning tuyg'ularimiz bilan bog'liqdir. Biz uchun befarq bo'lgan, hech qanday his-hayajon chaqirmaydigan narsalar, harakat maqsadi sifatida ishtirok etay olmaydi. Ammo tuyg'ular irodali harakatning ma'basi deb noto'g'ri ta'rif berishadi. Ko'pincha biz tuyg'ular maqsad sari intilishga to'siq bo'layotgan vaziyatlarga duch kelamiz. Shuning uchun ham, his-hayajonlarning negativ ta'siriga qarshi kurashish uchun biz irodali harakatlarni ishga solishimizga to'g'ri keladi. Ongli ravishda harakat qilish qobiliyatini saqlab qolishda his-tuyg'ulari bostidan kechirish qobiliyati yo'qolishining patologik hodisalari tuyg'ular bizning harakatlarmizning yagona manbasi emasligiga himmat qiluvchi ishonarli dalildir. Shunday qilib, irodali hatti-harakatlarning manbalari xilma-xil bo'ladi. Ularni ko'rib chiqishdan avval, biz irodaning asosiy va tanqili teorialari va ular insondagi irodali harakatlarning paydo bo'lish omillarini qanday yoritib berishi bilan tanishib chiqishimiz zarur.³⁶

Irodaning nerv fiziologik asoslari

Kornilov Konstantin Nikolaevich (1879-1957) - buyuk ruhshunos. Ilmiy faoliyatini G.I. Chelpanovning xodimi sifatida boshlagan. Bir necha yil Chelpanovning Institutida ham ishlagan. 1921-yilda "Inson reaksiyalari haqida ta'minot" nomli kitobini yozgan. 1923-1924 yillarda materialistik psixologiyaning yaratilishi bilan faol shug'ullangan. Uning qarashlaridagi markaziy joyini ruhning yuqori uyushgan materiyaning alchida xususiyatidek degan fikr egallagan edi. Bu ish, Bexterevning refleksologiyasi bilan introspektiv psixologiyani taqqoslashga qaratilgan, reaktologiya

konsepsiyasining yaratilishi bilan tamomlandi. Bu konsepsiyaning asosiy maqsadi, refleksga o'shaydigan va shu bilan bir qatorda undan "ruh" tarafdagi mavjudligi bilan ajralib turadigan hayotning asosiy elementi, "reaksiya" ning o'ziga xos bo'lgan. 1931-yilda Kornilov "reaktologik mulqot" ning tuzatilishi natijasida o'z qarashlarini rad etdi. Keyinchalik iroda va fe'lining muammolari ustida izlana boshladi. Moskva Ruhshunoslik Institutini boshqargan.

Shunday qilib, I.P. Pavlovning talqindagi iroda o'z tabiatiga ko'ra reflektor hisoblanadi, ya'ni u bajaruvchi omilga nisbatan javobiy reaksiya ko'rinishida paydo bo'ladi. Shuning uchun ham, berilgan talqin bekorga bixeviorizm vakillarining orasida keng tarqalmagan va (K.N. Kornilov) reaktologiyasi va (V.M. Bexterev) refleksologiyasida katta qo'llab-quvvatlanish olgan. Xulosa shundan iboratki, insonning irodasi tashqi shartlarga bog'liq, ya'ni irodaviy hatti-harakat insonga bog'liq emas.

Oxirgi o'n yilliklarda boshqa konsepsiya ham kuch yeg'ib, o'z tarafdorlar sonini oshirib bormoqda. Unga ko'ra, insonning hulqi avvaldan faol deb qabul qilinsa, insonning o'zi hulqning shaklini ongli tanloviga xos qobiliyatga ega deb ko'rilmogda.

Irodaviy ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv - fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharhni po'stlog'ining sharti reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to'la ongli harakatlar bo'lgani uchun bosh miya po'stlog'ida yuzaga keladigan optimal qo'zg'alish manbalari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu haqda akademik I.P. Pavlov shunday deb yozgan edi: "Mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog'da xuddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada optimal (har holda o'racha bo'lsa kerak) qo'zg'alishga ega bo'lgan bosh miya katta yarim sharhlarining ayrim joylardagi nerv faoliyatidan iborat".

Bundan tashqari irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liqdir. Ma'lumki, odam ayrim nojo'ya harakatlardan o'zini so'zlar orqali (ya'ni o'ziga-o'zi pand-nasihatlar qilish yoki tarbiya berish orqali) ushlab qoladi. Shuning uchun irodaviy, ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda ikkinchi signallar tizimining roli juda kattadir. Ana shu sababdan bo'lsa kerak akademik I.P. Pavlov ikkinchi signallar tizimiga hujbo berib, bu signallar tizimi insonlar hujq-avori va ixtiyoriy harakatlarning yuksak boshqaruvchisidir - degan edi. Shuni ham aytish kerakki, iroda ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslangan holda ishlaydi. Agar ikkinchi signallar tizimi o'z faoliyatida birinchi signallar tizimiga asoslanmasa, odamning aks ettirish jarayoni ma'lum bir tizimni, ma'noli bo'lmaydi. Ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslanishi bilan birga uning faoliyatini boshqarib, nazorat qilib turadi. Demak, irodaviy, ixtiyoriy harakatlarda ikkinchi signallar tizimi bilan birga birinchi signallar tizimi ham ishtirok etadi.

³⁶ Макаревич А. Г. Общедоступная психология. — СПб.: Ланте, 2001. — 375 бет (mazmunidan foydalanilgan)

Irodaviy ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda nerv tizimining umumiy normal holati ham juda katta ahamiyatga egadir. Masalan, uzoq davom etadigan qattiq kasallikdan so'ng nerv tizimi nihoyatda madorsizlanib, odamning irodasi bo'shashib ketadi. Odam biror ishdan qattiq charchagan paytida ham nerv tizimi zaiflashib, irodasi bo'shashib ketadi. Ana shuning uchun irodaning mustakamligini ta'minlash maqsadida odam vaqt – vaqt bilan dam olib turishi kerak.


Irodaviy akt va uning tuzilishi

Ixtiyoriy harakating dastlabki boshlang'ich nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va shu maqsadning o'rta qo'yilishidir va uning tuzilishini quyidagicha izohlash mumkin.

Maqsad-kishining shu paytda ma'qul yoki zarur deb topgan ish harakatini tasavvur etish demakdir. Masalan, inson pedagogika universitetiga kirib o'qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan borb kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o'z-o'zidan zo'hir bo'layotganiga o'xshaydi, ba'zan esa bu maqsad bir qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi.

Maqsadni tasavvur qilish odatda shu maqsadga erishish istagini va zarur ishini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, u quyidagicha ifodalaniishi mumkin.

Xatti-harakatdan kutilgan maqsad turlicha ravshanlikda tasavvur etilishi mumkin. Maqsad qancha ravshan bo'lsa, unga yetishish yo'lidagi intilish ham shuncha muayyan bo'ladi.



Maqsad ko'zlash kishining avvalo shaxsiy (biologik va madaniy ruhiy) ehtiyojlariga bog'liq. Ko'pincha kishining maqsad ko'zlashi va biron-bir narsaga intilishi tevarak-atrofdagi tabiiy vaziyatga, yoki xuddi shu paytda kishi yashayotgan jamiyatga bog'liq bo'ladi. Masalan, kishi qiyin ahvolda tushib qolsa, shu ahvoldan bir amallab qutulishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Kishi shu vaziyatni ma'lum darajada o'zgartirish, bir nimaga baham berish, bir nima qilish, bir nima ko'rish va shu kabi maqsadni o'z oldiga qo'yadi. Kishi jamoat tartibini birov buzayotganligiga bevosita guvoh bo'lishi va tartib buzuvchilarga qarshi kurash uchun shu onda qandaydir choralar ko'rishni maqsad qilib qo'yishi mumkin.

Kishida kelib chiqadigan ehtiyojlar darrov yaqqol tasavvur qilinadigan maqsad tarzida hosil bo'la qolmaydi. Ko'ngildan kechayotgan ehtiyoj va intilishlar turli darajada anglanishi va turlicha tasavvur qilinishi mumkin. Masalan, kelib chiqadigan ehtiyoj va intilishlar ba'zan istak tarzida ko'ngildan kechadi-kishi hozirgi ahvoldan noroziligini his qilib turadi-yu, lekin qanday maqsadga yetishilayotganini, binobarin, shu maqsadga erishishga doir yo'l-yo'riqlarni aniq bilmaydi. Istak shunday holatki, bunda odam o'ziga allanima kerakligini his qilib turadi-yu, bu narsani nima ekanligini aniqlab olo olmaydi, ya'ni uni tasavvur qilmaydi, fahmiga yetmaydi. Bunday odamning o'zi ba'zan "menga bir narsa kerak, bir narsa yetishmayapti, ammo bu narsaning nima ekanligini o'zim ham bilmayman" degan gapni ko'ngildan o'tkazadi. Boshqa kishilar to'g'risida ham: "nima istayotganini o'zi bilmaydi" deyimiz.³⁷

Istak paytida kishi qanday maqsadga intilayotganini bu maqsadga erishishning yo'l-yo'riqlarini anglab yetmas ekan, demak, istakni bevosita amalga oshirish ham mumkin emas.

Ehtiyoj ko'ngildan kechib, mudom kuchaygan shu ehtiyojni qondirishga intilish maqsadi ham angalanla boshlaydi. Bunday angalanlgan ehtiyojlar **tilak-havaslilar** deb ataladi. Ammo odam o'z intilishlarining maqsadini tasavvur qilganda ham shu maqsadga yetishish yo'llari va vositalarini hali tasavvur qila olmastligi mumkin. Bunday to'la angalanilmagan intilishlar (tilak, havas) ba'zan zo'r xayol surish bilan, ba'zan esa cheksiz orzu bilan bog'liq bo'ladi. Ba'zan (savolparasti insonlarda) bunday tilak havaslilar ko'ngildan kechirish orqali orzu (ilmtaziyat) doirasida qolib ketaveradi. Xilma-xil tilak havaslilar to'lib-toshgan kishilar ham mavjud. Bu kishilar doimo xo'rsinadilar, armon qiladilar, o'zlarini ham tevarak-atrofdagi kishilarni ham tanqid qiladilar. Bu kishilar ko'pincha yaxshi orzular qilishadi-yu, amalda kam faoliyat ko'rsatishadi yoki butunlay faoliyat ko'rsatishmaydi.

Harakat yo'llari, usullari topilib odam ularni tasavvur qilayotgan ekan, demak ehtiyojni qondirishga intilish tamomila angalanadi, odamning tilak-havasi esa bir narsa bo'lib qoladi. Bunday intilish holati ba'zan ho'xsh deb ataladi. Kishi biror ishni qilmogchiman, falon ishni bajarmogchiman, o'qishga

³⁷ Makimkon A. T. Oqimta mexanizmlari. — CITG.: Turep, 2001. — 385 bet (mazmunidan foydalanildi)

kimogchiman va hokazo deb gapirar ekan buning ma'nosi shuki, mazkur kishi o'z intilishlarining maqsadini va shu maqsadga yetish vositalarini anglash, tasavvur qilish va bilish bilangina cheklanib qolmay, maqsadga yetish mumkinligini, ma'lum bir yo'lidan ish ko'rishga tayyorligini va qilmadigan harakatlarning oqibatini kam anglaydi.

Shunday kishilar borki, ular muayyan tilak-havaslari tarzida tamomila anglanilgan intilishlar doimo katta o'rin tutadi. Bunday kishilar o'zlariga nimalar kerakligini, nimani hojlayotganliklarini, nima ish qilmogchiliklarini va uni qanday bajarish kerakligini hamisha biladilar. Bunday kishilar o'z oldilariga hamisha aniq maqsad qo'yadilar va shu maqsadga yarascha ish ko'radilar. Bunday kishilarni ma'lum maqsadni ko'zlaydigan kishilar deyiladi. Ma'lum maqsadni ko'zlash kishining ijobiy sifatidir. Bu sifatini taraqqiy ettirish, irodani tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashning vazifalaridan biridir.

Har bir kishining anglab, bilib, ko'ngildan kechiradigan ehtiyojlarini ko'p, uning vazifalari va intilishlari ham kam emas. Shuning uchun kishida xilma-xil maqsadlarda doimo zo'hir bo'lib turadi va bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish istagi tug'iliadi. Har bir kishida amaliy va nazariy vazifalar vujudga kelib turadi va ana shu vazifalarni hal etish kerak bo'ladi. Barovar amalga oshirib bo'lmaydigan bir necha maqsad kelib chiqqanda, qanday bo'lmasin faqat bittasini tanlab olib boshqa maqsadlarni qo'yib turishga to'g'ri keladi. Qaysi maqsadni oldinroq, boshqasini esa keyinroq amalga oshirish masalasini hal qilishga to'g'ri keladi. Ba'zi maqsadlarni esa qo'yib turishga to'g'ri keladi.

Ba'zan shunday ham bo'ladi, kishi oldida bir-biriga zid keladigan bir necha maqsad ko'ndalang turadi va shu maqsadlardan birini tanlab olish shart bo'ladi. Masalan, yigit yoki qiz maktabni tugatib, oliy o'quv yurtiga kirib o'qisam, degan masalani hal etayotganda turi maqsadlar va ularga yetish yo'llari degan maqsadlar o'rtasida ichki qarama-qarshilik, ichki "kurash" ro'y berishi mumkin.

Maqsad qo'yish bilan bir vaqtda yoki undan keyin shu maqsadga qaysi yo'l, usul va vositalar bilan yengish masalasi kelib chiqadi.

Kundalik turmushimizda yoki faoliyatimizda maqsad qo'yish bilan birga uni amalga oshirish usullari darov anglanadi. Shuning uchun bu yerda maqsad qo'yish bilan to'g'ri harakat boshlanib ketishi mumkin. Masalan, kishi qo'lga qalam olishni hojlasa, uni bemalol olishi mumkin, uxlagisi kelasa yotadi va hokazo. Oddiy ixtiyoriy harakatlar shu bilan ta'riflanadi. Ammo yangi maqsadlarni qo'yishda o'sha maqsad usullarini qidirib topish, tasavvur qilish va o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Bu yerda maqsad bitta bo'lgani holda unga bir necha yo'l va usul bilan yetishish mumkin. Qanday bo'lmasin eng yaxshi yo'l va usulni tanlab olishga to'g'ri keladi. Ayrim ixtiyoriy harakatlarning murakkabligi shular jumlasidan kelib chiqadi.

Bir necha maqsad ko'ngilga kelib, shulardan biriga turli yo'l va usullar bilan erishish mumkin bo'lsa, kishi muayyan bir maqsadni tanlab olishi va shu maqsadga yetish uchun muayyan eng muvofiq yo'lni tanlab olishi kerak. Shunga

ko'ra, ijtimoiy mehnat faoliyatida ham, kasb-korda ham, shaxsiy ishlarda ham, boshqa kishilarga bo'lgan munosabatida ham kishi o'z intilishlarini va ixtiyoriy harakatlarni oldindan rejalashtiradi.

Rejalashtirish murakkab aqliy faoliyat bo'lib, aniq, muayyan va ravshan maqsadni belgilash, shuningdek shu maqsadga yetish uchun eng to'g'ri usul va vositalarni qidirib topishdan iborat. Rejalashtirish jarayonida mumkin va zarur bo'lgan hamma harakatlar, mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va to'siqlar hisobga olinadi, ish-harakat natijalariga dastlabki baho beriladi. Odam asosiy rejaga ega bo'lgan bir qarorga kelishi, maqsadga yetishishi mumkin.

Harakat motivlari va motivlar kurashi kishi biron maqsadni, ayniqsa, shu maqsadga yetish uchun biron yo'l va usulni tanlar ekan, nega boshqa maqsadni emas, xuddi shu maqsadni tanlashi kerak, bu maqsadga nima uchun boshqa yo'llar bilan emas, balki mana shu yo'llar bilan hal etishi kerak degan savolni ko'ngildan o'tkazadi. Maqsadni va unga yetish yo'lini tanlash jarayonida unga ma'qul yoki noma'qulligi nuqtai nazaridan baho beriladi.

Maqsadni va unga yetish yo'llarining ma'qulligi yoki noma'qulligini belgilab beradigan hamma narsa ish-harakat motivlari deb ataladi. Kishi nega boshqa bir maqsadni emas, balki xuddi shu vositalar bilan ish ko'rishni, yoki ish ko'rmogchi bo'layotganining sababi nima degan savolga javob motiv mazmunini tashkil etadi.³⁸

Irodaviy ixtiyoriy harakatlar g'ayri ixtiyoriy (iroddan tashqari) harakatlardan farq qilib, motiv tufayli sodir bo'ladi.

Inson irodaviy faoliyatining motivlari xilma-xildir, kishining intilishi va hohishlari qaysi ehtiyojlardan kelib chiqsa, avvalo shu ehtiyojlar ixtiyoriy motivlarga kiradi. Ma'lum maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash ko'pincha birov ehtiyojining mazmuniga va ahamiyatiga bog'liq. Kuchliroq ehtiyoj boshqa motivlar orasida kuchliroq motiv bo'lishi mumkin.

Bir necha maqsad yoki ularga olib boruvchi bir necha yo'l bo'lgan huddirda ularning ma'qul yoki noma'qul ekanligi chamlalab ko'riladi. Biron maqsad va bu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi yoki belgilab bermovchi har qanday narsa harakatning motivi deb ataladi. "Motiv – deb yozadi I.P. Ivanov – kishi nima uchun o'z oldiga boshqa bir maqsadni emas, balki aynan shu maqsadni qo'yishi kerak, nima sababdan u o'z maqsadiga erishmog' uchun boshqa bir yo'llar bilan emas, balki xuddi shu yo'l bilan harakat qilishi kerak degan savolga javobdir".

Maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash jarayonida odarda tafakkur va hissiyot ishtirok etadi.

Tafakkur faoliyati (fikr qilish) bu yerda asosan har bir motivga "qarshi yoki "tarafdor"likni muhokama qilib asoslashdan iborat bo'ladi. Kishi motivlarni muhokama qilishda va asoslab berganda odarda ayni hodisa yuzasidan yoki o'zining xatti-harakatlarida doimo asoslanadigan ma'lum bir

³⁸ Мамедов А. Г. Огула нехотелка. — СПб.: Изд-во, 2001. — 376 бет (mazmunidan foydalanildi)

faktlardan tamoyil va qoidalaridan foydalanadi. Motivni shu tariqa muhokama qilish va asoslab berish motivatsiyalash deb ataladi.

Maqсадni va unga erishish yo'lini tanlash jarayonida hissiyot turk roli o'ynaydi. Hissiyot ayrim tasavvur va motivlarni yorqin, jonli va jozibali qilib ko'rsatadi. Hissiyot kishining intilishlarini faollashtiradi va susaytiradi, hissiyot biron maqsadni, biron harakat yo'lini tanlab olishga turki beradi.

Maqсадlarga, erishish yo'llarini va vositalarini tanlash sharoiti ba'zan ichki kurash xarakteriga ega bo'ladi, bu kurashda turli kuch va jozibaga ega bo'lgan bir nechta motiv maydonga chiqadi. Shuning uchun ham bu jarayon motivlar kurashi deb yuritiladi.

Motivlardan biri ko'proq asosli, ikkinchisi kamroq asosli ekanligi ularning kurash jarayonida oydinlashib qoladi, ba'zi motivlar kuchliroq hissiyot bilan maydonga chiqsa, ba'zi motivlar sust hissiyot bilan maydonga chiqadi.

Ko'pincha motivlar kurashi tafakkur (aql) bilan hissiyot o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi. Odam ba'zan "ikkitiga bo'linib" qoladi: "Aql uni desa, hissiyot (ko'ngil) buni deydi".

Motivlar kurashi ba'zan har xil hislar o'rtasidagi, masalan, burch hissi bilan unga zid bo'lgan qandaydir boshqa shaxsiy his o'rtasidagi kurash tarzida boradi.

Bu motivlar ko'pincha bir-biriga qarshi ta'sir ko'rsatadi, qarorga kelish va uni ijro etishni pajsalgasolib, iroda jarayonini susaytiradi. Motivlarning bunday kurashida kishida ichki konflikt holati vujudga keladi.

Ana shunday ichki ziddiyat holati bu ziddiyatdan qutulishga intilishi bilan ko'pincha shu zid holatdan qutulish yo'lini yengillashtiruvchi yo'llarni axtarish bilan bog'langan bo'ladi.

Ichki nizo holati g'oyat ko'ngilsiz noxush holat sifatida kechishini har kim o'z tajribasidan biladi. Kishi dunyo va hayotni ravshan tasavvur qilgandagina ish va harakatlarga, ahloq qoidalariga amal qilgandagina uning shaxsiy motivlari jamiyat manfaatlariga qo'shilib ketgandagina ichki nizo holatiga yo'l qo'ymasligi yoki undan qutulishi mumkin.

Qarorga kelish. Maqsadga yetishish yo'llarini va vositalarini tanlash jarayonida rejalashtirish, motivlar kurashi bilan bog'langan bo'lib, qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish-muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo'lidagi harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Motivlar kurashida buning ma'nosi shuki, motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynagan bo'ladi. Masalan, kechqurun qayoqqa borish kerak – teatrgami yoki o'rtog'ining yomigarni-degan motivlar kurashi natijasida kishi bormoqchi bo'lgan joyi haqida qarorga keladi.

Kishi ba'zan tez qarorga keladi, bu qarorning bajarilishi mumkinligiga ishonadi. Buni qat'iyat deb ataymiz. Ba'zi motivlar kurashi uzoq vaqtga cho'zilib ketadi va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda iktilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu qat'iyat sezgirlkdir. Masalan, o'rta maktabni bitirayotgan va bitirgan ba'zi yigit-qizlar qayisi o'quv yurtiga yoki korxonaga kirish masalasini

tez hal qiladilar, boshqalari esa juda uzoq vaqt iktilanib, xayolga tolib yuradilar. Qat'iyat odamda jiddiylik vaziyatining yengillashtirish mamunlik tuyg'usini tug'dirsa, qat'iyatsizlik iktilanish hissi, jiddiylik tuyg'usi va alohida noaniq holat bilan birga sodir bo'ladi.

Biror qarorga kelish sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan, ehtiyojga, hal qiluvchi motiv kuchiga, vaziyatga, hissiyotga tafakkur va xayolning taraqqiyot darajasiga, kishining tumush tajribasi va bilimlarga, temperamenti va xarakteriga, boshqa kishilarning nasihat, buyruq, iltimos takliflarga quloq solishiga bog'liq bo'ladi. Biror qarorga kelish sur'ati asosan qo'yilgan maqsadning ahamiyatiga, biror qarorga keltiruvchi faoliyatning xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Murakkab tarzidagi motivlar kurashi va qarorga kelish faqat shunday hollarda bo'ladi, bunda odamning hayoti va faoliyati uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi maqsadlar qo'yiladi va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yangicha usullar va vosita talab qiladi.

Qat'iyat faqat tezlik bilan qarorga kelishdagina emas, shuningdek bu qarorni tez va dadil bajarishda ham zo'hir bo'ladi. Tezlik bilan qarorga kelish va uni aniq belgilangan muddatda bajarish – qat'iyatni namoyon qilish demakdir.

Qaror qabul qilinsa-yu, keyin o'zgartirilsa, yoki boshqa qaror bilan almashtirilsa, yoxud butunlay bekor qilinsa, bunday qarorni yuzaki yoki bo'sh qaror deb ataladi. Qat'iyat va mustahkam qarorga kelish-irodaning yuksak iflodidir.

Qabul qilingan qarorning o'zgarishi ko'pincha yana bu qaror to'g'risida yetarli darajada o'ylamaslikdan, emosional holatning o'zgarishidan yoki kishi harakat qilayotgan sharoit o'zgarishidan kelib chiqadi. Qarorning o'zgarishi ko'pincha motivlar kurashining qaytadan boshlanib ketishiga va oxirgi marta qat'iy qaror qabul qilishga olib keladi.

Qarorni ijro etish. Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatlarga o'tishni ijro qilish (yoki bajarish) deyiladi. Irodaviy jarayonda eng muhim narsa-qabul qilingan qarorni ijro etishdir.

Irodaviy harakatlilar ikki xil bo'ladi: jismoniy va aqliy harakatlilar. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operatsiyalari, o'yin, sport mashg'ulotlari va boshqalar kiradi. Aqliy harakatlarga esa masala yechish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish va shu kabilar kiradi. Ko'p vaqt iktirorlanib, o'zlashib ketgan ko'nikma va odat bo'lib ketgan harakatlilar ham muvakkab irodaviy harakatlilardir.

Qarorni ijro etish odatda ma'lum vaqt, muddat bilan bog'liq bo'ladi. Qaror kechikmasdan belgilangan vaqtda ijro etilsa bu irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi. Bu esa ishchanlik, puxtalikni bildiradi.

Ammo qabul qilingan qaror hamisha bajarilavermaydi. Ayrim hollarda o'z vaqtida ijro etilmay qoladi. Kishining ba'zi bir holatlarida a'zoyi-badani bo'lishib turganda, xafalik chog'ida o'z kuchlari va imkoniyatlaridan hafsalasi

pir bo'lib turganda qaror ha deganda bajarilavermaydi. Qarorni bajarishda to'y beruvchi to'sqinliklar oldindan nazarda tutilmaganda yoki maqsadning o'zi vaziyat o'zgarishi bilan kerak bo'lmay qolganda shunday bo'ladi.

Shunday holatlar ham bo'ladiki odam ko'pgina qaror qabul qiladi, ammo qarorning ijrosi cho'zilib ketadi, paysalga solinadi, boshqa muddatlarga ko'chiriladi. Ijrosi paysalga solinadigan yoki butunlay ijro etilmaydigan qarorlar ko'pincha niyatlar deb ataladi. Ancha vaqtdan keyin, lekin muayyan muddat o'tgach ijro etiladigan qarorlar ham niyatlar deb ataladi. Masalan, o'quvchi yoki talaba o'quv yilining boshida barcha imtihonlarni faqat "a'lo" baholar bilan topshirishga qaror qilishi mumkin.

Irodaviy zo'r berish. Qabul qilingan qaror to'g'ridan-to'g'ri, avtomatik ravishda amalga oshirilavermaydi. Qabul qilingan qarorni amalga oshirish uchun ongli ravishda irodaviy zo'r berish ham kerak.

Irodaviy zo'r berish va irodaviy harakat maqsadga erishish yo'lida uchraydigan to'siqlarni yengishda namoyon bo'ladi. Kishining irodasi juda katta to'siqlarni yengishga to'g'ri kelganda, ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Irodaviy zo'r berish va irodaviy harakatlar yo'l bilan yengishga to'g'ri keladigan to'siqlar ikki xil: ichki va tashqi to'siqlarlarga bo'linishi mumkin.

Irodaviy zo'r berish yo'l bilan yengishga to'g'ri keladigan ichki to'siqlar odam organizmi va psixikasining holatidir. Odam tinch harakatsiz va hech qanday faoliyatsiz holatda bo'lishi mumkin, masalan, dam olish, uxlash, charchash, kasallik paytida shunday holat bo'ladi. Biron ish bilan shug'ullanmay harakatsiz o'tirishga, ya'ni yalqovlikka undovchi mayl ham shunday holatdan hisoblanadi.

Irodaviy zo'r berish yo'l bilan avvalo organizmning passiv holatini o'zgartirish un faol holatga keltirish zarur bo'ladi. Masalan, o'mda yotgan kishi (motivlar kurashi) turlicha qaror qiladi va o'zini majbur qilib o'mdan turadi. Yalqovlikni yengish uchun ba'zan juda ko'p zo'r berishga to'g'ri keladi.

Irodaviy zo'r berish yo'l bilan kishining aqliy faoliyatini ham faol holatga keltiriladi. Masalan, ma'ruza boshlanishi bilan talaba darhol irodaviy kuchini ishga solib, diqqatni bir joyga to'playdi, irodaning barqarorligini saqlab qoladi, tafakkur va esda olib qolish jarayonlarini kuchaytiradi.

"Harakat qilish o'ziga qanday o'rgatilgan bo'lsa – deydi I.M. Sechenov – harakati to'xtatib qolishni boshqarishga ham shunday o'rganmoq kerak".

Kishi irodaviy zo'r berish yo'l bilan ixtiyorsiz faollikni batamom yo'qotib yubormaydi, balki shu faollik ko'rinishlarini faqat o'zgartiradi, yoki bosib qo'yadi. Ixtiyorsiz faollik ko'rinishlarini bositish vazminlik deb ataladi.


Iroda-avvalo kishining o'zini qo'lga olib bilish, o'z intilishlari, hissiyotlari va ehtirolarni bosa bilish demakdir. Iroda kishining o'z-o'zini idora qila olish, o'z xulqi va faoliyatini anglab, bilib tartibga solish va boshqara olish qobiliyati demakdir.

Kishining ichki to'siqlarni yengsa olish, o'zini boshqarish va o'z ustidan hukmronlik qila olish qobiliyati odarda ichki iroda deb yuritiladi. Kishi irodaviy

zo'r berish yo'l bilan tevarak-atrofdaagi voqelikda uchraydigan tashqi to'siqlarni yengishi zarur bo'ladi. Kishi o'z oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga qashilik qilayotgan to'siqlarni yengib o'tadi, voqelikni o'z maqsadiga muvofiq ravishda o'zgartiradi va uni o'z ehtiyojlariga moslashtiradi. Insonning to'siqlarni, tashqi qiyinchiliklarni yengsa olish qobiliyati tashqi iroda deb ataladi.

Ammo irodani faqat shartli ravishda ichki va tashqi deb ikkiga bo'lish mumkin. Inson irodasi bita, lekin u tashqi olamdagi o'zgartirish va boshqarishga qaratilishi bilan birga shaxsiy, sub'ektiv holatlarni va jarayonlarni boshqarishga qaratilishi ham mumkin. Modomiki, shunday ekan, tashqi to'siqlarni yengish ichki to'siqlarni yengish bilan chambarchas bog'liqdir.

Рис. Иродавий актларни психологик структураси.³⁹



³⁹ Мамкин А. Г. Общая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 385 бет (мазмундан foydalanildi)

Inson tashqi olamga ta'sir etar ekan, tashqi olam hodisalarini boshqarish bilan bir vaqtda o'zini, o'z organizmini, qo'l-oyoq muskullarini ham boshqaradi, ularning tarangligini kuchaytiradi yoki susaytiradi, ularning harakatlarini uyg'unlashtiradi, butun organizmning moslashish vaziyatini vujudga keltiradi va zarur paytda bu vaziyatni o'zgartiradi va hokazo. Shu bilan birga ixtiyoriy harakatlar, asosan mehnat faoliyatida odamning ixtiyoriy faollik ko'rinishlarini to'xtatib va bosib tushishga to'g'ri keladi. Shuning uchun odamning irodaviy zo'r berishi va ixtiyoriy harakatlari tashqi to'sqinliklarni yengishga qaratilishi bilan bir vaqtda organizmning ichki ahvolini ham o'zgartiradi. Inson tevarak-atrofdaigi voqealarni o'zgartirar ekan, o'zini-o'z vujudini ham o'zgartiradi.

Irodaviy harakatlar bajarilgandan keyin ularga baho beriladi. Qaror ijro etilgandan keyin, ba'zan esa qarorni bajarish jarayonida ham ko'pincha harakatlarga baho berish, qarorni qanday ijro etilganligiga baho berish kerak bo'ladi. Qarorni ijro etish yuzasidan qilingan baho berish qabul qilingan qarorni hamda qilinadigan ishni ma'qullash, oqlash yoki qoralashdan iborat bo'ladi. Bu baho qabul qilingan qaror yoki bajarilgan harakatlardan mamnun bo'lish yoki mamnun bo'lmasilik tufayli kelib chiqqan maxsus hissiy kechimalarda ifodalanaadi. Salbiy baho ko'pincha qilingan ishlarga pushaymon bo'lish, achinish, uyalish va afsuslanish kabi hislar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Qilinayotgan yoki qilinadigan ishlarga beriladigan baho qabul qilingan qarorni yoki bajarilgan harakatlarni ma'qullovchi, oqlovchi yoki qoralovchi maxsus hukmlarda ifodalanaadi.

Qilinayotgan yoki qilinadigan ishlarga ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa nuqtai nazardan baho beriladi. Mana shunday baho berishdan kelib chiqadigan his va hukmlarda kishining dunyogorashi, axloqiy sifatlari va tamoyillari, shu bilan birga xarakteri va qiziqish – havaslari ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Qarorni bajarish yuzasidan qilingan ishlarda kishining o'zi baho berishga qolmaydi, balki kishi qaysi jamiyatta yashasa va ishlasa o'sha jamiyat ham baho beradi.

Odam qilgan yoki qilayotgan ish harakatlariga tevarak-atrofdagi kishilar ijobiy baho bergandan keyin ichki ma'naviy qanoat his qiladi hursand bo'ladi va kuchiga kuch qo'shilgandek bo'ladi. Ayrim ish-harakatlariga salbiy baho berilganda esa kishi o'ziga xos uyalish hissi ko'ngildan kechiradi va vijdon azobiga uchraydi.


Qilingan ish-harakatga berilgan baho kishining faoliyatida katta amaliy ahamiyatga egadir. Bu baho kishining keyingi faoliyatini uchun rag'bat va motiv bo'lib qoladi. Salbiy baho odarda ayini faoliyatini to'xtatish yoki o'zgartirishga motiv bo'ladi. Ijobiy baho faoliyatini davom ettirish, kuchaytirish va yanada yaxshilashga, jumladan mehnat unumdorligini oshirishga rag'batlantiradi.

Shaxsning irodaviy sifatlari

Kishining irodaviy sifatlari ya'ni iroda kuchi, mustaqilligi jihatdan ayrim hollarda turlicha namoyon bo'ladi. Irodaviy sifatlarning klassifikatsiyasi sxema tarzida quyidagicha ifodalanaadi.

Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo'yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari (ya'ni doimiy xislatlari) bo'lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o'ziga xos xususiyatlari xarakter xislatlari deb ataladi. Har bir kishidagi biron bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo'lishi shu kishi xarakterining xislati bo'laermaydi.

Ayrim hollarda hatto tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko'rsatishi mumkin, ayrim hollarda mazkur kishining irodasi, umuman kuchli iroda kuchi shu kishi xarakterining xislati ekanligidan dalolat beravermaydi. Bu kishining irodasi kuchli deb aytilish uchun uning iroda kuchini bir marta emas, bir necha marta namoyon qilganini bilmoq kerak.



Kishining xarakterini ta'riflaganimizda falon kishi dadillik qildi, rost gapirdi demasdan, balki bu odam dadil, rostgo'y, to'g'riso'z deb ataymiz. Huning ma'nosi shuki dadillik va rostgo'ylik, to'g'riso'zlik shu odamning xususiyatlaridir, xarakter xislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik xislatlariga ega ekanligini namoyon qildi deb aytamiz. Kishi xarakterini, xislatlarini bilib olingach, uning biron ish-harakatda qanday yo'l tutishini ancha aniq bilib olamiz, oldindan aytib bera olamiz.

Iroda kuchi va xarakter qat'iyati. Iroda ma'lum kuch bilan yuzaga chiqadi: ba'zi hollarda kishining irodasi kuchli sur'atda namoyon bo'lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarini his qilishda va intilishda ko'rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz hoxshilarni farq qilamiz.

Iroda kuchi ravshan va aniq magsad qo'yishda, shuningdek mazkur magsadga yetilishga yordam beradigan yo'l, vosita va usullarni ochiq tasavvur qilishda namoyon bo'ladi. Bu ochiq ravshanlik darajasi esa kishining turmush

tajribasiga, bilimiga va umumiy saviyasiga bog'liq. Aniq maqsad qo'yishda inson tafakkuri va ayniqsa real xayollar (fantaziya) ning taraqqiy etishi xususiyatlari katta rol o'ynaydi.

Iroda kuchi tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorni mustahkamligida, sabotilikda ko'rinadi. Yuksak g'oyaviy tamoyillarga asoslangan oqilona qat'iyatlik va sabotlik kuchi iroda belgilaridandir. Qat'iyatizlik iktilanish, qabul qilingan qarorning bajarilishiga shubha bilan qarash va sabotsizlik kuchsiz iroda belgilaridandir.

Iroda kuchi jasorat deb ataladigan dadillikda ayniqsa ravshan ko'rinadi.

Jasorat kishining shunday holatiki, bunda kishi tez qarorga keladi va uni bajarishga abdi qiliadi. Hatto salomatligini va hayotini xavf ostida qoldirishi mumkinligi hayoliga ham kelmaydi. Jasorat kishining boshqa kishilarga emas, balki o'ziga bergan amridir. Kishi ahloqiy burchining talabiga ko'ra, buyuk maqsadga erishish uchun bir zunda hayot bilan o'limdan birini tanlab olsa, bunday jasorat iroda kuchi ekanligini ko'rsatadi.

Jasorat shunday qaroriki, u go'yo ish-harakatga aytiladi. Bu ish-harakat esa kuchli zo'r berishni talab qiliadi. Xarakter xislati bo'lgan dadillikda odamning qanchalik puxta o'ylab ish ko'rishiga qarab, bu dadillik maxsus tushga kiradi.

Puxta o'ylab ish ko'rishni o'zi yuksak g'oyaviylikka va kishining axloqiy tamoyillariga asoslangan taqdirda jiboy xislat hisoblanadi. O'ylab, shoshmasdan bir qarorga keladigan kishilarni mulohazakor kishilar deb ataymiz.

Odarda o'zgaruvchan ayrim hislar kayfiyatlar ta'sirida tez bir qarorga keladigan xarakterli, dadil kishilar ham mavjud. Bular hissiyotga beriladigan tasodifiy kayfiyati kishilardir. Bunday kishilar odarda sabotsizligi, shoshma-shosharligi va katta o'ylash bilan ajralib turadilar.

Kishi uncha iktilamadan o'ylab, e'tibor bilan to'g'ri bir qarorga kelsa va shu qarorni dadil amalga oshira bilsa, dadillik xarakterning jiboy xislati bo'ladi.

Bir necha imkoniyatdan birini tanlab olishga to'g'ri keladigan ish – harakat bir qadar xavf-xatar bilan bog'langan bir murakkab vaziyatda dadillik ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Qat'iyatizlik xarakterning salbiy xislatidir, qat'iyatizlikda kishi sushtik bilan bir qarorga keladi, qabul qilingan qarorni ko'pincha o'z vaqtida bajarmaydi. Bunday odam qabul qilgan qarori to'g'riligiga shubhalanadi, turli imkoniyatlardan birini tanlab olishda iktilamadi, ayniqsa qiladigan ish-harakatlari xavf-xatar bilan bog'langan bo'lsa, shunday ahvolga tushadi. Shu sababli qat'iyatiz kishilar ko'pincha kam faolliklari bilan ajralib turadilar yoki umuman passiv bo'lib, yalqov, tamal degan taassurot tug'diradilar.

Sabotlilik dadillikka chambarchas bog'liq bo'lib, xarakterning jiboy xislati hisoblanadi. Xarakterning bu xislatiga ega bo'lgan kishilar qabul qilgan qarorlari odarda o'zgartirmaydilar, bekor qilmaydilar va bu qarorlarini bajarmasdan qo'ymaydilar. Bu kishilar va dalalarining usitidan chiqadilar, aytilgan so'zlarni albatta qiladilar. ularning gapi bilan ishi bir bo'ladi. Ularga ishonso bo'ladigan subuti insonlardir.

Qabul qilingan qarorlarini ko'pincha bekor qiladigan, bergan va dalalarini usitidan chiqmaydigan, aytilgan so'zidan tonadigan kishilar sabotsiz hisoblanadi.

Kishi irodasining kuchi va qat'iyati xarakterning irodaga bog'liq bo'lgan qaysi xislatlarida ifodalangan bo'lsa o'sha xislatlar eng yorqin xislatlardan hisoblanadi. Bu xislatlar har bir kishining xarakterida bir qadar namoyon bo'ladi. Ammo hamma kishilarni va har qanday odamni irodasi kuchli, xakteri kuchli deb bo'lmaydi. Balki shu sifatlari bilan boshqa kishilardan ajralib turgan odamlariga irodasi kuchli, xakteri qat'iy deb ataladi. Iroda kuchi va qat'iyati odamning o'zini tuta bilishida, jasurligida, matonatida va chidamligida namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o'z vaqtida bajarishda ko'rinadi. Shuning uchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarish muddatini doimo paysalga solish, galdar-galga goldiraverish, boshlagan ishini oxiriga yetkaza bilmaslik irodaning kuchsizligi alomatidir.

Lekin qabul qilingan qarorni bajarish har qanday qilingan ish-harakatning, irodaning kuchli ekanligidan darak beravermaydi. Iroda kuchi asosan irodaviy harakatlari yordami bilan qanday to'siqni yengilganiga va shu yo'l bilan qanday natijalarga erishilganligiga qarab aniqlanadi. Irodaviy zo'r berish vositasida burtar qilingan qarorlarni qat'iyatlik va qiyinchiliklar darajasi va xakteri iroda kuchining ob'ektiv ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Kishi katta to'sqinliklarni, qiyinchiliklarni, qarshiliklarni irodaviy zo'r berish va irodaviy harakatlari yordami bilan burtar qilib, zo'r muvafaqqiyatlarga erishsa, bu kishi irodasi kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Kosmonovtlar mislida iroda kuchini butun jahonga namoyish qilishadi. Bu qahramonlar kosmik parvozlariga tayyorlanish davrida ham, parvoz paytida ham o'z irodalarining yuksak sifatlari namoyish etadilar. Bu qahramonlar kuchli iroda va uning xilma-xil ko'rinishlari o'z xakterining asosiy xislati bo'lgan kishilarning yorqin msolidir.⁴⁰

Kishi irodasining kuchsizligi uning juda arizmas to'sqinliklarni ham burtar qila olmasligida ko'rinadi. Masalan, ba'zan kishi biron kerakli xatni yozishga yoki biror zarur ishini boshlashga o'zini majbur eta olmaydi.

Irodaning kuchsizligi odatda irodasizlik deb ataladi. Qarorni bajarish jarayonidagi ixtiyoriy ish-harakatlardagi iroda kuchi o'zini tuta bilishda, jasurlilik, sabot va matonat, chidam va toqarda namoyon bo'ladi.

Kitobda iroda kuchi va motivatsiya bir-biridan farqlangan. Mualliflar irodani iroda kuchiga sinonim sifatida ishlatadi va Kurt Levinning nazaryasini qisqacha tushuntiradi. Levin motivatsiya va iroda bita narsa deb uqtirganda, mualliflar boshqacha fikr yuritadi. Ularning fikricha, Istakning majlum bir bo'sag'asi bo'lib, u motivatsiyani irodadan ajratib turadi: agar I, u motivatsiya, agar o'sha iroda deyiladi. Iroda haqidagi zamonaviy qarashlar impulsive

⁴⁰ Мамедов А. Т. Общия психофизиология. — СПб.: Питер, 2001. — 387-388бб (мазмунидан foydalanildi)

boshqaruv (Kuhl va Heckhausen) hamda ta'lim (Como)ni qamrab oladi. Copmo modeliga ko'ra bo'yinbog' ta'lim olish jarayonidagi irodaviylikdir.⁴¹

O'zini tuta bilish nomidan ham biliniib turibdi, kishining o'zini idora qila bilishi va o'zini qo'lga ola bilishi demakdir. O'zini tuta bilish kishining oldiga qo'ygan maqsadlariga yetishuvda to'sqinlik qiluvchi, irodasini bo'shshiruvchi ichki holatlarni yengishda ko'rindigan kuchli irodadir. Bunday holatlarga masalan, qo'rqish, o'z kuchlariga ishonmaslik, zerikish, qayg'u urish hissi kiradi. Bunday holatlar kishini faoliyat ko'rsatmaslikka rag'batlantiradi yoki qo'yilgan maqsadlarga qarama-qarshi bo'lgan g'ayri ixtiyoriy harakatlarda o'z ifodasini topadi. Bunday holatlar har kimda bo'ladi. Ammo odamning shaxs sifatidagi xususiyati shundan iboratki, u o'zidan ana shu salbiy va keraksiz holatlarni iroda kuchi bilan o'zgaritira oldi yoki bartaraf qila oladi. Bu borada K.D.Ushinskiy quyidagi so'zlarni keltirib o'tadi: "Qo'rquvni his qilmasdan xavf-xatarga o'zini uradigan kishi mard emas, balki eng kuchli qo'rquvni ham bosa oladigan va qo'rquv ta'siriga berilmagan, xavf-xatarni o'ylamaydigan kishi marddir".

O'zini tuta bilish kishi xarakterining xislati bo'lib, asosan ichki irodaning namoyon bo'lishidan iborat. Bu xislat kishining o'z xulq-atvorini nazorat qila bilishda o'zini, o'z harakatlarini, nutqini qo'lga ola bilishida, shu sharoitda keraksiz yoki zararli deb qaraladigan harakatlardan o'zini tiya bilishida ifodalarnadi. Xarakter shu xislatga ega bo'lgan kishilar o'zlarini qo'lga ola biladilar. Ular o'zlarini tuta biladilar, ular uyushqoq kishilardir.

O'zini tuta bilmaslik irodaning kuchsizligini yaqqol ko'rsatuvchi belgidir. Odam o'zini qo'lga ola bilmaganda o'z mayllarini, ixtiyorsiz harakatlarini, nazorat qila olmaganda g'ayri ixtiyoriy faollik ko'rinishlari reflekslar, instinktlar, tasodifan ko'ngildan kechadigan hislar, qo'rquv, hadik-shubha, gumon, g'azab, rashk, ichiqorilik, affektiv holatlar va shu kabilar kishi irodasini bo'g'ib qo'yadi. Bunday holatlarda odam o'zini tiya olmay qoladi.

O'zini tiya olmaslikning eng yomon ko'rinishi buzquqlikdir. Buzquqlik butunlay instinktlar va salbiy emotsiyalar ta'sirida bo'lgan demakdir.

Jasurlik kishining omonligi va hayoti uchun havfi bo'lgan to'sqinliklarni bartaraf qilishda ko'rindigan iroda kuchidir. Masalan, parashyutchi har gal o'zini samolyotdan tashlaganda jasurlik qiladi. Jasurlik o'zini tuta bilishga chambiarchas bog'liq. Jasurlik bor joyda o'zini tuta bilishlik mavjud. Kishi o'zini tuta bilisa jasurlik qila oladi. Biron maqsadga yetishish yo'lida mutassil jasurlik ko'rsatish, dovyuraklik jasorat deyiladi.

O'zining hayoti uchun xatari to'sqinliklarni yengishga doimo tayyor turgan va shunday to'sqinliklarni yenga oladigan kishilarni jasur kishilar deb

ataymiz. Bular xavf-xatardan cho'chimaydigan, xakteri kuchli, dovyurak, bo'it kishilardir.

Jasurlikning yo'qligi irodaning kuchsizligini ko'rsatadi. Buni qo'rqoqlik, nomardlik deb ataymiz. Irodasi kuchsiz bo'lgan bunday kishilar odarda qo'rqoq, yuraksiz kishilar deb ataladi. Sabot, matonat ma'lum maqsadga yetishda ko'pincha uzoq vaqt davomida irodaminizga ta'sir etib turuvchi katta to'sqinlik va qiyinchiliklarni bartaraf qilishga to'g'ri keladi. Irodaning bunday ko'rinishi shaxsning eng muhim sifati bo'lib, iroda kuchining yaqqoligini ko'rsatadi.

Sabot, matonat – qandaydir bir aniq maqsadni ko'zlab, muntazam ravishda irodaviy zo'r berish demakdir.

Ammo kishilarning hayoti va faoliyatida ba'zan shunday holatlar ham bo'ladi, kishi o'z oldiga qo'ygan qandaydir zarur maqsadlarni bajarishda yetib bo'lmaydigan yoki kishiga shunday bo'lib tuyuladigan to'sqinliklarga uchrab qoladi. Bunday holatlarda kishi ba'zan qabul qilgan qarorni o'zgaritiradi, bekor qiladi, u qiyinchiliklardan qo'rqishi va o'z oldiga qo'ygan maqsadidan voz kechishi mumkin. Ba'zan shunday bo'ladi, talaba to'satdan o'qishni tashlaydi. Ilgari tanlagan ehtiyojidan voz kechadi, boshlagan ishini oxiriga yetkazmay, o'ldi-o'ldi qoldirib ketadi.

Kishi o'z harakat, maqsadini yaxshi o'ylamaganda maqsadga yetishsa, yordam bera oladigan vosita va usullarni puxta o'ylamaganda, o'zining kuch – imkoniyatlarini yetarli yoki to'g'ri hisobga olmaganda odamda belgilangan maqsaddan shu tarqqa qaytadi, irodasida chekinadi. Dastlabki muvaffaqiyatsizlikka haddan tashqari katta ahmiyat berilganda, bu muvaffaqiyatsizlikka noto'g'ri, yoki yangil baho berilganda, unga faqat salbiy tonmondan qaraganda shunday bo'ladi. Kishi muvaffaqiyatsizlikka uchrash bilan bir vaqtda o'z kuchlariga, o'z imkoniyatlariga, o'z qobiliyatlariga ishonmaganda odam "ruhi tushib", o'zini passivlikka qo'l qovushitirib o'tirishga mahkum etadi. Albatta umuman irodasi kuchsiz kishilarda shunday bo'ladi. Bunday kishilar irodasining o'smagonligi, yetarlicha tarbiyalanmaganligi bilan farq qiladi.

Ammo irodali mavjudot bo'lgan odam hayot va faoliyatida jamiyat yoki o'zi uchun muhim ahmiyatga ega bo'lgan maqsaddan qaytmasligi ham mumkin. U iroda kuchiga zo'r berib, to'sqinliklarga qarshi kurashni kuchaytirishi, qabul qilingan qaroriga yarasha uzoq vaqt ish ko'rishi mumkin. Barcha to'sqinlik va qiyinchiliklarga qaramay u zarur natijani qo'lga kiritmoq uchun damba-dam, orada vaqt o'tkazib zo'r berishi, g'ayratini ko'rsatib ishlashi mumkin.

Kutilgan maqsadga yetishda katta qiyinchiliklar va yengib bo'lmaydigan to'siqlar bo'lsa, kishi shu maqsadga yetish uchun zarur yo'l, vosita va usullarni o'zgaritirib, yangi usullarni qidirib topishi mumkin. Katta to'sqinliklarni bartaraf qilib, uzoq qunt qilib, maqsadga yetishda ko'rindigan bunday iroda kuchi sabot-matonat deb ataladi. Shunday iroda sifatiga ega bo'lgan kishi esa sabot-matonatli, kuchli irodali, qat'iy xakterli kishi deb ataladi.

41. Beckaerts, M.: Como, L. (2005). "Self-regulation in the classroom: A perspective on assessment and intervention". *Applied Psychology: An International Review*, 54 (2). (mazmunidan foydalanildi)

Har qanday faoliyatning, jumladan o'qib, o'rganishning muvaffaqiyati sabot-matonatga bog'liq. Bilimi bo'lmog uchun sabot-matonat kerak. Har bir sohada-texnika, san'at, muzika, sport va shu kabi sohalarida bilim va malaka o'rinnog uchun sabot-matonat kerak.

Sabot-matonat xaraktering eng qimmatli xislatidir. Bu xislat kishining maqsadga yetish yo'lida qanday qiyinchilik va to'sqinliklar bo'lishidan qat'iy nazar shu maqsadga erishishda o'z ifodasini topadi.

Xarakter xislati bo'lgan sabot-matonat ba'zi kishilar faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo'ladi boshqa kishilarda esa bu xislat ularning manfaatlari bilan bog'langan, va ayrim faoliyat sohalarida ko'rinadi.

Sabot-matonatli kishilar boshlagan ishlarni hamisha oxiriga yetkaza biladilar. Ular o'zlariga nisbatan ham boshqa kishilarga nisbatan ham talabchan bo'lalilar.

Sabot-matonatli kishilar muvaffaqiyatsizlikka uchraganda ruhini tushirmaydi, balki aksincha, maqsadga erishish uchun ishga yanada qat'iyroq kirishadi, shu maqsadga erishishning yangi yo'l va vositalarni izlab topadi.

Sabot-matonatli kishilar o'ziga va boshqa kishilarga nisbatan talabchanligi bilan ajralib turadilar. Ular belgilangan yo'ldan yurishlariga to'sqinlik qila oladigan hamma narsaga qarshi tura oladigan, bu to'sqinliklarni yengib oladigan matonatli kishilardir.

Sabot-matonat irodaning chidam va toqat degan sifatini bilan ham chambarchas bog'liq.

Maqsadga yetishda bartaraf qilinadigan to'sqinlik va qiyinchiliklar kishidan kuch va vaqt sarf qilishni talab etibgina qolmay, balki ko'pincha jismoniy va ruhiy azob beradi ham.

Kishining o'z faoliyatida ba'zan sovuq va issiqdan, yomg'ir va qordan, qattiq to'liqish, och qolishdan, hamma turli kasalliklardan azob chekadigan kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga sodiq bo'lib shu maqsadga yetishga intilaversa, bunday intilishlarda ko'rinadigan iroda chidam va toqat deb ataladi. Odamning organizmidagi yemirish jarayonlarini yengishda ifodalanganigan ajoyib iroda o'zini tuta bilish va matonatni ko'rsatadigan misollar talaygina bo'lib, u quyidagi misollardan birida keltirib o'tiladi.⁴²

Alievning bir o'zi havo jangida dushmaning yetitta samolyotiga qarshi mardonavor kurashdi va hammasini urib tushirdi. Kuchlar teng bo'lmagan bu jangda Alievning samolyotini dushman o'qlari teshib yuborgan edi. Aliev o'zi bir necha bor yaralandi. Ammo u o'zini yo'qotib qo'yamay, samolyoti bilan o'z aerodromiga borib qo'ndi. Aerodromiga yetib borganicha dushman egallab olgan yerlardan uchib o'tishi kerak edi. Dushmaning zenit to'plari Alievning samolyotini qattiq o'qqa tutdi va samolyotining bir necha joyini snaryad parchalari teshib yubordi. Uchuvchi yana bir necha marta yaralandi. Lekin Aliev bu safar ham sarosimaga tushmay samolyotini boshqarib boraverdi va uni o'z

aerodromiga eson-omon qo'ndirdi. Samolyot kabinesi ochilganda uchuvchi o'lgan edi. U ikki yo'lidan, oyog'idan, kuragidan, yelkasidan, orqasidan, jag'idan va boshidan yaralangan edi. Vrachning aniqlashishicha, og'ir yarador bo'lgan Alievning bu holda ucha olishi sira mumkin emas edi. Ammo Aliev samolyotini boshqarib, aerodromga to'g'ri qo'na olgan. Uchuvchining irodasi va o'zini tuta bilish tufayli o'qning yemiruvchi kuchlaridan g'olib kelib, ummining so'nggi daqiqalarini cho'zishga erisha oldi.

Sabot-matonatli chidamli va toqatli kishilar maqsadga yetishishda va qiyinchiliklarga qarshi kurash jismoniy va ruhiy azoblarga hamda boshqa mashagqatlarga chiday oladilar. Ular har qanday vaziyatda o'zlarini tuta oladilar, jasurlik, mardlik, botirlik, qat'iyat ko'rsata oladilar.

Bunday xakterli kishilarga optimallik kayfiyati, hayotga quvnoqlik bilan qarash, portloq kelajakka doim ishonch bilan boqish, boshqa kishilarga o'z kuchlari va mehnat imkoniyatlariga yetishish kabi xislatlar xosdir.

O'zini tuta bilish jasurlik sabot-matonat, chidam va toqatda ko'rinadigan kuchli iroda mardlik deb ataladi. Shu sifatlar bilan farq qiladigan kishilar esa mard kishilar deb ataladi.

Kishilarning hayoti va faoliyatida shunday hollar ko'p bo'ladi, bunda odam zarur paytida o'zini tuta olmay qoladi, jasurlik, sabot-matonat, intizomlilik ko'rsata olmaydi. Xarakter xislati irodasiz kishilar mayud, bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki irodasiz kishilar deyiladi. Bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki chidamsiz kishilar deyiladi. Bular xatto arimas qiyinchilik va to'sqinliklarni ham, bartaraf qila olmaydigan kishilardir. Bular salgina muvaffaqiyatsizlik yoki qiyinchilik kelib chiqqanda ham o'z oldiga qo'ygan maqsaddan voz kechib ish harakatini to'xtatadigan, o'z qarorini bekor qiladigan yuraksiz, qo'rqoq kishilardir. Ular vaziyat talab qilganda zarur jasurlik sabot-matonat, chidam, toqat, qat'iyat ko'rsatmaydilar. Bular cho'china, yalgov joni puxta kishilardir. Bunday kishilarning xatti-harakatlari odatda ularning o'zidan ko'ra tashqi sharoitga bog'liq bo'ladi.

Bunday xarakter xislatlarga ega bo'lgan kishilar pessimistik kayfiyatlarda bo'lib, dunyoga va hayotga umidsizlik bilan qaraydilar. Ular doimo barcha kishilarning salbiy, yomon tomonlarini ko'radilar, bu kishilarning fikricha, o'zlarining barcha kamchiliklari va muvaffaqiyatsizliklarining sababchisi boshqa kishilardir. Bu xildagi ba'zi kishilar passiv beparvo kayfiyatda bo'lalilar.

Irodaning mustaqilligi. Kishilarning irodaviy harakatlarga ularning mustaqillik darajasiga qarab ham baho beriladi. Irodaviy harakatlarning mustaqilligi kishining avvalo tashabbuskorligida ko'riladi. Tashabbuskorlik biyor bir ishini shaxsan boshlab yuborish demakdir. Tashabbuskorlik odatda tavaruk-atrofidagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talablarini ephnilik, mohirlik bilan hisobga olish va ko'pincha kelajakni, yangilikni oldindan ko'ra bilish qobiliyati bilan bir vaqtda namoyon bo'ladi.

⁴² Маммаев А. Г. Обитатели неба. — СПб.: Изд-во, 2001. — 388-390б (мазмунидан foydalanildi)

Tashabbuskor kishi shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatida ham vaziyat va tumush talablari hisobga olinadi, shu bilan bir vaqtda vazifalarni ilgari suradi, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yo'l va vositalari tanlaydi va bu vazifalarni hal etishda faol ishtirok etadi.

Mustaqillik qilinmagan va qilinmagan ish-harakatlar uchun javobgarlik sezisida ko'rinadi. Javobgarlikni sezish ayni harakatlarning to'g'riligiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zaruriyigiga ishonch hosil qilish demakdir.

Irodaning mustaqilligi yana boshqa kishilarning fikr, maslahat va takliflarini tanqidiy ko'z bilan mulohaza qilib chiqishda ham ko'rinadi. Tanqidiy ko'z bilan mulohaza yuritish xarakter xislati bo'lib, boshqa kishilarning birga maslahat va takliflarini diqqat bilan tahlil qilishda ko'rinadi, xarakterning shu xislati bo'lgan kishi boshqa kishilarning fikr va maslahatlariga e'tibor bilan quloq soladi, ularga muayyan tamoyillar nuqtai nazaridan baho beradi, ijobiy foydali narsani qabul qilib undan foydalanadi, salbiy befoyda narsani dalillar bilan rad etadi.

Ayrim kishilarning iroda mustaqilligi ba'zan qaysarlik kabi maxsus holatda ko'rinadi. Bu holat shundan iboratki, odam boshqa kishilarning aytgan hamma gaplariga, maslahat, iltimoslariga qarshilik ko'rsatadi. Qaysarlik qilayotgan odam yo buyurilgan ismni qilmadan, o'z bilganini qilaveradi yoki buyurilgan ismni teskarisini qiladi.

Intizomlilik – xarakter xislati bo'lib, jamiyat talablariga oqil ravishda o'z ixtiyori bilan bo'ysina bilishda ko'rinadi. Intizomlilik, jumladan, belgilangan tartibga aniq rioya qilishda, olingan va'dani vijdonan bajarishda, o'z burchiga oqil ravishda bo'ysinishda o'z ifodasini topadi.

Intizomli kishi mustaqil tashabbuskor bo'lib, ayni vaqtda qabul qilingan qarorlarni so'zsiz ijro etadi, jamiyat manfaatlariga va axloq tamoyillariga iqoat qila biladi.

Mustaqillik ayni vaqtda irodaning kuchli ekanligini ham ko'rsatadi. Iroda kuchi katta to'sqinliklarni bartaraf qila olish qobiliyati bilanгина ifodalannay, tashabbuskorlik ko'rsatish, mustaqillik, dadillik ko'rsatish va qabul qilingan qarorlar uchun, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat sezish bilan ham ta'riflanadi.

Irodaning axloqiyiligi hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to'sqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalaniishi, biron odamning irodasi naqadar axloqiy ekanligi ham nazarda tutiladi.

Irodaning ahloqiyiligi deganda odarda kishi o'z oldiga qanday maqsadlar qo'yilishi, bu maqsadlarga qanday vositalar bilan erishishi, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday meyllar tufayli kelib chiqishi va ma'lum bir qarorga kelishda qanday tamoyillarga amal qilishni nazarda tutamiz.

Irodaviy harakatlarda kishining axloqiy xislatlari namoyon bo'lsa, iroda kuchi ijobiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Ikkinchidan, kishilarning axloqiy

hislatlari haqida fikr yuritilganda aytilgan so'zlarni emas, balki ularning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadigan irodaviy harakatlarni nazarda tutamiz. Shuning uchun kuchi irodaning martdlik, o'zini tuta bilish, sabot-matonat, chidam va jasurlik kabi xususiyatlari irodaning axloqiy sifatlarini deb hisoblaymiz.

Kishi biror qarorga kelishda o'z qarori va harakatlari uchun axloqiy mas'uliyat sezsa, uning irodasi axloqiy hisoblanadi.

Kishining chinakam axloqiyiligi ma'naviy qiyofasi, so'zida va muhokamalarida emas, balki faoliyatida, ishida va asosan mehnatda, ya'ni mehnatga va ishning o'ziga mehr qo'yishida namoyon bo'ladi.

O'zining intilish (mayllarida), qaror va harakatlarda har doim ahloq tamoyillariga amal qiladigan kishilarni axloqli kishilar deb ataymiz.

Iroda tushunchasi xulqning real omili kabi o'z tarixiga ega. Bunda u ruhiy hodisaning tabiatidagi qarashlarida 2 aspektga bo'linadi: falsafiy-ahloqiy va tabiiy fanlar. Ular o'zaro uzviy bog'lanishadi va faqat bir-biri bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

Aslini olganda, iroda muammosi mustaqil muammo sifatida xatto o'rta asrlarda ham mavjud bo'lmagan. Inson o'rta asr faylasuflari tomonidan faqatgina passiv boshlanish tashqi kuchlar uchrashadigan "maydon" kabilarda ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, juda ko'p marotaba o'rta asrda iroda mustaqil mavjudligi bilan ajralib turgan va xatto mehnat yoki zolim mavjudotlarga aylanib, aniq bir kuchlarda timsollangan. Shu yerda ham iroda, o'z oldiga aniq maqsadlar qo'ygan, qandaydir bir fikr sifatida namoyon bo'lyapti. Bu kuchlarni – yaxshi yoki yomonni, anglash, o'rta asr faylasuflarining fikricha, insonning qilgan ishlarining "asli" omillarini anglashga yo'l ochadi.

Shunday qilib, o'rta asr vaqtlarida irodaning tushunchasi ko'p miqdorda alla qanday yuqori kuchlar bilan bog'langan. Inson huddi jamiyatning eng oddiy elementi hisoblanib, zamonaviy olimlar "shaxs" tushunchasiga kiritadigan xususiyatlar to'plami esa ajdodlarimiz yashab o'tigan va inson yashashi kerak bo'lgan programma sifatida ko'rib chiqilgan. Bu me'yordand chetlanish kuquqiga faqatgina jamiyatning bir necha a'zolari haqli edilar, masalan, temirchi uchun – olov va temir kuchlariga ega inson; qarog'chi uchun – o'zini jamiyatga qarshi qilgan jinoyatchi.⁴³

Iroda borasidagi nazariyalar

Irodaning tadqiqoti uzoq tarixga ega bo'lib, u inson ongining mohiyatini kashf qilishdan boshlanib, muayyan bilimlar to'planishi tufayli shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yondashuv vujudga kelgan davrgacha bo'lgan tarixiy yo'lni bosib o'tgan.

⁴³ Макаров А. Г. Общия психоэтика. — СПб.: Изд-во, 2001. — 376-377b. (mazmunidan foydalanildi)

Arastu o'z davrida irodani jon haqidagi fanning muhim tushunchasi deb e'tirof etgan. Uning fikricha, iroda inson xulq-atvorini o'zgartirishni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan omil hisoblanadi.

Gumanitar yo'nalish, ya'ni inson muammolariga e'tiborning o'rtishi bilan o'z-o'zidan irodani o'rganish ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. XVIII-XIX asrlarda bu muammo eng markaziy psixologik tadqiqot masalalaridan biri edi. Biroq psixologiya fanida XX asr boshlarida ro'y bergan inqiroz tufayli u ikkinchi rejaga o'tib qoldi, uni mulqoq inkor etish mumkin emas.

XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta'kidlab o'tganidek, faollik manbaini bemahsul sohaning paydo bo'lishi, deb tushuntirish mumkin emas, chunki uning shaxsiy kuch-quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qarash lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday yondashish irodaning ilmiy nuqta nazardan tushuntirishni shakllantirgan bo'lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida tan olindi. V.Vundning mulohazasicha, irodaning negizida appersepziya aktining sub'ekti tomondan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emotsional yoki affektiv nom bilan psixologiya faniga kiritib keldi. U Deymsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qo'shilib bo'lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g'oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo'lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g'oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir.

Yetti darajada qat'iy filr qaror topganligi, iroda – bu insonning qo'yilgan maqsadlariga erishish uchun qilgan faolligidir. Iroda tushunchasi mohiyatiga inson tomondan maqsad qo'ya olish kabi shaxsiy g'avdasini va xulqini idora qilish ham kiritiladi. I.V.Selivanov irodani tadqiq etish negizidan kelib chiqqan holda ayrim xulosalarni chiqaradi:

a) iroda–bu shaxsning o'z faoliyatini va olamdagi o'zini-o'zi boshqarish shakllarini anglashning tavsifidir;

b) iroda-inson yaxlit ongning bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakli va bosqichlariga taalluqlidir;

v) iroda-bu amaliy ong, o'zgaruvchi va qayta quriluvchi olan, shaxsning o'zini ongli idora qilishlikdir;

g) iroda-bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatning motivi, turtkisi hisoblanadi.

V.I.Selivanov irodaning psixologik jabhalarni yoritayotib, u shunday g'oyani ilgari suradi, insonning ongini jarayonlar, holatlar, xislatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Shaxsning u yoki bu ongli harakati o'zining tuzilishiga ko'ra bir davrning o'zida ham aqily, ham hissiy, ham irodaviy hisoblanadi.

Tadqiqotchi V.I.Ivanikov esa irodani motivatsiyaning ixtiyoriy shakli sifatida tushunadi. Shuningdek, harakat ma'nosining o'zgarishi hisobiga tarmoqlovchi yoki qo'shimcha turini yaratuvchi imkoniyat yangi real motivlarni

harakat bilan birlashtiruvchi, yoinki vaziyatning tasavvur motivi tariqasida talqin qiladi. Irodaviy boshqaruv esa harakati "ixtiyoriy boshqaruv ko'rinishlarining bittasi sifatida" tushuniladi, bunda boshqaruv motivatsiyaning ixtiyoriy o'zgarishi orqali amalga oshirilishi sifatida qaraladi.

Keltirilgan mulohazalardan ko'rinish turibdiki, psixologiya fanida irodani tushunish, ta'riflash bo'yicha bir xil munosabat yaratilmaganday, irodaviy sifatning ma'naviy asosini tahlil qilish yuzasidan ham umumiylik, mustaqillik, qat'iyatlik, sabr-toqatlik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlilik kiritiladi.

P.M.Yakobson bo'lsa, irodaning muhim sifatleri sifatida mustaqillik, qat'iylik, tirishqoqlik o'zini uddalashni ko'rsatadi. Insonda namoyon bo'ladigan irodaviy sifatlar sarasiga A.I.Shecherbakov quyidagilarni kiritadi: sobitqadamlilik va tashabbuskorilik, tashkiliylashganlilik va intizomlilik, urmhoqlik va qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini uddalashlilik, botirlik va jasoratlilik.

Iroda borasidagi tadqiqotlarda "ishonch" atamasi qo'llanilishi kamdan-kam hollarda qo'llaniladi. Shunga qaramasdan ishonch, iroda sifati tariqasida tadqiq etilishga haqidir. Buning uchun A.I.Shecherbakov tomondan quyidagicha tadqiqot ishi amalga oshirilgan. Tadqiqotining ta'kidlashicha, bir talabaga qisqa vaqt (fursat) ichida institutni tugatish taklif qilingan, lekin sinavchi bu ishni uddasidan chiqar olmaslikni oshkora bildirgan. Shundan so'ng tadqiqotchi talabada o'z kuchiga ishonch uy'otishni maqsad qilib qo'ygan va unda irodaviy zo'r berish, qiyinchiliklarni yengish vositalarni shakllantirgan. Buning natijasida talaba o'z maqsadiga erishishga musharraf bo'lgan. Xuddi shu bois hozirgi zamon psixologiyasining irodaga oid nazariyasi zaifligi tufayli irodaviy sifatlarini tasniflashning asosiy tamoyili ishlab chiqilmagandir.

Tayanch tushunchalar: iroda, irodaviy xarakterlar bosqichlari, irodaning nerv-fiziologik asoslari, irodaviy akt va uning tuzilishi, xarakter motivlari va motivlar kurashi, qarorga kelish, qarorni ijro etish, irodaviy zo'r berish, irodaviy aktlar va ularning psixologik strukturalari, shaxsning irodaviy sifatleri, iroda nazariyalari.

Mavzuini mustahkamlash uchun savollar:

1. Irodaga ta'rif bering?
2. Irodaviy xarakterlar bosqichlari?
3. Irodaning nerv-fiziologik asoslari?
4. Irodaviy akt va uning tuzilishi?
5. Shaxsning irodaviy sifatlarini sanab o'ting.

MOTIV VA MOTIVATSIYA

Motiv va motivatsiya tushunchasining mazmuni

Garchand psixologik adabiyotlarda ayrimqsa yosh va pedagogik psixologiyaga oid manbalarda motiv va motivatsiya masalasi ko'p bora ko'tarilgan bo'lsa-da, batafsil yoritilmagan. Masalan, ayrim psixologlar maktabgacha yoshda ayrim tarqoq situatsion mayllar ma'lum motivlar tizimlariga aylanib borishini qayd etadilar. Biroq bu fikr atrofiicha chuqurroq o'rganilmagan. Shunga muvofiq adabiyotlarda psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida motiv va motivatsiya tushunchasi turlicha talqin qilingan.

Eng keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra, motiv – bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir.

Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi:

A. Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir.

S.L. Rubinshteynning ta'kidlashicha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirishi.

S.L. Rubinshteyn. «Motivatsiya – bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir».

A.N. Leonov – motivni inson faoliyatiga yo'nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo'zg'atadigan voqealik deb hisoblaydi.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaratiladi.

Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarini mujassamlashtiradi.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir.

V.S. Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlari ancha batafsil yoritib bergan. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: «turli motivlar bora-bora o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe bo'lib boradi hamda oxir oqibatda motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi». V.S. Merlin fikricha, motivlar tizimining shakllanishi jarayonida nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash shartlar bajarilishini talab etiladi. Demak, V.S. Merlin bo'yicha motivlar tizimlari o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe shaxs motivlarining bir butun yig'indisidan iborat. Ammo V.S. Merlin garchi motivlar tizimlarining ayrimlarini haqiqatdan ham muhim jihatlarni ko'rsatib

o'lgan bo'lsa ham, motivlar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni motivlar tizimlari va faoliyat ko'rsatish muammosini tadiqiq etmagan.


Abraxam Maslou (1970) bu ustuvorlikni motivlar ierarxiyasi sifatida tavsiflab berdi. Asosni bizning oziq-ovqat va suvga bo'lgani kabi fiziologik ehtiyojlarimiz tashkil qiladi. Faqat shu ehtiyojlarimiz qondirilgan holda biz xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojlarimizni, faqat undan keyingina sevisht va sevilish, o'z-o'zimizga yuqori bahoga ega bo'lish kabi favqulodda insoniy ehtiyojlarimizni qondirish haqida qayg'uramiz.

O'z nazaryasida A. Maslou ehtiyojlarining quyidagi ierarxiya qatorini tiratadi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj, muhabbat va boshqalar bilan bog'liq bo'lish ehtiyoji, hurmatga bo'lgan ehtiyoj, insonning o'z yashirin imkoniyatlarini to'laroq namoyon etish va ro'yobga chiqarish ehtiyoji va boshqalarni kiritadi. A. Maslou fikricha, muayyan ehtiyojning qondirilishi uchun avval ierarxiya qatorida undan oldingi ehtiyoj qondirilgan bo'lishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, A. Maslou konsepsiyasida ierarxiyada yuqori o'rinni egallovchi ehtiyojlar quyi o'rindagi ehtiyojlarga tobedir.

Maslouning (1971) fikricha, bularning hammasi ustida eng oliy insoniy ehtiyoj – o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yo boshqacha aytganda, o'zini o'zi dolzarblashtirish turadi.

Maslouga ko'ra ehtiyojlar ierarxiyasi

Maslouning fikricha, biz faqat quyi ehtiyojlarimiz qondirilgandagina oliy ehtiyojlarimizni qondirishga harakat qilamiz.



Maslou taklif qilgan ierarxiya qaysidir darajada ixtiyoriy. Qolaversa, bu kabi ehtiyojlar tartibli universal emas. Insonlar siyosiy bayonot qilish uchun

o'zlarini ochlikka hukm qiladi. Biroq shunga qaramay, ayrim motivlar boshqalariga qaraganda nisbatan majburlovchi ekani to'g'risidagi oddiy g'oya motivatsiya haqida fikr yuritish uchun asos bo'la oladi.

Endi keling, uchta xarakterli motivni quyidan yuqoriga: fiziologik darajada ochlikdan boshlab, jinsiy motivatsiya orqali yanada yuqori darajadagi ehtiyoj – muvaffaqiyatga tomon ko'rib chiqamiz. Har bir darajada ko'rinadigan, tasbiq muhit motivlari fiziologik ehtiyojlar bilan o'zaro ta'sir (taamkorlik) qiladi.

Ochlik fiziologiyasi: Ochlikni his qilish, yarim ovqatni ob qo'yilgan ishtirokchilar ekspremenda geometrik reaksiya ostida, o'z qomatini va ko'rinishini saqlash maqsadida qat'is javob qaytarmaydi. Atayin shar yutib, ochlikni his qilgan vaqtda shuni yuritilgan, oxir oqibat u odamda ochlik alomati sezilmagan. Ba'zi diedral bo'sh oshqozonni hazim bo'lmaydigan nasalar bilan to'ldirish kuzatilgan. Ochlikni bo'sh oshqozonni og'itish bilan yengib bo'lmaydi. Kuzatuvchilar aniqlashdiki chorak asr o'tib kalamushlarning oshqozonining ingichka ichakka ulab qo'yishi og'itish ochlikni oldini olishi mumkinmi? Kalamushlar odatda shunday ovqatlanishni boshladimi? Ha xuddi shunday. Insonlar ham to'q qoriniga ochlik his qilishi mumkin. Hayvonlar oshqozonini to'ldirib ham kaloriyasiz ovqatni ko'proq yeydi. Agar oshqozon og'itilgan qorin og'itilgan darak bermasa unda nima gap. Irlandiyaliklarning aytishicha, ximya (kimyo) Organizmning kimyoviy birikmalarini o'zgarishi ochlikka ta'sir ko'rsatadi. Inson va ba'zi hayvonlar kaloriyani boshqaradi. Magsadli o'z vazmini saqlash. Organizm qandaydir yo'llar bilan resurslardan foydalanadi. Ulardan biri shakarli gulkoza. Gomanal insulin kamaytiradi.⁴⁴ Qonda gulkoza u asta yog'ga aylantiradi. Gulkoza gonda kamayishi ochlikni ortishi. Badan ta'm bilishni o'zgartiradi. Agar siz depressivani o'rinishi his qilinsangiz nimaga talpinasiz? Shirin nasaga kiraximali nasaga va uglevodlarga? Uglevodlar nero o'tkazmalar serotaniini urevani ko'tarishga yordam beradi harakatlarni tinchlantirishga harakat qiladi. "Fenfluramin" dorsiini ichigan odam uglevod o'miga organizmni narmalashtiradi. Streska bog'liq ovqatlar o'miga bioximik harakati o'zgartiradi. Gulkoza gonda kamligi ochlik hisini uyg'otadi. Biroq siz bilmay kimyoviy usullardan organizmningizda bo'lmagan holda boshqaradi. Miya o'zi ichki organizmni boshqaradi. Oshqozondan jigardan va ichakdan kelayotgan signallar miyaga xabar beradi. Ovqatlanishi kerak yoki kerakmasligini bildiradi. Miyaning qaysidir qismidan bu xabarlar yetib keladi. Gipotalamos miyasida 1940–1950 yillarda tekshiruvchilar ochlikni boshqaruvchi pulni miyaning ichki qismida aniqlashdi. Gipotalamosning ikki xil makazi mavjud, ovqat yiyeshini boshqaruvchi. Ekspementlar 1960 yilda o'tkazilgan tatqiqotlar ko'rsadiki, yombosh miyada yashirin ochlikni chaqiradi. Agar bu agar o'sha burchakka elektr impluslarda jo'natilgan qorni to'q yaxshi ovqatlanagan hayvon ham ovqatlanishini boshlaydi. Ushbu burchakni yo'q qilgan holda hayvon ovqatga qaramay. Agar o'sha

joyga tegsa ovqatlanayotgan hayvon ham ovqatlanishdan to'xtaydi. Bu holat oshqozon va ichak faoliyatini tezroq ishlashga olib keladi va yog' miqdorini oshiradi. Bu holat ba'zi bir kasallikni miyasida shish paydo bo'ladi va semiradi. Qay holatda Gipotalamosning shu joylari ishlaydi. Bir teoriyaga qaraganda qancha glikoza yog'ga aylanshini kuzatadi va qancha qismi qolishini kuzatadi. Ba'zi bir holatda aniqlab Gipotalamosga xabar beradi. Qaysiki ma'lumotlarni qayta ishlab va uni miyaga olin (vinn 1995) qachonki yarim och kalamush o'zini vazmini yo'qotadi. Biologik ta'sir sodir bo'ladi: ochlik ortadi. Energiya yo'qotish kamayadi. Muoznatdagi og'itil ko'rsatgichi, yarim och va yarim to'q kalamushlar – muoznat nuqtasi deb ataladi. Boshqa o'rganuvchilar aytishayabdi ki organizm ma'lum bir muoznat nuqtasi bor – ochlikni boshqaradi. Ochlik – juda ko'p faktlar bilan ko'rsatiladi. Har kuni har xil ovqat yeyishga qaramay energiyani bizni badanimiz judayam aniqlik bilan ishlab chiqaradi va ishlatadi. Bizning organizmimiz kalamushnikdek vazmini boshqaradi. Agar vazin ortib borsa biz ochlikni his qilamiz agar vaznimiz kamayib borsa biz ovqatlanishimiz shart. Ochlik xuddi boshqa ko'plab hislar kabi fiziologiya va o'zlashtirilgan tajribaning o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Qonda qandning tarkibini miya gipotalamusi boshqaradi, u ochlik va tana vazmini ham boshqaradi. Biroq ochlik to'g'ri icha gipotalamusi bog'liq emas, chunki ayrim odamlar tasbiq oziq-ovqat signallariga o'ta beriluvchan, boshqalari esa – hazim qilishning buzilishiga.

Ikkinchi jahon urushi vaqtida bosib olingan hududlardagi konsentration lagerlardagi ochlik haqidagi xabarlar fiziologik ehtiyojlarining birinchi navbada ekani yorqin namoyish qildi. Yarim ochlik natijalarini yaxshiroq o'rganish uchun olim Andel Kiz (1950) va hamkasblari o'z tajriba-sinovi uchun ko'ngillilarni topdi. Ekspementda qatnashishga rozi bo'lgan 100 nafar ongli ravishda urushga qarshi bo'lganlar orasidan tadqiqotchilar 36 nafar erkakni ajratib oldi. Ular dastlab o'zining boshlang'ich vazmini saqlab qoladigan darajada ovqatlashirildi. Keyin olti oy mobaynida ularning oziq-ovqati yarmiga kamaytirildi.

Natijani uzoq kutishga to'g'ri kelmadi. Bu haqida ongli ravishda o'ylamagani holda erkaklar energiyani tejashni boshladilar. Ular horg'in va qutiyali ko'rinardi. Ularning tana og'irligi (vazni) keskin kamayib, dastlabki ko'rsatkichlardan 25 foiz kam darajadagi ko'rsatkichlarda barqarorlashdi. Psixologik effekt yanada dramatik bo'lib chiqdi. Maslarning ehtiyojlar tarixiyasiga muvofiq, bu erkaklarni ovqat haqidagi fikrlar tamoman "yutib yubordi". Ular ovqat reitseplarini to'plar, oshpazlik haqidagi kitoblarni o'qir va qiyoyib taomlar rasmlariga tikiladilar.

Ovqatga ehtiros bizning fiziologik holatimiz (tana kimyosi va gipotalamus faoliyati) hamda o'zlashtirilgan tasbiq stimullarga reaksiyalarni tomonidan boshqariladi.

Psixologlar qanday ovqatlanishimiz va ovqatga nimalarni ishlatishni afzal ko'rishimizni o'rganadi. Ochlikni qondirgan sari ovqatlanish bilan bog'liq xulq-

⁴⁴ David Marvets Psixologiya 2008 497-498-499 betlar. (mazmunidan foydalanildi)

atvor o'zgaradi. Eliot Stellyar (1985) maxsus tish fiksatorlari yordamida buni aniqlagan, ular har bir chaynash va yutish harakatini qayd qiladigan tarzda loyihalashtirilgan. Bu moslama ovqatlanish bilan bog'liq, ehtimol, siz ularni bershini hech qachon xayolingizga ham keltirmagan savollarga javob beradi. O'racha odam buterbrodni yeganda qanchalik tez yutindi? Har 14 sekunda. Bir marta yutishga nechta chaynash harakati to'g'ri keladi? O'racha 19 ta. Odamlar qanchalik tez chaynaydi? Taxminan sekunda 1.8 chaynash harakati tezligi. Oziq-ovqat mahsuloti ta'm sifati qanchalik yaxshi bo'lsa, biz uni og'izda shunchalik kam "tutib turamiz".

Shirin va sho'r (tuzlangan) nasalarni tanlashda afzal ko'rganlarimiz genetik va universaldir. Ammo ko'pchilik ta'mga ko'ra afzalliklar nimalar bilandir belgilangan, masalan, sho'r taomlar iste'mol qiladigan odamlarda tuzni ko'p yeyishga moyillik rivojlanadi (Veauchamp, 1987), boshqalar esa kasal bo'lishidan oldin yegan taomidan nafat tuyadi (bolalarning kasal bo'lish chasiotasi turi oziq-ovqatlarga nafatning paydo bo'lishi uchun imkon yaratadi).

Digra madaniyat ham ta'sir ko'rsatadi. Beduinlar tuyaning ko'zini yeyishdan rohatlanadi, Shimoliy amerikaliklarning ko'pchiligi bundan xazar qilgan bo'lardi. Yevropa va Shimoliy Amerika aholisining katta qismi it, kalamush va ot go'shtini ishlatishdan o'zini olib qochadi (ayrim hududlarda esa buni ma'qul ko'rishadi), ular mol go'shtini yeyishni xush ko'radi (induslar esa uni yeyishni xayoliiga ham keltirmaydi). Bu kabi afzal ko'rishlar manyan oziq-ovqatni iste'mol qilish chastotasiga ko'ra variantlanadi (Pliner & Pelchat, 1991, Rozin, 1976). Biz odamlar notanish bo'lgan ko'pgina nasalarga, jumladan oziq-ovqatning yangi turlariga ham (ko'proq o'simliklar emas, balki hayvonlar bilan bog'liq) apatiyani his qilamiz. Kalamushlar ham anchedan beri tanish oziqalarni xush ko'radi. Bunday voqelikdagi "neofobiya" (yangilikdan qo'rqish) ajdodlarimiz uchun adaptiv bo'lgan va potentsial toksik moddalardan himoya sifatida xizmat qilgan. Ko'plab tajribalarda odamlarga yangi meva turlari yo'smaliy tamolarni tatib ko'rish uchun taklif qilishgan. Bir nechta bor tatib ko'rgach, ularning yangi ta'mga bahosi ortib borgan. Qolaversa, ovqatga yangi ovqat turlarining bita to'plamini ishlatish bilan bog'liq tatib ko'rishlar boshqasini tatib ko'rish istagini oltiradi (Pliner, 1982).

Odamlarda xuddi I.A. Pavlovning iltaridagi kabi so'tak ajralishi qandaydir ishtaha ochuvchi taomni tasavvur qilish (his qilish) dayoq boshlanadi. Bunday ovqat yetarli bo'lganda bu odamlar eng katta vazni to'plashga moyil.

Keling, Yudit Rodin va Djoys Sloxover (1976) ularning yozgi lagerda sakkiz haftalik dam olishi davomida kuzatgan to'g'iz yoshi va o'n besh yoshi qizlar misolini ko'rib chiqamiz. Birinchi hafta davomida qizlarning ayrimlari xatto yaxshi tushlikdan keyin ham ular uchun tayyorlangan M&M yong'oqlarini yoyishdan o'zini tiya olmadi. Bu qizlar tadqiqotchilar eksternallar deb ataydigan - ovqatlanish ichki ehtiyojlaridan ko'ra ko'proq uning borligi bilan belgilanadigan kishilar to'lasining tipik vakillari edi. Keyingi yetti hafta davomida "eksternal" qizlar eng ko'p vazni oltirdi.

Ichki va tashqi omillar o'zaro ta'sir qilishiga yorqin misol sifatida quyidagini keltirish mumkin: Rodin (1984) zx laboratoriyasiga tadqiqotning boshqa ishtirokchilarini lanchga taklif qildi, ular bunga qadar 18 soat hech nima yemagan edi. Qon probalari olish bilan bir paytda laboratoriyaga tovarda chirsillab turgan katta biftsheksni ham olib kiritildi. Och qolgan tajriba ishtirokchilari ko'zlari, quloqlari va burni bilan ishtahali biftsheksni "paqos tushirayotgan" paytda Rodin gonda insulining ortishi va ochlikka hamroh tuyg'ulami kuzatildi. Ko'rinish, hid va ovoz bilan "eksternallar" stimulyatsiyalangan vaqtda gonda insulin tarkibi ko'p va ochlikka hamroh reaksiya ularda kuzatildi. Bu tashqi stimulyat ayrim individumlarda (biftsheks) ga nisbatan psixologik tajriba ularning ichki fizologik holatiga ta'sir qilishi mumkinligini yaxshi illyustratsiyalaydi.

Asab anoreksiyasi. Normal vaznli odam (ko'proq o'smir yoshidagi qizlar) panhez yordamida o'z vaznini sezilarli darajada kamaytiradigan, biroq shunga qaramay, o'zini semiz (to'la) deb his qiladigan va och yurishda davom etadigan ruhiy buzilish.

Ovqatlanishning buzilishi. Ovqatlanish bilan bog'liq xulq-atvoriga psixologik ta'sirlar ayimga normal gomeostatik holat miflik qomatiga motiv bilan to'lib toshgan odamlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ovqatlanishning buzilishi bilan bog'liq ikkita misolni ko'rib chiqamiz.

Meri (bo'yi 1 m 50 sm, yoshi 15 da) 45 kg vaznga ega bo'la turib, yanada jozba ko'rinish uchun ozish kerak degan qarorga keldi. Ratsionni kuniga bir necha sabzavotga asta-sekinlik bilan qisqartirib, qo'shimchasiga jismoniy mashqlar intensiv dasturini bajarib, u 36 kg vaznga erishdi. Shunga qaramasdan, o'zini to'la his qilib, panhezni davom ettirishni rejalashtirmoqda. Merining uyqusi buzildi, ba'zan depressiyaga tushadigan bo'lib qoldi, uning menstrual sikli muntazam xarakterini yo'qotdi. Jitimoiy nuqta nazardan u faol emas, o'qishda o'zini u qadar namoyon qilmaydi. Meri o'zini semiz yoki davolanishga muhtoj his qiladi.

Alisa (bo'yi 1 m 80 sm, vazni 72.5 kg, yoshi 17da) hamma vaqt itqinachoddek bo'lganligini aytadi. Oxirgi besh yil davomida unda ochko'zlik kuzatildi va bu ko'pincha qusishga olib kelardi. U bir kilogramm muzqaymoq yoki bir butun pirogni yeb tashlashi, keyin bu uning vazniga ta'sir qilmastigi uchun yashirincha qusishga harakat qilardi. Alisa yigirt kishi bilan uchrashishni istaydi, ammo o'zidan uyalgani sababli buni qilmaydi. Ba'zan u ortiqcha vazndan qutulish uchun tabletkalar iste'mol qiladi.

Meriga qo'yilgan tashxis - asab anoreksiyasi, odam yetarlicha vaznga ega bo'lmay, (odatda, 15 % yoki ko'proq vazn yetishmovchiligi bo'ladi) o'zini semiz (to'la) deb his qiladi va vaznini kamaytirishga harakat qiladi. Bunday odamlar xatto ochlikdan sillasi qunsa ham, o'zini ovqatdan cheklavetadi. Bunday buzilish o'spirilikda, o'nta holardan to'g'iztasi qizlarda kuzatiladi.

Bulimiya - (ichkilikbozlikka o'shash) ochko'zlik (ko'p yeyish) davridan keyin qusish yoki ichni yurgizadigan dorilar ichib keladigan buzilish.

Alisining holati – bulimiya – ko'p yeyish va qusish yoki ichni yurgizadigan dorilar ichisidan iborat takrorlanadigan ko'p yeyish va bo'shashish (tozalaniش) epizodlari bilan kechadigan buzilish. Bulimiya bilan kasallanganlar ayrim ichkilikbozlar ichgani kabi – ruju qo'yib, ba'zan o'ziga o'xshash do'stlari ta'sirida, ovqat yeydi (Grandall, 1988). Ularning katta qismi 15-20 yo sal kattaroq yoshli qizlar. Anoreksiya bilan kasallanganlar kabi ular ham ovqat haqidagi xayollarga berilgan (shirinliklar va yog'li ovqatlar) turilmaydi, o'rtiqcha vazndan qo'rqadi va depressiya yoki xavotirlanish holatiga uchraydi va uyatni ular ayniqcha ko'p yeyish vaqtida va undan keyin his qiladi. Anoreksiya bilan kasallanganlarning qariyb yarmida bulimiyaning ko'p yeyish-tozalaniش simptomlari ham kuzatiladi. Biroq anoreksiya dan farqli o'laroq bulimiya vazning normal yoki normada u qadar oshmagan chegaralarda silkinishlari bilan kuzatiladi. Bu esa mazkur holatlarni yashinish imkonini beradi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bulimiya kuzatilgan oilalarda ichkilikbozlik, semirib ketish va depressiya xavfi ortib ketadi. Anoreksiya bilan kasallanganlar aksariyat hollarda o'ziga to'q, raqobat va nufuz ruhi bilan ta'sirlanadigan oilalar vakillari (Pate & others, 1992; Yates, 1989, 1990). Ular o'zlariga o'rtiqcha talablar qo'yadi, kuteanlari bo'lmasa, ko'ngli qoladi, boshqalar ularni qanday qabul qilishi to'g'risida o'rtiqcha qayg'uradi. (Heatherton & Baumeister, 1991; Stiegel-Moore & others, 1993). Ovqatlanishdagi buzilishlar, ayrimlar o'ylaganidek, bolalikda kattalar tomonidan suiste'mol natijasi emas (Kinz & others, 1994).

Ovqatlanishdagi buzilishlarga moyillikka genetika ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir tuxumli egizaklardan biri bulimiya bilan kasallansa, boshqasining shu darjaga sherik bo'lish ehtimoli, ikki tuxumli egizaklardan o'rtiqroq. Ovqatlanishda buzilishlari bo'lgan odamlar, shuningdek, transmitterlarning normal bo'lmagan zaxiralari ega bo'lishi mumkin, bu ularni depressiya yoki xavotir holat xavfi tomon olib boradi.

O'lishgacha ozish. Kristi Genrik gimnastika bo'yicha AQSh chempioni, anoreksiya va bulimiya kasaliga chalingan. U birgina olma yeb, to'qiz sotlab mashq qilgan kunlar ham bo'lgan. "Hayotim do'zaxga aylandi. Ichimga qandaydir hayvon o'mashib olgandek" – degandi u 1994 yilda o'limidan sal oldin. Hayotining oxirida uning vazni 30 kg dan kamroq – kasalxona to'shaqidagi skelet edi (Deardorf, 1994).

Anoreksiya va bulimiya vaznga katta ahamiyat beriladigan madaniyatlarda ko'p hollarda ayollar o'rta-sida uchrashning madaniyat bilan belgilangan izohi ham mavjud. Ovqatlanishda buzilishi bo'lgan qizlarning onalari ko'pincha o'zlar o'z vazniga, qizining vazniga va uning tashqi qiyofasiga e'tiborini qaratadi. Asab anorechiyasi hamma vaqt ozish uchun parhezdan, bulimiya bilan kasallanganlarning atayin qusishi – parhezdagi cheklashlarni buzish va ko'p yeyishdan boshlanadi. Bulimikning organizmi parhezni arang uddalaydi,

yo'qotilgan yog'larni tiklash uchun ovqatga ehtiyoj his qiladi. Tabiiy vazn muvozanati tik qomat idealidan ancha katta bo'lganlar o'zi.

Go'zallik idealari asrlar davomida o'zgaragan bo'lsa-da, barcha davrlarda ayollar o'z qomatini modadagi idealga moslashga intilgan. Shu tariqa, bugungi ovqatlanish buzilishi bilan bog'liq kasalliklar natijada jabrlanarlarning ichida, balki vazn ustida qayg'uradigan va "yog" – bu yomon" deb uqitiradigan (bu millionlab ayollar uchun "hamma vaqt parhez tutish"ga motivatsiya yaratadi va ko'p yeyishga undaydi, odamlarni yarim ochlikda yashashga majbur qiladi) madaniyatlar ichida hamdir. "O'rtiqcha darajada boy yoki og'ir bo'lish mumkin emas", – degandi gersoginya Vindzorskaya.

Tik qomat va go'zallik etaloni, shubhasiz, moda jurnallarida, reklama va ayrim o'yinchoqlarda tasvirlangan ayollar tashqi qiyofasi yordamida beriladi. Ayollarga jurnallardagi og'ir in modellarni ko'rsatib, Erik Stays va Xizer Shou ta'kidlaganidek, ular uyat, tushkunlik va qomatdan qoniqmaslikni his qila boshlaydi – bu ayni shunday kayfiyatlar, ular ovqatlanishdagi buzilishlarga moyillik uyg'otadi. Biroq ultraozg'in modellar ham modadagi o'yinchoq – Barbi standartlariga mos kelmaydi. 174 sm bo'y bilan nisbatlangan uning 32-16-29 parametrlari qomati (santimetrdan byust 82, 41 – bel, 73 – beldir) yuz million ayolda bir mara uchraydi.

Ayollarning buzilgan idroki ularning, erkaklar jozibador deb topadigan, tana shakllari haqidagi tasavvurlariga ham taalluqli. Pensilvaniya universitetining 500 nafarga yaqin talabasi bilan o'tkazilgan maxsus tadqiqotda Eypiril Fellon va Pol Rozin aniqladiki, ayollarning ideal vazni ularning haqiqiy vazndan kam bo'lgani kamdek, ularning fikricha erkaklar xush ko'radigan vazn ular ko'zda tutganidan ham kamroq bo'lib chiqdi. Tadqiqotchilar erkaklarning o'z-o'ziga bahosida bu kabi tafovutlarni aniqlamad. Ular ideal vazn, o'zining haqiqiy vazni va ayollar afzal biladigan vazni ko'p hollarda bir xil baholadi. Ayollarning ma'lum darajada qoniqmasligi ularning yuzlari (yanog'lar), beli va beldirlari asidagidan kattaroq ko'rinishi haqidagi soxta tasavvur bilan bog'liq (Tompson, 1986).

O'z shaxsiy qadriyatini past baholagan ayollar o'z tanasi haqida salbiy fikrlarga va ovqatlanishning buzilishiga ko'proq moyil.

1993 yilda o'tkazilgan milliy tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, AQSh lik ayollarning qariyb yarmi o'zining tashqi qiyofasidan mamnun emas, o'zini to'la (semin) deb biladi yoki semirib ketishdan xavotirlanadi.

Tana ideali madaniyat va vaqtga bog'liq holda o'zgaradi. Hindistonda ideal real tashqi qiyofaga yaqinroq. G'arb madaniyatlarida esa ovqatlanishning buzilishi orib borishi keyingi ellik yillar mobaynida shakllangan xunuk tana haqidagi tasavvurlarning dramatik tarzda tarqalishi bilan mos keldi.⁴⁵

⁴⁵ David Malters Psixologiya 2008 500-504 betlar. (mazmunidan foydalanildi)

Maslouning motivlar ierarxiyasida hali qondirilmagan ayrim ehtiyojlar boshqalarga nisbatan ko'proq qo'zg'atuvchi ekani haqidagi g'oya aksini topgan.⁴⁶

A. Maslou konsepsiyasida motivatsion jarayonlar boshqaruvda odam ongining ishtiroki, boshqaruvdagi roli e'tiborsiz qoldirilgan. Olim ehtiyojlar ierarxiyasidagi vertikal munosabatlarni tahlil qilib, bir darajada joylashgan ehtiyojlar orasidagi gorizontal munosabatlarni esa o'rganilmagan.

Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlagan, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi.

Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi muhim savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmuni tomoniga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya, boshqaruv va xulq-atvorga taqsimlaydilar.

Ierarxiy, darajaviy tuzilish – bu tizimlilik xususiyatiga ega bo'lgan hodisalarning bir jihati. Shu tufayli shaxs motivatsion sohasining ierarxiyasini samarali tadqiq etish uchun uni motivatsion hodisalarning boshqa jihatlari bilan aloqadorlikda o'rganish zarur bo'ladi. Motivatsion hodisalar tizimlilikni tadqiq etishda asosiy e'tibor esa bu hodisalar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishga qaratilishi kerak. Bu borada R.S. Vaysmaning shaxs motivatsion sohasining tizimlilik haqida bildirilgan fikri alohida e'tiborga loyiq. Uning yozishicha, «Motivatsion sohaning tizimlilik – motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlik, xilma-xil munosabatlarni mavjudligida namoyon bo'ladi. Shunday munosabatlardan biri ierarxiy munosabatlardir. Yana bir turdagi munosabatni «ro'yobga chiqarish» munosabati deb atash mumkin. Bu munosabat shuni anglatadiki, har bir ehtiyojning qondirilishida turli motivlar yig'indisining ro'yobga chiqarilishi mumkin. Uchinchi turdagi munosabat shunda namoyon bo'ladi, har xil ehtiyojlarining qondirilishida bir motiv ishtirok etadi yoki aksincha, bir ehtiyoj qondirilishida turli motivlar qatnashadi. Bunday munosabat «o'zaro tobelik» munosabati nomini oldi.

R.S. Vaysman shaxs motivatsion sohasidan tizimli munosabatlarning juda qiziq tasnifi keltiradi. Ammo ajratilgan munosabatlarni qatorini boshqaruv, tartiblashtirilganlik va shu kabi munosabatlarni bilan to'ldirish mumkin bo'ladi. Qolaversa, R.S. Vaysman motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi tizim hosil qiluvchi asosiy munosabatni ajratmagan, bir turdagi va har xil turdagi motivatsion hodisalarni bir-biridan farqlamagan.

Xorij psixologlari tadqiqotlarida motiv va motivatsiya masalasi

Chet el olimlarining motivatsiya sohasidagi tadqiqotlari orasida G.Olportning motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformatsiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida talqin etiladi. G.Olport o'z konsepsiyasida tizimlarning umumiy nazariyasi g'oyalardan, ayniqsa, ochiq tizimlar haqidagi g'oyadan keng foydalangan. Olimning fikricha, shunday motivlar borki, ular yarim yopiq tizimlarning tabiatiga monand faoliyat ko'rsatadi va rivojlanadi, ya'ni funksional avtonomiyaga ega. Bir tizimga kiruvchi motivlarni G.Olport reaktiv, tashqi undovga muhtojlik qonunlariga bo'yisuvchi motivlar, deb ataydi. Ammo G.Olportning ta'kidlashicha, shaxs ochiq tizimlar kabi o'zgaruvchi va rivojlanuvchi motivlar bilan tavsiflanadi, degan fikr haqiqatga yaqinroqdir. Agar avvalgi tizim motivlarning perseverativ funksional avtonomiyasi, deb atalgan bo'lsa, keyingi tizimni G.Olport propriativ funksional avtonomiyaga, deb ataydi. Ochiq, yopiq va yarim ochiq tizimlar haqida to'xtalarkan u yopiq tizim modelini shaxs va uning motivatsiyasiga qo'llab bo'lmasligini ta'kidlagandi. Ochiq funksional tizim taraqqiyot uchun zamin hozirlaydi, uni esa undovchi muhtojlik doirasida tushuntirib bo'lmaydi.

G.Olport tomonidan shaxs motivlarining ochiq tizimlar sifatida tahlil etilishi, shaxs va shaxs motivlari taraqqiyoti chegarasiz jarayon ekanligini ta'kidlash uchun imkoniyat beradi.

Shunday qilib, biz shaxs motivatsion sohasi haqidagi turli qarashlar, ularni tizimli yondashuv g'oyalarining aks etishi masalasini ko'rib chiqdik. Mazkur qarashlar motivatsiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarning ajralmas qismini tashkil etadi. Ko'rsatib o'tilganidek, psixolog olimlar tomonidan motivatsion soha tizimlilikga oid turli jihatlarni qayd qilinmoqda. Ayni damda motivatsion mexanizmlar haqidagi tizimli yondashuvga asoslangan tasavvurlar turli yo'nalishlarda tadqiq etilmogda. Biroq tadqiqotlarning barchasini bir yo'nalish – motivatsion hodisalar o'rtasidagi ma'no hosil qiluvchi aloqa va munosabatlarni tadqiq etish atrofida birlashtirish mumkin.

Ko'pchilik psixologlar fikricha, motivatsiya muammosi shaxs psixologiyasining markaziy muammosidir. Shaxs psixologik tuzilishining butunligi, xulq-atvor va uni harakatga keltiruvchi kuchlar o'rtasidagi aloqadorlik motivatsiya muammosini o'rganishda tizimli yondashuvni qo'llash uchun keng imkoniyat yaratib beradi.

Xorij psixologlardan neofreydistlar hisoblanmish A. Adler, K. Yung kabi tomonidan ilgari surilgan motiv va motivatsiya borasidagi nazariyalarga asosiy e'tiborni qaratamiz. A. Adlemining fikricha, insonni harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyatini maqsadini aniqlovchi, ularni erishish yo'llari manbai hisoblanadi. Xonining ta'kidlashicha, inson xulqi motivatsiyasini boshqa motivlar yordamida aniqlash mumkin. Jumladan, birlamchi bezovtalanishi atrof-muhitga nisbatan dushmanlik hissinin tug'diradi, xavfsizlikka ehtiyoj esa insonni boshqa odamlar tomonidan baholash va o'z-o'zini baholashga nisbatan ichki

⁴⁶ David Mayers Psixologiya 2008. 494-496 betlar. (mazmunidan foydalanildi)

intilishini vujudga keltiradi. E.Fromm ham o'z qarashlarida ibtido masalasiga katta e'tibor bermaydi, chunki uni qiziqitgan muammo inson xulqi jahlalarida ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonidir.

Geshalt psixologiya maktabi namoyondalari uchun motivatsiya o'ziga xos talqimga ega bo'lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o'rganishga nisbatan intilish yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. K.Levin (1890-1947) motivlarni eksperimental o'rganish metodikasini ishlab chiqib, ularni mulahoqa mustaqil holat sharoitida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshalt psixologiya maktabining namoyondalariga obraz tushunchasi qanchalik o'ta ahamiyatli bo'lsa, K.Levinning maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Obraz va motiv o'zaro aloqasiz hukm surishi ta'kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli ma'noviy mazmuni esa inkor qilinadi.

K.Levin motivni quyidagicha ifodalaydi: motiv – muayyan muvaffaqiyatni mikrointervald shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlardan kelib chiquvchi voqelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil ma'no anglatuvchi ikkita motivatsion o'zgarish hukm surishi tan olinadi. Geshalt psixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudki, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim xususiyatlarini tahlil qilish nevizidan kelib chiqib qaratiladi. Ushbu holat G.Olport konsepsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uningcha, eng muhim jihat bu inson xulqini o'zgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlar omillarini tekshirishlari ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab yetish qiyin emas.

Rus psixologlari orasida V.G.Aseevning tadqiqotlarida motivatsion tizim masalasi ancha chuqur o'rganilgan. Uning fikricha, inson motivatsion sohasining ontogenetik tarqiyoti davomida bu soha tizimli rivojlanishga nisbatan moyillikni namoyon etadi. Bu moyillik V.G.Aseev ko'rsatishicha, stixiyali shakllanuvchi, undovchi kuchlarning kattaroq motivatsion birliklarni o'zaro qo'shib hosil qilishda namoyon bo'ladi. Motivatsion tizimning birligi sifatida V.G.Aseev undovchi kuchlarni qayd etadi. Bu tushuncha doirasiga u motiv, ehtiyoj, qiziqish, intilish, maqsad, ideal, mayl, motivatsion ustanoq va boshqalarni kiriyadi. Shunday qilib, V.G.Aseev turli motivatsion hodisalar, mayl turlari o'rtasida tizimli munosabat mavjud deb hisoblaydi. Demak, bunday yondashuvda motivatsion tizim komponenti mayl bo'lib hisoblanadi.

V.G.Aseev shaxs motivatsion sohasining tuzilishi muammosiya ham katta e'tibor beradi. Uning qayd etishicha, inson motivatsion sohasining tuzilishi quyidagi xususiyatlarga ega: situatsion va impulsiv undovchilarning yonma-yon joylashganligi, shaxsiy mayllarning mazmun va dinamik sifatlariga ko'ra birligiga yaqinligi. Bu xususiyatlar motivatsiyaning tizimli sifatlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Ayrim tadqiqotchilar masalan, V.E.Chudnovskiy, V.I.Kovalev motivlar tizimi va shaxs yo'nalishi o'rtasida aloqadorlik mavjudligini qayd etmoqda. P.T.Yakobson esa xulq-atvor motivatsiyasi muayyan qadriyatlar tizimlari bilan bog'liqligini ta'kidlab, motivlarni shaxs qadriyatlarini orientatsiyasiga tobe birliklar sifatida o'rganishni taklif etadi. Uning fikricha, bunday izlanish ijtimoiy psixologik yo'nalishda amalga oshirilishi kerak.

Motivlar tizimi tushunchasiga berilgan ancha keng ta'rifi adabiyotlarda uchratish mumkin. Jumladan, V.S.Morozovning qayd etishicha, «Shaxs motivlar tizimini uning sub'ektiv ehtiyojlari, maqsadlari, g'oyalari, qarashlari, tasavvurlari shuningdek, intilishlari, shakllari va boshqalar tashkil etadi». Bunday ta'rifda «tizim» tushunchasi qanday ma'noda qo'llanilayotgani ancha noma'lum. Uni aniqlashtirish talab etiladi.

Yuqorida tilga olingan muammolar bilan shaxs motivatsion sohasining darajaviy tuzilishi muammosi bevosita bog'liq. Psixik hodisalarning darajaviy tuzilishi g'oyasi psixologiyada keng tarqalgan va tadbir etib kelinmoqda va bu bejiz emas, zero darajali tuzilish haqidagi tasavvurlar turli psixik hodisalarning muayyan tizimga keltirilgan modellari hosil qilish imkoniyatini beradi. Shaxs motivatsion sohasida o'z darajasi va murakkabligiga ko'ra turlicha bo'lgan motivatsion hodisalarning mavjudligi darajaviy tuzilishi haqidagi g'oyalarning bu yo'nalishda ham samarali qo'llash uchun sharoit yaratadi.

Inson motivatsion sohasining ierarxik darajaviy tuzilishi masalasi motivatsiya bilan bog'liq eng o'tkir va keskin bahslarga sabab bo'luvchi muammolardan biridir. Hozirgacha alohida olingan motivatsion hodisalarning ierarxik tuzilishi ehtiyojlar ierarxiyasi va boshqalar tadqiq etib kelingan. Ammo barcha motivatsion hodisalarning yagona ierarxik tuzilishi haqidagi masala yetarlicha o'rganilmagan.

Rus psixologlari orasida motivlar ierarxiyasi masalasi A.N.Leontev, L.I.Bojovich va boshqalar tomonidan o'rganilgan. A.N.Leontev XX asrning 40-yillarida maktabgacha yosh davrida shaxs shakllana boshlashini ta'kidlar ekan, bu jarayon bolada motivlar ierarxiyasi tarkib topishi bilan bog'liqligini uqtirgan edi. A.N.Leontev fikricha, sub'ektiv tashqi olam bilan birga munosabatlari kengayib borgan sayin motivlarning o'zaro solishtirilishi yuz beradi, buning oqibatida esa ular o'rtasida ierarxik munosabatlar shakllanadi. Motivlar ierarxiyasi olimning fikriga ko'ra, motivlar funksiyalari bilan belgilanadi. Boshqacha qilib, ayganda ierarxiyada yuqori o'rinni, ma'no hosil qiluvchi funksiyani bajaradigan motivlar quyi o'rinni esa stimol motiv egallaydi. Demak, A.N.Leontev motivlar funksiyasining ikki darajasini: ma'no hosil qiluvchi va stimol darajalarini ajratadi. Ammo A.N.Leontev o'z nazariyasida motivlar ierarxiyasining shakllanish jarayonida shaxsning sub'ektiv, faol roli qanday bo'lishini ko'rib chiqmaydi.

L.I.Bojovich tadqiqotlarida, shuningdek, ayrim boshqa ilmiy izlanishlarda motivlar ierarxiyasining shakllanishi dominant motivlarning hosil bo'lishi bilan bog'lanadi. Har xil yosh bosqichlarida turli motivlar dominantlik qiladi. Ayrim

motivlarning ustunlik qilishi shaxsning yo'nalishini belgilab beradi. Bunday yo'nalish shaxs motivlari o'rtasida nafaqat subordinatsion, balki koordinatsion munosabatlar ham hukm surishini taqozo etadi.

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'z-o'zini qanday tutishi e'gallagan mavqe ham sababsiz o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatining amalga oshirishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada «motiv», «motivatsiya» tushunchalari ishlatiladi.

Shaxsning jamiyatda odamlar o'rtasidagi xulqi va o'zini tushuntirish sabablari o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya'ni holati, harakat e'gallagan sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'llajlar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari, ya'ni bular aynan aniq holatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Har qanday motivlarning asosida shaxsning ehtiyojlari yotadi, ya'ni maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar bo'ladi va aynan ularning tabiiat va zaruriyatiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi. Masalan, talabning o'quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilim olish, qiziquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma'lum bir davrida, masalan, bog'cha yoshidan boshlab qondirila boshlaydi. Bolaga sohib olib berilgan kitoblar, daftar va boshqa o'quv qurollari, ma'lum ta'lim maskanida tashkil etilgan shart-sharoitlar va u yerdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o'zi bo'la uchun motiv o'rinni bosadi.

Rus olimi R.Nemov shaxsdagi motivatsion sohani quyidagicha tasavvur qiladi.

Umuman har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. Biologik ehtiyojlar – fiziologik, jinsiy moslashuv ehtiyojlari.
2. Ijtimoiy ehtiyojlar – bu mehnat qilish bilan estetik va ahloqiy, ma'naviy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo'lgani bilan shu narsani unutmashimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni ular o'sha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlarning munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Xorij psixologiyasida o'qish motivlarining nazariy tahlili

O'qish, o'quv faoliyati motivlari haqidagi chet el olimlarning asarlarida ilgari sun'langan g'oyalarni tahlil qilar ekamiz, quyidagilarga e'tiborni qaratish joizdir. Jumladan, nemis olimi Z.Freyd va U.Makdaggall motivatsion omil sifatida hayvonlardagi organik ehtiyojlarni, ya'ni instinktni odamlarga nisbatan qo'llay boshlashdi va inson fe'l-atvoriga bo'lgan qarashlar ichida birinchi nazariya sifatida maydonga chiqdi.

Bulardan tashqari XX asr boshlarida yana ikki yangi yo'nalish paydo bo'ladi, bu motivatsiyaning xulq nazariyasi va oliy asab faoliyati nazariyasidir.

Inson xulqi affektiv kognitiv determinatsiya muammosini tahlil qila turib, kognitiv psixologiyaning boshqa vakili X.Xeksausen shunday xulosaga keladi-ki, faoliyat determinatsiyasi kognitiv (bilish) va affektiv jihatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekan, ularidan qaysi biri rag'batlantiruvchi kuch ekanligi haqidagi savol o'z ma'nosini yo'qotmadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qish motivatsiyaning o'rni butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tomonlama o'rganilgan. O'quv samaradorligini oshirishda o'quv motivatsiyaning rolini chet el olimlari o'z tadqiqotlarida tadqiq qildilar. Shu nuqta nazardan turib, qo'zg'atuvchilardan tashqari sodir bo'ladigan xatti-harakatlarni tushuntirish bo'yicha bir talay modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni ko'rib chiqish ichki motivatsiyaning mexanizmlarini tahlil qilishda qo'l keladi. Shunday modellardan birini Olport taklif qiladi. Olport ichki motivatsiya bilan bog'liq bo'lgan uchta motivatsion tushunchalarni tahlil qiladi: funksional avtonomiya, yetarli darajadagi harakat va «Men»ning jalb kilinganligi. U funksional avtonomiya tamoyilini faoliyat davstaval boshqa sabab bo'yicha paydo bo'lishi mumkin bo'lgan holda, o'zi uchun maqsadga aylanishi holatini tushuntirish uchun kiritadi.

E.Torndayk tajribalarining alohida tomoni ularning juda tor va cheklangan xarakterga ega ekanligidadir: ular real o'quv jarayoni bilan juda oz darajada bog'langandir.

Amerikalik mualliflar ko'proq o'quv jarayoni anglab yetilgan motivlari bilan emas, balki ayrim jihatlari kamroq fahmlanadigan ko'rinishda bo'lib, o'quv jarayoniga mayli-istak uyg'otadigan muammo o'qishni motivlashirish masalalari bilan shug'ullanadilar. Bunday ilmiy ishlarining mualliflari, masalan, o'quvchining sonlarni yodlashiga, alohida hatti-harakatlariga qaysi psixologik jihatlari ta'sir ko'rsatishlarini o'rganadilar va shu yo'l orqali motivlashirishning ayrim komponentlarini aniqlashga harakat qiladilar. Bu sohada ular E.Torndaykning izdoshlari hisoblanadilar.

E.Torndayk o'quv jarayonini shunday ta'riflaydi: «O'quv jarayoni u yoki bu javob reaksiyasining ma'lum holati bilan muayyan bo'shliqda, ya'ni ushbu reaksiya hamda vaziyat o'rtasida ma'lum aloqa o'rnatilishi bilan izohlanadi».

Tomdayk kishi o'zi hohlagan reaksiyaning takrorlanishiga nisbatan ro'yxushlikning hamda o'zi hohlagan reaksiyaga nisbatan bo'lgan maylining ta'sirini o'rganishga harakat qiladi va shunday xulosaga keladi: «Bir xil sharoitda yuzaga kelgan jazolash omillari rag'batlantirish omillaridan ancha bo'sh va kuchsizdir». Keyingi kitobida esa: «Rag'batlantirish umuman o'ziga e'lonuvchi barcha aloqalarni yoqlash va kuchaytirish an'anasiga ega, jazolash esa tez-tez (lekin har doim ham emas) aloqalarni muayyandan noaniqqa o'zgartirish xususiyatiga ega», – deb yozadi.

Bruner ham o'qishni motivlashirish masalasiga E.Torndaykdan boshqacha qaraydi.

«O'quv jarayoni» nomli izlanishlarida Bruner o'quvchining real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o'qish jarayoni tufayli tug'iladigan amaliy va nazariy muammolarni izlashga harakat qiladi. Bruner o'qishni motivatsiyalash, yoki o'qish jarayoniga nisbatan o'quvchilarning moyilligini o'rnatuvchi omillar haqida emas, balki uning bilan birga, o'quvchining motivlari haqida ham fikr yuritadi. Garchi uning fikrlari umumiy xarakterda bo'lsa ham, ulardegi ayrim yo'nalishlar diqqatga sazovordir. Bu birinchi galda, o'qish jarayonida bilish xarakteridagi motivlarning ahamiyati va yangi narsani bilishdan paydo bo'ladigan ichki qanotat hissi, himoya masalalarining qo'yilishidir.

Ta'lim berishda rag'batlantirish va jazolashning roli haqida juda ko'p yozilgan, lekin «yangilikni ochish»da qiziqishning, ichki kechimmalarning ahamiyati haqida juda kam gapirilgan. Agar biz pedagog sifatida bolalarni borgan sari kattaroq o'quv mavzularini egallashga o'rgatishni istasak, atfiddan, o'quv dasturini puxta maydalab o'rganishda ko'proq ichki «rag'batlantirishni» qo'llashimiz lozim. Keyingi paytlarda muhokama etilayotgan predmetning murakkab bo'limlarini o'rganish usullaridan biri shundaki, o'quvchilarning imkoniyatlari hisobga olinib, ularning o'z qobiliyatlari va kuchlarini yetarli darajada sarflay olishlari uchun sharoit yaratilsin, toki ular samarali mehnat faoliyatidan qoniqish hosil qilsinlar. Tajribali pedagoglar bunday mehnat gashitning kuchini yaxshi biladilar. Biron-bir muammoni hal qilishga chuqur shu'ng'ib kegan kishi nimalarni his qilishini o'quvchilar bilishi lozim.

Murakkab o'quv materialini o'zlashtirishda ichki motivning moyillik uyg'otuvchi kuch sifatidagi ahamiyati haqida Bruner shunday deb yozadi: «Shubhasiz, masalan, mavzu o'rganilishi jihatidan qanchalik davomli va material jihatidan keng bo'lsa, o'quvchi shunchalik ko'p intellektual «rag'batlantirish» olishi kerakki, ana shunda u keyingi mavzuni yetarli qiziqish bilan o'rganishga kirishadi. O'quvchi uchun materialni u qadar chuqur tushummaslik, deylik, navbatdagi sinfga ko'chish singari tashqi jihatlar rag'batlantirish bo'lib xizmat qilgan hollarda, navbatdagi bilimlarni egallash uchun bo'lgan intilish bola sinfdan-sinfga ko'chishni tark etganda, ya'ni maktabni tugatganda to'xtaydi».

O'quvchining ta'limni motivatsiyalash va diagnostika qilish haqida fikr yuritgan olimlar G.Levald (1985) va G.Rozenfeldning fikricha, bu ish amalg'a oshiriladigan vaziyatni ham hisobga olish kerak, chunki bu ta'lim motivatsion diagnostikasi uchun muhimdir.

G.Levald (1985) ta'lim diagnostikasi vaziyatni, yo'nalishni hisobga oladigan yoki tabiiy sharoitga mos bo'lishi lozim, -deydi. Masalan, rag'batlantiruvchi material haqqiy hayotga mos kelishi lozim, chunki sun'iy shart-sharoit, muhit shaxsiy xususiyatlarning yuzaga chiqishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Vaziyat nazariyasini diagnostika qilish vazifalarini tadbiq qilgan G.Rozenfeld (1975) ko'rsatadiki, vaziyat atrof-dorliqning vaqtinchalik va

fazoviy tavsifidir va u sub'ekt bilan ob'ektning integratsiyasi tomonidan belgilanadi.

O'quv motivlari – bu o'quvchilarni o'quv faoliyatining turli tomonlariga yo'naltirishdir. Masalan, o'quvchining o'zi o'rganayotgan ob'ekt bilan bajaradigan ishga qaratilgan bo'lsa, ularni bilish motivlari deb atash mumkin. Agar o'quv faoliyati o'quv jarayonida turli kishilar bilan to'g'ri mulqot qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, ijtimoiy motivlar namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ba'zan o'quvchilarda bilish jarayoni, qo'lganlarida esa boshqalar bilan mulqot o'qish faoliyatini motivlashtirib turadi.

A.K.Markova motivlarni 2 ta katta guruhlariga ajratgan.

1. O'quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog'liq bilish motivlari.
2. O'quvchining boshqa kishilar bilan o'zaro ijtimoiy (sotsial) motivlari.

Bu motiv turlari psixologik adabiyotlarda keng o'rganilgan.

Psixologlar tomonidan o'quv motivatsiyasining salbiy va ijobiy tomonlari mavjudligi ta'kidlab o'tilgan. Salbiy motivlar o'quvchi tomonidan agar u o'qimasa, ko'ngilsizlik, noqulayliklar va noaniqliklarni vujudga kelishi bilan bog'liq holda anglangan undovchilardir.

Ijobiy motivlar o'qish bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish, bilim egallashning yangi usullarini o'zlashtirib olish, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishda o'z aksini topadi.

Motivlarning yana bir xususiyati uning vujudga kelishi tezligi va kuchida o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. O'quvchining diqqat markazida o'quv motivlarining namoyon bo'lish shakllari tushni kerak. Bu asosda o'quvchi o'quvchi faoliyatining motivlari haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi. Shundan so'ng motivlarning ichki xususiyatlari salbiy modalikka ega bo'lgan ko'ngilsizlikdan qochish kabi beqaror motivlarga e'tibor berishimiz lozim.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'zlashtirish, bilimlarni egallash va o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart.

Bilish motivlari shaxsning (sub'ektning) gnesologik maqsad qo'yish san, ya'ni belgilangan maqsadni qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiriladi. Odatda bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi.

Tashqi motivlar jazolash, taqdirlash, xavf-xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezuu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadiga nisbatan tashqi omillar, sabablar

bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o'ta muhimroq boshqa hukmon (etakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush, noqulay vaziyatdan qochish ijtimoiy, yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish, muvaffaqiyatga erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo). Bu turdagi yoki jinsdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallashda qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy maqsadi o'qish emas, balki ko'proq o'yin faoliyatiga moyillikdir. Mazkur vaziyatda o'qituvchining o'qishga ularni jalb qilish miyati o'quvchilarning o'yin maqsadining ushlishiga halqat berishi mumkin, lekin bunga izoh, talab dalillar yetishmaydi.

Motivlarning navbatdagi to'rtasiga, ya'ni ichki motivlar turkumiga individual xususiyatli motivlar kiradi, ular o'quvchi shaxsida o'qishga nisbatan individual maqsadni ruyobga chiqaruvchi qo'zg'atish negizida paydo bo'ladi. Chunonchi bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma'naviy (madaniy) darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning yetilishidir. Bunga o'xshash motivlarning ta'sirida o'quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmaydi. Albatta, bunday toifaga taalluqli motivlar paydo bo'lishiga qaramay, ba'zan qiyinchiliklar vujudga kelishi ehtimol, chunki bilimlarni o'zlashtirish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Bunday xossalarga ega bo'lgan irodaviy zo'r berishlar tashqi halqat beruvchi qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovchilar) kuchi va inkoniyatini kamaytirishga qaratilgan bo'ladi. Pedagogik psixologiya muqtafi nazaridan ushbu jarayonga yondashilganda, mulqotli vaziyatga optimal (oqilona) deyiladi.

Hozirgi davrda o'qish motivatsiyasini diagnostika qilishning boshqa yo'llari tavsiya qilinmayapti: laboratoriya eksperimentlarini pedagogik tajribalar bilan (tabiiy diagnostika uslublarini qo'llash), shuningdek real o'quv jarayoni sharoitida o'quvchining ijtimoiy xulqini uzoq muddat o'rganish bilan to'ldirish mumkin (A.K. Markova), bu o'qish motivatsiyasini diagnostika qilish natijalarini tekshirish sifatida xizmat qilishi mumkin deb ta'kidlaydi.

O'qish motivatsiyasini diagnostika qilish uni o'tkazish uchun uslub tanlash tamoyillarini aniqlashni talab qiladi. Ta'lim motivatsiyasini diagnostika qilishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqqan holda, eng kamida, quyidagilarni ajratish mumkinligi N.E. Efimova tomonidan tavsiya qilingan, biz ularni quyida keltiramiz.

1. Diagnostika o'tkazish uchun asos bo'ladigan ta'lim motivatsiyasi ko'rsatkichlarini belgilash.
2. Uch toifadagi diagnostika uslublarini tanlash, bevosita loyihaviy va bilvosita-ta'lim motivatsiyasi ko'rsatkichlarini diagnostika qilishga yo'naltirilgan uslublar.
3. Har bir uslubning ajratilgan ko'rsatkichlarga bo'lgan diagnostikaviy imkoniyatlarini aniqlash.

4. Mazkur metodika natijalarini namoyon qilish chog'ida hisobga olinadigan nazariyani uslubning metodologik asosini hisobga olish.

5. Metodika mamlakatning o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi.

6. O'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.

7. Diagnostikani o'tkazish

Agar ijtimoiy motivlar ham ta'lim faoliyati uchun yetakchi hisoblansa, bir qator mualliflar (P.Ya. Galperin va boshqalar) ta'lim faoliyatiga nisbatan ularga tashqi motivlar sifatida qarashadi.

P.Ya. Galperin fikricha, tashqi motivlar ta'lim jarayoni va predmetga nisbatan «amaliy» munosabatlarda namoyon bo'ladi, bunda bilim keyingi faoliyat uchun tashqi shart-sharoit sifatida qaraladi va u ichki ta'limga bo'lgan barqaror qiziqish bilan bog'liqdir. Tashqi motivlar ichida aynan tashqi yoki utilitar motivlar (bunda harakatning shakllanishi, sub'ekt moyil bo'lgan faoliyatni amalga oshiradigan shart-sharoit hisoblanadi) va musobaqaviy motivlar ajratiladi, bunda sub'ekt boshqalarga va o'z-o'ziga o'zining oldingi muvaffaqiyatlarini qiyoslagan holda muvaffaqiyatlarga intiladi.

P.M. Yakobson ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ijobiy yoki salbiy motivlarni tashqi motivlar deb, ta'lim jarayoniga singdirilgan motivlarni esa ichki motivlar deb hisoblaydi.

Ammo bir qator zamonaviy tadqiqot mualliflari, mazkur motivlarning o'qish sharoiti uchun ahamiyatini tushunishdan kelib chiqqan holda, o'qishning ijtimoiy motivlariga nisbatan «tashqi» degan termini ishlatishdan qochadilar. Masalan, A.K. Markova bilish motivlari ichida keng ta'limiy (yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan), o'quv-bilim (bilim olish usullarini egallashga yo'naltirilgan) motivlarni farqlaydilar.

Ijtimoiy motivlar ichida: keng ijtimoiy (jamiyatga foyda keltirish uchun bilim olishga intilish), pozitsiyaviy (atrofdagilarning ma'qullashiga va obro' o'rnatishiga intilish), o'qish davomida boshqalar bilan hamkorlik motivlari farqlanadi.

M.V. Matyuxina ham o'qish faoliyati jarayoniga singdirilgan quyidagi ikki toifa motivlarni ajratadi:

A) mazmun vositasida motivlashish (uchta darajasi mavjud, qiziqish-qiziqarilish, dalillarga bo'lgan qiziqish, voqealar mohiyatining kelib chiqishiga qiziqish);

B) jarayon vositasida motivlashish (uchta darajasi mavjud, ijrochilik faoliyatini bajarish sifatida, qidiruv ijrochilik qoidalarini keltirib chiqarish sifatida, ijodiy-mustaqil ravishda masalalar tuzish).

O'quv faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lgan motivlar:

- A) keng-ijtimoiy;
- B) tor-shaxsiy;
- V) salbiy.

O'qish motivlarini ichki va tashqi motivlarga bo'lishga kelsak, bu bo'limish funksional tabiatga ega va o'qish harakatlari va ular o'rtasidagi tuzilish jihatidan

tahlil qilishni talab qiladi: ular orasida bevosita aloqa bo'lsa, tashqi motiv haqida gapirish mumkin.

A.N.Leontevning fikricha, biz «faqat tushunadigan» va real harakatdagi motivlarga duch kelamiz. Bola ko'pincha qancha o'qish zarurligini yaxshi tushunadi (anglaniadigan motivlar), lekin bu narsa ham unga o'quv faoliyati bilan shug'ullanish uchun turli bo'la olmaydi. Bu bilim mayl shaklini olsagina, biz real harakatda motiv bilan ish ko'rgan bo'lamiz. Faqat tushunadigan motivlarga ma'lum sharoitda harakatdagi motivlar shaklini oladi. Bu narsa motivatsiyani qayta qurish uchun jiddiy ahamiyatga egadir. Maktabning vazifasi ham bola motivatsiyasini qayta qurishdan iboratdir.

Ta'kidlash kerakki, A.N.Leontev nazariy tafakkurga ega bo'lish, asos sifatidagi bilish motivlarining rivojlanish masalasiga katta e'tiborni qaratgan. U psixik jarayonlarning shunday dinamikasini ochishga harakat qildiki, bunday dinamik motivatsiya rivojlanishi asosida o'quvchilarni bilimlarni egallashga olib keladi.

L.N.Bojovich ta'limni motivatsiyalash muammosi bo'yicha o'z oldiga o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabati, psixologik jihatlar qanday maydonga chiqadi degan masalani hal qilishni maqsad qilib qo'yadi. Bu munosabating psixologik mohiyatini ochadigan muhim jihatlardan biri «o'quvchilar o'qish faoliyatini» belgilaydigan motivlarning yig'indisi hisoblanadi. Bunda ta'lim motivlari deganda, biz bola nima uchun o'qishga majbur bo'lishini tushunamiz».

L.N.Bojovich ta'kidlashicha, o'qish motivlari bolaning asosiy munosabatlari bilan, uning ehtiyojlari va intilishlari bilan ichki aloqada bo'ladi. Aynan shu tufayli ular yetarli majburlash kuchiga ega bo'ladi.

O'quv faoliyati motivatsiyasi muammolari o'zbekistonlik psixolog olimlarning tadqiqot sohasi sifatida

Shaxs motivatsiyasi muammolari o'zbekistonlik psixolog olim va tadqiqotchilarning ham diqqat markazida turadigan muammolardir. Keyingi yillarda mazkur ilmiy muammolarga nisbatan qiziqish yanada kuchayib bormoqda. Bunga ishonch hosil qilish uchun psixolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarga qisqacha to'xtalib o'tish o'rinishi va b.

Respublikada uzoq yillar davomida M.G.Davletshin rahbarligida ushbu muammo yanigicha ilmiy asosda tadqiq qilinib, keng ko'lamda o'rganilmoqda. M.G.Davletshinning fikri bo'yicha, O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yoshlar har xil sohalar mazmuniga ongli va mustaqil ravishda yondashuvi orqali mumkin qadar erarqoq shu soha bo'yicha to'g'ri va oqilona tasavvurlarga ega bo'lishi mumkin. M.G.Davletshin konsepsiyasidan kelib chiqqan holda olib borilgan tadqiqotlardan biri A.K.Saitovning o'smir yoshdagilarning o'quv motivlarini va qadriyatlarini o'rganishga bag'ishlangan izlanishidir. Bu ishda muallif o'smir yoshining xususiyatlariga tayangan holda bir qator xulosalarga kelgan: o'smirlar o'quv faoliyatida potentsial hisoblangan motiv o'zini o'zi


namoyon qilish motividir, o'quv faoliyati bilan bog'liq qadriyatlarini anglash – o'smir o'quvchilarni o'zini o'zi takomillashtirishga va amalga oshirishga undaydi [220].

A.A.Fayzullaev motivatsion jarayonni bosqichma-bosqich tahlil qilishni taklif etdi. To'g'ri, motivatsion jarayonni shu nuqtai nazardan qator olimlar tahlil etgan bo'lib, ular (S.L.Rubinshteyn, V.A.Ivannikov, M.Sh.Magomed-Eminov) maqsadning shakllantirilishini vaqt jihatidan ma'lum bo'liklarga bo'lingan jarayon sifatida talqin qiladilar.

A.A.Fayzullaev motivatsion jarayonni beshta bosqichga bo'lib o'rganadi. Quyida mana shu jarayonning bosqichlari aks ettirilgan sxema keltiriladi: I – qo'zg'atishning anglanishi, II – motivning qabul qilinishi, III – motivning hayotga tatbiq qilinishi, IV – motivning mustakamlanishi, V – qo'zg'atishning faollashuvi.

1,2,3,4,5-bir bosqichdan bosqichiga o'tishda paydo bo'ladigan motivatsion kritik holatlar. Motivatsion tuzilmalar: A – anglamagan qo'zg'atish, V – qo'zg'atishni anglash, S – qabul qilingan motiv, D – amalga oshirilayotgan motiv, Ye – potentsial tendensiyalarni kengayish yo'li, zigzag ko'rinishidagi chiziqlar – motivatsion krizislarining paydo bo'lish yo'li, qo'shilgan gorizontal chiziqlardagi (x) belgilari – motivatsion tuzilmalarni shakllanish bosqichlari blokvovkasi.

Motivatsion jarayonning bosqichlari (A.A.Fayzullaev bo'yicha):



Yuqoridagi chizmada ko'rinib turgandek, A.A.Fayzullaev motivatsion jarayonni beshta bosqichga bo'ladi.

Birinchii bosqich – qo'zg'atishning paydo bo'lishi va anglanishi. Qo'zg'atishning to'liq anglanishi qo'zg'atishni qanday predmet chaqirganligini anglash bilan hamda mazkur harakatni amalga oshirishning usullari va natijasini tushunib yetish bilan belgilanadi. Muallifning ta'kidlashicha, qo'zg'atishning anglanishi sifatida ehtiyojlarni, mayllarni, intilishlarni, umuman, psixik hayotning har qanday hodisasini ko'rish mumkin.

Ikkinchi bosqich "motivning qabul qilinishi" deb ataladi. Muallif buni qo'zg'atishning ichki jihatdan qabul qilinishi bilan tushuntiradi. Bu bosqichda odam o'zining axloqiy tamoyillari, qadriyatlari va boshqalarni tahlil qilib ko'rib, paydo bo'lgan ehtiyoj, mayl uning hayoti uchun naqadar muhimligi, ularni qondirish kerakmi-yo'qligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Sh.A.Do'stimuhamedova o'z izlanishlarida o'quvchilarning o'quv

faoliyatini boshqarishga ularda ijobiy motivlarni shakllantirish orqali enishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Z.P.Klichevning tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv-tarbiya jarayonidagi muloqot o'quvchi shaxsini shakllantirish omili sifatida o'rganilgan.

N.S.Jo'raev tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qish motivlari xususiyatlari va o'qish motivlarining shakllanish mexanizmlari o'rganilgan bo'lib, unda tadqiqotchi o'z e'tiborini shahar va qishloq sharoitida tahsil olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivlarining psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishga qaratadi.

O'zbekistonda olib borilgan qator ilmiy ishlar hozirgi zamon talabiga javob bera olsa ham, lekin biz o'rganayotgan masalani o'z ichiga to'la qamrab olmagan, ya'ni o'quvchilarning o'quv motivlari shu paytgacha faqat shahar maktablari misolida o'rganilgan. Xuddi shuning uchun qishloq maktabi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish yana dolzarb muammo sifatida kun tartibiga chiqadi. Ba'zi manbalarda o'quvchilarning o'qish faoliyati yuzasidan umumiy mulohazalar yuritilgan bo'lsa-da, ammo uning ichki psixologik mohiyatini hozirgi kun nuqtai nazaridan ochib berish imkoniyati o'ta cheklangandir. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, xususan, o'quv motivlari muammolari yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega ekanligini haqida xulosa chiqarish mumkin.

Tayanch tushunchalar: motiv, motivatsiya, ehtiyojlar, Maslouning ehtiyojlar nazariyasi (piramidasi), ochlik fiziologiyasi, asab anoreksiyasi, ovqatlanishning buzilishi, motiv va motivatsiya nazariyalari, o'qish motivi, o'quv faoliyati motivatsiyasi, motivatsion jarayonning bosqichlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Motiv nima? Motivatsiya nima?
2. A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasini izoxlab bering
3. Xorijiy tadqiqotlarda motiv va motivatsiya masalasi?
4. O'quv faoliyati motivatsiyasi nima?
5. Motivatsiya nazariyalari tushuntirib bering

TEMPERAMENT

Temperament haqida umumiy tushuncha

Temperament lotincha «temperamentum» degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi «aralashma» degan tushunchani anglatadi.

Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gipokrat (miloddan avvalgi 460–356 yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to'hozirgi davrgacha qo'llanib kelinmoqda. Temperamentlar o'rta asrlardan mashxur bo'lgan va xristian va xristian bo'lmagan shaxslar orasida ham mashxur bo'lgan. Bu odamlarning o'zlarini va boshqalarni yaxshi tushinishga bo'lgan talabdan kelib chiqqan.

Temperamentlar tushunish va foydalanishga qulaydir. Ular hayotiy muommalarni oson hal etish va inson xulq atvori yaxshiroq tushinish imkonini berdi. Ko'plab xristianlar temperamentlarga ularning mabaddas kitobi bulinish Bibliyaga ishongandek ishonganlar. 4 ta temperament o'zining ijobiy va salbiy xususiyatlariga ega. Ijobiy jihatlari ustunlik deb nomlansa salbiy jihatlari noziklik deb ataladi. Insonlarga 4ta temperament haqida gapiradigan bo'lsak tezda o'zlarining temperamentning qaysi birtiga mansubligini bilishga harakat qilagadilar.

Temperamentga ta'rif beradigan bo'lsak, u shunday ko'rinishda bo'ladi: psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy shartlashgan dinamik ko'rinishlari majmui kishining temperamenti deyiladi. 4ta temperament nazariyasining g'adimiy tuzilmalaridan biri bo'lib inson tabiatini tushunishga va inson ummish hayotini yaxshilashga yunalitilgan edi


Bu nazariya insonlarni bir necha shaxs xarakteristikalariga bo'ladi va bu shaxs temperamentlarida namoyon bo'ladi. Ba'zi insonlar temperamenti tug'ma xususiyat deb atashadi, lekin bu har doim ham tug'ma emas.

Psixologiya fanida temperament xususiyatlari deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning baryaror, o'zgarimas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi.

Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega bo'lgan motivlarda, psixik holatlarda, muqasallarda, faoliyatlarda nisbatan o'zgarimas temperament tipini tavsiflovchi tuzilmani tashkil qiladi.⁴⁷

Temperament borasidagi qarashlar orasida temperamentning tug'ma ekanligini asoslashga unungan ishlar majud b o'lib, ular orasidan E.Krechmerning «Konstitution tipologiya» deb nomlangan tipini k o'rib chiqish mumkin. Bu tipologiya muallif tomonidan 1921 yilda e'ton qilingan b o'lib, unga k o'ra inson tana tuzilishiga k o'ra uni 4ta konstitutsional tipga ajratish mumkin: displastik, piknik, atletik, leptosomatic.

⁴⁷ Copyright © 1992 Martin and Deidre Bobgan. Published by EastGate Publishers, Santa Barbara, California Web site: www.psycholiterary-awave.org. (mazmunidan foydalanildi)



E. Krechmering «Konstitutsional' tiplari».

1. *Leptosomatik* tip mo't tana tuzilishiga yega bo'lib, baland bo'yli, ko'krak qafasi tekis, tor va uzun yelkalari o'ngligi bilan ajralib turadigan kishilardir.

2. *Piknik* — haddan tashqari semiz, tanasining yog' qatlamlari bilimb turadigan, past yoki o'rtacha bo'yli, qorni katta, gavdasi yoyiq, boshi dumaloq va b o'yni katta odamlardir.

3. *Alenik* — muskullari yaxshi rivojlangan, baland yoki o'rtacha bo'yli, keng yelka va beli tor, baqvvat tana tuzilishiga ega bo'lgan odamlar.

4. *Displastik* — tana tuzilishi aniq shakliga ega bo'lmagan va notug'ri tana tuzilishidagi odam. Bunday odamning tanasida deformatsiyalar (shaklining o'zgarishi) kuzatiladi, masalan, haddan tashqari baland bo'ylik yoki noproportional tana tuzilishi.

Ana shu tana tuzilishlariga ko'ra E.Krechmer 3 xildagi temperament tipini taklif etgan: *shizotim*, *iksotim* va *siklotim*. Shizotim temperamentdagilar astenik tana tuzilishiga ega bo'lib, ular «ichimdan top» qabildagi odamlar toifasiga kiradi, kayfiyati tez-tez o'zgaruvchan, o'jar, qaysar bo'lib, o'z ustarovka va qarashlarini o'zgartirishni yoqitmaydi va atrof-muhitga qiyinchilik bilan moslashadi.

Undan farqli ravishda iksoitim tip atletik tana tuzilishiga ega bo'ladi. Ular og'ir-bosiq, unchalik ta'sirchan bo'lmagan va mimika, jestlardan kam foydalanadigan, tafakkur egiluvchanligi yuqori bo'lmagan, maydakash odamlardir.

Piknik tipdagi tana tuzilishiga ega bo'lgan kishilar siklotim temperamentga mansub bo'lib, uning hissiyotlari quvonch va qayg'u orasida tebranib (tez-tez almashtirib) turadi, u atrofidagi odamlar bilan tez kiritish ketadi, voqea-

hodisalariga nisbatan ham real nazar bilan qaraydi. Krechmering bu nazariyasi Yevropada keng tarqalgan.

Faollikning individual uslubini V.S.Merlin, Ye.A.Klimovlar o'rganib, uning kishida darrov paydo bo'lmashligi va faqat sirixiyati tarzda paydo bo'lishini ko'rsatibdi. Agar kishi o'z temperamentiga muvofiq yaxshi natijalarga erishishiga yordam beradigan o'zining yo'llari va usullarini faol izlasa, individual uslub yuzaga keladi.

Odamlarning birgalikdagi faolligi sharoitlarida ular temperamentning dinamik fazilatlarini ular faoliyatining pirovard natijasiga har biri individual ishlagan holdagiga qaraganda ancha jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda mazkur faoliyatni bajarish uchun ancha qulay va kamroq qulay bo'lgan temperamentning har xil tiplarini birga qo'shib ketishi aniq bo'ladi. Chumonchi, xolerik temperamentli kishining faoliyati sangvinik yoki xolerik temperamentli kishi bilan sherik bo'lib ishlaganiga qaraganda flegmalik yoki melanxolik bilan birgalikda ishlagan holda ancha samarali bo'ladi. Bunday faktlar shuni ko'rsatadiki, temperamentning u yoki bu xususiyatlarining ahamiyatini ko'pgina faoliyat turlarini birgalikdagi xarakterini hisobga olmasdan baholab bo'lmaydi. o'z temperamentning xususiyatlarini egallash va ularning o'rni to'ldirish, faoliyatning individual uslubini shakllantirish bolalik yillaridan boshlab, ta'lim va tarbiya ta'sirini negizida yuzaga keladi.⁴⁸

Temperamentning fiziologik asoslari. Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlarini jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning (xiltarning) turicha nisbada joylashuviga bog'liq. Gippokrat ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o'rt yoki saffo (yunoncha "chole") qon (lotincha "sanguis" yoki "sanguinis"), qora o't (yunoncha "melas" — qora, "chole" — o't), balg'am (yunoncha — "phlegma") kabildan iboratdir. Uning mulohazasiga ko'ra:

- 1) o'ning xususiyati — quruqlik, uning vazifasi tana a'zolaridagi quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutish.
- 2) qonning xususiyati — issiqlik, uning vazifasi tanani isitib turish.
- 3) qora o'ning xususiyati — namlik, uning vazifasi tana namligini saqlab turish.
- 4) balg'amning (shlimshiq moddaning) xususiyati — sovuqlik, uning vazifasi badanni sovuqdan iborat.

Temperamentning ilmiy psixologik asoslari va uning fiziologik mexanizmlari keyingi yitimoiy tarixiy taraqqiyotning bosqichlarida yaratiladi hamda bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda. Temperamentning fiziologik asoslariga o'zining ulkan hissasini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi I. P. Pavlov hisoblanadi.

⁴⁸ Макаренко А. П. Очерки психологии ребенка. — СПб.: Изд-во, 2001. — (материалы из архива)


I.P. Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi. I. P. Pavlov ta'limoti bo'yicha, shartli reflektorlar paydo bo'lishining individual xususiyatlari ro'yobga chiqishining sabablari asab tizimi xususiyatlari mohiyatidandir.

Muallif asab tizimining uchta asosiy xususiyatiga alohida ahamiyat beradi, chunkinchi: 1) qo'zg'alish jarayoni va tormozlanish (to'xtalish) jarayonining kuchi; 2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlik darajasi (asab tizimining muvozanatlashgani); 3) qo'zg'alishning tormozlanishi bilan almashinish tezligi (asab jarayonlarining harakatlanligi). Uning ko'rsatishicha, har bir hayvonning temperamenti ham mazkur xususiyatlarning u yoki bunisiga aloqador bo'lmay, balki ularning majmuaviy tarziga, qonuniy birlashuviga bog'liqdir.

P. Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador asab tizimi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini asab tizimining turi deb nomlaydi va uni to'rtta turiga ajratadi: a) kuchli, muvozanatli, epchil; b) kuchli, muvozanatsiz, epchil; c) kuchli, muvozanatli, sust; d) kuchsiz tur.

Gippokratning to'rt xil modda (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni «temperament» tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melankolik) tanziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanib kelinmoqda. Organizmda suyuqliklarning aralashuvi (u qonning ko'pligi bilan tavsiflanadi) *sangvinik* temperament deb ataladi (lotin tilidagi «sangvis» – qon so'zidan); limfa ko'p bo'lganda *flegmatik* temperament (yunoncha «flegma» – shilimsiq parda degani); sarig' o'tining ko'pganligini xolerik temperament (yunoncha «xola» – o't so'zidan); qora o't ko'p bo'lganda *melankolik* temperament deb (yunoncha «melaina xole» – qora o't) deb ataladi.⁴⁹

Biz bola taraqqiyotini o'rganar ekanmiz uning temperament hususiyatlarini yaxshi tushinib olishimiz lozim. Temperament nazariyalari insonning emotsional tizimidagi farqlar bolalarning o'z o'zini boshqarish tizimi insonning temperamentiga bog'liq ekanligini aytib o'tilgan Olimlar fikriga ko'ra temperament xususiyati insonning rivojlanish boshlangan davrdan shakllanadi va keyingi yillarda katta o'zgarishlarga uchramaydi. Temperamentning ta'siri turli davrlarga shaxsga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan bolalar sinfi jamoasida o'z temperament xususiyatlarini ancha yaxshiroq nomoyon qiladilar. O'qituvchilar bolalarning temperament xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak. Chunki bu bolalar ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin va ularning psixologik tavsifini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin



1. Senzitivlik (lotincha Sensus - sezish, his qilish degan ma'no anglatadi). Senzitivlik yuzasidan insonda birotta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi, jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak qo'zg'ovchining o'ziga kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirinishining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashadi.

2. Reaktivlik. Bu to'g'riida ayran bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro'yobga chiqishi-emotsionallik, tasirlanuvchanlikda ifodalanihdir.

3. Faollik. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda ob'ektiv hamda sub'ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan engishiga qarab fikr yuritiladi.

4. Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati. Odarning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga binoan, chunkinchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarga (kayfiyatga, favqulodagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, euzu niyatlariga, xohish-intilishlariga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5. Reaksiya tempi. Turli xususiyati psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, nutq sur'atiga, farosatligiga, aql tezligiga asosanib xulosa chiqariladi.

6. Harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshi sifat rigidlik (qotib qolganlik), shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik engillik va chaqonlik bilan muvofiqdashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligiga (rigidligi qotib qolganligicha) nisbatan baho berishdan iborandir.

7. Ekstraverlik va introvertlik. Shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan kechinmalarga bog'liq, chunkinchi favqulodagi tashqi taassurotlarga (ekstraverlik) yoki aksincha, imsolllarga, tasavvurlarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

⁴⁹ Макаров А. Т. Общая психология. — СПб.: Питер, 2001. — с.54с. (mazmunidan foydalanildi)

Temperament turlari

Kishi temperamenti haqidagi tasavvur, odatda, shu shaxsning ayrim psixologik xususiyatlari asosida vujudga keladi.

Xoleniklar, sangviniklar fleqmatiklar va melonxolik. Har bir temperament o'z tushunchalariga ega. Insonlar bitta emas bir necha temperament tipiga mansub bo'lishlari mumkin. Yuvdagi jadvaldan temperament tiplari tasnifi kuni chiqishingiz mumkin.⁵⁰

Sangvinik	Xolerik	Melonxolik	Fleqmatik
Xushchaqchaq	Optimistaol tez jaxli Sezgir	analitik Xotirjam, tobe	
do'stona	yorqin chiqadigan agressiv idealist	kamgap ta sirdi	
sergap	nomustaqil konferensial o'z o'zini tortinchoq kayfiyati mulqotchan,		
xavotirli egosentrik	boshqara olmaydi	tez o'zgaradigan passiv,	qaysar,
	regid	ishyoqmas	

Bu jadval qisqacha va to'liq emas bu nazariya asrlar osha yetib kelganligi uchun har bir temperament xarakteristikasi o'zgarib kengayib borgan. Masalan xolerik temperamentidagi insonlarga ledirlik xosdir. Temperament kategoriyalari keng tarqalgan va umumiy xarakterga ega. Ular o'ziga xos emas. Turli yozuvchilar temperamentlarni turlicha tasvirlaganlar. Masalan Emonel karti XVIII asrda sangvinik temperamentni shunday tasvirlab bergan: sangviniklar mehrga muhoj va orzu umidlarga to'la shaxslardir. U hozir qilayotgan ishini birozdand so'ng butunlay unitib yuborishi mumkin, vadasiga vafador bo'lishga xarakter qiladi. Lekin vadasini ustidan chiqqa olmasa unchalik ham g'ay'uga botmaydi. U boshqalarga yordam berar oladi. Lekin kop hollarda o'z yordamini uchun haq talab qiladi. U juda mulqotchan uning do'stlari ko'p u ko'p narsalarni jiddiy qabul qilmaydi.⁵¹

Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo'lar-bo'lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinish turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi.

Sezgilari psixik faollikka ega bo'lgan, atrofta bo'layotgan vazifalarga tez munosabatini bildiruvchi, taassurotlarni hadeb o'zgartirishga intiluvchi, ko'ngilisizliklarni nisbatan yengil o'tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan, ifodali mimikasi va harakatlari bo'lgan kishi *sangvinik* deyiladi. Sangvinikda quvonch,

gayg'u, yoqtirish va yoqtirilmalik, mehribonlik va nafarat hislari tez hosil bo'ladi. Biroq, undagi bu xislatlarning nomoyon bo'lishi beqaror, ular tezda paydo bo'lib tezda yo'qoladi, davomiyliigi va chuqurligi farq qilmay boshqasi bian almashadi.

Sangvinik temperament vakillarida his-tuygular odarda tashqi ko'rinishda yorqin ifodalangan bo'ladi: manoli mimika, imo-ishora, tez harakatchan qilish, tez gapirish, beqarorlik, harakatchanlik, chaqonlik.

Fleqmatik - senzitivligi sust, hissiy qo'zg'aluvchanligi oz, uni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Harro qattiq kulganida ham vazminligicha qolaveradi. Katta ko'ngilisiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari, yuz harakatlari ifodasiz, qayrati va ishchanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Yuksak faolligi reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamligi, matonat, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi, harakatlarning tempi va nutqning tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinkilik bilan to'playdi. Rigid (qotib qolgan), diqqatini qiyinchilik bilan ko'chiradi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi. Introvert. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo'shiladi, taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

Yuragi keng, barqaror intilishlarga va kayfiyatlarga, doimiy va chuqurroq his-tuyg'ularga ega, harakatlari va nutqi bir xil maromda bo'lgan, rubiy holatini tashqi tomondan ifoda etadigan kishi *fleqmatik* deb ataladi. Bu temperament vakillari faoliyatida asosi o'yab, qat'iyat bilan ishlash namunalarni ko'rsatadi. U odarda boshlagan ishini oxiriga yetkazadi, hissiyotlari tashqi ko'rinishida kuchsiz bo'lib ravshan emas. Buning sababi nerv proseslarining muvozanatligi kuchsiz quzg'alishidir. Fleqmatik temperamentli kishilarning xotirjamligi uning hayotdagi voqea va hodisaga bo'lgan munosabatida ham nomoyon bo'ladi. Bunday kishilarni jahlini chiqarish yoki ranjinish qiyin. Baza bu temperamentli kishida mehngaga, tevarak - atrofdagi hayotga, kishilarga va hatto o'ziga nisbatan beparvo munosabatda bo'lish hollari ayi olishi mumkin.

Fleqmatik temperamentli o'quvchining o'quv faoliyatida ayiniga tez eslab qolish, tez tushunish, faxmlab olish va tez bajarish talab qilinadigan hollarda uning sustkashligi to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday hollarda fleqmatik temperamentli boda qizalik qilishi mumkin biroq u hamma narsani asosi va mustahkam eslab qoladi.

Fleqmatik temperamentli kishilarda o'zini tuta bilish, sovuqgonlik, xotirjamlik hislarini hosil qilish juda oson.

Xolerik xuddi sangvinik kabi sust senzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o'zini ushlay olmaydigan, betoqat, sezarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va qo'proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qizgishlari katta barqarorlik, zo'r qat'yilik bor, diqqatini ko'chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ismi boshlasa oxiriga yetkazadi, ammo unga qiziqsa.

Juda g'ayratli, ishga juda ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo'lgan, tez va shiddatli, qizg'in emosional «portlash» va kayfiyatning keskin

⁵⁰ Copyright © 1992 Martin and Deidre Bologna Published by EastGate Publishers-Santa Barbara, California (nazmuriidan foydalanildi)
⁵¹ Web site: www.psychobesity-aware.org (nazmuriidan foydalanildi)

o'zgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan kishi xolerik deb ataladi. Xolerik odamlar bilan munosabarda qat'iylik, serjantlik va o'zini tuta bilmaslikka yo'l qiyadiki, bu unga kishilar xatti-xarakatini obektiv baholash imkonini bermaydi. Bu temperamentga xos bo'lgan muvozanatsizlik xolerik faoliyatida yaqqol nomoyon bo'ladi, u biror bir ishini ishtiyiq bilan boshlasa, harakatlari chaqqon va tez bo'ladi. Qiyinchiliklarni yengib za'vq bilan ishlaydi. Biroq xolerik temperamenti organizmida energiya zapasi tez tugab faolligi pasayadi.

Hozirgi vaqtda ular ko'pincha jamiyatta bosh ro'lni boshqaruvchanlik yani liderlik ro'lini bajaradi. Xolerik temperamenti o'quvchilardan doimo muloyimlik bilan, ammo qat'iyatlik bilan, shoshilimay, o'ylab javob qaytarishlarini talab qilish ular xatti-harakatlarida, o'troqlari va kattalar bilan munosabarda o'zini tuta bilishlikni muntazam ravishda tabiiy talab borish lozim.

Melanxolik - yuksak sezitivlik xususiyatiga ega. Sezgirliigi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig'laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust, o'ziga ishonmaydi, tortinchoq, o'ziga qiyinchilik tug'itadigan bo'lsa, ho'lini yuvib qo'llig'iga urib g'o'ya qoladi. G'ayratsiz, qat'iy emas. Diqqat tez chalg'iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qonib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega. Ta'sirchan, chuqur kechimmali, gap ko'tara olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o'zini to'xtata oladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar *melanxoliklar* deb ataladi. Melanxoliklar ishda odatga kura passiv ko'pincha kam qiziquvchan bo'ladi. Bu temperament vakillarida hissiyot va hayajonli holatlar sekin paydo bo'ladi, biroq chuqurliigi zo'r kuchi davomiyliigi bilan farq qiladi. Melanxoliklarni ranjitish oson, garchi tashqi ko'rinishda bu kechinmalar hammasi ularda kuchsiz ifodalansa ham xafagarchilikka bardosh ber olmaydilar.

Melanxolik temperamenti kishilar odamlarga aralashmaslikka va yolg'izlikka moyil bo'ladi. Uncha tanish bo'lmagan yangi kishilar bilan aloqa qilishdan o'zlarini chetga tortadilar, yangi sharoitda ko'pincha uyali o'zlarini noqulay sezadilar. Melanxoliklarda ularga xos bo'lgan hissiyotlarning chuqurliigi va barqarorligini tashqi taassurotlarga haddan ziyod moyillikni o'stirish va takomillashtirish oson, shuning uchun bu temperamentdagi kishilarning san'at sohasida ishlashga ishtiyuqlari zo'r bo'ladi. Agar melanxolik temperamenti o'quvchi bolalar jamoasidan o'zini tortsa, ijtimoiy mehnatdan o'zini olib qoqsa, u osonlikcha yakkalanib qolishi yoki o'z kechinmalariga chulg'anib qolishi yoki jamoadan chetgi tasirlarga tushib qolishi mumkin.⁵²

Kishilarning oliy nerv faoliyati turlarini tavsiflovchi nerv jarayonlari kuchi, muvozanati va harakatchanligining u yoki bu nisbati ular temperamentining fiziologik asosidir.

I. P. Pavlov o'rganish uchun oliy nerv tizimini oldi. Uning fikricha, shartli reflekslar nerv tizimining xususiyatlari asosida paydo bo'ladi. I. P. Pavlov ana shunday xususiyatlarning uchastasi ajratib ko'rsatadi:

- 1) qo'zg'alish va tormozlanish jarayonini kuchi;
- 2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanat darajasi;

3) qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashish tezligi yoki boshqacha qilib aytganda, nerv jarayonining harakatchanligi.

Muvozanat qo'zg'alish jarayoni va tormozlanish jarayonining muayyan tengligidir. Bu jarayonlar kuch jihatidan bir-biri bilan muvozanatda bo'lishi yoki bo'lmashligi mumkin.

Harakatchanlik bir jarayonning boshqa jarayonga almashish tezligidir. U sharoitning tasodifiy va tez o'zgarishiga ko'nikishni ta'minlaydi.

I. P. Pavlov shuni aniqlaydiki, temperament yuqorida aytilgan xususiyatlarning bitasiga emas, balki ularning birtimasiga bog'liq. Temperamenti aniqlaydigan nerv tizimi xususiyatlarining bunday uyg'unlashganligi nerv tizimining turi deb ataladi. Nerv tizimining asosan, to'rt tur bor. Ulardan uchastasi kuchi va bitasi kuchsizdir:

1. kuchli, muvozanatsiz, faol – xolerik;
2. kuchli, muvozanatli, epchil – sangvinik;
3. kuchli, muvozanatli, sust – flegmatik;
4. kuchsiz – melanxolik.⁵³

Shuni unutmaslik kerakki, temperamentning yaxshi yoki yomon ko'rinishi mavjud emas. Chunki har bir temperament turi o'ziga xosdir, ya'ni har bir temperament tipining o'ziga xos ijobiy jihati bo'lgani kabi har biringning salbiy jihatlari ham mavjud.

Tayanch tushunchalar: temperament, temperamentning fiziologik asoslari, konstitutsional nazariya (E. Krechmer), temperament tiplari, temperament turlari.

Mavzu ni mustahkamlash uchun savollar:

1. Temperant va uning xususiyatlarini sanab o'ting
2. Temperamentning fiziologik asoslari
3. Temperant turlari
4. Temperament tiplarining psixologik tavsifi?
5. Temperantni tadqiq etish usullari

⁵² Макасов А. Г. Общая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 564-565с. (mazmuniidan foydalanildi)

⁵³ Макасов А. Г. Общая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 561с. (mazmuniidan foydalanildi)

KARAKTER

Karakter haqida tushuncha

Har bir odam har qanday boshqa odandan o'zining individual psixologik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor karakter muammosiga qaratiladi. "Xarakter" so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib "tang'a, belgi" degan ma'noni anglatadi. Ijtimoiy turmushda hayot kechirayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan har qanday shaxs o'zining individual-psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter xislatlarida ifodasini topadi. Shu boisdan insonning barcha individual xususiyatlarini xarakter xislati tarkibiga kirish bo'lmaydi.

Psixologiya fanida xarakterga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilari takidlanganligi bilan bir-biriga muvofiq tushadi. Masalan, shaxs xulqining tipik usullari bilan bog'liq faoliyat muomala va munosabatlarda namoyon bo'luvchi, muassamlanuvchi uning barqaror xususiyatlari majmua xarakter deyiladi. Shaxsning jamiyatga nisbatan munosabatlari uning asosiy belgisi hisoblanadi.

Xarakter tushunchasi ma'lum bir insonning faoliyati davomida yuzaga keladigan va shu shaxsning faoliyat va boshqalarga munosabatida namoyon bo'luvchi individual psixik xususiyatlar janrlamasini ifodalaydi. Psixik fenomen sifatida xarakterning asosiy xususiyati shundan iboratki, xarakter har doim faoliyatda, shu insonning boshqalarga va atrof-muhitga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi⁵⁴.

Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda shaxsda muhit va tarbiya ta'sirida tarkib topgan va uning irodaviy faoliyatida, atrof-dagi olamga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz. Xarakterning juda ko'p xususiyatlari odamning ish harakatlari belgilovchi chuqur va faol moyillik hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakter xislatlarining undovchilik kuchi namoyon bo'ladi. Odam xarakter xislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko'pincha obektiv sharoitlarga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi.

Xarakter xislatlari ma'lum tarzda harakat qismlariga, ba'zan esa sharoitiga qarama-qarshi harakat qilishga undar ekan, ular hayotiy qiyin daqqalarda yaxshiroq namoyon bo'ladi va bu xakterni, shuningdek barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vazifasidir. Shaxsning qat'iyatlik, tangdiylik, fahm-farosat, kuzatuvchanlik kabi xislatlari intellektual, quvnoqlik, mehribonlik hissiy-irodaviy sifatlarga kiradi.

Odadida shaxsning munosabatlari xarakter xislatlarining individual xususiyatlarini ikki xilni aniqlash imkoniyatiga ega:

- ✓ Shaxs xarakterining xususiyati ro'yobga chiqadigan har qanday vaziyat hissiy kechinmalarining o'ziga xos xislati uning munosabatlarga bog'liq.
 - ✓ Har qanday favquloodda tipik (muhiddagi) xakterning sifatlari hamda individual usullari shaxsning munosabatlarga taalluqlidir.
- Shaxs harakatlarning sifati va ularning oqilona usullari insonning irodasi, hissiyoti, diqqati, aqliy sifatlarga yoki psixik jarayonlarning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Chunonchi, mehnatda ko'zga tashlanadigan tirishqoqlik, puxtalik mehnatga nisbatan ijobiy munosabati aks ettirishga emas, balki boshqa omillarga: diqqatning to'planishiga, harakatlarning maqsadga yo'nalganligiga, irodaviy zo'r bershiga, usullar maqsuldorligiga, aqlning ishtirokiga bog'liq.

Xarakter tarkibi

Shaxsning xakteri tuzilishi turli xususiyatlarining tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro bir-biriga bog'liq, hatto tobe yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter xislatlarining muayyan qisimidan xabardor bo'lishlik notanihslarni tashxis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma'lum bo'lsa, uning dli (ko'ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin, yoki inson kamtar, mo'min, yuvosh xususiyatli bo'lsa, albatta u ko'ngilehan ekanligi ko'nglimizga keladi.

Odadida psixik xususiyatlarining o'zaro bog'liq tizimi simptomokomplekslar (omillar) deyiladi. "Simptom" yunon symptomat belgi, mos tushish, "kompleks" lo'inchqa, aloqa, majmua degan ma'no anglatadi. Misol uchun, qarama-qarshi simptomokomplekslar haqida mulohaza yuritilsa, u holda insonlarda bu tizim o'ziga ishonish o'zidan mag'rurlanish, maqtanchoklik, o'zbiarmonlik, urushqoqlik, kek saqlash kabilar birikmasida yuzaga keladi. Boshqa toifadagi shaxslar o'zlarining kamtarligi, ko'ngilehanligi, iltifotligi, dilkashligi, haqqoniyligi bilan ajralib turadilar. Vogelikka shaxsning bir xil munosabati xarakter xislatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligini bildiradi.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli munosabatlari bilan belgilanadigan xarakter xususiyatlarining to'rtta tizimi farqlanadi.

- ✓ Jamoa va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlari ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik va shu kabilar).
- ✓ Mehnatga bo'lgan munosabati ifodalovchi xususiyatlar: (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlik, mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik bilan munosabatlarda bo'lishi kabilar).
- ✓ Narsalarga bo'lgan munosabati ifodalovchi xususiyatlar: (ozodalik va ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatlarda bo'lishi kabilar).
- ✓ Odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat-nafislik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, kamtarlik kabilar).

⁵⁴ Макашвон А. Г. Общия психология. — СПб.: Петер, 2001. — 484. (mazmunidan foydalanildi)

Bundan tashqari, kamroq ahamiyatga ega bo'lgan boshqa juda ko'p xususiyatlar ham mavjud: o'ziga ishonish, o'zbihamonlik, o'ziga bino qo'yish, maqtanchoqlik.

Xarakterning tarkibi faqat ayrim xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi bilan emas, balki bir butun xarakterga xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Xarakterning xususiyatlari jumlasiga birinchidan, ularning chuqurlik darajasi kiradi. Shaxsning markaziy, asosiy munosabatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini biz xarakterni bir muncha chuqurroq xususiyatlari deb ataymiz. Masalan, barkamol shaxsda odamlarga, jamoa va mehnatga nisbatan vijdonan munosabatlarda bo'lish bilan belgilanadigan xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar hisoblanadi. Ikkinchidan, xarakter kuchi yoki faolligi. Xarakter faolligi xarakter xususiyatlarining kishini biror narsaga qarshilik ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchidan, xarakterning tarkibiy xususiyatlariga uning bargzorlik va o'zgaruvchanlik darajasi kiradi. Xarakter bargzorligi va o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zarur shartlaridir.

Agar tashqi sharoitning o'zgarishi bilan har gal xarakter boshqacha bo'lib, o'zgarib qoladigan bo'lsa, unday paytda odamning xatti-harakatlari tashqi sharoit ta'siriga nisbatan passiv javob reaksiyasiga aylanib qolgan, xatti-harakat batamom passiv moslashishga aylangan bo'lar edi. Odamning xarakter xususiyatlari juda xilma-xil hayot sharoitlarida ham qarshilik qiluvchi sharoit bo'lishiga qaramay uning xatti-harakatlarini boshqaradi.

Xarakter ma'lum darajada plastikdir (egiluvchanidir). Xarakterning plastikliigi ikki xil mahoga ega, birinchidan, xarakterning bargzorligi singari muhim faol ta'sir qilishidir. Ikkinchidan, xarakter ma'lum darajada plastik bo'lganligi uchunгина istalgan odamning xarakterini qayta tarbiyalay olamiz.

Kishiga mustahkanlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatleri xarakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan xislatlaridan, bu sifatlar alohida ko'rinish emas, balki shaxsning fazilatiga aylanib qoladi, g'ariyat, sabr-toqat, chidamlilik, dadillik, o'zini tuta bilish, mustaqillik, intizomlilik, mas'uliyatni his qilish, o'z-o'zini tanqid qilish axloqiy xislatlardir⁵⁵.

Xarakter xususiyatlari sifatida insonning ma'lum bir vaziyatlarda inson xulqini namoyon etuvchi ma'lum bilan ruhiiy xususiyatlar tushuniladi. Masalan, qo'rqoqlik yoki mardlik xavfli vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Kirishimlilik yoki odamovilik esa notanish kishilar bilan muloqotda namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra xarakterning tarkibini aniqlashda bir qancha fikrlar mavjud.

Rus psixologiyasida ilki xil yo'nalish mavjud. Birinchi holatda xarakter xususiyatlari psixik xususiyatlar bilan bog'lanadi va ular irodaviy, emotsional va intellektual xususiyatlarga ajratiladi. Masalan, irodaviy xususiyatlarga – qat'iylik, mustaqillik, faollik, tashkilotchilik kabilar, emotsional xususiyatlarga esa ta'sirchanlik, befarqlik, hamdardlik kabilar, intellektual xususiyatlarga sefffiklli, sermlohzazalilik, topqirlik, qiziquvchanlik kabilarini kiritish mumkin.

Ikkinchi holatda esa shaxs xarakter xususiyatlarining yo'nalganligi bilan bog'liq tushuntiriladi. Ya'ni shaxs yo'nalganligi odamlarga, faoliyatga va atrof-muhitga va o'ziga bo'lgan munosabatlarda aks etadi. Masalan, shaxsning atrof-muhitga bo'lgan munosabati uning aniq ishon va e'tiqodida yoki prinsipsizligida namoyon bo'ladi. Ya'ni shaxsning moddiy va axloqiy ehtiyojlarida aks etuvchi qiziqishlari, e'tiqodlari, ideallari va ehtiyojlariga qarab munosabat bildiradi.

Shaxs faoliyatga yo'nalganligi ko'ra xarakterning xususiyatlari ma'lum bir faoliyatni bajarish jarayonida namoyon bo'ladi, bular maqsadga yo'nalganlik, yengil-yelpilik, mustaqillik, begarorlik kabilarida ko'rinadi. Vaholanki, yengil-yelpilik va begarorlik shaxsdagi mustaqillikning yetishmasligi bilan ham bo'liq bo'lishi mumkin, aksincha, faoliyatga qiziqishning chuqurliigi va mazmunliigi maqsadga yo'nalganlik va qat'iyatlik bilan bo'liq bo'lishi mumkin. Faqat ta'kidlash lozimki, faoliyatga qiziqish bilan yondoshadigan orasida xarakter xususiyatiga ko'ra quvnoq va –angin yoki katar va ayvor, egoist va altruist odamlar bo'lishi mumkin. Shu nuqti –nazardan olib qaralganda xarakter xususiyatlarini bunday klassifikatsiyalash biron noto'ri bo'lar edi.

Odamlarga yo'nalganlikda xarakterning namoyon bo'luvchi xususiyatlariga halollik, to'ri-so'zlik, kirishimlilik, xushmuomallik, ziyoralik, ko'ngilchanlik kabilarini kiritish mumkin⁵⁶.

Xarakterning shakllanishi

Organizmining nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishidagi shartlardan biridir. Xarakter xususiyatlari istiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlari bilan belgilanadi. Masalan, egizaklar temperamenti xususiyatlari jihatdan o'xshasalar ham xarakter xislatlari bir-biridan farq qiladi.

Kishining xakteri tug'ma, doimiy va o'zgaraydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostigo'y yoki yol'g'onchi, qo'rqoq yoki jasur bo'lib tug'ilmaydi. Har bir odamning xakteri, temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishining o'z-o'zini tarbiyalashi bilan tarqgqiy qilib, o'zgarib boradi. Xakterning tarqgqiyoti kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining rivojlanib borishi bilan mustahkam bog'liqdir.

Xakterning shakllanishiga hayotiy ta'lim olish natijasi sifatida qaralsa, u insonning btun hayoti davomida o'zgarib, rivojlanib borishini ko'rish mumkin. Xakterning shakllanishi insonning fikrlari, hislari va ehtiyojlari bilan bevosita bo'liq ravishda kechadi. Ayniqsa, insonning turmush tarzi, jamiytdagi sharoitlar va konkret hayotiy vaziyatlar xakterning shakllanishiga kata ta'sir ko'rsatadi.

⁵⁵ D. Myers Psychology 9 – th EDITION 2010. PAGE 534-537. (mazmunidan foydalanildi)

⁵⁶ Макашков А. П. Основы психологии. — СПб.: Питер, 2001 — 485-486. (mazmunidan foydalanildi)

Xarakterning har bir xususiyati shaxs munosabatlari bilan bog'liqdir. Lekin, shaxs munosabatlari o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi.

Kishining butun hayoti davomida uning xarakteri tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birla yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi. Xarakterning shakllanishida o'ziga xos bo'lgan turi guruhlar ham ta'sir ko'rsatadi (oilalar, do'stlar davrasi, sinf, sportdagi jamoa, mehnat jamoasi va h.k.). Shaxs uchun qaysi guruh referent ekanligiga qarab va bu guruh qanday qadriyatlariga amal qilishiga qarab shaxsda xarakterning muvofiq (mos keluvchi) sifatleri yuzaga keladi⁵⁷.

Kichik bolalarda xarakterning tarkib topishida taqlidning roli katta. Bolalar ota-onasiga, yaqin kishilarga va kattalarga o'xshashlikka harakat qiladi. Ular kattalarning yurish-turishlari, dasturxon atrofiga o'zini tutishi va boshqalarga taqlid qiladilar, kichiklar va jonivorlarga munosabatlarini kuzatadilar. Ota-onalar va o'quvchilar, umuman katta yoshdagilar hammasi o'zlariga ham e'tibor bilan qarashlari, o'zlarida ijobiy xarakter xislatlarini har doim tarbiyalab borishlari lozim.

Bolalarda ijobiy, irodaviy va axloqiy sifatlarini tarbiyalab yetkazmoq uchun ota-onalar va tarbiyachilarning o'zlarida bunday sifatlariga ega bo'lishlari lozim. Xarakterning o'sishida tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashning roli katta. O'sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri, avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta mas'uliyati vazifa ota-onalar, o'quvchilar va bolalar bog'chasi tarbiyachilari zimmasiga tushadi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog bolaning temperamenti ijobiy va salbiy tomonlarini yaxshi bilishi lozim. Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o'stirishdan, uning salbiy tomonlarini yo'qotishdan va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy xislatlari bilan almashtirishdan iborat. Xarakterning salbiy tomonlarini yo'qotish, ijobiy tomonlarini tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining o'z temperamenti o'zi idora qilishiga o'rgatishi lozim. O'z temperamenti idora qila bilish xarakterning ijobiy xislatidir.

Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyalovchi roli nihoyatda katta. Inson yakka, bir-biridan ajralgan tarzda hayot kechirmaydi, muayyan jamoada, ya'ni muayyan oilada, maktabda, sexda va hokazolarda hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir. Har bir o'quvchi va tarbiyachi bola xarakterining ayrim xislatlarini tarbiyalashda faqat jamoa orqali ta'sir qilib, ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

Xarakterning tashabbuskorlik, qat'iyatlik, dadillik, sabotlilik singari ijobiy

xislatlari bolalar bog'chasida o'yin faoliyatida tarkib topa boshlaydi. To'g'ri uyushtirilgan maktab jamoasi sharoitida o'quvchilarda uyushqoqlik, intizom, sarajom-sarishalik, o'z-o'zini tuta bilish, o'zini idora qilish, o'ziga nisbatan talabchan bo'lish kabi xarakter xislatlari tarbiyalanib yetishadi. Kishi jamoada bir-biri bilan aloqa qilish jarayonida boshqalarning va o'zining xarakter xususiyatlarini bilib oladi. Xakterni bir xili ijobiy, boshqa bir xili salbiy ekanligini ajratib oladi. Bunday sharoit kishini o'z xarakterini o'zi tarbiyalash, jumladan, o'z xarakterini qaytadan tarbiyalashni yo'lga soladi.

Har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xakteri va uning sifatleri uchun o'zi javobgardir. O'z xakterini tarbiyalashda kishi avvalo yaxshi fazilatlarini ko'zda tutmoqi lozim. O'z kamchiliklariga iqtidor bo'lish kamchiliklarini yo'qotishga boshlaydi.

Bolaning xakteri shakllanishi va rivojlanishida uning atrofdagi odamlar bilan mulogoti muhim rol o'ynaydi. O'z xulqi va harakatlarda bola o'z yaqinlariga taqlid qiladi. Taqlid qilish orqali to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirganlarini emosional mustahkamlash natijasida bola kattalarning xulq shakllarini o'zlashtiradi.

Bola xakterida eng jadal shakllanish davri bu uning 2-3 yoshidan to'g'ri yoshigacha bo'lgan davridir. Bu davrda bolalar atrofigagi kattalar va tengdoshlari bilan eng ko'p va faol mulogot qiladilar. Bu davrda u atrofdagi ta'sirlarni qabul qilish uchun mulogot tayyor bo'ladi va hammaga taqlid qilib ularning harakatlarni bevosita qabul qiladi. Kattalar bu davrda bolaning chegarasiz ishonchidan foydalanib, unga so'zlar, harakatlari va qiliqlari orqali ta'sir ko'rsatadilar va bolada xulqning ma'lum bir shakli shakllanishi uchun imkon yaratadilar.

Bolalar xakterining shakllanishida kattalarning bir-birlari bilan o'rnashgan mulogot shakllari, shuningdek kattalarning bolaga murojaat qilishi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu birinchi navbatda, ota-onalarning, ayniqsa onaning bola bilan qanday munosabatda bo'lishiga bo'liq.

Insonda dastlab paydo bo'ladigan xakter sifatleri - insonlarga nisbatan mehribonlik, mulogotchanlik, hamdardlik kabi ijobiy xislatlar va bag'ritoshlik, befarqlik kabi salbiy xususiyatlardir. Shunday ma'lumotlar mavjudki, xakter xususiyatlarining shakllanishi bolaning maktabgacha yosh davrida va hatto hayotining dastlabki oylarida ro'y berishi mumkin va bu sifatlarining shakllanishi bevosita onaning unga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liq ekan.

Xakter xususiyatlarining mehnatga nisbatan namoyon bo'ladigan mehnatsevarlik, tartiblilik, vijdonlilik, javobgarlilik, qat'iylik, tirishqoqlik kabi sifatleri esa birmuncha kechnoq - erta bolalik va maktabgacha yosh davrida yuzaga keladi. Bu sifatlar bolalarning o'yin jarayonida va uy ishlari bilan shug'ullanishlari jarayonida shakllanadi va mustahkamlanadi.

Kichik maktab yosh davrida xakterning odamlarga bo'lgan munosabatdagi xususiyatlari shakllanadi. Bunda bolaning atrofdagi

⁵⁷ Макаров А. Г. Общия психология. — СПб.: Питер, 2001. — 485. (muzminidan foydalanildi)

o'qituvchilari va sinfdosh o'roqlari bilan mulog'otining ko'pligi muhim rol o'ynaydi. Agar bolada xarakter xususiyati uy sharoitida o'zlashtirilsa va maktabda bu mustahkamlansa, bunday xarakter xususiyatlari uning keyingi hayoti va butun umri davomida saqlanib qoladi. Agar uyda egallangan xarakter xususiyatlari o'qituvchi va o'roqlari tomonidan ma'qullannasa, u holda xarakterning asta-sekinlik bilan o'zgarishi boshlanadi, lekin bu hol tashqi namoyon bo'luvchi nizolar va noroziliklar bilan birgalikda kechadi. Xarakterning bunday qayta qurilishi har doim ham ijobiy natajaga olib kelavermaydi.

O'smirlilik davrida xarakterning irodaviy sifatлари faol rivojlanadi va mustahkamlanadi, ilk o'spirinlik davrida esa shaxsning axloqiy va ma'naviy xarakter xususiyatlari rivojlanadi.

Alohida ta'kidlash lozim, xarakter qotib qolgan va o'zgarimas sifat emas, u taqdir yozig'i ham emas. Xarakter inson hayoti davomida shakllanadi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Garchi u hayot yo'lidagi ob'ektiv sharoitlarga bog'liq holda shakllansada, aynan shu hayotiy vaziyatlarning o'zi inson xarakterini o'zgartiruvchi asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun o'qitish faoliyatini tugatandan so'ng ham inson xakteri shakllanishda va o'zgarishda davom etadi. Bu davrida inson o'z xakterining yaratuvchisiga aylanadi. Bu jarayon psixologiyada o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni deb ataladi.

O'zining xakterini qayta tarbiyalash jarayoni shaxsning o'ziga tanqidiy nazar tashlashi, o'zining kamchiliklarini ko'ra olishi va ortiqcha qusurlardan holi bo'lishiga imkon beradigan jarayondir. Bu esa uning o'z ustida ishlashini - qaysi xarakter xususiyatlaridan qutulib, qaysilarini rivojlantirishi lozimligini aniqlashni talab etadi. Xakterni tarbiyalashda kattalarning yordami nihoyatda muhimdir, shuning uchun ko'pchilik odamlar o'ziga yaxshi ustoz, maslahatgo'y topishga harakat qiladilar. Sharq xalqlarida shunday gap bor «Agar o'rganuvchi bo'lsa, o'rgatuvchi albatta topiladi». Bu fikrda chuqur ma'no bor. Hech bir o'qituvchi yoki o'rgatuvchi o'rganishni istagan odamga hech qachon va hech narsani o'rgata olmaydi. Kimda-kim o'qitishni, o'rganishni istasa, u hamisha o'ziga o'rgatuvchini topa oladi. Taqld qilish yoki o'rganish uchun tanlangan odam albatta bor bo'lishi shart emas, boshqalardan ajralib turuvchi ma'lum bir ijobiy xarakter sifatlariga ega bo'lgan kino yoki asar qahramonlari ham (masalan, urush qahramoni, ilg'or mehnatkash, bilimdon olim kabi) bu borada taqld ob'ekti bo'la olishi mumkin.

Bundan tashqari shaxs xakterining shakllanishida jamoatchilik ishlari ham rol o'ynashi mumkin. Chunki bu jarayonda insonda jamoa oldidagi javobgarlikni his qilish, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kabi qobiliyatlar va maburiyat hissi rivojlanadi. Xakter shakllanishida mehnatning roli alohida ahamiyatga ega. Mehnat faoliyati davomida o'z oldiga ulkan vazifalar qo'yadigan, ularni amalga oshirish uchun qat'iyat bilan harakat qiladigan, bu yo'lda vujudga kelgan to'siqlarni bartaraf etadigan va yengib o'tadigan, bajariladigan ishlarni doimo nazorada ushlaydigan kishilarda kuchli xakter

shakllangan dey ayvish mumkin. Demak, xakter ham shaxsning boshqa sifatleri kabi faoliyat jarayonida shakllanadi deb bemalol ayvish mumkin.⁵⁸

Xakter borasidagi nazariyalar

Xakter borasidagi talimotlar tarixi uzoq o'timishga borib tarqaladi. Xususatan, Arastu va Aftotun kishi xakterini yuz-ko'ziga qarab aniqlashni taklif qilgan edilar. Ularning xakterologiyasi qanchalik sodda bo'lsa, uning asosida shunchalik g'aroyib faraz yotardi. Unga ko'ra, kishining tashqi ko'rinishida qandaydir hayvon bilan o'xshashlik beljisini topish taxsiya qilinardi, so'ngira esa uning xakterini ana shu hayvonning xakteri bilan aynan bir xil deb qarash kerak edi. Junladan, Arastuning ayvishi bo'yicha, buqaniki singari yo'g'on burun ishyoqmaslikni bildiradi, chuchqaniki o'xshash teshiklari katta katta keng burun ahmoqlikni, arsloniki kabi burun mag'rurlikni, echkilar, g'ylar va qyonlarniki singari junining mayinligi qo'rqoqlikni, sherlar va yovvoyi chuchqalarniki kabi junining dag'alligi botirlikni anglatadi.

Xakterni aniqlashning bu va shunga o'xshash fiziologik tizimini o'ra asitlik Suriyalik yozuvchi Abul-Faray Bar Ebreyda ham ko'rish mumkin. Uning kitobida shunday ko'rsatma mujassamlashgandir: "Yo'g'on va katta bo'yi kishi bo'yval singari qahr g'azabga kelishi moyilligiga ega Uzun va ingichka bo'y - qo'rqoqlik alomati. Bunday kishi bug'u singari hurkudigan bo'ladi, qaysi bining bo'yni juda kichik bo'lsa, tulki singari makkor bo'ladi".

XVIII asrda logan Kaspar Lafaterning fiziologik tizimi mashhur bo'lib ketdi. U inson boshi "qalbni ko'rsatadigan oyna" bo'lib sanaladi va uning tuzilishini, bosh suyagining konfiguratsiyani, imo-ishorasini o'rganish kishi xakterini o'rganishning asosiy yo'li deb hisoblad. Lafater tanqili odamlar shaxsi ustida olib borilgan bir qator oqilona kuzatishlari natijalarini qoldirdi. Ular uning ilmiy jihatdan mutlaqo ahmiyatsiz, lekin juda qiziqarli "Fiziognomika" kitobida yig'ilgandir. Lafaterning fikriga ko'ra, Gyotening geniyiligi haqida eng ko'p darajada uning, "bumi dalolat beradiki, u "Gyote pozitsiyasining" mahsuldorligini, mazmuni va muhabbatini - qayd etadi".

Lafaterning o'limidan keyin ko'p o'tmay paydo bo'lgan yangi xakteriologik talimot frenologiya degan nom oldi.

Frenologiya nemis vrachi Frans Gallining nomi bilan boglangandir. Gallin talimotining asosida xakterning barcha xususiyatlari bosh miya yarim shartlarida o'zlarining qat'iy ixtisoslashgan markazlariga ega degan tasdiq yotadi. Bu fazilatlarning rivojlanish darajasi miyaning tegisli qismlari kattaligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Gallining maslagiga ko'ra, bosh suyaklari miyaning qavariq va chuqurcha joylariga aniq mos kelganligi uchun ham, uning rubiy beljilarini aniq ayvib berish uchun kishining bosh suyagiga bir nazar

⁵⁸ МАРКАРОВА А. Т. Общия психология. — СПб.: Питер, 2001 — 495-496. (muazmunidan foydalanildi)

tashlash yoki shunchaki boshning "Bo'rtik joylarini" ushlab ko'rish yetarli bo'lsa kerak.

Bu talimotda umuman miya yaini sharining tuzilishi shaxs xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, degan dastlabki fikrdan tashqari barchasi nihoyat darajada noto'g'ri.

Charlz Darvin ham o'zining "*Odanda va hayvonlarda his-tuyg'ularning ifodalinishi to'g'risida*" degan kitobida yozgan ediki, fiziognomistik "Har bir individning o'z shaxsiy qiziqishlariga erishib, faqat yuzlaridagi asosan ma'lum bir muskullarni qisqartirishi, bu muskullar kuchliroq rivojlangan bo'lishi mumkinligi va shuning uchun bu liniyalar va ularning odatdagi qisqarishdan paydo bo'ladigan yuz qisqarishi ancha chuqur va ko'zga ko'rinarli bo'lishi mumkinligini jiddiy ravishda bilishi kerak.

Darvinning bu g'oyalari ko'pgina psixologlarning izlanishlari uchun asos bo'ldi. Ular o'zlarining fiziognomik ta'limotlarini yuz ifodasining tavsiflashi va tushuntirishi hamda uning yumshoq to'qimalari holati asosiga qurila boshladilar. Mimikani psixologik jihatdan tushuntirib beradigan o'ziga xos fiziognomik ma'lumotlar tuzildi.

Xarakterning psixologik va fiziologik sabablari haqida faqat taxminiy fikrlar, xulosalar mavjud. Kishi temperamenti uning xakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xakterning fiziologik asosi asab tizimining tipidan iborat.

Xarakter xislatlari shaxsning qiyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo'lganligi tufayli, xakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida asab tizimining o'zgarigan xususiyatlaridan iborat. Hayvon asab faoliyatining tug'ma konstitutsion turi genotip. Lekin hayvon tug'ilganidan keyin tashqi sharoitlarning g'oyat xilma-xil taassurotlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyat orqali muqarrar javob berishi lozim bo'ladi, ko'pincha bu faoliyatlar mustahkamlanib, butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Shu sababli hayvonning batamom tarkib topgan asab faoliyati tipiga oid belgilardan tashqari muhit ta'siri ostida hosil bo'lgan o'zgarishlarning qotishmasi-fenotip xakteridir. Dinamik stereotip shaxsdagi mustahkam odat bo'lib qolgan xususiyatlarining, jumladan, xakter xislatlarining ham nerv-fiziologik asosidir.

Xakterning nerv-fiziologik asosini tushunish uchun I.P. Pavlovning ikkinchi signal tizimi haqidagi ta'limot katta ahamiyatga egadir. Ikkinchi signal tizimi nuq va tafakkurning fiziologik asosi bo'lish bilan birga, kishi hujjini ham idora qiladi. Xakterning fiziologik asosi xakterning mazmunini tashkil qiladigan sifatlari, chunonchi, ijtimoiy maslak, maridlik, o'z burchiga sadogati bo'lishlarini o'z ichiga olmaydi va olmaydi ham, albatta xakter psixologiyasining mazmuni o'zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy hodisadir. Xakterning mazmunini tashkil qilgan tomonlarini yoritilishi tufayli, psixologiya ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

Xulosa qilib ayvish mumkinki:

1. Inson xakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida namoyon bo'la boshlaydi va butun hayot davomida bargaror bo'lib boradi.

2. Xakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushgan emas. Ular xakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iborat.

3. Mazkur tipologiyaga ko'ra ko'pchilik kishilarni ma'lum guruhlariga birlashtirish mumkin.

Alohida qfayd etish lozimki, inson xakterini tasniflash va tiplarga ajratishda hamisham ilmiy asoslarga tayanilmagan⁹⁹.

Ta'kidlash kerak, turli xil psixologik konsepsiyalarning ayrimlarida xakterni temperament bilan bog'lab tushuntiriladi, ayrimlarida esa bu ikki tushuncha bir-biri bilan qotishirib yuboriladi. Zamonaaviy psixologiyada xakter va temperamentning o'zaro munosabatlarini ifodalovchi 4 xil yo'nalish ajratiladi:

Birinchidan, xakter va temperamentni ko'pincha bir xil deb hisoblanadi. Bunga misol E. Krehmerning konsepsiyasi bo'lishi mumkin, unda tana tuzilishining temperament tiplari va shaxs xulq-atvoridagi xususiyatlari aralashirib yuborilgan.

Ikkinchidan, bir nechta psixologik konsepsiyalarda xakter va temperamentni bir-biriga zid qo'yish kabi holat kuzatiladi. Vaholanki, ushbu konsepsiyalarda xakter va temperament o'rtasidagi ziddiyatga e'tibor qaratilgan.

Uchinchidan, psixologik konsepsiyalarni o'rganish jarayonida, turli xil tadqiqotchilarning "Temperament xakterning ma'lum bir elementi, yadrosi, o'zgarma qismidir" degan fikrlariga duch kelish mumkin. Masalan, buday nuqtai nazarini S. L. Rubinshteynning ishlari ko'rish mumkin.

Va nihoyat, to'rtinchidan, bir nechta mualliflar temperamentni xakterning tabiiy asosi sifatida qaraganlar. Masalan, bunday fikr L. S. Vygotskiy va B. G. Ananeyning ishlari uchraydi.

Bu kabi yo'nalishlarning mavjudligi insonning biosotsial ta'atini aks ettiradi.

Bir tomondan, xakter insonning tug'ulganidan keyin uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari jarayonida rivojlanishi shubhasidir. Biroq ikkinchi tomondan, organizmning fiziologik asoslari shaxsga o'z ta'sirini ko'rsatishini hech kim inkon ham eta olmaydi.

Rus psixologiyasida xakter va temperament o'zaro bir-biriga yaqin tushunchalar ekanligi qayd etilgan bo'lib, haqiqatan ham temperamentning ayrim xususiyatlari inson xakterida o'z aksini topadi. Shu sababli ko'pchilik tanqidi tadqiqotchilar xakter temperamentning asosida rivojlanishi haqidagi qikmi qo'llab-quvvatlaydilar. Lekin temperament inson xakterini aniqlab

⁹⁹ Магичков А. Г. Общият психофизиология. — СПб.: Изд-во "Лань", 2001. — 487. (mazmunidan foydalanildi)

bermaydi. Bir xil tipdagi temperamentga kiruvchi odamlarda mutloqo boshqa boshqa xarakter xususiyatlari mavjud bo'lishi mumkin. Lekin, temperament xususiyatlari xarakterning u yoki bu sifatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xarakter tipologiyasi

Xarakter tipologiyasi ma'lum bir tipik xususiyatlarning uziga xosligi asosida yuzaga keladi. Tipik xususiyatlar deb xarakterdagi ma'lum bir xislatlarning namoyon bo'lishi bir necha odamlar guruhida bir xilda kuzatilgan xolatga aytiladi.

Ta'kidlash lozimki, inson xarakterining tipologiyasi buyidagi bir bancha oyalarga tayanadi:

1. Inson xakteri uning ontogenezida shakllanadi va keyingi hayoti mobaynida o'rganishi asosida uzida barqarorlik kasb etadi.

2. Shaxsning xakteriga xos bo'lgan xususiyatlarning uy-unlashuvi tasodifiy emas.

3. Odamlarning kata bismi uzining asosiy xakter xususiyatlariga kura ma'lum bir tiplarga ajratilishi mumkin.

Ta'kidlash joiz, xakter xususiyatlarini tiplarga ajratish har doim ham ilmiy usullarga tayanib asoslanmagan.

Ana shunday urinishlardan biri shaxsning xakterini ning tu-igan yasiti (oy va kun)ga b'arab tshnirishga harakat bilingan. Kishining xakterini bunday tarzda aytib berishga asoslangan soha *goroskopov* deb atalgan. Xuddi shunga uxshasha ikkinchi yunalish kishi xakterini ning ismiga b'arab ayitishga mujallangan.

Xakter xususiyatlarini o'rganishda muhim hissa b'ushgan yunalish *fiziognomika* (grekchadan *φύσις* — tabiat, *νόμος* — biluvchi) bo'lib, unga kura insonning tashvi b'iyofasiga b'arab uni ma'lum bir tipga kiritganlar. Ayinisa bu borada I. K. Lafatening fiziognomik tizim deb nomlangan ta'limoti mashhur bo'lib, unga kura inson xakterini uning boshi va bosh suyagining tuzilishi, minika vash u kabilarga asoslanib ayitishga harakat bilingan. Bu borada inson tana tuzilishiga yoki gavdasini banday tutishga b'arab ham xakterini bilishga urinishlar bo'lgan. Tatro hozir ham ayrim psixologshlar insonning tana xolati bandayligiga b'arab — uning b'ay xolada turishi, yurishi, yozayotgandagi xolati kabilat — uning xakterini ta'riflash m'knligini ayitshadi.

Yana bir mashhur ta'limotlardan biri — *xiromantiya*dir. Xiromantiya (grekchadan *cheir* — b'mul va *manieia* — fol, bashorat) — bu ta'limotga kura inson tabdini va xakterini uning kaftidagi chiziblariga b'arab aytib berishdir⁶⁹.

Psixologiya tarixida xakterning tipologiyasini yaratisiga bir necha bor urinib ko'rilgan. Nemis psixologi va psixiatri E. Krechmer tomonidan XX asr

boshlarida tavsiya etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urinishlardan biri edi. Keyinchalik uning hamkasblari U. Sheldon, E. Fromm, K. Leongard va A. E. Lichkolar tomonidan ham shunday tipologiyalar tavsiya etilgan. Inson xakterining barcha tipologiyalari quyidagi asosiy g'oyalarga muvofiq tarzda tashkil etilgan.

1. Inson xakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida namoyon bo'la boshlaydi va butun hayot davomida barqaror bo'lib boradi.

2. Xakter tarkibiga k'rgan xususiyatlar tasodifiy uyushgan emas. Ular xakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iborat.

3. Mazkur tipologiyaga ko'ra ko'pchilik kishilarni ma'lum guruhlariga b'irashitirish mumkin.

E. Krechmer odam tanasining tuzilishi va konstitutsiyasiga ko'ra, eng ko'p uchraydigan uchta tipni ajratib ko'rsatgan (astenik, atletik, piknik). Ular har bir shaxsni ma'lum xakter tiplari bilan bog'langan bo'lsa ham, aslida hech qanday ilmiy asoslab bo'lmaydi.

1. *Astenik tip* - Krechmer fikricha, uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishi, o'ttacha yoki undan balandroq bo'yli, oriqli kishilardir. Asteniklarning tana va yuz terisi nozlik, yelkasi tor, yassi, mushaklari yaxshi rivojlanmagan.

2. *Atletik tip* - skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan, o'rta odamlar yuqori, baland bo'yli, keng elkali, kuchli ko'krak qafasi, boshni tik tutib yuradigan kishilardir.

3. *Piknik tip* - bosh, ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i yaxshi rivojlangan, semizlikka moyil, tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlanmagan kishilardir.

E. Krechmer mazkur tiplari bilan ayrim ayrim kasallik o'rtasida muvofiqlik bor, degan fikrni ilgari suradi. Masalan, atletik va astenik tiplari shizofreniyaga moyilroq deb hisoblaydi.

E. Krechmer tipologiyasi hayotiy kuzatishlar asosida xulosalar chiqarish orqali tuzilgan bo'lsa ham kamchiliklarga ega. Ba'zi ilmiy tadqiqotlar ma'lum tana tuzilishiga ega kishilar ruhiy kasalliklarga moyil ekanligini aniqladi va xakter aksentuatsiyasi haqidagi fikrlarni ilgari surish imkonini berdi.

Xakter aksentuatsiyasi

Xakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marta yotib va normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolganda *xarakterning aksentuatsiyasi* (ortiqcha ur'g u berilishi) deb ataladi.

Xakteriga ortiqcha ur'g u berilishi ayrim xakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi variantlaridan biri sanaladi. Bunda individda boshqalariga nisbatan barqarorlik bo'lgan holda bir xil stressogen (qattiq hayajonlanuvchi) omillarga zaiflik ortishi kuzatiladi. Xakterning aksentuatsiyasi o'ta noquvlay vaziyatlarda patologik buzilishlarga va shaxs xulq-atvorining o'zgarishlariga, psixopatiyaga olib borishi (xakter shaxsning adekvat ijtimoiy adaptatsiyaga to'sginlik qiluvchi va amalda takrorlanmaydigan

⁶⁹Nakrakov A. I. Oshira psixologiya. — CT6.: Ilirp, 2001. — 486-487b. (mazmunidan foydalanildi)

patologiyasi, garchi to'g'ri davolash sharoitlarida ba'zi tuzatishlarga berilsa ham) mumkin, lekin uni patologiyaga oid deb hisoblash noo'rindir.

Xarakterning aksentatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi) turini tasniflash ancha murakkablik tug'diradi va har xil nomenklaturasi bo'yicha bir-biriga mos kelmaydi (K. Leongard, A. Lichko). Lekin aksentatsiyalashgan xususiyatning tavsifi ma'lum darajada bir xil bo'lib qoladi. Bu har ikkala tasnif sxemalaridan muvofiqiyatli terminlarni olib va bunda psixiatrik terminologiya ("shizofreniya xususiyatiga", "epilepsiya" xususiyatlari va hokazo) bilan to'g'ridan-to'g'ri o'xshashlik bo'lishidan qochgan holda ortiqcha urg'u beriladigan xususiyatlar ro'yxatini keltirish imkoniyatini beradi. Xarakterni ortiqcha urg'u berilgan holda baholash psixiatriga emas, balki pedagogning diqqatini jalb qilishni taqozo etadi, garchi aksentatsiya muammosining o'rtaqcha qo'yilishi tarixi psixiatriya va psixonevrologiyaga borib taqalganda ham shunday hisoblanadi.

Nemis psixiatri K. Leongard fikricha, 20-50% kishilarda ba'zi xarakter xususiyatlari shu darajada kuchliki, ba'zan bir xil tipdagi ziddiyat va hissiy portlashlarga olib kelishi mumkin.

Xarakter aksentatsiyasi - biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishidir.

Xarakter aksentatsiyasi turli darajada yengil va hatto psixopatiya darajasigacha bo'lishi mumkin va aksariyat hollarda o'smirlar orasida xarakter aksentatsiyasi ko'proq, ya'ni ularning 50-80%ida uchraydi.

K. Leongard tomonidan xarakter aksentatsiyasi muammosi o'rganilib uni shaxsda namoyon bo'lishiga qarab quyidagilar tasniflanadi:

- ❖ **Gipertim tip** - haddan tashkari aloqaga kirishuvchan, ko'p gapiradi, imo-ishora, mimikaga boy, subbat mavzusini burib yuborishga moyil, ko'pincha xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutib qo'yganligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi.

- ❖ **Distim tip** - kamgap, mulogotga kirishishga qiyinaladi, pessimist, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi.

- ❖ **Sikloid tip** - kayfiyati tez o'zgarishga moyil, kayfiyati yaxshi paytda - gipertim, yomon paytda distim tipga o'xshab qoladi.

- ❖ **Qo'zg'aluvsizlik tip** - mulogotda passiv, verbal va noverbal reaksiyalari sust, qayсар, ba'zan urushqoq, ko'pincha turli mojaroalarning tashabbuskori.

- ❖ **Kuchaytiruvchi tip** - kamgap, aql o'rig'atishni yoqtiradi, yuqori natijalarga erishishni hojlaydi, tez xafa bo'ladi, shubhalanuvchan, qasoskor. Kichik-kichik muammolarni kattalashtirishga, bo'r'tirishga moyil.

- ❖ **Pelant tip** - ziddiyatlarga kam qo'shiladi, ko'pincha passiv holarda bo'ladi, atrofdagilarga ko'plab rasmiy talablar qo'yadi, tartibli, jiddiy ishonchli xodim.

- ❖ **Xavotirli tip** - kamgap, odatmoyi, o'ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, tinchliksevar, o'z-o'zini tanqid qiladi. Topshiriqlarni vaqtda bajaradi.

- ❖ **Emotiv tip** - tor doiradagi kishilar bilan mulogotga kirishishni yoqtiradilar, xafa bo'lsa tashqardan sezdirmaslikka harakat qiladi, mehribon, hamxo'r, mas'uliyatni his qiladi. Boshqalarning yutuqlaridan quvonadi.

- ❖ **Namoyishkorona (demonstrativ) tip** - mulogotga tez kirishadi, yetakchilikka intiladi, hokimiyat va maqomni yoqtiradi, boshqalarni o'ziga jalb qila oladi, noyob tafakkurga, xulq-atvoriga ega.

- ❖ **Ekzaltirashgan tip** - o'z ta mulogotga kirishuvchan, ko'p gapiradi, qiziquvchan, do'stlari va yaqinlarga e'tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosati, samimiy.

- ❖ **Ekstrovertlashgan tip** - mulogotga kirishuvchan, do'stlari ko'p, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, boshqalarni diqqat bilan eshitish mumkin. Topshiriqlarni vaqtda bajaradi.

- ❖ **Introvertlashgan tip** - mulogotga kirishishga qiyinaladi, "ichimdagimni top", falsafiy fikr yuritishni yoqtiradi, qat'iyatli, e'tiqodli mustaqil, qayсар, tafakkur qotib qolgan.

To'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida xarakter aksentatsiyasini tarbiyalash va tuzatish mumkin.

Keyinmozi xarakter aksentatsiyasimborasida A. E. Lichko uzining yangi klassifikatsiyasini taklif bildi. Bu klassifikatsiya uning usmirlar bilan ulkargan tadbiyrotlari natijasida vujudga kelgan. Uning fikriga kura, xarakter aksentatsiyasi — bu alohida hussiyatning kuchaygan kurinishi bulib, u shaxs xulbining normadan o'ishi va patalogik buzilishlar darajasiga yetib borishdan farqi buladi. Bunday aksentatsiyalar shaxsning vabritchalik xolati bulib, asosan usmirlar va uspirinlarda kuzatiladi.

Lichko tomonidan taklif etilgan usmirlardagi xarakter aksentatsiyasining klassifikatsiyasi buyidagichadir:

1. **Gipertim tip.** Bu tipga kiruvchi usmirlar uzining seharakatligi, kirishimligi, shuxlikka moyilligi bilan ajralib turadi. Ular ma'lum bir vobye jarayonida haddan ortib shuxlikka beriladilar, tengdoshlari davrasida ham uzini shunday tutadilar. Ularining kayfiyati har doim yaxshi va kutarinki buladi. Kattalar — ota-ona va uvituvchilar bilan nizolar deyarli sodir bulmaydi. Bunday usmirlar juda kupa narsaga biziyladilar, lekin ularning biziylashlari beharor va bisiya muddatli buladi. Gipertim tipdagi usmirlar uz biobilyat va imkoniyatlarini oshirib baholaydilar, uzlariga haddan ortib ishonadilar, uzini kursatishga va atrofdagilarda taassurot bioldirishga intiladi.

2. **Sikloid tip.** Serjalilikning yuboriligi va apatryaga moyilligi bilan ajralib turadi. Ular odatda utrosbilar bilan birga bulishdan kuira uyda yoi-iz bulishni ma'bul kurushadi. Ular arizmagun kungisizliklarni ham o-nbali kechiradilar, tanbiylardan jabli chibadi. Kayfiyati notur-n bulib, yubori kayfiyattan

kayfiyatsizlik xolaga uzgarib turadi. 2-3 haftalab tushkun kayfiyatda yunishadi.

3. *Labi tip.* Bular kayfiyatining uzgaruvchanligi va tushunib butilmasligi bilan alohida ajralib turishadi. Kayfiyatining uzgarishiga muhtabo ahamiyatsiz narsalar – kimningdir yozitirney barashi ham sabab bulishi mumkin. Ullarning barchasi jiddiy muvaffaqiyatsizlik yoki noxushliklar. Ullarning xulb-atvori ham kayfiyatiga bo-iliy buladi. Kelajagini ham hozirgi kunini ham kayfiyatiga barab goh yorsin, goho rangsiz kuradilar. Yubori asabiylikda yuradigan bunday usmirar atrofda (kayfiyatini kutara oladigan, chel-ita oladigan) larning butilab-buuvvatashiga ehtiyoj sezadilar.

4. *Asenonevroitik tip.* Ushbu tip yubori darajadagi gmosirovchanlik va injilbilgi, tilisishi va tez jahi chibishi bilan tavsiflanadi. Aksariyat hollarda tollish ularning intellektal faoliyatida kzatiladi.

5. *Senziiv tip.* Unga hamma narsaga nisbatn ta'sirchanlik xosdir: uni xursand bilish ham, xafa bilish va buyritish ham jda oson. Bunday usmirar kata kompaniyalarni va serharakat uyvinlarni yozitirmaydilar. Ular odatda uyatchan, tortinchoy bulganligi bois atrofda (gilar) odamovi sifatida kurinadi. Ular fabar jda yaxshi tanish bulgan kishilari blingina ochisi va kirishimi bulia oladilar. Urtoslari bilan muloborni kattalr va kichiklar bilan mlobordan str buyradilar. Ular ota-onalariga bloyi solishi va ularga bo-ilibilgi bilan ajralib turadilar. Ular AL va K+Klariga kelganlarida yangi sharoitga moslashuvi bilyin bulishi va «motuliblik kompleks» yuzaga kelishi mumkin. Lekin ularda majburvat hiss ancha yoshligidanoys paydo buladi va boshbalariga ham uziga ham talabchanlik yubori buladi va dustlik tuy-siga nisbatan juda jiddiy biarydi.

6. *Prixastenik tip.* Ular erta va tez rivojlanuvi intellekt bilan tavsiflanadi va boshbalarining hatii-xarakatlarini mulokama bilish va baholashiga moyil buladilar. Ular ishdan kuura suzga usta bulishadi. Ular (dagi) uziga ishonch iklilanish bilan birga kechadi va ayni ehtiyokorlik mas'uliyatilik talab etilgan mAballarda shoshilib baror bialbul bilishadi va shnga kuura harakat ham bilishadi.

7. *Shizoid tip.* Bu tipga xos bulgan eng muhim xolat — uning «ichimdan top»ligi. Ular uz tengdoshlariga kuupam buyshilavermaydilar, kuuproi kattalar bilan muloboroda buladilar. Ular atrofda (gilar) befariligi, bizismasligini tez-tez namoyon biladilar, atrofda (gilar) xolatin, kechimmalarini tshmaydilar va handard bulia olmaydilar. Ullarning ichki olami tti xil fantazyalariga boy buladi.

8. *Epileptoid tip.* Bu gurubga kiruvchi usmirar yi-loviliigi bilan kattalarni xunob biladi. Ular hayvonlarni binyashni, kichiklarni —ashiga tegishni, nochorlarning ustidan kulishni yozitiradilar. Kichiknalar davrasida ular uzlarini diktorlar kabi tutadilar. Ular (a) xos xssiyatlar — berahmlik, hukumronlikka injilish, uzini sevisish.

9. *Isteroid tip.* Bu tipning eng muhim xussiyati — egotsentrizm, uz shaxsiga doimiy e'tibor baratish. Ular uzlarini yuniligi urtoylardan kimnidir martashlarini, kimgadir unga nisbatan kuuproi e'tibor berishganini hazm bilia olmaydi. Ular uchun eng muhim ehtiyoj atrofda (gilar) dilyabatini uziga baratish, uz shaxsiga nisbatan olbush va martovlar eshitish istagidir.

10. *Noir-in tip.* Uning asosiy xssiyati — irodasizlik. Ular kungilxushlik bilishga, bekorchilikka va bayramona kompaniyalarda bulishga moyildirlar. Ular (a) muhimrovi, jiddiyrovi tejalar bulmaydi va uz kelajaklari hasaida umumn uylamaydi.

11. *Konform tip.* Bunday usmirar ghrdagi har banday obruli kishiga uylanasdan ergashadilar. Ullarning asoy shori «boshbalariga uxshash». B tipda (gilar) uz manfaati chn dustini solishga, bilyin vaziyatlarda tashlab ketishga tayyor buladi, lekin u uz bilimishlarini oylashga ham doim bir emas, bir nechta «axlobiy oylavlar» topadi⁶¹.

Xorjda xarakterning urganilishi

Xorji psixologiyasida ba'zi tadqiqotchilar shaxsni uning qat'iy va belgilangan xulq-atvor xususiyatlariga qarab o'rganishga harakat qiladilar. Junladan, Uilyam Sheldon shaxsning tana tuzilishiga barab ularning xarakter xussiyatlarini buyidagi turlarga ajratib chibyan: endomorf, mezomorf va ekomorf, bu xarakter xususiyatlarini ta'riflash uchun u buyidagi obrazlarning assosiativiasidan foydalanadi — endomorf — bosis va buyvori - Santa Klaus obrazi, mezomorf — muskullari aniy-anisi buritib chibyan Supermen obrazi va ekomorf — buyrmas va jismoniy faol bulgan Sherlok Xolms obrazi. Turli xildagi tana tuzilishi bilan turlicha xarakter xususiyatlari urrasida bo-ianish bormi degan savolga javob topish uchun izlanish olib borgan tadqiqotchilar haibatan ham ular orasida bandaydir bo-ianish borligiga amin bulishgan⁶².

1919-yilda 22 yoshli qiziquvchan talaba Gordon Olport Venada bo'lgan konferensiyada Zigmund Freyd nutqini eshitgach shaxs xususiyatlarini o'rganishga qiziqib qoladi. Lekin u Freyd borgan yo'ldan borishni xoxlamaydi. U shaxs xulq-atvoriga tasir etuvchi omillarni faqatgina ongsiz mayillarga emas, balki ongli motivlarga ham bog'liq deb biladi. Bugungi kunda biznes va mehnat sohasida kishilarni Karl Yung klassifikatsiyasiga kuura ajratish mimuncha urf bulib boidi. Ya'ni Karl Yung taklif etgan 126ta savolga berilgan javoblar orasini Izabel Briggs Meyers va uning onasi Ketlen Briggslar ham shaxslardagi muhim ajratuvchi xususiyatlarni o'rganadilar. Meyers-Briggslarning tiplarga ajratish indikatori nihoyatda sodda, devish mumkin. Chunki ular odamlarga buyidagi savoli beradilar: «Siz odarda mantiqia nasbatan hissiyotlarni biadlayisizmi yoki aksincha mantiqia siz chun hissiyotlardan kuura mhimrovi?»⁶³. Va odamlarning bu savolga bergan javoblariga barab ular xarakter xususiyatlarining ikki toifasini ajratadilar — «tissiyotga beriluvchilar» va

⁶¹ Macraob A. T. Oguna neuroxotika. — CITE: Theryp, 2001. — 484. (mazmunidan foydalanildi)
⁶² David G. Myers — Psychology NY — 2010 Worth Publishers — 482 Ger. (mazmunidan foydalanildi)

«Fikrlovchilar». «+issiyotga berilvchilar» shunday odamlarki, ular boshlarning erishgan yutuqlariga nisbatan befaras emaslar va ularni hurmat biladilar, biadrlaydilar va xushmuomatalik bilan mosabatda buladilar. «Fikrlovchi» tip esa kumprobi ob'ektiv hasbiatni biadrlaydilar va yaxshi tahlil bila oladilar. Ayrim tadbirlovchilarning fikriga kura, bu usulda odamlarni tiplarga ajratish ilmiy asoslanmaganligi bilan kishini tashvishga soladi⁶³.

Shaxs xarakter xususiyatlarini klassifikatsiya qilmay tush, ularning butun individualligini o'rganish qiyin. Masalan, biz olimni tasvirlamoqchi bo'lsak, bunda uning ko'plab xususiyatlarini: katta-kichikligi, shirin-nordonligi, qizil yoki sarig'ligini hisobga olishimiz mumkin. Lekin bu xususiyatlarining hammasi ham faqat olmagagina tegishli emas. Savol tug'iladi shaxsni qanday xususiyatlar orqali tasvirlash to'g'ri?

Xarakter – bir insonni boshqa insondan ajratib turuvchi belgilar tizimi bulib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Xarakter xususiyatlari insonda ko'p vaqt davomida o'zgarmas va barqaror bo'ladi. Masalan, 20 yoshli ziyofarga borishdan uyaladigan yigit 20 yildan keyin ham shunday ziyofatlarga borishdan uyalishi mumkin.

2. Xarakter xususiyatlari inson umri davomida shakllanadi. Masalan, ishda ko'p vaqt boshliq lavozimida ishlagan odam boshqa joylarda ham o'zini boshliqlardak tutishi mumkin.

3. Individuallik insonning turli xarakter xususiyatlari asosida shakllanadi. Masalan, bir oilada o'sgan ikki egzakning xarakter xususiyatlari bir xil bo'lmisligi mumkin.

Gordon Olport va uning do'sti Odbert shaxs xususiyatlarini o'rganar ekan, lug'atdan shaxsga xos bo'lgan 18 ming so'zni ajratib chiqadilar. Ular bu so'zlardan eng asosiyalarini alohida ko'rsatib o'tadilar⁶⁴.

Olport shaxs xarakter xususiyatlarini 3 ta katta guruhga bo'ladi:

1. Kordinal xususiyatlar – bu inson xulq-atvorini yo'naltiruvchi xususiyatlaridir. Masalan, siyosatshunoslarning maqsadga intiluvchanligi ularning boshqa faoliyatlarini ham belgilab beradi. Olportning fikriga ko'ra, kordinal xarakter xususiyatlari inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Lekin ko'p insonlarda xarakter xususiyatlari ichida ustuni mavjud bo'lmaydi. Buning o'rniga ularda ko'plab xususiyatlar bir xil darajada namoyon bo'ladi.

2. Markaziy xarakter xususiyatlari – inson xayotiy tajribasiga asoslangan xususiyatlaridir. Har bir jamiyat boshqaruvchisida bu xususiyat mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq.

3. Ikkinchi darajali xarakter xususiyatlari – ular markaziy xususiyatlarga qaraganda kamroq ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan,

insonlarning musiqa va kiyimlarga bo'lgan qiziqish va yoqtirishlarining turlicha bo'lishi.

Shaxs xarakter xususiyatlari uning miyasiga uzviy bog'liq bo'lishi mumkin. Inson miyasini o'rganish jarayonida ekstrovertlarda introvertlarga nisbatan qo'zg'atish jarayoni past ekanligi aniqlangan. PET skaner tekshiruv natijalariga ko'ra, introvertlarda dofalim neyronning faolligi ekstrovertlarga nisbatan past ekanligi kuzatilgan.

Djer Keganing fikriga ko'ra, bolalardagi tortinchoqlik va uyarchanlik ularning vegetativ nerv sistemasi tormozlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Vegetativ nerv sistemasi faoliyati insonning stress va havotirlanish darajasini belgilovchi asosiy omil xisoblanadi.

Senmel Goslingning fikriga ko'ra, xatto ki itlarda ham insonlar singari xarakter xususiyatlari mavjuddir. Masalan, aqlli itlar, mehribon itlar, vafodor itlar va h.k. Shuningdek, maymunlarda, shimpanze, arangutanlarda va qushlarda ham ularni boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlar mavjudligi tajribalarda kuzatilgan. Masalan, qo'rqmas qushlar o'z o'ljalarini tezda qo'lga kiritadilar.

Mashhur olim Kettel ham insondagi xarakter xususiyatlarini o'rganagan. U insondagi asosiy 16 ta xarakter xususiyatlarini ajratib o'tgan.

1. Odamovi - mulloqotchan. 2. Aqliy darajasi past - aqliy darajasi yuqori. 3. Og'ir bosiq - hissiyotlarga beriluvchan. 4. Ko'ngchan, tortinchoq - o'ziga ishongan, dadil. 5. Xushyor, muhokamali - beg'am, beparvo. 6. Foydani ko'zlovchi, mug'omir - insofi, halol. 7. Uyatchan - dadil, biat'iyati. 8. Hisob kitobi, materialist - ko'ngli bo'sh. 9. Ishonchli - shubhali. 10. Realist - hayolparast. 11. Ochiq, dargalchi - mulohazali. 12. Tinch - sho'x. 13. Konservantor, an'anaviy - tajribachi, yangilikni yoqllovchi. 14. Boshqalar fikrini ustun qo'yuvchi - o'z fikrini ustun qo'yuvchi. 15. Odbosiz - odobli. 16. Xotirjam - asabiy⁶⁵.

Kettel uuz tadbiriolatlari asosida buyridagi fikriga keladi: shaxs strukturasi namoyon bo'lishiga turli xil vaziyatlar turlicha ta'sir kirsatadi. Shu xulosaga asoslanib u shaxs xususiyatlarini 4 ta asosiy kategoriyaga ajratadi:

1. Umumiy xususiyatlar – bu xususiyatlar dunyo aholisining katta qismida va ko'plab guruhlarda tarqalgan. Masalan, insofiilik, aggressivlik, hamkorlik.

2. Noyob xususiyatlar – bu xususiyatlarga ma'lum bir shaxslar ega bo'lishadi.

3. Yuqori turuvchi xususiyatlar – bu xususiyatlar shaxslarning boshqa shaxslardan ustun turuvchi xususiyatlaridir. Ular inson xulq-atvoridan kelib chiqadi. Masalan, bilimga bo'lgan intiluvchanlik, vijdoniylik, ishonchlik.

4. Fundamental xususiyatlar – bu inson xulq-atvorini belgilovchi asosiy xususiyatlaridir.

Bugungi kunda shaxs xususiyatlarini, xususan uning xarakter xususiyatlarini iurganoyigan tadqiqotchilar Ayzenk va boshqa

⁶³ David G. Myers – Psychology NY – 2010 Worth Publishers -581-582 bet. (mazmunidan foydalanildi)
⁶⁴ David G. Myers – Psychology NY – 2010 Worth Publishers -582 bet. (mazmunidan foydalanildi)

⁶⁵ Girma L. Emma. General psychology 2005. page 199-203. (mazmunidan foydalanildi)

ta'dqiqotchilarning ishlari inkor qilishmaydi, lekin ularning fikriga ko'ra, bu xarakter xususiyatlari shaxs xarakterini to'liq ochib bermaydi. Shu tufayli shaxs xarakterini aniqlovchi 5 ta asosiy faktor deb nomlangan jadval qo'llaniladi. Bütün dunyo bo'ylab 56 millat vakillari bu jadval orqali guruhlariga ajratilgan. Bu faktorlar 29 ta tilga tarjima qilingan. Lekin bu ta'dqiqotlarning oxiri emas. Shaxs xususiyatlari bugungi kunda va kelajakda o'rganiladi.

Xarakter xususiyatlari	Tarkibi:
Insoflik darajasiga ko'ra	Mehribon-be'mehr Uyushqoqlik-yakkalik Ehtiyotkor-ehiyotsiz
Moslik darajasiga ko'ra	Ko'ngli ochiq-bag'ritosh Ishonchi-ishonchsiz Hamkor-yakka
Nevrotiklik darajasiga ko'ra	Tinch-havotirli Emotsional barqaror-hissiyotlarni jilovlay olmaydigan
Munosabatlarda ochiqligiga ko'ra	Hayolparast-realist Mustaqil-nomustaqil
Ekstraversiya darajasiga ko'ra	Rang-baranglikka iniluvchi-eskilkni yoqlovchi Mulog'otchan-torinchuq Hushyor-beg'am Muloyim-qopol ⁶⁶

Xarakter xususiyatini baholovchi metodikalar shaxsning yashirin psixologik dinamikasini to'liq ochib bermaydi. Ular ko'p hollarda shaxsning alohida xususiyatlarini ifodalaydi. Masalan ekstravertlik, introvertlik. Psixologlar shaxsning bir necha xususiyatlarini baxolamoqchi bo'lsalar shaxs so'rovnomalaridan foydalanishlar mumkin. Eng ko'p qo'llaniladigan shaxs so'rovnomalaridan biri Minisot ko'p fazali shaxs so'rovnomasidir. (MMPI) Minisota Multiphank Personality Inventory) ning yaratuvchilaridan biri Stark Xataydir. U o'z qarashlarini A Bine qarashlari bilan solishtirgan. MMPI savollari empirik yo'l bilan ishlab chiqilgan. Avvaliga ular ko'plab "Meni hech kim tushunmagan" degan o'shaydi, "Meni hamma yoqtiradi", "Menga she'riyat yoqadi" qabildagi mulohazalardan iborat bo'lib asosan psixologik buzilishlarga ega va psixologik sog'lom insonlarda o'tkazilgan. Psixologlar sog'lom va nosog'lom shaxslarining mulohazalarini solishtirganlar. Masalan, "men uchun komikslerden qiziqroq narsa yo'q" deb javob beruvchilar depressiyaga tushib qolgan shaxslar hisoblanadi.

⁶⁶ David G. Myers – Psychology, NY – 2010 Worth Publishers – \$84-\$85 6or. (mazmunidan foydalanildi)

MMPI-2 zamonaviy testi 10 klinik shkaladan iborat bo'lishi lozim. Bundan tashqari testning validligini ta'minlash uchun "yolg'onchilik" shkalasidan iborat bo'lishi kerak. U 15shkaladan iborat, lekin mijozlar ba'zida o'zlarini yaxshi ko'rsatish maqsadida yolg'on dan foydalanishlari mumkin.

MMPI testi dunyoda 100dan ortiq tillarga tarjima qilingan. Psixolog Fander shaxs o'zi haqida gapirish orqali emas, atrofiidagilarning bu shaxs haqidagi fikrlarini bilish orqali mijozning asl xulq-atvorini bilish mumkin. So'ngra mijoz mulohazalari bilan u haqidagi mulohazalarni solishtiriladi. Lekin agar fikrlar bir-biriga to'g'ri kelmasa Fander mijozga emas, uning atrofiidagilarning u haqidagi fikrlariga asosiy e'tiborni qaratadi.

Savol tug'iladi: Shaxs xususiyatlari stabilmi yoki o'zgaruvchami? Bizning xulq-atvorimiz qayerda kim bilan ekanligimizga bog'liqmi? Uilyam Folknert egosentrik qahramon Dleyms Rompsomni yaratadi. Eng qiziqi bu qahramon xarakterini ayni paytda qayerda turganligiga qarab o'zgaradi. Italiyalik yozuvchi Luidji Pirandello o'ziga fikrga ega bo'lgan. U uchun shaxs vaziyatga qarab moslashuvchi va o'zgaruvchi edi. Pirandelloning asarlaridan birida o'zini quyidagidek ta'riflagan: "Men siz o'ylagan insonman. Sizning opangiz, eringiz, qizingiz meni qanday qabul qilib men haqiqatdan ham shundayman, men har biringiz uchun turlicha ahmiyat kasb etaman".

Shaxning vaziyatda o'zgarishiga nisbatan ko'plab baxs-munozaralar olib boriladi. Lekin shaxsda shunday xususiyatlar borki ular har qanday vaziyatlarda saqlanib qoladi, masalan, dilkash shaxshar qanday vaziyatda ham o'z xususiyatini saqlab qola oladimi. Shaxslarni turli yosh davrlarida o'raginlaganda, ulardagi xususiyatlar boshqacha tarzda saqlanib qolishi kuzatilgan. Masalan baliqlarga qiziquvchi shaxs ulg'aygach yaxshi bog'bon bo'lishi mumkin. Ko'pchilik shaxslarda qiziqishlar, ijtimoiy aloqalar o'zgaradi, lekin xarakter xususiyatlari saqlanib qoladi. Insonning hayoti davomida o'z xarakter xususiyatlarini tan olishi, "hayotning kulminatsion donishmandligi" hisoblanadi. Uolter Mixelning fikriga ko'ra inson xulq-atvori har doim ham barqaror bo'lmaymaydi, bu borada Xyu Xarterva Mak Meylar bolalarda ta'dqiqot olib borganlar. Ular bolalarga yolg'on gapirishga, oilaviy muhitni yaxshilashga o'zlar haqida fantaziyalarga tayanib fikr yuritishga imkoniyat yaratib beradilar. Ba'zi hollarda bolalar vaziyatga qarab yolg'on gapirganlar, lekin bolalar hamma vaziyatda ham yolg'on ishlamaydilar. Ta'dqiqot o'tkazilgandan yarim asr o'tib talabalarda ham xuddi shunday ta'dqiqot o'tkaziladi. Natijalar esa xuddi shunday bo'ladi.

Mixelning fikriga ko'ra insonning xarakter xususiyatlarini testlar orqali ta'dqiq qilish uning xulq-atvorini to'liq ochib bermoynadi. Masalan, ekstravertlikni test orqali aniqlashda shaxs ma'lum bir vaziyatlar taqdim etiladi. Mixelning fikriga ko'ra biz ma'lum bir shaxs xususiyatlarini ayvan shu shaxs xos deb ayta olmaydi. Bunda biz shoshib qaror qabul qilib yuboroshimiz mumkin.

Biz bu vaziyatda shaxsning moyilligi haqida fikr yuritishimiz mumkin. Masalan shaxsning yo'l gon gapirishga moyilligi o'z o'zini o'ldirishga moyilligi vahokazo.

Bizga notanish bo'lgan formal vaziyatlarda, masalan begona uyda tushlik vaqtda bizning xarakter xususiyatlarimiz yashirinishi mumkin. Lekin bizga ma'lum bo'lgan vaziyatlarda ya'ni do'stlarimiz davrasida biz o'zimizni yaxshi va e'tibor his qilamiz.

Xulosa qilib aytganda shaxsning qanday vaziyatda ekanligi, uning xarakter xususiyatlariga ta'sir o'tkazadi. Masalan, chorraxada turgan mashinalarning harakatini svetofor rangiga qarab bema'lol aytish mumkin.⁶⁷

Tayanch tushunchalar: Xarakter, xarakterning tarkibi, xarakterning shakllanishi, xarakter borasidagi nazariyalar, xarakter tipologiyasi, xarakter aksentuatsiyasi, xarakter tiplari, ko'rdinal xususiyatlar, xarakterning ikkinchi darajali xususiyatlari, markaziy xarakter xususiyatlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xarakterga ta'rif bering
2. Xarakterning tarkibiga nimalar kiradi?
3. Xarakterning tipologiyasi
4. Xarakter to'g'risidagi nazariyalarni izoxlang
5. Xarakter aksentuatsiyasini tushuntirib bering

⁶⁷ David G. Myers – Psychology NY – 2010 Worth Publishers - 573-574bet. (mazmunidan foydalanildi)

QOBILIVAT

Qobiliyat haqida tushuncha

Ilmiy adabiyotlarda "qobiliyat" atamasiga turlicha ta'rif beriladi. Xususan, biror ishni ma'lum darajada amalga oshirish uchun bilim va ko'nikma, intellektual, mantiqiy, abstrakt o'y-xayol, tushunish, o'z-o'zini baholash, aloqaga kirish, o'rganish, emosional bilimlarga ega bo'lish, rejalashtirish yoki muammoni hal qilish imkonining mavjudligi sifatida ifodalaniadi. Qobiliyat, shuningdek, biror inson yoki narsa haqida bilimga ega bo'lish, ya'ni turli ma'lumotlar, faktlar, ko'nikmalarni egallashni ham anglatadi.

Inson o'z imkoniyatidan to'liq va maqsadli foydalangandagina samarali natijani qo'lga kiritishi mumkin. Bunda kishilarning fikri yoki voqea-hodisalar (ijtimoiy-siyosiy)ning sodir bo'lishiga ta'sir o'tkazish imkoniyati ham nazarda tutiladi, jismoniy rivojlanish jihatidan qaralganda esa kishining biror ishni amalga oshirish uchun fiziologik layoqati mavjudligini anglatadi. Qobiliyat insonning individual salohiyati, imkoniyatlarini anglatgani sababi u inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatining talablariга mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va tarqatqiyot tushuniladi. U tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlanitirishi mumkin. Shaxs egallashi shart hisoblangan faoliyat, u hoh talim, hoh mehnat, hoh o'yin, hoh sport bo'lishidan qat'i nazar uning bilish jarayonlariga, aqliy xislatlariga, hissiy-irodaviy jabhalariga, sensomotor sohasiga, xarakterologik xususiyatlariga muayyan talablar qo'yadi va ularning hamkorligidagi sai-harakati tufayli muvaffaqiyatlarga erishiladi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat qanchalik ustuvorlikka ega bo'lmasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (hislat) faoliyatning yuksak mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlash imkoniga ega, u qobiliyatlarini uddalay oladigan imkoniyat bilan bab-baravar kuch-quvvat tarqasida vujudga keladi, deyish noto'g'ridir. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (hislatlar) majmuasidir deyish juda o'rinlidir. Qobiliyatlar tarkibi aniq faoliyat talabi bilan belgilanadi va har turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi. Masalan, matematik qobiliyat, adabiy qobiliyat, pedagogik, musiqaviy, ixtirochilik va shifokorlik qobiliyatlarini tuzilishi maxsus tarkibga ega. Aniq qobiliyatlar tarkibini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari orasida ayrimlari yetakchi o'rinni egallasa, ayrimlari yordamchilik rolini egallaydi. Masalan, pedagogik qobiliyatlar tarkibida yetakchi sifat pedagogik takt, kuzatuvchanlik, bolalarni sevisht, ularga nisbatan yuksak talabchanlik, bilimlarni berishga ehtiyoj, yordamchi tarzda tashkilotchilik qobiliyati hisoblanadi. Har turi qobiliyatlarida bir emas, balki bir nechta turdagi faoliyat turlari talablariга javob beradigan birmuncha umumiy sifatlarini

ajratishimiz mumkin, bundan tashqari, mazkur faoliyatni bir muncha torroq doirasi uchun javob beruvchi maxsus sifatlarni ajratishimiz mumkin. Bu narsa ularda har tomonlama qobiliyatlar borligi, har turi kasblar, mashg'ulotlarning keng sohalariga doir umumiy qobiliyatlar borligi haqida gapirish imkonini beradi. Bu ikkinchi signallar tizimi haqidagi talimot bilan bog'liqdir. Psixologiyada qobiliyatlar quyidagi turlari ajratiladi:


1. *Tabiiy qobiliyatlar* odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, *idrok qilish xotirada saqlash, oddiy mulog'ga kirisha olish* shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashkil etadi. Insondagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi.

2. *Maxsus insoniy qobiliyatlar* ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida *umumiy va xususiy qobiliyatlarga* bo'linadi.

Umumiy qobiliyatlar insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar *xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlari aniqligi* va boshqa xususiyatlardan iborat. *Xususiy qobiliyatlar* alohida olingan bir faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu qobiliyatlar *alohida munosabarning* bo'linishini taqozo etadi. Masalan, matematika, texnika, badiiy ijodiy, sportga bo'lgan qobiliyatlar shular jumlasidandir.

Inson faoliyatining asosiy turlarini uch turga: fan, san'at, amaliyotga ajratish mumkin. Shunga ko'ra maxsus qobiliyatlarni ilmiy, badiiy va amaliy deb klassifikatsiyalash mumkin. Bu turlarning har biri o'z navbatida mayda turlarga bo'linadi. *Ilmiy qobiliyat* abstrakt, evristik fikrlashning yuksak rivojlangan bo'lishini, og'zaki mantiqiy xotirani, qat'iyat va sabr-toqatni talab qiladi. Bu qobiliyatga quyidagi mayda qobiliyatlar kiradi: fizika, matematika, kimyo, falsafa, tarix, biologiya fanlariga nisbatan bo'lgan qobiliyatlar. *Badiiy qobiliyat* sensor obrazli fikrlashning alohida rivojlangan bo'lishini, o'kir emosional ta'sirchanlik va reaktivlikni talab qiladi. Bu qobiliyatga tasvirlash, musiqaviy, artistik va adabiy qobiliyatlar kiradi. *Amaliy qobiliyat* praktik aqlning yuksak darajada rivojlanganligini, fahm-farosaning kuchligi,roda va yetuk kirishuvchanlikni o'z ichiga oladi. Amaliy qobiliyatga konstruktiv-texnikaviy qobiliyat, boshqaruvchanlik qobiliyati, shu jumladan tashkilotchilik va boshqalar kiradi. *Nazariy qobiliyatlar* ham inson qobiliyatlaridan bo'lib, nazariy qobiliyatlar mavhum, mantiqiy harakatlarga moyillikda namoyon bo'ladi. *O'quv qobiliyatlari* bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, shaxs - shakllanish, pedagogik ta'sirlar samaradorligini o'rnatishda ijroviy rol o'ynaydi. *Ijodiy qobiliyatlar* moddiy va ma'naviy madaniyat asarlarini yaratish, yangi g'oya, kashfiyot va yangiliklar yechishda namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik hislatlar majmua tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi ayrtan haqiqatdir. Buning uchun quyidagilarni tahlil qilib o'tamiz.

Agar *matematik qobiliyat* tarkibiga matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish amallarini kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdagi yengillik, umumilik, masala yechishda fikr yuritishning epechiligi kabilarni kiritisa, *adabiy qobiliyat* tarkibiga nafosat hisslarning yuksak taraqqiyoti darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonligini, "til zehni", chegarasiz xayolot olamiga ega bo'lish, qiziquvchanlik, inliuvchanlik va boshqalarni kiritish mumkin. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan manbalari bilan tafovutga egadir.



Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktiv, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib kasbiy ahmiyat kasb etishi mumkin. Ayrim adabiyotlarda umumiy qobiliyatlar mohiyati turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy qobiliyat deganda muvaffaqiyatli ravishda bilim olishni ta'minlaydigan shaxsning yuksak intellektual taraqqiyoti tushuniladi. Biroq bunday tushuncha tor va noto'g'ridir, chunki intellektual taraqqiyot ixtiyoriy faoliyat uchun umuman talab qilinadi, xolos.

Umumiy qobiliyat faoliyatining hamma turlariga jumladan amaliy faoliyatga ham ta'sir qiladi, deb hisoblovchi psixologlar topildi. Ammo bu fikrda qarama-qarshilik mavjud, agar umumiy qobiliyat universal ahmiyatga ega bo'lgan ekan, unda qandaydir maxsus qobiliyatlar haqida gapirib o'tishning hojati yo'q.

Nihoyat, shunday psixologlar ham borki, ular faqat maxsus qobiliyatlarini tan oladilar. Umumiy qobiliyat haqida gapirganda ham maxsus qobiliyatlar yig'indisi ta'sirini ko'zda tutadilar. Kishining turli-tuman faoliyatlari orasida

bittasi asosiy yoki yetakchi faoliyat sharoitida shaxsning maxsus taraqqiyotini belgilovchi faoliyat bo'lib ajralib turadi. Bu faoliyat tug'ma spesifik zehn nisbatlariga mos tushishi mumkin.

Rus olimi I.P.Pavlov o'z talimotida "badiiy", "fikrlovchi", "aralash" tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal tizimidan iboratligi to'g'risidagi talimotga asoslanadi. Birinchi signallar tizimi obrazlar, emosiyalardan va ikkinchi signallar tizimi esa obrazlarda so'zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signal tizimi I.P.Pavlov tomonidan "signallarning signali" deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osongroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

1) shaxs faoliyatida birinchi signallar tizimining signallari nisbatan ustunlik qilsa, bu inson "badiiy" tipga taalluqlidir.

2) mabodo "signallarning signali" nisbatan ustuvor bo'lsa, bu shaxs "fikrlovchi" tipga mansubdir.

3) agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo'lsa (birtarasining ustunligi sezilmasa) bu inson "aralash" tipga mansub odamdur.

Tipologiyaning o'ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilganda quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. "Badiiy tip" uchun taassurotlar va tasavvurlarning jonliqligi, idrokning yorqinligi, his-tuyg'ular (emosiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi kabilar xosdir.

2. "Fikrlovchi tip" uchun mavhumlarning, mantiqiy tizimlar, nazariy mulohazalar va metodologik muammolarning ustunligi xosdir.

Ma'lum bir faoliyat bilan faqat unga qobiliyati bo'lganlar emas, balki qobiliyati bolmaganlar ham shug'illanishni davom ettirishi zarur bo'lsa, o'z shaxsining shu faoliyat turi bilan shug'illanishni davom ettirishi zarur bo'lsa, o'z shaxsining kuchi tomonlariga tayangan holda ongli yoki ongsiz tarzda o'zidagi kamchiliklarni to'ldirib boradi. E.P. Ilmining fikricha, qobiliyatni boyitib borish egallagan bilimlar va ko'nikmalar yoki faoliyatning individual tipik usulini, yoki boshqa koprog' rivojlangan qobiliyatni shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ma'lum bir jihatning boshqa bir evaziga kengroq to'ldirilishi qaysidir bir qobiliyatning nisbiy pastligi, boshqa, u bilan juda bog'liq bo'lgan qobiliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga monelik qila olmasligiga olib keladi. Yetishmagan qobiliyat keng miqyosda odamdaggi yuksak rivojlangan qobiliyat evaziga to'ldirilishi mumkin. Zero, bu odamlarning turli sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishni ta'minlaydi.

Qobiliyatning namoyon bo'lishi har doim individual va kop hollarda takrorlanmasdir. Shuning uchun ham aynan bir sohada faoliyat yuritayotgan odamlarning qobiliyatini aniq ko'rsatkichlar majmuvi bilan solishtirish mumkin emas. Faqat turli psixodiagnostik metodlar yordamida u yoki bu qobiliyatning mavjudligi va ularning nisbiy rivojlanganlik darajasini aniqlash mumkin. nega nisbiy? chunki hech kim u yoki bu qobiliyatning absolyut chegarasini yoki

rivojlanganlik darajasini bilmaydi. Odatda ma'lum bir odamning qobiliyati to'g'risida hukm chiqarish u erishgan natijalarni o'rganish yoki u erishgan o'rtacha natijalarni boshqalarniki bilan solishtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Insomning qobiliyatlarini ta'riflashda, ko'p hollarda uning mahorat, ya'ni aniq bir faoliyat turi bo'yicha komillikka erishganlik darajasi alohida ajratib ko'rsatiladi. Qachonki odamning mahorati haqida gap ketganda, avvalo uning ishlab chiqarish faoliyati bilan muvaffaqiyatli shug'illanish qobiliyati nazarda tutiladi. Biroq bundan, mahorat tayyor ko'nikma va malakalar yig'indisiga mos holda namoyon bo'ladi, degan xulosaga kelish kerak emas. Har qanday kasbda ham mahorat yuzaga keladigan muammolarni ijodkorona yechishga ruhan tayyorgarlikni taqazo etadi. Bejizga "Mahorat bu qachonki "mima" va "qanday"ning bir vaqtning o'zida kelishidir" deysinmaydi, ya'ni mahoratli kishi uchun ijodiy masalani anglash va uni yechishning usullarini topish o'rtasida uzilishlar bo'lmaydi.

Insonlar qobiliyatining keyingi rivojlanish darajasi talantidir. Hozirgi davrda talant deganda (musiqiy adabiy va boshqa) qobiliyatlarini yuksak rivojlanganligi tushuniladi. Talant ham huddi qobiliyatlar singari faoliyat davomida yuzaga keladi va rivojlanadi. Talanti odamning faoliyati o'zining prinsipial yangiligi va o'ziga xos yondashuvlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Qobiliyatning yuqori darajasi dahollik deb ataladi. Daholar haqida gap ketganda ularning ijodiy yutuqlari butun bir zamonga tategani, madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan aytiladi. Daholar kam bo'ladi. Iste'dodning yuksak darajasi hisoblangan dahollik, ularning turli sohalarida tengi yo'qligi bilan izohlanadi. Bunday universalikka erishgan daholar strasiga Aristotel, Leonardo da Vinchi, R.Dekart, G.V.Leybnits, M.V. Lomonosovni kiritish mumkin.

Qobiliyatning tabiiy asosi

Odatda qobiliyatlar insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug'ma ravishda tayyor holda berilmaydi. Balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy psixologiya qobiliyatlarining tug'maligi nazariyasini inkor etib shaxs qobiliyatlarining nomalun tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to'g'risidagi tasavvurlarga qarshi zarba beradi.

Qobiliyatning tug'maligini inkor qilish absolyut tabiatga ega emas. Psixologiyada qobiliyatning tug'ma ekanligini tan olinmas ekan, bu bilan miyaning tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan differensial xususiyatlarning tug'maligini inkor qilmaydi.

Qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining sezgi azolariga va funksional xususiyatlariga *layoqat* deb ataladi. Layoqat ko'p qirralidir. Shaxs tomonidan qo'yilgan talablarning tabiatiga bog'liq ravishda aynan *bir xil layoqatlar asosida har xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin*.

F.A.Gallning fikricha, odamning hamma qobiliyatini "aql" va "qobiliyat" sifatini miya yarim shartlarida o'zining maxsus qariy markazlariga ega, ya'ni bu sifatining taraqqiyot darajasi miyadagi tegishli qismlarning miqdoriga to'g'ri keladi. Shuning uchun odamning kalla suyagiga bir qarash yoki boshidagi do'nbog'chalarni shunchaki paypaslab ko'rish orqali go'yo odamning qobiliyatlarini aniqlasa bo'ladi.

Layofatning miya miqdori, massasi va og'irligiga bog'liqligi haqidagi faraz ham bekor qilingan. Katta yoshdagi odam miyasining o'rta og'irligi 1400 grammga yaqin bo'ladi. U.S.Turgenev miyasining og'irligi 2001 gramm, D.G.Bayronniki 1800 grammni, mashhur ximik Yu.Libixniki 1360 grammni, yozuvchi Afransniki 1017 grammni tashkil qilgan. Eng katta miya aqliy jihatdan nugsini bor odamga taalluqli ekanligi aniqlangan.

1675 yilda F.Galtonning "Talantning irsiyatga bog'liqligi qonunlari va oqibatlar" degan kitobi nashr etildi. Bunda muallif bir necha yuzlab mashhur kishilarning qarindoshlik aloqalarini o'rganib, talant ota-onadan irsiyat yo'li orqali o'tadi degan xulosaga kelgan. Biroq Galtonning xulosalari ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Baxlar oilasida musiqaga bo'lgan talant daslavval 1550-yilda ma'lum bo'lgan. Bu talant 1800-yillarda yashagan qandaydir Regina Susadan so'ng tantom bo'lgan. Umuman Baxlar oilasida 57 dan ko'p musiqachi bo'lgan. Ularning 20 tasi mashhur bo'lgan.

Ko'pchilik qollarda mashhur odamlarning nasl-nasablarini o'rganish biologik irsiyadan emas, balki hayot sharoitining nasdan nasga o'tishidan, ya'ni hobilyatlar taraqqiyotiga yordam berishdan ekanligi ma'lum bo'ladi.

XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan, layofatni miyaning mikroizolishi va sezgi azolari bilan bog'liq deb hisoblovchi faraz bu borada muhim hisoblanadi. Miya hujayralarini tadqiq etishda iste'dodli kishilarning nerv hujayralarining morfologik va funksional xususiyatlarida farq borligini aniqlash mumkin degan faraz ilgari suriladi. Layofatlar bilan nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari hamda oliy nerv faoliyatining tiplari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi to'g'risidagi faraz ham haqiqatga yaqindir.

Rus psixologi B.M.Teplov va uning shogirdlari oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari tasiri tufayli shaxs qobiliyatlarining tuzilishida qandaydir sifat xususiyatlari paydo bo'lishini aniqlashga urinishgan. Jumladan, nerv tizimining alohida sezgirliigi ma'lum qobiliyat nishonasi sifatida vujudga kelishi mumkin.

Qobiliyatning tabiiy sharti, layofati nerv tizimining tuzilishi va funksiyalarining xususiyatlari tarkibida ekanligi haqidagi barcha morfologik va funksional sifatlar singari umumgenetika qonunlariga bo'yusinish farazining haqoniyligini isbotlaydi. F.Galtonning irsiyat qonunlari to'g'risidagi g'oyasi qobiliyatning tabiiy shartlangan xususiyatlari tavsifini ochib bera olmaydi. Chunki unda dalilga muhtoj juda ko'p o'rinlar mavjuddir. Shuning uchun qobiliyat tabiatini biologik irsiyadan emas, balki turmush muhitining nasidan nasga o'tishidan qidirish masqadga muvofiqdir, agarda insonning taraqqiyoti

ijtimoiy-tarixiy qonunlar bilan boshqarilishi tan olinar ekan, qobiliyatning taraqqiyoti biologik irsiyat qonunlariga bo'yusinishi mumkin emas.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, qobiliyat va layofatlar tabiiy zanninga bog'liq bo'lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in'omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho masg'ulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarining namoyon bo'lishi shaxslar tomondan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko'nikmalarni tarkib topirishning yaqqol usullariga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun qobiliyatlar taraqqiyotining uzluksiz talim tizimiga bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tish muhim ahamiyatga ega.

INSON QOBILYATINING TABIIYAT OLIMLAR O'RTASIDA HOZIRDA HAM QIZG'IN BAHSLARGA SABAB BO'LMOQDA. KO'P TARQALGAN NUQTAI NAZARLARDAN BRINING TARKIBI PLATONNING FIKRLARIGA BORIB TAQALADI. BU NUQTAI NAZARNI QO'LLAB QUVVATLOVCHI MUALLIFLAR QOBILYAT BIOLOGIK JIHATGA ASOSLANGAN VA UNING KELIB CHIQISH IRSIY XARAKTERGA EGALIGINI TA'KIDLAYDI. TA'LIM VA TARIYA BU QOBILYATLARINING YUZAGA CHIQISHINI FAQATGINA TEZLASHTIRISHGA YORDAM BERADI, BIRQO ULAR SHUSIZ HAM HAM U YOKI BU KO'RINISHDA NAMOYON BO'LOSHI MUMKIN. BUNI ISBOTLASH CHN ULAR QUYIDAGI NATIJANI BERSHADI:

Bolardagi musiqiy qobiliyatning ota-onalarning musiqiy iste'dodiga bog'liqligi

Ota-onalarning musiqiy iste'dodi	Bolalar, %	
	Musiqiylikning yorqin namoyon bo'lishi	Musiqaga qiziqishning yo'qligi.
Ikkalasi ham musiqaga qiziqmaydi.	85%	7%
Ikkalasi ham musiqaga qiziqmaydi.	25%	58%

Qobiliyatning rivojlanishida muhit yoki irsiyatning ahamiyatiga egaligi to'g'risidagi savol hozirgacha ochiq qolmoqda. Bu savolga javobni A.Base va R.Plounin o'z ishlariida javob berishga harakat qilgan. Ular gomozigot (o'xshash irsiyatga ega) va geterozigot (turli irsiyatga ega) egizaklarni o'rganadi. Turli oilalarda yashagan va tabiiy talangan gomozigot egizaklar solishtirilgan tarzda o'rganilganda ular o'rtasida individual psixologik va axloqiy farqlar kuzatilmagan, aksincha, bir oilada yashagan egizaklarni kabi bir biringa o'xshash bo'lganligi kuzatilgan.

Boshqa nuqtai nazar vakillari inson ruhivati o'ziga xosliklari butunlay tabiiy va ta'limning sifati bilan belgilanadi deb hisoblaydi. XVIII asrda K.A.Gilveisy tabiiy vositasida daholniki shakllantirish mumkin degan edi. Mazkur yo'nalishning tarafdorlari eng qoloq va sodda qabulalarning bolalari ham tegishli ta'lim olgach, bilimdon yevropaliklardan farqlanmasligini misol keltirishadi. Bu yondashuv doirasida o'zaro mulog'oning yetushmasligiga olib

keluvchi ijtimoiy izolatsiya, ya'ni "maugli-bolalar" haqida gap ketadi. Bu holatlar insonning rivojlanishi jamiyadan tashqarida yuz bershni mumkin emasligidan dalolat beradi.

Ayrim maxsus qobiliyatlarning ma'lum bir madaniy shart-sharoitlarda ommaviy tarzda rivojlanishi holatlarini ham mazkur yondashuv foydasiga deb hisoblashadi. Bunday qobiliyatni maxsus metodika yordamida tadqiq etgan olimlar tajribaga jalb qilingan ruslarning uchdan bir qismida bu qobiliyatning kuchli rivojlanmaganligini aniqlashdi. Tajribaga jalb etilgan vetchanliklar esa bu borada yuksak natijani ko'rsatdi. Olimlar buni millatlarning tili bilan bog'liq holatda izohlashdi: rus tili – tembrli, vetchan tili esa – tonal tillarga xos.

Har qanday kurtak qobiliyatga aylanguncha rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tishi zarur. Ko'plab inson qobiliyatlari uchun bu rivojlanish tug'ilgandan boshlanadi va u o'z qobiliyatlarga mos keladigan faoliyat turi bilan shug'ullanishda davom etsa mazkur qobiliyatlar rivojlanishi umrining oxirigacha to'xtamaydi. Qobiliyatning rivojlanishini nisbiy ravishda bir-necha bosqichlarga bo'lish mumkin. Har bir inson rivojlanishi jarayonida u yoki bu ta'sirlarga berilish, u yoki bu faoliyat turini o'zlashtirish bilan bog'liq davrni boshdan kechiradi.⁶⁸

Qobiliyatni rivojlanishi

Qadimgi Yunonistonda mantiqiy fikrlash, ya'ni ramziy, faktlar bilan tafakkurni charxlash juda rivojlangan. Yunonlar mantiq fani insonning his-tuyg'ularini ifodalash uchun zarur, deb hisoblashgan. Misol uchun, XVIII-asrda Evropa aholisi "o'z qalbinga ishon, u seni hissiyotlaringni ifodalaydi", degan fikrga amal qilgan. O'sha davr manbalarida keltirilishicha, qobiliyat xohish-istak, ichki tuyg'u bilan ham uzviy bog'liq. Bu, ayniqsa, uyda, maktabda, ish joyida va boshqa jamoat joylaridagi xatti-harakatlarimizda namoyon bo'ladi.

Zamonaviy psixologiyada ushbu yo'nalish tarafdorlari 1990-yildan boshlangan tadqiqot ishlari olib borib, tadqiqot natijalari asosida bir nechta kitoblar, ilmiy maqolalar chop etildi. Bunda his-tuyg'u va inson ruhining qobiliyatning shakllanishidagi o'rni muhokama qilingan. Ularda keltirilishicha, qobiliyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi eng katta omil uning hayajoni bilan bog'liq. Chunki, o'z hissiyotlarini boshqara olmagan inson qat'iyyati, eng asosiy qobiliyati bo'la olmaydi. Insonning fikrlashi uning ichki olami bilan ham uzviy bog'liq ekanini olimlar o'tkazgan tadqiqotlarda ham aniq bo'lib bormoqda.

Hissiy ong vaqti-vaqti bilan insonni yengishi mumkin. Bunda uning qobiliyati kamayib yoki ortib qolmaydi. Chunki tushkunlikka tushgan vaqtda inson o'z qobiliyatini to'liq namoyon etolmasligi yoki aksincha har doimgidan ham yaxshiroq namoyon qilishi mumkin.

Insonning jismoniy va ruhiy holati, uning dunyogarashi, qiziquvchanligi, xotirasi, imkoniyatlari uning chekidan axborot qabul qilishi, ya'ni malaka hosil qilishiga ta'sir o'tkazadi. Bunda insonning o'sha vaqtdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati ham alohida ahamiyatga ega. Olimlar olib borgan tadqiqot natijasida inson o'z-o'zini humlat qilsa va yaxshi ko'rsa, uning qobiliyati ham shunga monand rivojlanishi aniqlangan. Ya'ni hayotda o'z o'rni topishga harakat qilayotgan kishilar tinimsiz o'z ustida ishtaydi, yaxshi yashash va moddiy tomondan kamchilikni ko'rishni xohlamaydiganlar ham aqliy salohiyatini rivojlantirib, qobiliyatini ham shakllantirib boradi.

1980-yillarda psixologlar intellektni rivojlantirish bo'yicha izchil tadqiqotlarni olib bordi. Ularda his-tuyg'u va bilishning aqliy salohiyat bilan bog'liqligi o'rganildi. Bunday mavzudagi tadqiqot ishlari 1990-yillarning so'ngi choragida ancha ko'payib ketdi va 1995-yillarga kelib ancha ommalashdi. Ko'pchilik mazkur atamani qo'llasa-da, uning ma'no-mazmunini to'liq ochib berishni uddalay olmadi. Chunki mavzu yuzasidan ham nazariy, ham amaliy bilimlar etishmas, ko'ngillilar bilan olib borilgan tajribalar soni juda kam edi.

Ruhiy qobiliyat insonning ruhiyati, uning ichki dunyosi bilan bevosita bog'liq. Shu sababdan ham, uning tarkibiy tuzilishi ierarxik tuzilishga ega. Ruhiy qobiliyat aqliy qobiliyat bilan uzviy bog'liqligi tufayli ularni birgalikda rivojlantirish maqsadga muvofiq.

2007-yilga qadar aksariyat tadqiqotlarda ruhiy qobiliyatni o'rganishga harakat qilindi. Ularning ayrimlarida ruhiyatning qobiliyatni shakllantiridagi o'rni ham bag'ishlangan. Bunda yutuq, muvaffaqiyat, motivatsiya, o'z-o'zini nazorat qilish, baxtliklik ko'rsatkichi kabi barcha aniqlangan. Bunda insonning tushkunlikka tushgan holati ham inobatga olingan.

Tafakkur bu aqliy qobiliyatning bir turi bo'lib ma'lumotlarni tahlil qilishda juda katta rol o'ynaydi. Sababi, inson atrofidan qabul qilayotgan xabarlar ichida muhim va o'ta maxsus ma'lumotlar ham aralashib yotibdi. Bunda tafakkurni rivojlantirish va uni ishlatish asosida axborotlarni saralash ko'nikmasi ham rivojlaniradi. Og'zaki va yozma ma'lumotlarni qabul qilib uni tafakkur asosida qayta ishlagan insonning aqliy qobiliyati ham shakllanib boraveradi. U orgali voqea-hodisa ongda aks etib, sezgi, idrok, tasavvuri ishga solgan holda bilish jarayonini faollashtiradi.

Tafakkurning asosi aqliy qobiliyatning rivojlangani va fikrlash tezligiga bevosita bog'liq. Sababi, u orgali fikr, g'oya va boshqa omillar rivojlanib boradi. Fikrlash qobiliyati esa nutqiy faoliyat orgali yuzaga keladi. Subbat chog'ida insonning hissiy mushohadasi boshqa kishilarda ham namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonning kechishi inson faoliyatida aks etgan, u idrok qilgan, tasavvur etgan tushuncha va xulosalarni chin yoki yolg'on ekanini isbotlashga harakat qiladi.

Inson tafakkur orgali voqelikni umumlashtirib, uni o'z fikrlari bilan bevosita ifoda etadi. Tushunish orgali voqea-hodisalarning o'zaro bog'liqligini angaydi va uni tahlil qiladi. Xususan, mantiq qonunlaridan foydalanib jarayonning sodir bo'lishi bilan bog'liq hukm chiqaradi. Tafakkur voqelikni aks

⁶⁸ Markasov A. T. "Og'zaki psixologiya" "Izdatel'stvo" JOM «Iltifot», 2001r. 543 – 549 betlar. (mazmunidan foydalanildi)

etirishi, muammoli hal qilishi, inson uchun yangiligi va muhimligi darajasiga ko'ra bir nechta turlarga xususlan, amaliy, nazariy, mavhum, ijodiy va boshqalar ajratilishini yuqoridagi boblarda ko'rib o'tganimiz. Kishilarning atrofdagi voqea-hodisalarni idrok etishi ham bevosita tafakkur bilan bog'liq ravishda kechadi. Jumladan, ixtirolar, kashfiyotlar, innovatsion fikrlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi inson tafakkurining mahsulidir.

Qobiliyat va tafakkurning uzviy bog'liqligi mavhum tushuncha, biroq uni tajriba orqali isbotlash ham mumkin. Chunki har ikkalasi orqali kishining xulq-atvori, dunyogarashi yaxshilanadi. Qobiliyat ham tafakkur singari narsa va hodisalarning mohiyatini tasavvur qilishni taqozo etadi. U shaxsning rivojlanishi va shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur tushunchalar kishidagi mehnatsevarlik, ishtirok, talabchanlik xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi.

Demak, qobiliyat ham, tafakkur ham insonda tug'ma iste'dod natijasida yuzaga kelishi mumkin, biroq uni hayotiy tajriba orqali yuzaga keltirish va shakllantirishning ham imkoni bor. Bunda inson o'z ustida ishlashi, inkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishi talab etiladi. Inson shaxsiga alohida yondashuv orqali undagi iste'dodni yuzaga chiqarish va uni shakllantirish mumkin.⁶⁹

Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi, ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan aql sifatini xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, handa qobiliyatlarini shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatarga qo'yish ham mumkin emas. Agar shu sifatning birorasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta'siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashga asos bo'ladi. Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shu bilan birga u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladi hamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilar, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Qobiliyatli, ammo dangasa inson ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarga to'g'ri chiqadi. Dardhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashtirilgan bo'ladi. Shuning bilan birga ko'nikma va malakalar yetishmagan qobiliyatni bir muncha

⁶⁹ Mayer Roberts Barsade "Emerging research in emotional intelligence", 508-510 betlar. (mazmunin foydalanildi)

to'ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko'nikmalarni umumlashtirish mahirlik deb ataladi. Mohirlik bu qobiliyatning kichik bir qismidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi. Har qanday qobiliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talabga javob bera olsa kishi faoliyatini muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun o'z qobiliyatligini ko'rsata oladi, agarda xususiyatlardan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatning muayyan turiga nisbatan ham qobiliyatli deb baholalanadi. Har bir qobiliyatning o'ziga xos tuzilishi mavjud: qobiliyat tarkibida tayanch va yetakchi xususiyatlarni, muayyan asosiy yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim. Barcha qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat kuzatuvchanlik, sinchovlik ko'nikmasidir. Bu individuallikning o'ziga xos tomoni bo'lib, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur hisoblanadi.

Quyidagilarni yordamchi xususiyat deb hisoblash mumkin: xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos tuzilishda bo'ladi), emosionallik, ya'ni his tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faoliyatini oshiradi). Amaliy faoliyatning bazi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. Qobiliyat tuzilishidagi turli xususiyatlarning tarkibi faoliyatning turli davrlarida yoki ijodiyotning bosqichlarida turlicha bo'lishi mumkin. Demak, tuzilish ham barqaror, ham o'zgaruvchidir.

Psixologiyada qobiliyatlarining individual psixologik xususiyatlariga, ya'ni uning miqdor va sifat tavsifiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ya'ni bir xil faoliyat bilan shu-illanayotgan hamma odamdan bir xil natija va bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlarini bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, bu farqlar sifat va miqdor jihatidan bo'lishi mumkin.

Qobiliyatlarining sifat tavsifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlari faoliyat jarayonida muvaffaqiyatga erishishini ta'minlashning majburiy sharti tarqasida xizmat qiladi. Ularning miqdor tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarni shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda ko'nikma, malaka, bilimlardan neholog'lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

O'quvchining qobiliyatlarini nimaga namoyon bo'lishini va binobarin o'quvchi shaxsini qanday individual psixologik xususiyatlari faoliyatini qay darajada bajarish qobiliyatiga ega ekanligi, ya'ni o'quvchining boshqalarga nisbatan malaka va bilimlarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallab olishini bilish pedagog uchun muhimdir.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi magsadga har turli yo'llar bilan borishga imkon beruvchi "o'zgaruvchan miqdor" to'plami sifatida, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi inson psixologik xususiyatlarining yig'indisi sifatida ko'riladi. Bir xususiyatlarni o'rinni ikkinchi bir xususiyatlar

MUNDARIJA

Xotina	3
Xayol Tasavvur	32
Tafakkur	47
Intellekt	74
Nutq	83
Hissiyot	106
Irada	124
Motiv va motivatsiya	150
Temperament	173
Xarakter	182
Qobiliyat	203

bilan bosishning keng imkoniyatlari mavjud, buni odam o'zida chindan qat'iylik bilan ishlab orgali rivojlantirishi mumkin.

Qobiliyatlarning sifat jihatdan tavsifi odam mehnat faoliyatining qaysi sohasida (pedagog, sport, savdo va boshqalar) yengillik bilan "o'zini topa oladi" va qanday qilib katta yutuq va natijalarga erisha oladi degan savolga javob berish imkoniyatini beradi. Qobiliyatlarni miqdor tavsifi va ularni o'lchash nuqmasi bilan ko'proq xorij psixologlari (Kettell, Terneri, Spirmen) va boshqalar shug'ullanganlar. Ular kattalarda kobilyatni o'lchash usuli sifatida aqliy iste'dod testlaridan foydalanganlar. Unga ko'ra, bolaning aqliy iste'dod ko'effitsienti quyidagi formula orgali aniqlanishi mumkin:

IQ Aqliy yosh passport yoshi * 100%

Qobiliyatlar odamning faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lmaydi.

Qobiliyatlarning tarkib topishi esa ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning yutuqlari tezligida namoyon bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: qobiliyat, tabiiy qobiliyat, maxsus qobiliyat, umumiy qobiliyat, xususiy qobiliyat, qobiliyatning tabiiy asosi, qobiliyatning rivojlanishi, talant, talantning ifsiyatiga bog'liqligi, perseptiv qobiliyat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qobiliyatga ta'rif bering
2. Qobiliyat turlari
3. Qobiliyatning tabiiy asosi
4. Qobiliyatni rivojlantirish yo'llari
5. Qobiliyatni tadqiq etish usullari

— 13865/49 —

QIZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QIZILCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
2-FILIALI

QIZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LIY VA O'RTA
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI QIZILCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

N.Xalilova, G.Alimova, R.Mirsanikova, M.Bafayev
PSIXOLOGIVA NAZARIYASI VA TARIXI

DARSLIK
2-qism

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2020

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018. Bosishga 05.12.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84. "Times New Roman" gariturasida. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 14. Nashr bosma tabog'i 13.5.
Aldadi 20 nusxa.

"Innovatsiya-Ziyo" NCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzili: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.